

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta nashr etiladi

Bosh muharrir –

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich –

Tarix fanlari nomzodi, professor

Bosh muharrir o'rinbosari –

JUMAYEV Sobirjon Saidovich

professor

TAHRIR HAY'ATI

YULDASHEV Ibrohim Jo'rayevich – Filologiya fanlari doktori, professor

RUSHANIN Vladimir Yakovlevich – Chelyabinsk davlat madaniyat instituti professori

TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna – San'atshunoslik fanlari doktori, professor

QODIROVA Sarvinoz Muhsinovna – San'atshunoslik fanlari doktori, professor

UMAROV Absalom Adilovich – Sotsiologiya fanlari doktori, professor

YULDASHEV Ma'rufjon Muxammadjonovich – Filologiya fanlari doktori, professor

TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna – Falsafa fanlari doktori, professor v.b.

QOSIMOV Nozim Kozimovich – Filologiya fanlari nomzodi, professor

RASHIDOV Temur Maxmudovich – San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

XALIKULOVA Go'zal Erkinovna – San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

FAYZIYEVA Feruza Xodjimuratovna – San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor v.b.

NISHONBOYEVA Qunduz Vahobovna – Tarix fanlari nomzodi, dotsent

MULLAJONOV Davlat Mavlonovich – San'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

ABDUJABBAROVA Musallam Lapasovna – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISMOILOV Hamdam – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

XUDOYEV G'ani Muhammadovich – San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor v.b.

TURG'UNOVA Nasiba Mamatovna – San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

MAMATQOSIMOV Jahongir Abirqulovich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEOV Ozodbek Ahmadovich – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

AXMEDOV Bahodir Majitovich – O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri birinchi o'rinbosari, dotsent

MIRZAALIYEV Iqboljon Mirzakarimovich – O'zbekiston xalq shoiri

AKILOVA Kamola Baltabayevna – San'atshunoslik fanlari doktori, professor

KARIMOVA Nigora G'aniyevna – San'atshunoslik fanlari doktori

Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya
komissiyasi rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi
245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

I. TEATR VA KINO

1. S.Qodirova. O'zbek teatrining "Shohi so'zana"si.....	3
2. M.Tulyaxodjaeva. Вопросы театроведческой науки Узбекистана.....	7
3. O.Qudratov. Musiqali drama spektakllarida dramaturg, rejissyor, bastakor va aktyor hamkorligi masalalari...	10
4. H.Primbetova. История пути формирования и становления каракалпакского театра.....	12
5. O.Azizova. O'zbek kinosida folklor mavzusi.....	15
6. X.Niyazova. Hilol Nasimov ijodida adashgan zamondoshlar obrazi.....	18

II. MUSIQA SAN'ATI

1. M.Ermatorov. Xonandalarning ovoz hosil qilishidagi asosiy kamchiliklar va ularni bartaraf etish.....	21
2. D.Malikova. Vokal-xor jamoalari faoliyatida ansamblning o'rni.....	24
3. G.Hojametova. Comprehension of gaip demesinov's piano style.....	27
4. F.Mansurbekova. Vokal-xor san'ati vositasida o'quvchi yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirish.....	30
5. H.Kabulova. Об особенностях произношения итальянского языка.....	33
6. N.Turg'unova. Ko'hna va navqiron tanavor.....	36

III. SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. D.Muxammedova. Folklor asarlarini sahnalashtirishda musiqaning o'rni.....	39
2. U.Kurbanova. Xorazm dostonchilik san'atining tarixiy ildizlari.....	42
3. M.Xolmo'minov. O'zbekiston madaniyati va san'ati.....	46
4. S.Umarova. Xorazm shoirlari lirik she'rlarida musiqiylik.....	50
5. D.Tulanova. Творчество Урала Тансыкбаева - основоположника эпического пейзажа в живописи Узбекистана.....	52
6. A.Nosirova. "O'tkan kunlar" romanining sharq va g'arb tillariga tarjimalari.....	56

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. V.Alimasov. Talaba yoshlarning kasbiy shakllanishida mutoalaaning o'rni.....	60
2. K.Mirzayev. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentlik sifatleri.....	63

V. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. I.Yo'ldoshev. Kitobning qudrati.....	66
2. T.Bayturayev. O'zbekistonda kutubxonachi bibliograf mutaxassisligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqida.....	69
3. M.Xakimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa va kutubxonlik madaniyatini tarbiyalash.....	71
4. M.Mahmudov. Zamonaviy jamiyatda kutubxonalarning madaniy va axborot funksiyasi.....	75
5. И.Цай. Эволюция информационно-библиотечной системы узбекистана в контексте социальных трансформаций.....	78
6. M.Isxakov, D.Irgashova. Mutolaa madaniyati intellektual salohiyatni belgilovchi omil.....	82

VI. YOSH TADQIQOTCHI

1. I.Yuldashev. O'zbek etnomadaniy sinkretizmida immanent xususiyatlar.....	84
2. M.Isoqova. Kino va teatr san'atida aktyor ijrochiligi hamda avlodlar almashinuvi.....	89
3. K.Umarov. O'zbek teatri taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta'siri.....	92
4. Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li. Yoshlar ta'lim-tarbiyasida milliy ma'naviyatning o'rni.....	95

VII. E'TITOF

1. I.Abdurahmonov. Sahna epopeyasi ustasi (O'zbekiston xalq rassomi Muborak Yo'ldoshevning 90 yilligi oldi dan).....	98
2. B. Matyoqubov. To'rt karra xalq artisti Otajon Xudoyshukurov tavalludining 80 yilligi oldidan.....	102
3. M.Mamirov. Hofizlik – qo'shiq san'ati.....	106
4. Sh.Yusupov. Sahna nutqi ravon bo'lishida Bashorat Bobonazarovanning ilmiy metodik izlanishlari.....	109
5. B.To'raboyeva. Xonanda Komila Aminova ijodi.....	112

I BO'LIM

TEATR VA KINO

Sarvinoz QODIROVA,
san'atshunoslik fanlari doktori,
professor

O'ZBEK TEATRINING "SHOHI SO'ZANA"SI

Annotatsiya. Maqolada, O'zbek Milliy akademik drama teatrining mashhur "Shohi so'zana" spektaklining yaratilish tarixi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: komediya, dramaturg, rejissyor, spektakl, butafor, dekoratsiya, tomosha san'ati, folklor.

«ШЕЛКОВОЕ СЮЗАНЕ» УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА

Аннотация. В статье рассказывается об истории создания знаменитого спектакля "Шелковое сюзани" Узбекского национального академического драматического театра.

Ключевые слова: комедия, драматург, режиссер, спектакль, бутафория, декорация, зрелищное искусство, фольклор.

"SILK SUZANI " OF UZBEK THEATER

Abstract. The article tells about the history of the creation of the famous performance "Silk suzani" of the Uzbek National Academic Drama Theatre.

Key words: comedy, playwright, director, performance, props, scenery, performing arts, folklore.

XX asrning 50-yillariga kelib, o'zbek dramaturgiyasida komediya janrida jonlanish sezildi. O'sha yillar sovet voqeligi sharoitida komediya san'atidan g'oyaviy qurol sifatida foydalanilgan. Ya'ni komediyaga xos asarlarda g'oyaviy pozitsiya aniq, qahramonlari hayotda uchrab turadigan illatlarni bartaraf etishga ko'maklashadigan yoki bo'lmasa jamiyatda uchrab turadigan "nusxa"lar tarzida ifodalangan. Zotan, sovet tuzumi barqaror, unda ba'zi illatlar bo'lishi mumkin, faqat ular mavjud ijtimoiy tuzum asoslariga putur yetkaza olmaydi, degan qarash hukm surgan. Binobarin, komediya san'atida ham voqelik shunday yoritilishi kerak edi. "O'zbek dramaturgiyasida komediya janrining yuksalishi 50-yillarning o'rtalarida sodir bo'ldi. Komediya yozuvchi mualliflar hayotga, voqealar qizg'inligiga tezlikda aralashib, davrning hayajonli mavzulariga javob izladilar. O'zbek dramaturgiyasining bu yangi bosqichi butun sovet komediyasining rivoji bilan bog'liqdir", – deb o'qiyimiz bu davr dramaturgiyasining tavsiflarida [1.33-b.].

Mazkur davr boshida o'zbek dramaturglari K.Yashin, Uyg'un, Tuyg'un, I.Sulton, N.Safarov, O.Yoqubov qatoriga hikoyanavis, o'zbek tilining

sofligi uchun kurashgan adib Abdulla Qahhor kelib qo'shildi. U dramaturgiyaning eng qiyin janri komediyada bo'y ko'rsatdi. A.Qahhor o'zining "Yangi yer" ("Shohi so'zana") asari bilan dramaturg sifatida tanildi. Ammo bu birdaniga ro'y bergani yo'q. Ma'lumki, pyesa "Yangi yer" nomi bilan 1949-yilda yozilgan edi. 1950-yilda sahnaga qo'yilgan, biroq xarakterlar zaif ishlangani va konflikt birmuncha tarqoq bo'lgani uchun muvaffaqiyatli chiqmadi va personajlarda harakatdan ko'ra so'zamollik ustun turardi. Mirzacho'lni o'zlashtirishga otlanganlarning fidoyiligi ochilmay qolgandi. Buning o'rniga muhabbat mavzusi va maishiy tafsilotlar birinchi o'ringa chiqib qolgandi. Mana shular postanovkachi rejissyor Yetim Bobojonovni asarni lirik komediya sifatida talqin etishga undagan. Ammo dramaturg ham, teatr kollektivi ham ishni to'xtatmadilar. Yangi variant yaratildi.

1952-yilda komediya "Shohi so'zana" nomi bilan Hamza nomidagi akademik drama teatrida rejissyorlar A.Ginzburg va T.Xo'jayev tomonidan qayta sahnalashtirildi. Mazkur komediyada Mirzacho'lni o'zlashtirishga bel bog'lagan yoshlar, mehnatkashlarning fidokorligi bosh mavzuga aylandi. Mavlon obrazi ziddiyatli qilib ishlandi.

Mavlon bilan yoshlar o'rtasida hosil bo'lgan konflikt yetarli asoslandi. Teatrshunos olim M.Rahmonov ta'kidlaganidek: "Teatrda muallif uslubi bilan hamohang "Qahhor aktyorlari" tug'ildi. Ular Qahhor asarlarida yayrab, chinakam ijodiy shavq-zavq bilan o'ynardilar" [2.263-b.].

"Shohi so'zana" nomini olgan mana shu keyingi variant badiiy jihatdan ham barkamol bo'lib chiqdi. Asar bir vaqtning o'zida respublikamizning qator viloyat hamda sobiq ittifoq teatrlarida sahnalashtirildi. "Rus yozuvchilarining eng yaxshi pyesalari singari Qahhor pyesalari ham tomoshabinlar tomonidan nafaqat tomosha qilinadi, balki metaforalarining yorqinligi, qiyosiy o'xshatishlarning ravshanligidan hayratlantiradi, kampirlarning tortishuvlari va yoshlarning qizg'in suhbatlaridan bahramand bo'lib, tomoshabinlar tomonidan "tinglanadi". Yuqori nutqiy madaniyat, muallif dialoglarining turli tuslanishlarini uzatish xuddi Малый театр sahnasidagi Rijova va Turchaninolar ijrosidagi obraz talqinlari kabi Xolniso va Hamrobuvining birinchi pardadagi uzun sahnalarigacha diqqat bilan tinglashga undaydi" [3.115-b.].

Hayotiylik "Shohi so'zana" komediyasining qon tomiridir. Zero, dramaturg o'z asarini kabinetda yozmagan, balki Mirzacho'lning o'zlashtirishga otlangan kishilar hayoti, ruhiyatini chuqur o'rganish asosida yaratgan. O'z vaqtida B.Bugrov to'g'ri ta'kidlaganidek: "*Hozirgi mavzularni jadalroq o'zlashtirgan holda komediya hal etadigan mavzularining doirasi, konfliktlar mazmuni bo'yicha hayotga yaqinroq bo'ldi, o'zining fuqarolik, ijtimoiy ovozi bilan hayotning qarama-qarshiliklarini tadqiq etishda o'ziga xos uslub va vositalarda rang-barangroq foydalanadigan bo'ldi*" [4.247-b.].

"Konfliktsizlik nazariyasi" hukm surib turgan bir paytda chinakam komik konfliktga asoslangan, muhim zamonaviy muammoni san'atkorona aks ettiruvchi bunday asar nafaqat respublikamizda, balki umumsovet dramaturgiya va teatr san'atida katta voqea bo'ldi. O.Sharofiddinov yozganidek: "*Shohi so'zana*" komediyasida *kulgi yangicha funksiyaga ega – u ortiq fosh qilish quroli emas, tanqid vositasi emas, balki ijobiy kuchlarning fazilatlarini to'laroq ochishga, zamonamiz qahramonlarining axloqiy-ma'naviy fazilatlarini tasdiqlashga xizmat qiladi*" [5.195-b.]. Komediya faqat ijobiy qahramonlar qatnashadi, ularning xarakterida nuqsonlar bo'lsa-da, dramaturgning ularga xayrixohlighi sezilib turadi.

Hamza teatri ham mazkur komediyani sahnalashtirishdan avval bir guruh aktyorlarni Mirzacho'lga yuborib, u yerdagi hayot bilan yaqindan tanishishga imkoniyat yaratgan. Bu esa o'z navbatida obrazlarning hayotiy chiqishida yaqindan yordam bergan. Bir qator aktyorlarning yashirinib yotgan komik qobiliyatlarining ochilishi ham ana shundan. Jumladan, Mavlon rovida Obid Jalilov, Saltanat rovida Ikroma Boltayeva, Qo'ziyev rovida Nabi Rahimov,

Xolniso rovida Mariya Kuznetsova va Toshxon Sultonova, Hamrobuvi rovida Zamira Hidoyatova va Zaynab Sadriyevalar xalqqa manzur bo'ldilar. Spektaklni tayyorlash jarayonida dramaturg faol ishtirok etdi, rejissyorlar va aktyorlarning har bir mulohazasi, taklifini jon qulog'i bilan tinglab, pyesaga tuzatishlar kiritib bordi. Natijada konflikt, sahna harakati kuchaydi, xarakterlar aniq shakllandi.

Hayotiy xarakter yaratish aktyorlarning diqqat markazida turdi. Bironta ijrochi ham o'z rolini formal ijro etgani yo'q. Haqiqiy ijodkorlik bilan hayotiy kuzatuvlarini ishga solib, so'zlarning botiniy ma'nolarini kashf etishdi. Avvalambor, onaxonlar – Xolniso va Hamrobuvi obrazlari baayni hayotdan sahnaga ko'chirilganday o'ta tabiiy, jozibali, quyma va xalqona gavdalandi. To'rt nafar aktrisa – Zamira Hidoyatova bilan Toshxon Sultonova (Hamrobuvi), Mariya Kuznetsova va Zaynab Sadriyeva (Xolniso) bir-birlari bilan ijodiy musobaqa qilishib, har biri o'ziga xos betakror obraz yaratdi, spektaklni yumor, samimiy kulgi bilan boyitdi. "*Yaqin-yaqingacha ijodiy erkinlik bu avlod* (birinchi avlod – S.Q.) *aktyor va aktrisalari vakillari ijrosiga xos yalt etib ko'rinadigan, xarakterli xususiyat bo'lib, original, ayniqsa, komediya repertuarida namoyon bo'ldi. Ularning sahnada turishi sahna muhitini hayratlanarli darajada hayotiylik bilan to'ldiradi, o'zbek tomoshabinlari suyuqchi va umuman har qanday xalqning teatr san'atida qadrllovchi erkinlik va hissiy ochiqlikni kiritdi*" [6.70-b.]. Boshqa ijrochilar ham hayotiylik yo'lidan borishdi. Hatto, pyesaga mafkura taqozosi bilan kiritilib, anchayin sxematik ishlangan kolxoz raisi Rahimjon va partiya tashkilotining kotibi Odilov obrazlari ham L.Nazrullayev va Sh.Qayumovlar ijrosida jonli chiqqan.

Spektaklda tomoshabinlarni shaydo qilgan jihat bu rang-barang, puxta xarakterlar ishlanmasi va ular o'rtasidagi to'qnashuv bo'ldi. Shu paytgacha "Shohi so'zana"ning konflikti o'zida o'tmish sarqitlarini saqlab qolgan keksalar bilan ilg'or fikrllovchi yoshlar o'rtasidagi ixtilofdan iborat deb qarab kelindi. Shunday deyilishi bejiz emas, albatta. Spektaklning konflikti yanada kengroq olingan bo'lib, hayotga, mehnatga, qo'riq yerlarni o'zlashtirishga turlicha qarashlar negiziga qurilgan.

Pyesada bo'lganidek, spektaklda ham keksa avlod namoyandalari to'laqonli gavdalandi. Yoshlardan Qo'ziyev (N.Rahimov) bilan Saltanat (I.Boltayeva) ko'proq ijrochilarning sahnaviy jozibasi va iste'dodi tufayli to'laqonli yaratildi. Ammo Hafiza (Y.Abdullayeva) bilan Dehqonboy (Z.Muhammadjonov) obrazlari ijrosining jiddiy ohanglari, namoyishkorlik xususiyatlari janr tabiatiga biroz mos tushmagan.

Hamza teatrining spektakli onaxonlarning suhbatidan boshlanadi. Oddiygina hovli sahni. Hovli sahni kichik bo'lsa-da, orasta. Kech kirgan. Ikki qo'shni, qirq yillik dugonalar, bo'lajak qudalar ko'sak chuvib bolalarining orzularini qilib o'tirishadi. Xolniso – M.Kuznetsova bo'lajak kelini Hafizaxonni maqtasa,

Hamrobuvi – Z.Hidoyatova Dehqonboyini og'zidan bol tomib maqtaydi. Shu payt Omon yugurib kelib majlisda Dehqonboy bilan Hafiza boshqa yoshlarga qo'shilib, Mirzacho'lga ketishga qaror qilganlarini aytib, kampirlarning hafsalasini pir qiladi. Mana shunda haqiqiy komik holat yuzaga keladi. Hozirgina og'izlaridan bol tomib bir-birlarining farzandlarini maqtab turgan onaxonlar ularni yomonlab ketadilar. Shuncha yillik dugonalar birpasda o'zgarib, san-manga boradilar. Albatta, onaxonlarni tushunsa bo'ladi. Shundoq uy-joylar, obro'-e'tibor bo'la turib, to'y ko'rmagan ikki yosh o'zlari cho'lu biyobonga ketishsa. Qizi bor Hamrobuvining dod deganicha bor. Biroq Xolniso – M.Kuznetsova o'g'lining ko'makchisi, Dehqonboy aytganidek, "agitatori". Dehqonboy orqaga qaytgan bo'lib, onalarning ko'nglini topadi. Xolniso o'g'lining va'dasiz, subutsiz bo'lib qolishi mumkinligini, elu yurtga sharmanda bo'lishini ko'zoldiga keltirib, sekin-asta dugonasini avray boshlaydi. Xolniso – M.Kuznetsova dugonasi Hamrobuvi – Z.Hidoyatovani yoshlarning maqsadlari ulug' ekanligini tushunmagan, uquvsizga chiqaradi. Xolnisoning gaplari ta'sir qiladimi, biroz hovuridan tushgan Hamrobuvi – Z.Hidoyatova yoshlarning ketishiga yurak yutib rozi bo'ladi. Shu tarzda M.Kuznetsovaning Xolnisosini, har bir so'zini o'ylab so'zlaydigan ayol sifatida, Z.Sadriyeva ijrosida u o'ta adolatli, mehribon, o'g'lining ko'ngliga qarab ish ko'radigan ayol qiyofasida namoyon bo'ladi. Z.Hidoyatova ijrosidagi Hamrobuvi esa o'ta qiziqqon, lov etib yonadi-yu, tez o'chadi. T.Sultonova esa o'zini tutib tursa-da, biroq ichi yonayotganini ko'ramiz.

Pyesa va spektaklning keyingi ko'rinishlarida Dehqonboy va Hafiza yana bir to'siqqa uchraydilar. Mirzacho'lga birinchilar qatorida hujum boshlagan dongdor paxtakor Mavlon yoshlarning tashabbusini tushunmaydi. A.Qahhor Mavlon obrazini yaratishda ko'p izlandi. Pyesaning birinchi variantida Mavlon dong'i ketgan paxtakor, biroq shuhrat uning boshini aylantirib qo'ygan. U o'ziga ortiqcha bino qo'ygan, hech kimning fikrini tan olmaydi, mensiz kolxoz ishi yurishmaydi, deb o'ylaydi. Komediyaning keyingi nusxasida Mavlon obrazi bunday keskin nuqtalardan ozod bo'ladi. Mavlon cho'lga birinchilardan bo'lib kelib, ancha ish qilgan. Yoshlarning kela solib yangi yerlar ochish, paxta maydonini kengaytirish haqidagi tashabbusi yengiltaklikday, tayyor oshga bakovullikday bo'lib tuyuladi. Shu tarzda Mavlon bilan yoshlar o'rtasida ixtilof vujudga keladi va u ikkinchi asosiy konfliktini keltirib chiqaradi.

Dramaturg, rejissyor va aktyor O.Jalilovning Mavlon xarakteri va uning o'zgarishiga alohida e'tibor berganligi shundan. Mavlon obrazi jiddiy, unda ko'proq satira bilan drama elementlari chatishgan. Obid Jalilov Mavlon obrazini yaratar ekan, uni chinakam mehnatkash, biroq shuhrat, olqishlar ta'sirida o'ziga ortiqcha bino qo'ygan brigadir qilib

gavdalantiradi. Aktyor qahramonidagi bu jihatlarni ifodalashda gerdayib yurish, yoshlarni mensimay so'zlashish, piching, zaharxandalik kabi vositalardan keng foydalandi. *"Mavlon obrazi shunchalik o'zgardi, – deb eslaydi Obid Jalilov komediyaning birinchi varianti bilan qayta ishlangan variantini solishtirarkan, – men unga mutlaqo yangi va mustaqil obraz sifatida yondashdim. Bir hisobda avvalgi Mavlondan faqat uning nomi-yu, brigadirlik lavozimi qoldi, desa bo'ladi. Uning mazmuni ham, shakli ham mutlaqo o'zgardi"* [7.239-b.]. Mavlon – O.Jalilovning Mirzacho'lni birinchilar qatori o'zlashtirishda katta mehnat qilgani, shuhrat qozongani to'g'ri, biroq u keyingi paytlar gap ko'tarolmaydigan, shuhratparast, manman bo'lib qolganki, buni yoshlar darhol fahmlaydilar.

Obid Jalilovning qahramoni faqat paxtani tan oladi. "Mavlonni Mavlon qilgan uy emas, paxta", – deydi. Paxta uchun sog'lig'idan ham kechib yuboradigan odam. Hamma narsani o'zining toshu tarozisi bilan o'lchaydi. Men xizmat qilib qo'yganman, men bilan maslahat qilib ish qilishlari kerak, deb biladi. "Mirzacho'lning xo'roziman desam haddim sig'adi!", – deydi u. To'g'ri, vaqtida jonidan ham kechib paxtani yetishtirgan, biroq zamon o'zgarayapti, yoshlar ulg'ayaptilar. Ularning ham qo'ldan biror narsa kelar, axir. Lekin Mavlon – O.Jalilov bu o'zgarishlarni sezmaydi, yoshlarga ishonmaydi.

Dehqonboy yangi yerlarni o'zlashtirishni o'ylasa, Mavlon obro'yiga putur yetishidan qo'rqadi. Mavlon – O.Jalilov hamma erishgan muvaffaqiyatlarining sababchisi o'zi yoki brigadasi, deb biladi. Hamma maqto'vlar ham, shon-shuhrat ham faqat uniki bo'lishi shart. Cho'lga yaqinda kelgan Dehqonboy va Qo'ziyevning yutuqlarini ko'rib ishonmaydi, jahli chiqadi, ularga biroz hasad ham qiladi. Hafiza aytganidek: *"Mirzacho'lning sho'ri nima ekan, traktor bor, suv bor, odamlarning dilidagi... sho'rini yuvish qiyinroq"*. Mavlon – O.Jalilov yaratgan qahramoni ham, uni o'rab turgan yaqinlari ham undagi o'zgarishni, manmanlikni ham, o'zim bo'larchilikning paydo bo'lganini payqamay qolganlar. Endi esa bu nuqson bilan kurashmoq kerak. Opasi Hamrobuvi Hafizani yo'ldan urdi, meni hammaga kulgi qildi, deb Dehqonboy haqida yomonlab yozgan xati Mavlon xarakteridagi nuqsonlarning oxirgi nuqtasi edi. Mavlon – O.Jalilov jamoaga ko'rinishga nomus qilib, chet-chetda yurgan paytda Dehqonboy uni ilg'or paxtakor, bayroqni u kishi olishi kerak, deb taklif kiritadi. Dehqonboyning obro'yini har yerda to'kish uchun harakat qilib yursa-yu, Dehqonboy uning sha'ni, obro'yini himoya qilib, hurmat qilsa. Mavlon uchun bu kutilmagan hol edi, shu boisdan o'z qilmishidan iztirob chekadi. Mavlon – O.Jalilov yangi xatini hech kimga ko'rsatmasdan pochta qutisiga tashlamoqchi bo'lib turganida, opasini ko'rib qolib, gunohiga iqrar bo'ladi. Bu sahnada Mavlonning ayanchli ahvolini, ichki iztirobini aktyor ishonarli tasvirlaydi. Hech qachon o'z xatosini tan olmagan bu mag'rur odam,

bo'yni yor bermasa-da, xatosini tan oladi va kechirim so'raydi.

Komediya yoshlarning xarakterlari puxta ishlangan. Dehqonboy – Z.Muhammadjonov va Hafiza – Y.Abdullayeva, Saltanat – I.Boltayeva, Qo'ziyev – N.Rahimovlarning har biriga xos fe'l-atvor, xususiyatlar mavjud. Z.Muhammadjonov o'z qahramonini haqiqiy jangchi, tinch turmushda ham to'g'riso'z, tanti, kamchiliklar bilan kurashib yengilmaydigan yigit, onalarning ko'nglini topa biladigan qobil farzand sifatida tomoshabinlar ko'z o'ngida gavdalantiradi. Y.Abdullayevaning Hafizasi ham Dehqonboyga o'xshab, bir so'zli, hiyla-nayrangni bilmaydi. Aktrisa I.Boltayeva ijrosida Saltanat hayotga shu darajada chanqoq, ishini sevuvchi insonki, doimo barmoqlari sanoqqa tayyor, hech narsa esidan chiqmaydi, sevgilisi Qo'ziyevni ko'rsa yashnab ketadi. Qo'ziyev – N.Rahimov binokor, Mavlon aka uni ishyoqmasga chiqarib qo'yganligi asabiga tegsa-da, o'z bilganidan qolmaydi. Cho'lquvarlar nafaqat yaxshi ishlashi, balki barcha sharoitlari bor yaxshi uylarda yashashlari kerak, deb biladi. A.Qahhor va teatr jamoasi bu

sevishganlarni tasvirlashda xatti-harakatdan ham, so'zdan ham unumli foydalanadi. Ijrochilar Qo'ziyev bilan Saltanat obrazlarini to'g'ri tushunib, g'ayratli, quvnoq kishilar sifatida gavdalantiradilar. Ularni bir olmaning ikki pallasiga o'xshatish mumkin.

Abdulla Qahhor barcha komediyalarida onalar obrazini yaratishga alohida e'tibor beradi. Umuman olganda, Abdulla Qahhor komediyalari Hamza nomidagi akademik teatrga o'zi bilan birga hayot nafasini olib kirdi, yangi mavzular, quyma xarakterlar, qiziqarli hajviy to'qnashuvlar, qayroqi til tortiq qildi. Qisqasi, Abdulla Qahhor komediyalari komik va satirik obraz yaratishda rejissyor va aktyorlar uchun maktab vazifasini o'tadi.

Teatrlarimizda sahnalashtirilgan va sahnalashtirilayotgan atoqli adib va dramaturg Abdulla Qahhor asarlari bugungi kunda ham jamiyatni tashvishga solayotgan muammolarga javob topishga, tomoshabinlarga odob-axloq, iymon-e'tiqoddan saboq berishga qodir, teatr jamoalari uning adabiy merosi negizida yangi-yangi sahna yechimlarini izlab topib zamonamizga xizmat qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Туляходжаева М., Юлдашев Т.И. Узбекская драматургия на сцене театра (60–80-е годы). – Ташкент: «Фан», 1980 г. С.33.
2. Rahmonov M. Hamza (O'zbek davlat akademik drama teatri tarixi). Birinchi kitob. (1914–1960-y.) – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2001-y. 263-b.
3. «Театр», 1953 г, №5. С.115.
4. Бугров Б.С. Русская советская драматургия. 1960–70-е гг. – Москва: Высшая школа, 1981 г. С.247.
5. Sharafiddinov O. A.Qahhor. Esse. – T.: "Yosh gvardiya", 1988-y. 195-b.
6. И.Мухтаров. Узбекский театр (страницы истории и современности). – T.: "San'at", 2014 г. С.70.
7. Jo'rayev F. Obid Jalilov (hayoti va ijodi). – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1968-y. 239-b.

ВОПРОСЫ ТЕАТРОВЕДЧЕСКОЙ НАУКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Статья посвящена вопросам театроведческой науки Узбекистана, рассматриваются вопросы, связанные с историей и современным состоянием театральной критики, определяются основные подходы методологического анализа сценических произведений, а также вопросы обучения молодых театроведов в стенах ГИИКУз Узбекистана, перспективы развития науки о театре.

Ключевые слова: театроведение, анализ, сценическое произведение, реконструкция спектакля, обучение молодых специалистов, перспективы развития науки о театре.

O'ZBEK TEATRSHUNOSLIK ILMI MASALALARI

Annotatsiya. Maqola o'zbek teatrshunoslik fani masalalariga bag'ishlangan bo'lib, bunda teatr tanqidchiligining tarixi va hozirgi holati bilan bog'liq masalalar tahlil etiladi. Sahna asarlarini uslubiy tahlil qilishning asosiy yondashuvlari, shuningdek, teatrshunoslik fanida yosh teatrshunoslarni tarbiyalash, teatrshunoslik fanining rivojlanish ba istiqboli haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: teatrshunoslik, tahlil, sahna asari, spektaklni rekonstruksiya qilish, yosh mutaxassislarini tarbiyalash, teatr fanini rivojlantirish istiqbollari.

ISSUES OF THEATER SCIENCE OF UZBEKISTAN

Abstract. The article is devoted to the issues of theater science in Uzbekistan, examines issues related to the history and current state of theater criticism, identifies the main approaches to methodological analysis of stage works, as well as issues of training young theater critics within the walls of the Institute of Theater Studies of Uzbekistan, prospects for the development of theater science.

Key words: theater studies, analysis, stage work, reconstruction of a performance, training of young specialists, prospects for the development of theater science.

Процессы, происходящие в современном театральном искусстве и в театроведении Узбекистана, актуальны и требуют к себе пристального внимания. Театроведческая наука в системе искусствоведения занимает одно из ведущих мест. Структура данной науки включает в себя: теорию и историю театра в целом и отдельных его компонентов – драмы, режиссуры, актерского творчества, декорационного искусства; а также психологию и социологию сценического творчества и зрительского восприятия; технику сцены; методологию и историю науки о театре и театральной критике; экономику и организацию театрального дела; источниковедение и библиографию. Театроведение занимается изучением всех видов и форм сценического искусства: драматического театра, оперы, балета, оперетты, пантомимы, детского и кукольного театров, телевизионного и радиотеатра, театральной педагогики. Наряду с профессиональной сценой театроведение изучает и самодеятельный театр.

Чтобы говорить о перспективах развития современного театроведения в контексте искусствоведения необходим хотя бы краткий экскурс в историю данного направления.

Театроведение как наука имеет глубокие корни, уходящие в Античность. Первые известные фрагменты учений об искусстве записаны в Древней Греции, где были сформулированы многие важные положения теории и истории искусств. Зарождение науки о театре относится к эпохе Древней Греции и Рима. Основной теоретический труд, обобщающий

творчество античных поэтов и драматургов принадлежит Аристотелю. Его научный трактат «Поэтика» рассматривает смысл и назначение драмы и театра. В нем определены основные художественные критерии драматического искусства, даны понятия, что есть «трагедия», «комедия», «фабула», «характер», «единство, цельность, законченность действия», введены такие термины, как «перипетия», «узнавание», «страдание», сформулированы основные положения теории драмы и сценического искусства. Этот труд оказал огромное влияние на формирование эстетической мысли.

Возникновение и развитие теории и истории театра в странах Западной Европы связано с высоким уровнем театрального искусства эпохи Возрождения. Первые исторические и теоретические работы о сценическом искусстве появились в конце XVI века во Франции, Англии, Германии. Систематическое изучение истории и теории театра началось в XVII веке, когда появились первые театроведческие исследования историка театра Ричарда Флекно, создавшего первый очерк истории английского театра (1664), писавшего об актерских работах Ричарда Бёрбеда. Первым опытом истории французского театра была книга С.Шапюзо (1674). Итальянскому театру посвящены труды Л.Риккони, работавшего во Франции и впервые исследовавшего (1736) комедию Мольера с позиций просветительской эстетики.

В эпоху Просвещения о драматургии и сценическом искусстве писали Д.Дидро, Г.Лессинг, И.Гете. В своих научных трудах философы углубляли и

развивали учение о теории драмы и сценическом искусстве. Большой вклад в историю и теорию театра в 19 веке внесли русские писатели и драматурги А.Пушкин, Н.Гоголь, А.Островский. Особое значение в развитии русской театральной мысли, в формировании реалистической эстетики имели статьи и высказывания о театре В. Белинского. Его статьи о творчестве крупнейших актеров, анализ положения русского театра в целом, разработка проблем теории драмы и актерского творчества стали основополагающими трудами в изучении истории театра XIX века.

С конца XIX века театроведение стало отделяться от литературоведения. В 1902 году в Берлине было создано общество по изучению истории театра. Основателем современной науки о театре является немецкий ученый Макс Герман, который считал **реконструкцию спектакля** – основной задачей театроведения. Как самостоятельная наука театроведение сформировалось в 20 веке. Научная литература, созданная учеными в этот период, обширна и охватывает все стороны театра разных стран и эпох.

Если обратиться к истории театроведческой науки в Узбекистане, то можно сказать, что еще в конце XIX века поэт-демократ Фуркат, а затем в начале XX века узбекские просветители – джадиды видели в организации профессионального театра европейского образца большие возможности для обновления национального сценического искусства. Театр мыслился ими как «место духовного очищения», как «зеркало, отражающее мир», так писал М.Абдурашидханов в своей статье «Биринчи миллий театр» в газете «Туркистон вилоятининг газети» от 3 марта 1914 года. Театр должен был сыграть решающее значение в деле воспитания общественного самосознания и повышения культуры народа. В печати появляются материалы о необходимости серьезной финансовой поддержки со стороны властей о строительстве специальных театральных зданий.

«Что такое театр?» так называлась первая серьезная статья о театре в периодической печати, написанная М.Бехбуди в журнале «Ойна» («Зеркало»). В ней автор объясняет место и роль театра в общественной жизни, дает свое понимание сущности и границ различных жанров, выявляет природу актерского искусства, особо подчеркивает значение драматурга.

В прессе того периода можно найти документальные свидетельства, что в 20-е годы в Ташкенте работали русские, украинские, еврейские, азербайджанские, армянские театры. В кандидатской диссертации С.Ахмедова «Печать и театр» (Истоки формирования нового узбекского национального театра 1917–1927 годов) указывается о наличии в Ташкенте 62 театральных коллективов, в 40 из них спектакли игрались на узбекском языке. С этого времени и начинается свой отсчет театроведческая мысль и театральная критика Узбекистана.

С открытием в 1945 году в Ташкенте театрального института началась усиленная подготовка театроведов, которой непосредственно стала заниматься кафедра «Театроведение». Среди препода-

вателей были известные ученые искусствоведы М. Верхацкий, А.Эфрос, М.Григорьев, театроведы К.Березин, А.Рыбник, Я.Фельдман.

К концу 50-х годов уже сложились кадры театроведов, овладевшие методологией, конкретно-историческим подходом к изучению явлений сценического искусства Узбекистана. Появляются исследовательские работы, посвященные драматургии, истории театра, актерскому искусству, монографии о замечательных мастерах драматического и музыкально-драматического театра. Важное значение для формирования и развития театроведческой науки имело сосредоточение в научно-исследовательском институте искусствознания в Ташкенте отдела «Театр и хореография», где молодые ученые, стали целенаправленно разрабатывать вопросы истории и теории национального театра.

В 1957 году был издан коллективный труд «Театр имени Хамзы» (под редакцией Я.Фельдмана), авторами которого стали выпускники театрально-художественного института Л.Авдеева, В.Дьяченко, народный артист Узбекистана А.Турдыев. В 1960 году вышла в свет книга М.Рахманова «Хамза и узбекский театр». Проблемам актерского искусства была посвящена книга Я.Фельдмана «Характер народа и сценические образы», вышедшая в 1961 году.

В 60-е годы театральный институт начинает выпускать сборники «Вопросы теории и истории театрального искусства Узбекистана», где затрагиваются проблемы драматургии, актерского и режиссерского искусства. В Москве в 6-ти томном издании публикуются статьи А.Рыбника по истории узбекского театра XX века.

Появляются монографии о замечательных мастерах драматического, музыкально-драматического, балетного театра: Я.Фельдмана «Алим Ходжаев» (1963), «Властители дум» (1970), Л.Авдеевой «Тамара Ханум» (1956), «Мукаррам Тургунбаева» (1958), «Галия Измайлова» (1975), «Бернара Кариева» (1995), М.Кадырова «Миршохид Миракилов» (1970), «Сойиб Ходжаев» (1973), Т.Баяндиева «Мария Кузнецова» (1965), «Замира Хидоятова» (1973), С.Турсунбаева «Аббас Бакиров» (1973), М.Рахманова и Т.Сильмилштейн «Шукур Бурханов» (1974), С.Абдуллаевой «Турсунной Джаффарова» (1974), Н.Захидовой «Ташходжа Ходжаев» (1980), Э.Исмаилова «Манон Уйгур» (1981), О.Ризаева «Наби Рахимов» (1998), М.Хамидова «Карим Закиров».

В настоящее время стало необходимо решать такую проблему, как переиздание этих научных трудов и создание их электронных версий, а также книг М.Рахманова «Узбекский театр с древнейших времен до 1917 года», которая была удостоена Государственной премии, М.Кадырова: «Ўзбек халк театри» (1970), «Масхарабоз ва кизиқчилар санъати» (1971), «Халқ кўғирчоқ театри» (1972), «Томоша санъатлари ўтмишда ва бугун» (2010), Р.Каримовой «Хорезмский танец» (1975), «Бухарский танец» (1978), Т.Баяндиева «Каракалпакский театр», И.Мухтарова «Театр и его актеры» (1989), М.Туляходжаевой «Режиссура узбекского драматического театра» (1995), Т.Исламова «Тарих ва сахна» (1998),

Л.Авдеевой «Из истории узбекской национальной хореографии» (2001), М.Рахманова, И.Мухтарова, М.Туляходжаевой «Ўзбек Миллий академик драма театри тарихи» (2003), Т.Турсунова «Саҳна ва замон» (2007), Т.Баяндиева «Санъат масалалари театршунос нигоҳида» (2009), Д.Кадыровой «XX аср ўзбек театри сценографияси» (2009), Х.Икрамова «Давр ва театр» (2009), С. Турсунбаева «Ўзбек театри сарҳадлари» (2010), С.Кадыровой «Театрда ҳаёт акси» (2011), Г.Хамраевой «Национальный образ танца» (2012) и многие другие. Все это должно быть в библиотеках страны, должно быть доступным студентам гуманитарных Вузов.

Государственный институт искусства и культуры Узбекистана выпускает журнал «Хабарлар», где печатаются статьи по разным направлениям искусства, культурологии, педагогики, истории, философии.

Естественно, сегодня возникает вопрос о дальнейшем развитии театроведческой науки Узбекистана. Профессия театроведа в настоящее время имеет два различных профиля. Те, кто занятые в прямом смысле научным трудом – будущие исследователи проблем и вопросов театрального искусства, критики, редакторы, а также будущие продюсеры, непосредственные издатели научной продукции данного вида искусства.

Вопрос – о повышении статуса профессии – театроведа является наиболее значимой в развитии театрального искусства. К примеру, в Узбекистане более 40 государственных театров различных направлений. Ежегодно выпускается большое количество спектаклей и театрам необходима профессиональная оценка их творческой деятельности, которая позволила бы постоянно корректировать вектор движения развития нашего театрального искусства. Наконец, кто будет вести хронологическую летопись творческой деятельности театральных коллективов, кто будет давать хотя бы краткую аннотацию о спектаклях и где, в каких изданиях? Возможно, возобновить издание ежемесячного бюллетеня «Театральный Узбекистан», который на протяжении многих десятилетий издавался при поддержке общественных организаций: «Узбекского театрального общества», СТД Узбекистана, «Узбектеатра».

Конечно, качественно осуществлять все эти проекты могут только профессионально подготовленные, высокообразованные, умеющие самостоятельно мыслить молодые творческие кадры – театроведы, драматурги. Поэтому сегодня становится важным вопрос не только подготовки специалистов, но и их востребованности.

И здесь возникает новая проблема. **Если главным в театроведении является реконструкция**

спектакля, а следом режиссерская интерпретация спектакля то, видимо, надо включать дополнительно в учебные программы по семинару «Театроведение» циклы: реконструкция и интерпретация драматического, кукольного, музыкального, балетного спектаклей.

В Российской Академии театрального искусства, на курсах театроведения, которые ведут доктора искусствоведения В.Бартошевич и В.Силюнас основополагающим является изучение таких понятий как – **«реконструкция пьес», «реконструкция» и «интерпретация» спектакля. Думаю, что аналогичные циклы необходимы не только театроведам, но и киноведам – запись фильмов, монтажных листов.**

Необходимо поддерживать инициативу проведения семинара «Круглый стол» с участием студентов актерских, режиссерских, операторских курсов и, естественно, курсов театроведения, киноведения, драматургии. Возможна различная тематика семинаров: «Перспективы развития современного узбекского театра, национальной хореографии, кино, телевидения», «Вопросы конфликта и характера в создании драматического произведения», «Мастерство операторского искусства», «Молодые актера театра и кино Узбекистана».

Необходимо привлекать активнее молодых. Надо, чтобы они стали разрабатывать и реализовывать различные инициативы по выпуску ежегодного научного Альманаха студенческих работ, с включением в него глав из их научных исследований. А учебный театр должен быть стартовой площадкой для молодых режиссеров и превратить его в Экспериментальный центр творческой молодежи Узбекистана. Именно там будут осуществлять свои работы режиссеры, а молодые театроведы будут вести записи этих спектаклей, станут их помощниками.

Сегодня в науке о театре, по словам известного русского театроведа, доктора искусствоведения, заведующего Сектором современного искусства Запада, Государственного института искусствознания в Москве А.Бартошевича происходят значительные изменения: *«Момент, который наука о театре переживает в наше время, характерен тем, что от высокоумных концепций истории театра повернулись к документу. Самое увлекательное, интересное, глубокое и блестящее в современном состоянии науки о театре – это исследования, опирающиеся на архивные факты»*. Этот институт несколько лет подряд выпускает сборники документов под названием «Мнемозина». Мнемозина – это богиня памяти. Думается, что обращение к памяти истории и нашего театра будет открывать путь к дальнейшим научным исследованиям молодежи в области не только театроведения и киноведения.

Использованная литература:

1. Аристотель. Поэтика. – Москва: «Художественная литература», 1957.
2. Рахманов М.Р. Узбекский театр. – Ташкент: Литературы и искусства имени Гафур Гуляма, 1981.
3. Альтшуллер А.Я. «Театроведение и герменевтика. Некоторые вопросы методологии». Статья в сборнике «Вопросы театроведения», СПб., 1991.
4. Ахмедов С.У. Печать и театр // автореферат кандидатской диссертации, – Т.: 1998.
5. Бартошевич А.В. Театральные хроники. Начало двадцать первого века. – М.: «Артист, Режиссер, Театр», 2013.

MUSIQALI DRAMA SPEKTAKLLARIDA DRAMATURG, REJISSYOR, BASTAKOR VA AKTYOR HAMKORLIGI MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada teatr san'atida rejissyor, dramaturg, bastakor hamda aktyorning hamkorligi, san'at va madaniyat sohasida olib borilayotgan islohotlar, shuningdek, san'at va madaniyatga berilayotgan e'tibor haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, kino, spektakl, rejissyor, obraz, xarakter, janr, truppa.

ПРОБЛЕМЫ СОТРУДНИЧЕСТВА ДРАМАТИСТА, РЕЖИССЕРА, КОМПОЗИТОРА И АКТЕРА В МУЗЫКАЛЬНО-ДРАМАТИЧЕСКИХ ПОСТАНОВКАХ

Аннотация. В этой статье мы поговорим о сотрудничестве режиссеров, драматургов, композиторов и актеров в театральном искусстве, реформе в искусстве и культуре, а также искусстве и культуре.

Ключевые слова: театр, кино, спектакль, режиссер, образ, персонаж, жанр, труппа.

PROBLEMS OF COOPERATION OF DRAMATIST, DIRECTOR, COMPOSER AND ACTOR IN MUSICAL DRAMA PERFORMANCES

Abstract. this article talks about the cooperation of the director, dramatist, composer and actor in the art of theater, the reforms in the field of art and culture, and the attention paid to art and culture.

Key words: theater, cinema, performance, director, image, character, genre, troupe.

O'zbek musiqa san'atida ham adabiyot va tasviriylar san'at sohalari bo'lgani kabi "musiqali drama", "musiqali komediya", "operetta", "opera", "balet", "simfoniya", "romans" kabi musiqa atama turlari ijobiy o'zlashtirib olingan. Mazkur sohalarining deyarli har birida milliy ruh bilan sug'orilgan va ayni chog'da umuminsoniy qadriyatlar qatoridan o'rin olishga qodir bo'lgan asarlar yaratilgan va ular ota-bobolarimizdan meros bo'lib asrlar osha kelayotgan an'anaviy musiqa boyliklarimiz bilan bir qatorda mushtarak o'zbek musiqa madaniyatimiz majmuida musiqali drama va musiqali komediya janrlarining o'ziga yarasha o'rni va salohiyati mavjud.

Ma'lumki, XVII asrda Italiyada opera san'ati yuzaga keldi. Musiqaga, qo'shiq, duet va ariyalarga asoslangan, musiqasevar tomoshabin uchun mo'ljallangan teatr san'ati ham o'zida bir necha san'at turlarining xususiyatlarini, ifoda vositalarini aks ettirgan sintez san'at turi bo'lib, qadimdan ko'cha tomoshalari zahirida shakllanib, turli yoshdagi tomoshabinlar uchun xizmat qiladigan, qo'shiqsevar, musiqasevar tomoshabinlarga namoyish etiladigan sa'at turiga aylanib qoldi. Bugungi rivojlangan texnologiyalar asrida musiqali teatr tomoshabinlarini o'ziga xos talablari va qonuniyatlarga ishonitirish uchun ham san'at turlarini barcha komponentlaridan o'z o'rnida oqilona foydalanish zarur talablardan hisoblanadi. Garchi barcha unsurlarning spektaklda o'ziga xos o'rni bo'lsa-da, ular orasida eng muhimlari borki, ularga qo'yiladigan talablar boshqalariga nisbatan kuchliroq va mas'uliyatliroq hisoblanadi. Xususan, teatrdan eng muhim komponent dramaturgiya hisoblanadi.

O'zbekiston xalq artisti Fayzulla Ahmedov shunday deydi: "Dramaturg bilan bastakorlarning hamjihatligi

haqida soatlab gapirish mumkin. Bastakor To'xtasin Jalilov bilan Sobir Abdulla "Tohir va Zuhra", "Alpomish" musiqali dramalari ustida ish olib borganlari hali-hanuz yodimda. Barcha ijodkorlar Sobir Abdullaning bog'ida to'planishar, domla matnni yozib tursalar, To'xtasin aka kuyini bastalab o'sha yerning o'zida ijrochilarga aytirib ko'rardilar. Hozir dramaturg o'zicha ishlaydi, bastakor o'zicha. Natijada, kuy va so'z bir-biriga singib, uyg'unlashib ketmaydi" [1.18-b.].

O'zbek musiqali dramasi G'arb musiqali teatri asarlaridan farqli, o'ziga xos tomonlari nimada? Fikrimizcha, eng muhim o'ziga xoslik o'zbek musiqali dramasi asosida libretto emas, to'laqonli pyesa yotishidir. O'zbek musiqali teatrida dramaturgiya ham, musiqa ham teng huquqli asoslarga ega. Yana buning ustiga o'zbek musiqali teatri ham syujet, ham musiqiy jihatlar bilan chuqur milliy asarlar bilan alohida ajralib turadi. "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Gul va Navro'z" va boshqa sahna asarlari fikrimizning dalilidir.

Musiqali teatr yozma dramaturgiyasining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, ozarbayjon dramaturglaridan F.Oxundov, U.Hojibekov, keyinroq o'zbek musiqali teatri asoschilari bo'lmish H.Zafariy, Xurshid, Z.Fatxullin, K.Yashin kabi mualliflarning musiqali teatr uchun yozgan maxsus asarlarini uchratishimiz mumkin. E'tibor bersak, XX asrning boshiga kelib, professional musiqali teatri o'zining shakllanish bosqichiga kirdi. Qisqa vaqt ichida musiqali teatr dramaturgiyasi asosida sahnalashtirilgan spektakllar saviyasi yuqori darajaga ko'tarildi, tomoshaviyligi va mashhurliqi havas qilarli darajaga yetdi.

O'zbek musiqali dramasi yuzaga kelishi va shakllanishida zabardast namoyandalimiz jonbozlik ko'rsatdilar. Ular orasida M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy, H.Niyoziy, M.Qoriyoqubov, M.Uyg'ur, G.Zafariy, Sh.Xurshid, Cho'lpon, T.Jalilov, Tamaraxonim, N.Yo'ldoshxo'jayeva, Usta Olim Komilov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Hoji Siddiq, Y.Rajabiy, M.Qoriyeva, Lutfixonim Sarimsoqova, Tolibjon Sodiqov, M.Tojizodalar kabi nomlar bor. Shuningdek, boshqa millat vakillaridan V.Uspenskiy, A.Kozlovskiy, G.Mushel, R.Glier, S.Vasilenkolar ham samarali hissa qo'shdilar.

"Musiqali spektaklda aktyorlik ijrosi ashulaga qo'shimcha emas. Bu aktyorning sahnada obrazda yashash shakli. Bunda kuylash, berilgan xatti-harakatning jonli oqimiga aylanadi" [2.]. Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatrida namoyish etilayotgan asarlar insonlar ko'ngliga ezgulik urug'ini sochish, ularni ogohlikka chaqirish va ma'naviy tarbiyalash mavzularida sahnalashtirilmoqda. Teatr faoliyatidagi yutuqlar, ayniqsa, mustaqillik yillaridan keyin yaratilgan ko'plab asarlar o'zining g'oyaviy jihatdan yangiligi, mavzularning dolzarbligi va ijrodagi tabiiyligi bilan yanada qimmatlidir.

Teatrdan har gal tomoshabinlarga yangi asar namoyish etilar ekan, uning har tomonlama mukammal bo'lishiga ahamiyat qaratiladi. Ayniqsa, yaratilajak spektaklning mavzusi, unda ilgari surilgan g'oya, janr va shakliga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun ham mazkur dargohda sahnalashtirilayotgan asarlarning aksariyat qismi haqiqatdan ham yangicha yondashuv va g'oyat dolzarbligi bilan qimmatlidir. Dramaturg yaratgan asargi voqealar professional aktyorlar ijrosida tomoshabinlar qalbiga kirib boradi. Bundan tashqari, spektaklning tomoshabop va yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lishida bastakorlarning ham xizmatlari beqiyosdir. Shuningdek, uning har bir ko'rinish, voqealar rivoji, muhit bilan hamohang tarzda qahramon kechmishini ham so'zsiz bayon eta oluvchi musiqalarni o'z o'rinda qo'llay bilganliklari spektaklning ta'sir doirasini tobora kengaytirgani sir emas.

Spektaklning yetuk bo'lishi bastakorlarning boy tajribasi, ariya, duet va xorlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning barchasi voqealar, muhit va qahramonlar holatiga shu darajada ustalik bilan tanlanadiki, spektaklning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Albatta, ularning yuksak e'tirofqa ega bo'lishida musiqalarga mos tarzda qahramon dardu alami, quvonch va shodligi, xullas, ichki kechinmalarini ta'sirchan so'zlar bilan xalqona tilda qog'ozga tushirgan shoirlarning ham hissasi kattadir. Aynan mana shu muvaffaqiyat, shunday go'zal ijodiy asarni tomosha qila turib, teatrlarga, ayniqsa, musiqali teatrlarga professional shoirlarni jalb etish kerakdir, degan fikr tug'iladi. Chunki aynan ular bilan hamkorlikda ishlash spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlash barobarida uning ta'sirchanligi va hayotiylikni ham yuksaltirishiga ijodiy jamoa biriligining mahsuli sifatida xizmat qiladi.

"Musiqachilar, ashulachilar, raqqosalar – baxtli odamlar, chunki ularda temporitm muammosi oldindan hal qilingan. Musiq bizga tuyg'ularni bildiradi, lekin aktyor shu tug'ularni xatti-harakatlarga ko'chira bilish kerak... Musiq bizga tuyg'ular mantig'ini ochib beradi, uning yordamida xatti-harakat mantig'i topiladi va mana shu xatti-harakatlarni bajara borib, biz ijod paytida, musiq bergan tuyg'ularga qaytamiz" [3.27-b.], – deydi K.S.Stanislavskiy.

Teatrning butun tarixi davomida zamonaviy mavzuni janr va tomoshabin estetik ehtiyojiga mos tomoshaviy, ayniqsa, musiqali omma didiga o'tiradigan, shu jumladan, janrning hamma talablari yaxlit musiqiy dramaturgiyasidan tashqari ariya, duet, xor, raqs singari tarkibiy qismlarni o'zida jam etgan tarzda yaratilgan bo'lishi doimo dolzarb bo'lib qoldi. Bu sohada ilk va samarali yutuq "Nurxon" edi. Bundan keyin shunga yaqin natijaga "Oltin ko'l" va "Vatan ishq" spektakllari misolida erishildi.

Yildan-yilga teatr repertuari shakl, g'oya va janr jihatidan rang-barang spektakllar bilan boyib borish asnosida sahnada yangi, yosh iqtidorli ijrochilar ham o'zlarini professional san'atkorlar bilan hamkorlikdagi ijrolarini namoyish etmoqdalar. Spektakllarning barchasi ijro mahoratidagi yangiliklar, birinchi planga olib chiqilgan mavzu va uning yangicha talqini bilan boshqalardan farq qilar ekan, tomoshabin hamda teatr o'rtasidagi uzilmas rishtani tobora mustahkamlanishiga ham zamin yaratmoqda. Bunga esa teatr jamoasidagi har bir ijodkorning tinimsiz izlanishlari va mehnatlari sabab bo'lmoqda. Tomoshabinlar hukmiga havola etilayotgan har bir asar badiiy yuksakligi va ijroviy mukammalligi bilan yanada qimmatlidir.

Ish bor joyda xato bor, deb bejiz aytishmagan. Chindan ham har qanday mukammallik dastlab yo'l qo'yilgan xatolar natijasida ravnaq topadi. Teatrdan esa spektakllar qayta va qayta namoyish etilar ekan, ularni albatta, to'g'rilab ketishning iloji bor. Shuni inobatga olgan holda aktyorlar masalaning bu tomoniga jiddiy e'tibor qaratishlariga ishonamiz. Yana shunisi ham borki, badiiy asarning mavzusi bittagina bo'lmaydi. Har bir obrazning, har bir ko'rinish yoki pardaning o'z mavzusi bo'ladi. Bu o'rinda biz bosh mavzuni aniqlab olish haqida so'z yuritmoqdamiz. Bosh mavzuni aniqlamay turib, g'oyani aniqlab olish mumkin emas. Gohida rejissyor asosiy mavzuni aniqlab olmagan sababli, spektakl muvaffaqiyatga erisholmaydi. Bundan xulosa qilish mumkinki, mavzuni aniqlab olish spektakl badiiy yaxlitligining yana bir garovidir.

G'oya – pyesada muallif nima demoqchi bo'lganini ko'rsatib beruvchi asosiy fikrdir. G'oya spektaklda shunday yorqin bo'y ko'rsatishi kerakki, u tomoshabin qalbini junbushga keltira olsun. Agar rejissyor pyesani o'qib, uning g'oyasini aytib berolmas ekan, u buni tushunib yetmaguncha sahna asarining yaxlit spektaklga aylanishi gumon bo'lib qoladi. Mavzu deyarli har doim aniq bo'ladi, g'oya esa badiiylik zamiriga chuqur yashiringan bo'ladi. Uni xulosa va umumlashma, deyish ham o'rindir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matluba Temur qizi. "Sahna xiyonatni kechirmaydi". "Teatr" jurnali, 2008-yil, 4-son.
2. Stanislavskiy KS. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2010-y.
3. Pokrovskiy P. Opera rejissurasi haqida. – Moskva: VTO, 1973-y.
4. Mahmudova H.A. Sahnaviy asarning xatti-harakat tahlili. – T.: "Fan va texnologiya", 2015-y.

ИСТОРИЯ ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ И СТАНОВЛЕНИЯ КАРАКАЛПАКСКОГО ТЕАТРА

Аннотация. В данной статье автор перед собой ставит цель ознакомить читателей историей становления каракалпакского театрального искусства, которая непосредственно связана с влиянием других соседних народов. О первых кружках и художественной самодеятельности и открытия национальной труппы «Тан нуры» и подготовке первых профессиональных творческих работников, которые обучались в ГИТИСе в 30-ые годы XX века в Москве.

Ключевые слова: театр, народ, искусство, театральное зрелище, музыкальные инструменты, национальные обряды, баксы-жырау, дастан, музыканты-самородки, драматический кружок, литература, постановка, спектакль, режиссер, актер.

QORAQALPOQ TEATRINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, muallif jurnalxonlarni qoraqalpoq teatr san'atin ing shakllanish tarixi bilan tanishtirishni maqsad qilib oldi. Shuningdek, to'garaklar va badiiy "Tong nuri" milliy truppasini ochilishi hamda Moskvada XX asr 30-yillari GITISda tahsil olgan ijodiy xodimlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: teatr, xalq, san'at, teatr tomoshasi, musiqa asboblari, milliy odatlar, baxshi-jirau, doston, havaskor musiqachilar, dramatik to'garak, adabiyot, spektakl, rejissyor, aktyor.

HISTORY OF THE PATH OF FORMATION KARAKALPAK THEATER

Abstract. This article author sets himself the goal of introducing readers to the history of the formation of karakalpak theatrical art, which is directly related to the influence of other neighboring peoples. About the first circles and amateur performances and the opening of the national troupe "Tan Nuri" and the training of the first professional creative workers who studied at GITIS in the 30s of the XX century in Moscow.

Key words: theatre, people, art, theatrical spectacle, musical instruments, national rites, baxsi-zhirau, dastan, musicians-nuggets, drama circle, literature, production, performance, director, actor, skill of actor.

Становление и развитие театрально-зрелищного искусства в Каракалпакстане это неотъемлемая часть истории духовного развития народа. Каракалпакский народ является одним из древнейших народов мира и создателей богатейшего культурного наследия в Центральной Азии. Каракалпаки до XX века традиционно вели полукочевой образ жизни. Как бы не было трудно кочевой образ жизни, но ничто не могло остановить стремление народа к просвещению и развитию своей культуры. Только сохранившийся до наших дней фольклор поражает присущее ему оригинальностью и самобытностью. Можно назвать десятки дастанов, которые исполняются в музыкальном сопровождении местными жырау-баксы, дутарами и шынкобыз. Творчество жырау-баксы были посвящены народным героям, о них пели и слагали дастаны. Одним из важных потребностей духовной жизни народ являлось театрально-зрелищное искусство.

До начало XX века театр, которого мы привыкли видеть сегодня как таковой не было. У нас основными носителями искусства были жырау-баксы, народные сказители, музыканты-самородки из народа. Испокон веков они проделали огромную работу передавая из уста в уста сохраняя эпические легенды, предания и все богатство народного фольклора. Предыстория теоретического культурного образования на территории Каракалпакстана уходят своими корнями в XIX век. Первые учебные занятия в этом направлении начались в 1874 году, когда в

Петро-Александровске (ныне г. Турткуль) открылся начальный музыкальный русский класс. Через четыре года на базе этого класса открывается литературно-художественное музыкальное училище. При училище для детей состоятельных родителей, а также для представителей коренных национальностей в том числе и для каракалпаков. Учащиеся литературно-художественного училища давали представления в общественных местах и клубах. Подобные музыкальные вечера проводились также в г. Чимбае, Шурахане, Нукусе, Кунграде, Ходжейли, где были русские школы в местах компактного проживания русских казаков-уральцев.

«Театр как признак совершенствования нации не может быть результатом культурного наследия только лишь одного народа. Он впитывает в себя художественный опыт всего прогрессивного человечества, преломленный через национальную призму» (Т.Алланазаров «Некоторые вопросы истории каракалпакской драматургии», стр.3).

Влияние и воздействие русской культуры на искусство народов Средней Азии имеет свою историю, начавшееся задолго до октябрьских событий 1917 года. Анализируя явления развития современного театра мы не должны забывать о тех исторических предпосылках, которые создали условия для активного сближения с русской культурой до 20-х годов XX столетия. Первые сведения имеются о Петро-Александровском драматическом кружке к 1879 году. В этом кружке ставятся спектакли русских

и западно-европейских классиков. В одной из газет старого Туркестана «Окраина» имеется специальная рецензия на одну из постановок в которой сказано: *«Не мало творчески одаренных и интересных людей подвизались на любительских сценах, даже в таком захолустье каким был Петро-Александровск. Здесь выделялся некто артист Травин. Он был прекрасно загримирован, типично одет, взяв верный тон, он держал его до конца, не извивался и не терял его, был местами очень сердечен и драматичен. И нотки драматичности порой некоторых из публики доводят до невольных слез»* (Газета «Окраина» от 29 марта 1891 года, № 39, стр.3).

В 1874 году из Санкт-Петербурга с экспедицией в Амударьинский отдел приезжает русский художник Николай Каразин. В его воспоминаниях имеется ряд фактов о распространении русской музыкальной культуры среди местного населения. Он пишет так: *«В местности Кусканатау, где расположился военный лазарет с 600-ми русскими солдатами, были организованы русские хоровые театральные кружки»* (Н.Каразин. «В низовьях Аму», гл. 2, «Вестник Европы», Спб. 1875 г., стр.194).

Такие сведения имеются и в воспоминаниях другого художника путешественника Л. Е. Дмитриева-Кавказского, посетившего наш край в 1887 году. «Получал я приглашение от начальника Амударьинского отдела, генерал-майора К.О.Разгонова: «Сегодня музыкальный вечер». В другом месте его воспоминаний пишется так: «Кругом полная тишина, изредка доносится из Петро-Александровска песни, музыка солдат». Таких сведений о распространении передовой русской культуры, искусства и театра имеются немало. Есть даже факты, где ощущаешь душу замечательного художника Л. Е. Дмитриева-Кавказского. Вот как прекрасно им описан один из эпизодов из своего пребывания: *«И вот ясно слышу я чудное пение хором. Уж как будто близко яснее плывет хор, сторойный русский мотив вниз по матушке по Волге. И широко разносится песня в этом не объятном просторе дикой пустыни Азии. Прилетели наши молодцы с песнею...Обаятельная ночь. Я никогда в жизни ни в одном концерте, ни в одной опере не получал такого высокого эстетического наслаждения как в эту ночь на диких берегах Амударьи от простой русской песни, спетой десятками измученных солдат. Да, сильна была эта песня в эту тихую лунную ночь на берегу Амударьи»* (Л.Е.Дмитриев-Кавказский. «По Средней Азии», Санкт-Петербург, 1893 г., стр.61).

Имеются множество материалов, где говорится о горячем увлечении местной молодежи русскими музыкальными инструментами, распространенными русскими торговцами. В воспоминаниях художника Николая Каразина есть очень интересные сведения, где говорится о торжественной встрече участников экспедиции с градоначальником г. Петро-Александровска на Сарыбийском участке. На этой встрече один из местных гармонистов искусно исполнил русский торжественный марш. Хорошим распространителем русской театральной культуры была местная татарская молодежь. Все эти события безусловно создали предпосылки к ознакомле-

нию местного населения с театральным искусством и через него с литературным жанром драмы. Уже с конца 1917 года в Петро-Александровске создается солдатский самодеятельный кружок, который по составу участников был интернациональным. С выходом в свет известного постановления Наркомпроса РСФСР в январе 1918 года об образовании театрального отдела (ТЕО) один за другим начинают появляться самодеятельные кружки в различных культпросвет учреждениях. В 1919 году в Петро-Александровске открывается первое государственное учреждения искусства, отделение муздрамобщества РСФСР на которое возлагаются обязанности объединения и руководства театрально-самодеятельными кружками Амударьинского отдела, пригласить из центральных городов профессиональных коллективов театра и цирковых групп.

В целях дальнейшего укрепления разрозненных театральных кружков для создания им наилучших условий исполком совета депутатов трудящихся Амударьинского отдела постановлением от 15. 09. 1921 года открывает в городе Турткуле городской клуб, библиотеку и кинотеатр. При клубе были организованы различные театральные кружки укрупненного типа русские, узбекские, татарские и казахские. Городской клуб становится центром методического руководства отдела. В составе русского кружка были К.В.Белокуров, Е.Ф.Родионова, Ч.Е.Гулякова, Л.Ф.Сотникова, В.В.Юзимченко, А.И.Корнилов и другие. Кружок ставил такие пьесы как «Поздняя любовь», «На бойком месте», А.Н.Островского «Медведь», «Предложение» А.П.Чехова и другие спектакли. Руководителем татарского муздрамкружка был Канеев. В составе кружка было 18 человек и они ставили «Зангар шал» К.Тинчурина, «Башмагым» Х.Ибрагимова, «Галия бану» М.Файзи и другие пьесы. Узбекским драмкружком руководил бывший начальник милиции Амударьинского отдела Атаджанов и местный гармонист Джуманияз, казахским драмкружком преподаватель Ильяс Ибрагимов. В 1925 году по поручению каракалпакского областного исполкома З.Ф.Касимов организует первую каракалпакскую национальную труппу в составе тринадцати человек. После первой постановки кружка историческая драма «Тилек жолында» («На пути к мечте») К.Авезова в январе 1926 года по рекомендации ККоблисполкома присваивается наименование каракалпакская труппа «Тан нуры». Это означало, что она должна была явиться зарей каракалпакского национального театра. В дальнейшем труппа «Тан нуры» стала основой по сей день ныне действующего Каракалпакского государственного академического театра музыкальной комедии им. Бердаха.

Очень важным мероприятием этого периода весьма способствовавшим формированию каракалпакского национального театра была реорганизация Турткульского городского рабочего клуба в гостеатр, с соответствующим ассигнованием средств из госбюджета на нужды театра. Эти мероприятия проводятся в 1925 году, после образования ККАО по инициативе культпросвет отдела обкома и по решению облисполкома от 15 сентября 1925 года за №

57/3 с тем, чтобы упорядочить и улучшить качество работы ранее существовавших русских, татарских, узбекских и казахских театральных кружков и вновь организованной каракалпакской национальной труппы. Очень важный положительный итог всей работы состоял в том, что создается единое идейное и административно-хозяйственное руководство всеми кружками. Таким образом возникли лучшие условия общение кружков и взаимного обогащения опытом. Жители города постепенно привыкали посещать все спектакли независимо от того на каком языке они игрались и какой кружок ставил. Осенью 1926 года открывается занавес с премьерой спектакля по пьесе К.Авезова «Тилек жолында». Режиссерами-постановщиками спектакля являются З.Ф.Касимов и директор педтехникума Тухватуллин. Они сами оформляют сценические декорации, используя народную музыку. Осуществляя постановку пьесы на сцене они сталкиваются со многими трудностями. В клубе не было электричества, на сцену и в залы ставят керосиновые фонари. В связи с дефицитом керосина многие лампы то горели, то тухли. Сценические костюмы героев и участников спектакля приходилось временно собрать и занимать у народа. В 1930 году решением совета народных комиссаров от 15 декабря национальная труппа «Танг нуры» реорганизуется в Каракалпакский государственный национальный театр (Из книги К.Авезова «Произведения и переводы», Нукус, изд. «Каракалпакстан», 1987 г., стр. 230).

В 30-ые годы XX-го столетия в Москве при ГИТИСе были организованы специальные мастерские, готовящие актеров для национальных республик. Одним из первых были открыты казахская, осетинская, а затем таджикская и туркменская студии. Во второй половине 30-ых годов работали уже чечено-ингушская, кабардинская, адыгейская национальные студии. Если даже в г. Турткуле открылся государственный театр, но все равно не хватало профессиональные творческие работники. И поэтому учитывая острую нужду в нехватке и отсутствий специально подготовленных профессиональных кадрах руководство автономной республики Каракалпакстан обращается в Минкультуру РСФСР с просьбой об открытии при ГИТИСе им. А.В.Луначарского каракалпакской студии. Получив положительный ответ от Минкультуры РСФСР и группа из каракалпакской молодежи направляется на учебу в Москву. Тогда директором ГИТИСа была А.Н.Фурманова, жена известного писателя Д.И.Фурманова. С решением руководства ГИТИСа курсовым руководителем каракалпакской студии назначается воспитанница самого К.С.Станиславского О.И.Пыжова и молодой педагог Б.В.Бибигов.

«Как нам известно перед всеми педагогами те-

атральной школы по отношению к каждому ученику стоят две основные задачи: формирование творческой личности ученика и раскрытие этой личности. Первая задача включает эстетическое и дисциплинарно-этическое воспитание будущего актера (формировать мировоззрение, художественного вкуса и морального облика). Раскрытие творческой индивидуальности достигается преимущественно путем профессионального воспитания будущего актера. Лучшие преподаватели актерского мастерства стремятся помогать своим ученикам объединить в своей творческой практике все знания и умения, приобретенные ими за годы обучения в стенах театральной школы» (Б.Е.Захава. «Мастерство актера и режиссера», изд. «Искусство», Москва, 1969 г., стр.66.).

Первые занятия по актерскому мастерству проходили не так, как хотелось бы педагогам. У педагогов сложилось впечатление, что студенты слушают, что говорят педагоги и одновременно не слышат ничего. Причиной всего послужило то, что студенты не понимали русского, а педагоги не знали каракалпакского языка. Поэтому педагогам было очень трудно проходить занятие по специализации, объяснить им то, что связано с элементами актерского мастерства и прочее. *«Исходя из архивных данных до 1917 года грамотные и образованные люди, которые умели читать и писать составляли только 1% населения Каракалпакстана. К 1928 году до 6%, а к 1934 году в связи с ликбезом достигло до 32%» (К.Авезов. «Произведения и переводы», Нукус, «Каракалпакстан», 1987 г., стр.230).*

Первая каракалпакская студия во основном были отобраны из различных кружков и участников художественной самодеятельности. В их составе была молодежь из разных слоев населения: учителя начальных классов, начинающие свой путь писатели, чабаны, простые колхозники и ремесленники. Большинство из них не имели никакого представления об актерской профессии. Через определенное время у студентов появилась любовь к знанию русского языка и они начали глубоко понимать и изучать систему К.С.Станиславского. В конечном итоге они с достоинством сдали дипломные спектакли: а) «Проделки Скапена» Ж.Б.Мольера; б) «Первая конная» Всеволод Вишневского; в) «Бедность не порок» А.Н.Островского. Задача и цель руководителей курса по актерскому мастерству была достигнута!

Неимоверный труд и всего преподавательского состава по подготовке первых каракалпакских профессиональных студийцев по школе прогрессивного переживания по системе К.С.Станиславского до сегодняшнего дня воспринимается в качестве победы всего каракалпакского театрального искусства.

Использованная литература:

1. Газета «Окраина» от 29 марта 1891 года, № 39, стр.3.
2. Николай Каразин. «В низовьях Аму», гл.2, «Вестник Европы» Спб, 1875, стр. 194.
3. Дмитриев-Кавказский Л.Е. По Средней Азии. – Санкт-Петербург: 1893 г., стр.61.
4. Авезов К. Произведения и переводы. – Нукус: «Каракалпакстан», 1987 г., стр.230.
5. Захава Б.Е. Мастерство актера и режиссера. – Москва: «Искусство», 1969 г., стр.66.
6. Алланазаров Т. Некоторые вопросы истории каракалпакской драматургии. – Н.: «Каракалпакстан», 1987 г., стр.3.

O'ZBEK KINOSIDA FOLKLOR MAVZUSI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek kinosida folklor mavzuga murojaat, birinchi folklor qahramonlarning milliy kinematografga kirib kelishi, uning sabablari va bugungi ijodiy jarayonlar masalalari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada folklorning kino san'atiga ko'chishidagi ijodiy jarayonlar, ikki mustaqil turning o'zaro ta'sirlanuvidadagi badiiy jihatlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: folklor, epos, qahramon, kino, talqin, obraz, syujet, ijro, personaj, kinematograf.

ТЕМА ФОЛЬКЛОРА В УЗБЕКСКОЕ КИНО

Аннотация. В статье исследуются обращение к фольклору в узбекском кино, приход первых народных героев в отечественный кинематограф, его причины и современные творческие процессы. Также в статье анализируются творческие процессы переноса фольклора в киноискусство, художественные аспекты взаимодействия двух самостоятельных жанров.

Ключевые слова: фольклор, эпос, герой, фильм, интерпретация, образ, сюжет, исполнение, персонаж, кинематограф.

THE THEME OF FOLKLORE IN UZBEK CINEMA

Abstract. The article examines the appeal to folklore in Uzbek cinema, the arrival of the first folk heroes in domestic cinema, its reasons and modern creative processes. The article also analyzes the creative processes of transferring folklore into cinema, the artistic aspects of the interaction of two independent genres.

Key words: folklore, epic, hero, film, interpretation, image, plot, performance, character, cinema.

Kinematografda xalq og'zaki ijodi, folklor janrlar, epos va dostonlardagi asosiy motivlar, ertaklardan ko'chib kelayotgan syujetlar, yetakchi obrazlar funksiyalaridagi o'xshash jihatlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ayni jihat mavzuni chuqurroq va atroflicha o'rganishga undaydi.

Jahon kinematografida folklor har doim mustahkam o'rin egallab kelgan. Bu mavzu amaliyotchilarni ham, nazariyotchilarni ham birdek qiziqtirib keladi. Xususan, rus bolalar kinosida ertak va folklor an'analarni ilmiy o'rgangan Nina Sputnitskaya ertakni ekranlashtirish, unda dramaturgiya masalalari, folklor an'analarning kino ssenariyga ko'chish jarayonlari, folklorning badiiy tabiati, folklor qahramonlarini muallif interpretatsiyasida o'zgarish jarayonlari kabi qator masalalarga aniq faktlar orqali tahlil qilgan.

Bugun kinoda folklor mavzusi juda qiziqarli obyekt bo'lib qolmoqda. Kinoijodkorlarning folklorga murojaati nazariyotchilarni ertak, doston, afsona va milliy qadriyatlarni chuqur o'rganib, milliy va xorijiy

folklorshunoslikning nazariy merosiga murojaat qilishga undamoqda. Abatta, kinoda folklor mavzusi ko'plab olimlarning bahslariga ham sabab bo'lmoqda.

Kinematografda folklor mavzusiga murojaat, ya'ni doston qahramonlarning kinoga ko'chishi, eposning mifologik strukturasi, ertaklarni ekranlashtirish masalasi qator nazariyotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Xususan, V.Y.Propp¹, N.Y.Sputnitskaya², J.Kempbell³, K.Vogler⁴ kabi olimlar folklor komponentlari, uni ekranga ko'chish jarayonlarini turli rakurslardan o'rgandi.

O'zbek kinosida folklor mavzusi yaxlit bir mavzu doirasida o'rganilmagan bo'lsa-da, folklori adabiyot, teatrdagi o'rni XX asr boshlaridan bugunga qadar O.Tojiboyeva⁵, Sh.Eshonboboyeva⁶ kabi olimlar tomonidan izchil va uzluksiz o'rganib kelinmoqda.

Folklor uzluksiz transformatsion holatda qadimdan bugungacha yashab kelayotgan, ayni ko'rinishda birlamchi arxetipik obrazlarni o'zida saqlagan, qahramonlari tillardan tillarga ko'chib, sayyor syujetlari turlicha jilolanib, tinglagan va tomosha qilgan qalblarga hayot zavqi, qahramonlik kayfiyatini ulashib kelayotgan qadriyatdir. Folklor kinoga ko'char ekan ba'zan uning mazmun-mohiyatida ayrim o'zgarishlar sodir bo'lishi, davr o'zgarishlari tufayli badiiy ifoda vositalarining o'ziga xos o'zgarib turishi tabiiy jarayondir. Mana shunday evrilishlar bilan ekranga ko'chayotgan folklor an'analarni bugun birgina qahramon Nasriddin misolida ko'rib chiqamiz.

Xo'ja Nasriddin — Sharq xalqlarining folklor qahramoni. Qisqa yumoristik, satirik miniatyura va latifalar, ba'zan kundalik ertaklarning qahramoni hisoblanadi. Uni tarixda yashab o'tgan shaxs sifatida ham da'volar bo'lib turadi. Hatto, ayrim joylarda Xo'ja

¹Пропп В.Я. Собрание трудов. Русский героический эпос. — Москва: Лабиринт, 1999 г. 638 с.

²Спутницкая Н.Ю. Волшебная сказка и фольклорные традиции в российском детском кино. На материале игровых фильмов. 1930–2000-х гг.

³Кэмпбелл Дж. Тысячеликий герой. — СПб.: Питер, 2018. <http://royalib.ru/book>.

⁴Воглер К. Путешествие писателя. Мифологические структуры в литературе и кино. — М.: Альпина нон-фикшн, 2015 г. 476 с.

⁵Tojiboyeva O. Epos va teatr. Birinchi kitob. — Toshkent: "San'at" jurnali nashriyoti, 2015-y. 240-b. Ikkinchi kitob. — T.: "San'at" jurnali nashriyoti, 2016-y. 208-b.

⁶Eshonboboyeva Sh. O'zbek xalq eposi va kinodramaturgiya genezisi masalalari. 10.00.08 — Folklorshunoslik. — T.: 2023-y.

Nasriddinning qabr toshi ham o'rnatilgan⁷. Lekin Nasriddinning aniq tug'ilgan sanasi yoki joyi haqida tasdiqlangan ma'lumotlar mavjud emas.

O'zbek badiiy kinosida folklorga murojaat ham ayni qahramon bilan boshlangan. "Nasriddin Buxoroda" filmi ham bejiz ayni urush yillari ekranga chiqmadi. Sababi xalqning qahramonona hayoti, o'zining rivoyat va afsonalariga ko'chgan personaji, tarixiy tajribasi va badiiy obrazlar bilan qorishib ketgan syujetni ekranlashtirish orqali kinoijodkorlar ko'zlagan maqsadiga erishdi.

Qirqinchiyillardamilliy sahnavaekranqahramonlarini yaratish, dostonchilik va xalq og'zaki ijodiga murojaat, tarixiy shaxs siymosini jonlantirishga intilish orqali qadriyatlarni tiklashga harakat qilindi. Lekin "Dramatik teatrlarning repertuari va uni yaxshilash tadbirlari haqida" VKP(b) Markaziy Komitetining 1946-yil 26-avgust qaroridan so'ng O'zbekistonda ham jarayon avj oldi. 1946-yil 1-oktyabrda bo'lib o'tgan san'at xodimlarining respublika yig'ilishida teatr repertuarlari masalasi ko'rib chiqildi. Unda Hamza teatri *"repertuarida 12 ta pyesa bor, shundan 6 tasi zamonaviy, 1 tasi O'zbekiston mavzusida, qolgani tarixiy"* ekanligi ta'kidlanib, teatr rahbari Uyg'urning tarixiy mavzularga ko'p qo'l urayotganligi, asarlarda feodal o'tmish, tarixiy shaxslar ulug'langanligi tanqid qilingan⁸. Ko'rinadiki, bu davrda yaratilgan qahramonlarda kurashuvchanlik, hurlikka intilish, ozodlik sog'inchi yetakchilik qildi. Davr talabi bilan sahna va ekran asarlarining bari ijrochilikda qahramonona-romantik shakl ustuvorlik qildi.

"Nasriddin Buxoroda" filmida xalqning orzu-umidlari, azaliy istaklari xalqona tilda taqdim etilgan. Shuningdek, filmdan mifologiya yoki lirikaga xos metafora, majoz, ramziy o'xshatishlar ham o'rin oldi. Film mazmuniga qo'yiladigan bosh talablaridan biri – uning qahramonlik xarakterida bo'lishi edi. Ayni filmida xalqning ideal qahramoni obrazi ifodalandi. Zotan, urush yillari xalqning ruhini ko'tarish, unga dalda bo'lish, motivatsiya berish, ruhlantirish asosiy maqsad edi. Va aynan Nasriddin bu maqsad yo'lida eng munosib qahramon edi. Chunki qaddi tobora bukilib borayotgan, kayfiyati tushkun xalq uchun bir chimdim yumor va o'zining qahramonligi bilan avlodlarga o'rnak sifatida namuna bo'lib kelayotgan Nasriddin ekranga chiqishi shart edi. Nasriddin badiiy umumlashtirilgan obraz sifatida ifodalanadi. Nasriddin xalqning buyuk g'oyalari uchun kurashuvchi shaxs. U juda ko'p sinovlar, kurashlar, to'siqlarni yengib o'tib, vatanga muhabbat, sevgiga, do'stga sodiqlik, va'daga vafo, mardlik, jasurlik fazilatlarini namoyon etadi.

Urush davrida Toshkentga evakuatsiya qilingan arboblarda orasida Y.Protozanov, M.Romm, L.Lukov, A.Zarxi, I.Xeyfits kabi kinorejissyorlar ham bo'lib, ular urush yillari O'zbekistonda ijod qildi. *"Filmni*

*("Nasriddin Buxoroda") qo'yish masalasi uzil-kesil hal bo'lganida, asarni Toshkentda yaratish uchun qat'iylik bilan kirishganimning sababi – Sharqda mashhur xushchaqchaq qahramon haqidagi film ishlash ikki yoqlama foydali edi. Birinchidan, front va front ortidagilar hordiq chiqarsa, ikkinchidan Toshkentda o'zbek xalqi hayoti haqidagi filmlar yaratish kerakligini eslatib turadi. Men bu asar hayotiy bo'lishini, unda o'zbek xalq folklori ruhiga zid bo'luvchi hech qanday unsur bo'lmasligini istardim"*⁹, – deydi Y.Protozanov.

O'zbek aktyorlik san'atining shakllanishi hamda milliy xususiyatlarini aks ettirishda folklor motivlarining ahamiyati katta. Milliy ovozi kinoning ilk yirik izlanishlari ham folklorga murojaat bilan boshlandi. "Kino ovozi bo'lgach, suratga olingan dastlabki yorqin milliy tasmlar – *"Nasriddin Buxoroda"* va *"Nasriddinning sarguzashtlari"* edi"¹⁰.

Urush yillarida o'zbek san'atida tarixiy mavzu, xususan, folklorga qiziqish ortdi. O'zbek adabiyoti, teatr, kino va tasviriy san'atidagi vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stlik, qahramonlik g'oyalardan ijodkorlar xalq ruhiyatini ko'tarishda foydalandi. Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek teatr va kino san'ati o'ziga xos yangicha yo'lida rivojlandi. Avval cheklanib kelingan vatanparvarlik hamda xalq o'tmishidan faxrlanish tuyg'ulariga katta ahamiyat qaratildi. Natijada adabiyot va teatrdagi bo'lgani kabi 1941–1946-yillar orasida milliy kinematografiyada ham folklorga asoslangan *"Nasriddin Buxoroda"*, *"Nasriddinning sarguzashtlari"*, *"Tohir va Zuhra"* kabi filmlar dunyoga keldi.

Urush munosabati bilan Moskva, Leningrad, Kiyev, Odessadan teatr va kinematografiyaning I.N.Bersenov, S.M.Mixovels, L.Sverdlin, Y.Protozanov, L.D.Lukov, Y.Gabriyelovich, I.Y.Xeyfits, N.A.Zarxi kabi ijodkorlar O'zbekistonga evakuatsiya qilindi. Natijada urush yillarida ham ijodiy jarayonning davom etishi ta'minlandi va o'zbek san'atkorlarining tajriba orttirishlari, yangi ijodiy ko'nikmalarga erishishlariga zamin yaratildi. O'zbek kinosida folklor motivlarining ekranlashtirilishi Y.Protozanovning 1943-yilda katta ekranlarda namoyish etilgan *"Nasriddin Buxoroda"* filmi bilan boshlandi. Xo'ja Nasriddin obrazi an'anaviy xalq og'zaki ijodining deyarli barcha janrlari – latifa, askiya, lof va ertaklarda uchraydi. Rejissyor murakkab talqin talab qiluvchi Nasriddin obraziga L.Sverdlin yoki M.Jarov nomzodlaridan birini ko'zda tutardi. Yakuniy tanlovda Nasriddin roliga Sharq mentalitetini yaxshi bilgan, Samarqandda tug'ilgan, Moskvadagi o'zbek teatr studiyasida *"Biomexanika"* fanidan sahna harakati, plastika, mimika bilan ishlash texnikasidan dars bergan L.Sverdlin tasdiqlandi. L.Sverdlinning organikasi, texnik imkoniyatlari bilan rol yanada boyidi, deyish mumkin.

Rejissyor L.Sverdlinning xatti-harakatlarning hayotiyli, izchilligi, uzviyligi, mantiqiy rivojlanib borishini talab etdi. Aktyor Nasriddinning asosiy g'oyasi, oliy maqsadini tushunishga intildi. *"...Men eshak minishni o'rgandim. Keyin ashula aytishni, o'ynashni, muloqot usullarini, kiyinish va xatti-harakatlarni kuzatib bordim. Rejissyor mashqlarni*

⁷ Turkiyaning Akshehir (Oqshahar) shahrida.

⁸ O'zbekiston MDA, 2087-fond, 1-ro'yxat, 202-ish, 9, 14-varaqlar.

⁹ Akbarov H. Sehrli yog'du. – T.: G'.G'. nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1977-y. 55-b

¹⁰ Капустин М. Поиски свершения и радость открытий. // Комсомолец Узбекистана. 28.02.1974. №42. 3-с.

to'xtating, suratga olish kechikib ketyapti, deb qat'iy talab qilganda ham kuzatishda davom etdim. Niyatim rolni shunday o'ynayki, o'zbeklar meni o'zbek sifatida qabul qilsin"¹¹, – degan edi L.Sverdlin. Aktyor Nasriddinni xalq ozodligi uchun kurashuvchi elparvar sifatida gavdalantirdi. Biroq aktyor ijroda tabiiylikka erishishda qiyinchilikka duch kelgani bois, ortiqcha pantomima va mimikaga berilgani yirik planda sezildi. Aktyor Nasriddindagi hajviy kayfiyat, ustamonlik, ziyraklik, chapanilik, shinavandalikni bo'rtirilgan mimika va boshini haddan ortiq qimirlatish, yuz, tana xatti-harakatlariga zo'r berish bilan ko'rsatdi. Bu esa L.Sverdlinga rejissyor tomonidan yuklangan vazifa edi.

“Nasriddin Buxoroda” filmida tajriba orttirgan N.G'aniyev **“Nasriddinning sarguzashtlari”** kartinasini to'laligicha o'zbek teatri aktyorlari bilan suratga oldi va milliy kinoda keskin burilish yasadi. N.G'aniyev kinoga milliy ruh, ohang olib kirib, respublika teatrlaridan saralangan aktyorlar jamoasini taklif etdi. Natijada rejissyor poytaxt va viloyat teatrlarini puxta bilishi, ijodiy jamoalarning imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishini isbotladi.

O'g'rilik, kissavurlik, ta'magirlik, xotinbozlik, munofiqlik kabi illatlarni satira vositasida ochib bergan **“Nasriddinning sarguzashtlari”** filmi Moskvada (1946-yil 7-aprel) premyera qilindi. **“O'zbek aktyorlik san'atining realistik an'alarini o'zlashtirgan, sahnada tajriba orttirgan san'atkorlar kamera qarshisida sinovdan o'tdi. Rejissyor aktyorlar ijrosida kulgi uyg'otadigan xatti-harakatni, hazil-mutoyibani ko'rib mamnun bo'ldi. Lekin Sharq folklor qahramonining donishmandligini tasvirlash borasida bir aktyor – R.Hamroyevning ijrosi boshqalardan birmuncha ustun turardi”**¹².

R.Hamroyev ijodiy biografiyasida Nasriddin katta voqea bo'lib, uning ilk komik qahramoni kinoda tajriba maydoni va uning prinsiplarini egallashda dadil qadam bo'ldi. Milliy ohang, ruh, tanish ko'chalar, choyxonaning poygagidagi daraxtga ilib qo'yilgan dutor kadrda o'zbekona atmosfera yaratdi. Teatr aktyorlari operator yaratib bergan atmosferaga hamohang harakat qildi.

“Aktyor filmning majoziy yechimida ahamiyatli bo'lib, “ekran antropologiyasi”da “milliy” marker vazifasini bajaradi”¹³. R.Hamroyev harakatlaridagi milliy “marker” chiziqlari, detallaridan qahramoni qalbiga kirishga qulay vosita sifatida foydalandi. U xarakterli-komik rol orqali Nasriddinni xalq himoyachisi sifatini urg'uladi. Dabdabali harakatlardan qochib, qahramon haqqoniyatiga, rolning badiiy tugallanganligiga e'tibor qaratdi.

Aktyor dastlab qahramoniga yarashuvchi tashqi qiyofa topdi – boshiga atlas chorsini kichkina salla qilib tuggan, siyrak soqol, ko'zlari katta-katta,

shalpangquloq, qoramag'iz, o'rta yoshdagi, yumorga moyil qishloq odami. Aktyor ijro orqali an'anaviy teatr vositalariga moyilligi va ixlosini ko'rsatdi. R.Hamroyev qahramoni xatti-harakatlarini psixologik jihatdan asoslashga urinib, o'zidan oldingi ijrodan o'zib ketdi. Filmidagi voqealar vositasida Nasriddinning xarakteri ochilib boradi va avvalgi filmdan farqli ushbu kartinada yumorning zamirida satira emas, balki bezavol kulgi, zukkolik mujassam bo'ladi. R.Hamroyev qahramoni orqali xalqqa **“...baxtli bo'lmoqchimisiz? Buning qoidasi oson. Hech qachon bu meniki, demang. Aksincha, bizniki deng! Bizning – yer, bizning – suv, bizning – qishloq! degan kuningiz baxtga erishasiz. Bor falsafa shunda!”**, – deydi. Aktyor xalqni birlashishga, tarqoqlikdan qochishga, bir yoqadan bosh chiqarishga chaqirdi. R.Hamroyev yaratgan Nasriddinni L.Sverdlin dublyajda rus tilida gapirtirdi.

R.Hamroyev talqinida Xo'ja Nasriddin obrazining yangi traktovkasi topildi. Aktyor Nasriddin konturini ochiq kurashuvchan qahramon sifatida chizdi. Suratga olish maydonchasida rejissyorning fikri ba'zan kinoaktyor uchun qarshi xizmat qiladi. Gap shundaki, rejissyor epizodlarni tanlaydi va aktyorga ularni bo'laklab beradi. Aktyor esa qahramonining muayyan vaqtdagi hissiyoti va xarakterini o'zi topishi kerak¹⁴. Kichik bo'lakchalardagi qahramon hissiyotini to'g'ri topish aktyorning mahoratini ko'rsatadi. Bu o'rinda, aktyor qalbinigina emas, tafakkurini ham faol ishlatishi zarur.

Ikki film ham Nasriddinni **“Yorim ketaman, deydi”** qo'shig'ining xirgoyisi bilan boshlanadi. Rejissyorlar topshirig'i bilan L.Sverdlin va R.Hamroyev eshakka minib, bir qo'shiqni xirgoyi qilib, orqa plandan yirik planga yaqinlashadi. Teatr aktyorlari individual yondashuvda talqin yo'nalishlarini aniqlab oldi. Bir epizod ikki aktyor tomonidan turlicha talqin etildi. L.Sverdlinni qo'shiq mohiyatini his etishi bilan unga R.Hamroyevning emotsional yondashuvida farq mavjud. Ijrodagi tafovut – aktyorlar harakatining asosiy g'oya, oliy maqsadni ochib berishdagi mantig'ida edi. Mohiyat shundaki, folklor an'analari muayyan mintaq kishilari uchungina tushunarli bo'lib, xalq og'zaki ijodida elatning o'ziga xos qadriyatlar akslanadi. Folklor qahramon ijrosida to'liq haqiqatga erishish uchun aktyor an'anaviy xalq ijodiyoti bilan tanish, hissiyoti, tafakkuri, ruhiyati unga yaqin bo'lishi kerak. L.Sverdlinning maqsadi Nasriddin orqali folklorni ko'rsatish bo'lsa, R.Hamroyev an'ana va qadriyatlar tarannumi bilan xalqni kurashuvchanlikka, ozodlikka ishonchini oshirish bo'ldi.

Xulosaviy fikr shuki, kino san'atining dramaturgik arxitekonikasida folklor bilvosita poydevor vazifasini o'tab kelmoqda. Shuningdek, folklor mavzusi, qahramonlari, asarlarining tuzilishi va ijro texnikasining tomoshaviyligi, hikoya, qo'shiq, kuy sintezi, tomoshalinga bevosita murojaat etilishi, an'anaviylik va badihago'ylik qoidalari, ramziylik va majoziylikning yetakchiligi sabab folklor kinoga chuqur singib ketgan va unda tayanch manba bo'lib kelmoqda. Demak, folklor mavzusining kinodagi o'rni va ahamiyatini ilmiy o'rganish har doim dolzarb bo'lib qolaveradi.

¹¹ Akbarov H. Meni o'zbeklar o'zbek deya qabul qilsalar... // O'zAS, 2.02.2007. №5. 5-b.

¹² Qodirov M. Mirshohid Miroqilov. – T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973-y. 81-sahifa.

¹³ Каримова Н. Игровое кино Узбекистана 1920–1980 гг. – Т.: “Санъат”, 2016-у. 134 с.

¹⁴ Тарковский А. Запечатленное время. Глава 5. Об актёра в кино. – Москва: «Искусство», 3 с.

HILOL NASIMOV IJODIDA ADASHGAN ZAMONDOSHLAR OBRAZI

Annotatsiya. Mazkur maqolada rejissyor Hilol Nasimovning "Aldangan ayol" (2011), "Tubanlik" (2012), "Odnoklassniki.ru" (2013), "Gumrohlar" (2014) va "Ajal jodusi" (2015) filmlarida aks etgan turli zamondoshlar obrazi tahlil qilingan. Ijodkorning filmografiyasidan kelib chiqqan holda uning o'ziga xos jihatlari xususida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: ssenariy muallifi, rejissyor, operator, aktyor, film, kartina, zamondosh obrazi.

ОБРАЗ ЗАБЛУДШИХ СОВРЕМЕННИКОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХИЛОЛА НАСИМОВА

Аннотация. В этой статье были проанализированы образы разных современников, снявшихся в фильмах режиссёра Хилола Насимова "Обманутая женщина" (2011), "Подлость" (2012), "Одноклассники.ру" (2013), "Заблудшие" (2014) и "Мираж" (2015). В связи с фильмографией создателя высказано мнение о его особенностях.

Ключевые слова: автор сценария, режиссер, оператор, актер, фильм, картина, образ современника.

THE IMAGE OF STRAYING CONTEMPORARIES IN HILOL NASIMOV'S CREATIVITY

Abstract. This article analyzed the images of various contemporaries who starred in the films directed by Hilol Nasimov "The Deceived Woman" (2011), "Meanness" (2012), "Classmates.ru" (2013), "Lost" (2014) and "Mirage" (2015). In connection with the filmography of the creator, an opinion was expressed about its features.

Key words: screenwriter, director, cameraman, actor, film, picture, image of a contemporary.

2000-yillar O'zbekiston kinematografida rivojlanish davri bo'ldi. Bu sohada yangi avlod, xususan, yosh kadrlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. Hilol Nasimov, Ibrohim Rasulov, Said Muxtorov, Rustam Sa'diyev, Yulqin To'ychiyev, Ayub Shahobiddinov, Abduvohid G'aniyev, Mansur Abduxoliqov, Mirmaqsd Oxunov, Temur Musoqov va Akbar Bekturdiyev zamonaviy mavzuda turlicha xarakterli yangi zamondoshlar obrazini ekranga olib chiqdi. Ularning obraz yaratishdagi mavzuvii-janriy, uslubii izlanishlari ko'lamli kengligi ekranda yangi qahramonlar paydo bo'lishiga olib keldi.

2011–2016-yillarda dolzarb masalalarga e'tibor qaratilgan qator filmlar ishlandi. Bu haqda san'atshunoslik fanlari doktori, kinoshunos Nigora Karimova doktorlik dissertatsiyasida shunday yozadi: "O'zbek kinematografi diniy ekstremizm, narkomaniya, noqonuniy yo'llar bilan boylik orttirish singari hozirgi paytda jamiyat rivojiga to'siq bo'layotgan salbiy illatlarga jiddiy e'tibor qaratdi. Kinorejissyor H.Nasimovning "Aldangan ayol" (2011), "Tubanlik" (2012), "Gumrohlar" (2014), "Ajal jodusi" (2015) filmlari, R.Sa'diyevning "Sotqin" (2015), "Baron" (2016) keng ko'lamli loyihalarida ushbu muammolar yorqin ifodalandi. Ushbu filmlarda milliy o'ziga xoslikni gavdalandirish, xalqimizga xos ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni aks ettirish va ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lash alohida bo'rtib turadi" [2:40].

Global mavzularga 2000-yillar o'rtalaridan murojaat etila boshlangan bo'lsa, bundan keyingi yillarda ham bu mavzu kinoijodkorlar e'tiboridan chetda qolmadi, aksincha, bu borada turlicha izlanishlar olib borildi. "Aldangan ayol", "Tubanlik", "Odnoklassniki.ru", "Gumrohlar", "Sotqin", "Ajal jodusi" singari

filmlarda biz bilan bir davrda yashayotgan turli xil dunyoqarashli kishilar, xususan, kimlarningdir ortidan ergashib, noto'g'ri yo'lni tanlashi oqibatida hayotda adashgan zamondoshlar obrazi paydo bo'ldi. Ularning ekrandagi qismati bugungi kun tomoshabinini bunday yo'lga kirish qanday oqibatlariga olib kelishidan ogoh etuvchi vazifani bajardi.

Rejissyor Hilol Nasimovning real voqealar asosida yaratgan "Aldangan ayol" (ss. mual. G'ofur Eshmurodov, Hilol Nasimov, oper. Najmiddin G'ulomov, 2011) kartinasi drama janrida ishlangan. Filmda sodda va ishonuvchan Mohira (Rayhon Ulasenova ijrosida) ismli ayolning yashirin diniy-ekstremistik oqim changaliga tushgach hayoti ostin-ustun bo'lib ketgani haqida hikoya qilinadi.

Mohira onasining vafoti sababli tushkun kayfiyatda yuradi. Bundan foydalangan kimsalar uning ishonchiga kirib, maqsadlariga erishish yo'lida uni o'zlari istagancha "tarbiyalaydilar". Undagi o'zgarishlar turmush o'rtog'iga (Tolib Mo'minov ijrosida) yoqmaydi, ammo u ayolini izmiga sola olmaydi. Kimyo fani o'qituvchisi bo'lib ishlagan bu ayolning qismati tez orada ayanchli taqdirga aylanadi. Mohira namoz o'qib, ko'nglim taskin topadi, degan umidda islom dinini o'rganishga kirishadi. Ammo din niqobi ostida saboq bergan bir guruh insonlar sababli u turmush o'rtog'i va ikki farzandini tashlab, o'zga yurtlarda xor-u zorlikda, sha'ni, qadr-qimmatini toptalgan holda, ruhiy-jismoniy tazyiqlar, zarbalar ta'sirida bazo'r kun kechiradi. Yaxshi insonlar ko'magi bilan vataniga qaytgan Mohira bir necha yil qamoqda jazo muddatini o'tab chiqadi. Hamma azoblarga bardoshi yetgan ayol oila davrasiga qayta olmasligidan ruhan eziladi. Ularga faqat uzoqdan nazar sola oladi, xolos. Bu ayol uchun dahshatli fojia.

Qahramonning kutilmagan vaziyatlardan qanday chora izlab chiqishi tomoshabin uchun juda qiziq. Bu haqda san'atshunoslik fanlari nomzodi, kinoshunos Xanjara Abulqosimova: *“Qahramon va to'qnashuv o'zaro chambarchas uyqashib ketgan bo'ladi. Masalan, qahramon obrazi qanchalik haqqoniy bo'lsa, to'qnashuv xususiyati kuchliroq bo'ladi va aksincha”* [1;11], – degan fikrni bildirgan.

Mohira obrazi orqali adashgan zamondoshlarimiz ruhiy olamiga chuqurroq kirib borilgan. Diniy e'tiqodi mustahkam bo'lmagan inson alaloqibat muammolar girdobiga g'arq bo'lishi mumkinligini bu va boshqa personajlar hayoti misolida kuzatamiz. Najmiddin G'ulomovning yirik plandagi kadrlari orqali zamondoshimizning achchiq qismatini his qilish qiyin emas. Rayhon Ulasenova aldangan ayol – Mohiraning ruhiy kechinmalarini real holda ifoda eta olgan. U aldanganini kechroq bilgan bo'lsa-da, o'z yurtiga qaytishga harakat qiladi va buning uddasidan chiqadi. Ammo bu bilan muammo hal bo'lmaydi, u baribir, avvalgidek yashay olmaydi. Odam savdosi mavzusida avval ham film yaratilgan. Biroq ushbu kartina dramaturgiyasining pishiqligi, ta'sirchan lavhalar, tasviriy olamdagi makon kechayotgan voqelikni real his qilishga ko'mak beradi.

Ssenariy muallifi va rejissyor Hilol Nasimovning ijtimoiy drama janridagi *“Tubani”* (oper. Umid Malikov, 2012) kartinasi ijtimoiy-global mavzuda ishlangan. Unda qizlarni erta turmushga berish oqibatlari, din niqobi ostida turli qing'ir ishlarni amalga oshirayotgan kimsalarning kirdikorlari o'tkir syujetlar asosida aks etgan.

Behzod (Fotih Nasimov ijrosida) va Dilroz (Ziyoda Xudoyqulova ijrosida) 9-sinfda birga o'qishadi. Ularning bir-biriga ko'ngli bor. Behzodning onasi – Masrura Ahmedova (Shodiya Abduqodirova ijrosida) 15 yoshida Turg'unbek hojiga (Mirza Azizov ijrosida) turmushga chiqqan. Erta oila qurgan, bu ham yetmagandek, erining chidab bo'lmas darajadagi zulmi sababli ketma-ket nobud bo'lgan homilalar ona salomatligiga ta'sir etmay qolmaydi. Dadasi tashlab ketgan, onasi betobligi uchun Behzod ukasi va singlisiga asosan o'zi qaraydi, ro'zg'or tashvishi ham uning bo'ynida.

Dilrozning otasi Egamnazar (Egamberdi Raximov ijrosida) oddiy, Turg'unbek hoji nima desa, uning izmida yuradigan o'z fikriga ega bo'lmagan tuban kishi. Hattoki, Turg'unbek hoji nomidan 15 yoshli qiziga sovchi bo'lib kelgan kishilarga qarshi borolmaydi. O'z qizini “Hoji”ga uchinchi ayol bo'lib nikohlanishiga rozi bo'ladi. Buni eshitgan Dilrozning onasi (Lola Eltoyeva ijrosida) har qancha qarshilik qilmasin, eri o'z aytganidan qolmaydi.

Turg'unbek hoji “din peshvosi”, “taqvodor” niqobi ostida noqonuniy ishlar bilan shug'ullanadi. Kishilarga yot g'oyalarni singdiruvchi chetdan keltirilgan kitoblarni tarqatib, pul topadigan insoniylik xislatlarini butunlay unutgan kimsa. Axir qaysi ota o'g'li yoqtirgan qizga uylanadi?! Turg'unbek mana shunday tuban kimsa. U yana bir voyaga yetmagan qizning hayotiga zomin bo'ladi. Shundagina qizning adashgan otasi o'z xatosini tushunib yetadi, ammo endi kech...

Filmda adashgan zamondoshlar obrazi o'zining mukammal yechimini topgan. Mavzu va qahramonlarning yangi ekani, muammoning dolzarbligi,

ssenariyning pishiqligi uning yaxlit asar sifatida yuzaga kelishida muhim o'rin tutgan. Epizodlarning izchilligi, mantiqan bir-biriga bog'liqligi, voqea tempo-ritmining rivojlanib borishi, rakurslarning turfa ekani har bir obrazning jonli ifodasiga munosib hissa qo'shgan.

Operator Umid Malikovning turli plandagi kadrlari, rassom Zebo Nosirovaning ijodiy izlanishi, bastakor Jamshid Izomovning musiqasi qahramonlar kechinmalari va boshdan o'tkazgan holatlarining yanada ta'sir kuchini oshirgan. Saidakmal Rasulov ta'biri bilan aytganda: *“Kinoasar obraz to'qimasini yaratish jarayoni rejissyor, operator va rassom ijodiy fikrining birgalikdagi o'zaro hamjihatlik, hamfikrlilik, maslakdoshligini talab etadi. Kino san'atining spetsifik ko'rinishi mana shu film jamoasi ijodining natijasidir”* [3;137]. Yana shunisi muhimki, bu film ana shunday illatlar avj olayotgan bir paytda zamondoshlarimiz yuziga ko'zgu tutdi.

Ssenariy muallifi va rejissyor Hilol Nasimovning o'tkir syujetli drama janridagi “Odnoklassniki.ru” (oper. Behzod Qodirov, 2013) filmi shu yillarda ommalashgan ijtimoiy tarmoq orqali tanishuvlar insonlar turmush tarziga qanday ta'sir etgani, jumladan, ularning keyingi hayotida qanday burilishlar ro'y bergani haqida hikoya qiladi.

O'zbekiston Milliy universitetida bir kursda o'qiydigan Zarif (Shohruh Nasimov ijrosida), G'ulomboy (Akmal Mirzo ijrosida) va Barno (Asal Shodiyeva ijrosida) boshqalar qatori ilm olayotgan talabalardan. Ammo oradan hech qancha vaqt o'tmay, G'ulomboy va Zarif mutlaqo o'zgaradi.

G'ulomboy “odno”da tanishgan qizi Zulya – Zulayho (Zamira Beshimova ijrosida) tufayli, Zarif esa internetdagi turli buzuk aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-ekstremistik kuchlar ta'sirida o'zligini unutadi. Aslida Zarif Barnoga ko'ngil qo'ygan, qiz ham unga beparvo emas, ular kelajakda oila qurish niyatida edilar. Shu maqsadda, hatto, unashtirilganlar. Biroq Zarifning jihodiy guruhga rahbarlik qila boshlashi, ularning orzu-umidlarini sarobga aylantiradi.

G'ulomboy Zulyaning: “bola seniki”, degan yolg'oni sababli illosizlikdan uni olib Rossiyaga ishlagani ketadi. Ular bilan birga borgan Suxrob (Mirshod Mardonov ijrosida) va Saodat (Feruza Mustafoyeva ijrosida) esa jihod niyatida yo'lga o'tlangan. O'z oilasini tashlab, yurtidan ketgani yetmagandek, hamon vatandoshlarini iymonsizlarga katta miqdorda pullayotgan Bo'ri (Hilol Nasimov ijrosida) bu yoshlarni ham rejaga muvofiq pullaydi, buning evaziga mo'maygina daromad topadi.

Pasportini vokzalda yo'qotib qo'ygan Saodatning hujjati ertasi kuni topiladi. Buni ko'rgan Bo'ri qizning asl ismi Saodat emas, Sanam ekani, u o'zining farzandiligini tushunib yetadi. Sotgan qizini so'rab Abduning (Anvar Kartayev ijrosida) huzuriga yolvorib boradi. Afsuski, butun umri davomida yiqqan boyliklari ham Bo'ri qizi sha'ni toptalishiga to'siq bo'la olmaydi. Hammani shu ko'yga solayotgan bu iymonsiz kimsaning qizi ham mana shunday achchiq qismat tuzidan totishga majbur bo'ladi. Hayot charxpalagi aylanib, Bo'ri o'zining bunday qilmishi insonlar hayotiga qanday ta'sir etayotganini farzandi misolida o'z ko'zlari bilan ko'radi. Yoshligida tashlab ketgan qizini tanimagan ota uni o'zgalarga pullashi filmning eng ta'sirli epizodi bo'lib, bu illatning naqadar ayanchli ekanini ifoda eta olgan.

Xo'rlangan bo'lsa ham qizi Sanam va Zulyani vataniga qaytarib yuborgan Bo'rini o'zga yurtda otib o'ldirishadi. G'ulomni Pokistonga yuborishadi. Zarif esa barcha aybiga iqror bo'lib, xalqi va Prezidentidan uzr so'raydi. Uch xil taqdirli adashgan erkaklar qismati aktyorlarning ijrosi orqali yanada jonlangan. Hilol Nasimov ijrosidagi Bo'ri – Boymurod pul uchun har qanday qabihlikdan qaytmaydigan inson tipajini yarata olgan. Shohruh Nasimov ijrosidagi Zarif qat'iyatsizligi sababli o'zgalarga oson ergashadi. Akmal Mirzo ijrosidagi G'ulomboy esa tashqi ko'rinishidan ichidan pishgan yigitga o'xshasa-da, aslida juda ishonuvchan, shu bois Zulyaning yolg'onlariga ishonadi. Pokistonga yuborilishiga ham uning ishonchiga kirish osonligi sabab bo'ladi.

Hayotda o'zi adashgani yetmagandek, o'zgalarni ham qarmog'iga ilintirayotgan Bo'ri: *“Men hayotimni qayta boshlay olanimda, yirtiq cho'ponga o'ralib bo'lsa ham o'z go'shamdan ketmay, tinch uxlardim. Bu dunyoda Vatandan yaxshi joy yo'q”*, – deydi. Bu – filmning eng muhim xulosasi.

Ushbu ijodkorning real voqealar asosida yaratgan drama janridagi yana bir filmi “Gumrohlar” (oper. Behzod Qodirov, 2014) deb nomlangan. Ssenariy muallifi va rejissyor Hilol Nasimov mazkur kartinada adashgan zamondoshlar obrazini yangicha uslubda gavdalantirgan.

Ikkinchi plandagi qahramon – kinorejissyor Mirza Mahmudov (Mirza Azizov ijrosida) chet eldagi o'zbekistonlik muhojirlar haqida film olish niyatida turli yurtlardagi vatandoshlari bilan uchrashib, ularning bu yerga qanday kelib qolgani bilan qiziqadi. U filmda voqealarni bir-biriga bog'lovchi vazifani bajargan. Bu o'z navbatida, filmda uzoq davom etuvchi kadrlardan ham seziladi. Xronologik kadrlar, faktologik ma'lumotlar hujjatlilik hissin beradi.

G'alamis niyatli kishilarning rejasiga ko'ra, katta tadbirkor Olloyor Shukurovning (Samandar Hamroqulov ijrosida) uyiga go'yoki o'g'rillikka tushgan, aslida rafiqa'sining sha'nini toptashni istagan kimsalar sababli u onasi (Sayyora Yunusova ijrosida), ayoli (Shahlo Temirova ijrosida) va o'g'lini tashlab, uyidan bosh olib chiqib ketadi. Shu orada go'zal ayol (Jamila G'ofurova ijrosida) makriga uchib, Turkiyaga yo'l oladi. U yerda islom diniga yot g'oyalarni keng ommaga yoyish yo'lida xizmat qilayotgan vatangado, gumrohlar (Baxtiyor Qosimov va Erkin Komilov ijrosida) bilan birga xizmat qiladi. Ma'lum vaqt o'tgach, xatolarini tushunib yetgan Olloyor o'z yurtga qaytadi.

Hilol Nasimovning drama janridagi *“Ajal jodusi”* (ss. mual. Hilol Nasimov, Xosiyat Rustamova, oper. Umid Malikov, 2015) kartinasi ham ijtimoiy-global mavzuda ishlangan. Filmda jamiyatimizda yaratilgan imkoniyatlarga qaramay, ayollar hoyi havasini deb to'y uchun tanishlaridan katta miqdorda qarz olib, to'lolmay

Rossiyaga ishlagani ketgan ota (Farhod – Bahodir Murodov ijrosida) va uning ikki o'g'li (Tolib – Shohruh Nasimov, Qodir – Fotih Nasimov ijrosida) qismati haqida hikoya qiladi.

O'zga yurtda o'g'illari g'araz niyatli kishilar tuzog'iga tushib, noqonuniy ishlar, mayda bezorliklar qilganini sezgan ota ularni izlab boradi. Baxtga qarshi o'g'illari bilan uchrasholmaydi, uning ko'zi ochiq ketadi. Gilam orasiga o'rab olingan otaning mayitini yo'l charchog'i sababli o'g'rilatib qo'ygan aka-uka uyiga ota jasadisiz kirib boradi. Bundan xabar topgan ona (Muyassar Berdiqulova ijrosida) ham jon taslim qiladi. Ota uchun qazilgan qabrga onaning jasadi qo'yiladi...

Umuman, 2011–2015-yillar mobaynida Hilol Nasimov ijodida yolg'onlarga ishonib to'g'ri yo'ldan adashgan zamondoshlar obrazi galereyasi yuzaga keldi. Bunday personajlar o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. Boisi ayni shu davrda dunyoda turli global muammolar ildiz otdi, bu yurtdoshlarimiz hayotiga ham ta'sir etmay qolmadi. Rejissyor o'zi yaratgan ekran asarlarida buzuvchi aqidaparastlar changaliga tushib qolayotgan zamondoshlarimiz qismati misolida xalqni ogohlikka chaqirishni o'z oldiga maqsad qilgani aniq. Shuning uchun har bir filmi o'tkir syujetli, kuchli dinamikali, mavzu jihatidan rang-barang, qahramonlari bir-birini takrorlamasligi, personajlar ruhiyatidagi o'zgarishlar keskin tarzda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratgan. Garchi rejissyor u filmdan bu filmga ko'chib yuruvchi aktyorlar ijrosidan foydalansa-da, ularni yangi ampulada ochish uchun izlangani seziladi.

Diniy-ekstremistik guruhlar aksariyat hollarda ruhiy tushkunlikka tushgan yoki musibatdan qalblari yaralangan kishilarni tanlashini bir necha film misolida kuzatish mumkin. Turli dolzarb hayotiy muammolarning ekranga ko'chirilishida Hilol Nasimov ijodida reallikka asoslanish tendensiyasi kuzatildi. Buni ko'plab filmlarning haqiqatan sodir bo'lgan voqealar asosida yaratilgani ham tasdiqlaydi. U filmlarida ramziy belgilarni ko'p ham qo'llayvermaydi, vaziyatni boricha ko'rsatishga intiladi. Bu uning o'ziga xos ijodiy uslubini belgilab beradi. Adashgan bo'lsa-da, uning personajlari o'z xatosini tushunib yetib, vataniga qaytadi.

Hilol Nasimov ijodida bir jihatni kuzatish mumkin: u global mavzudagi kartinalarning mazmun-mohiyatini ifodalovchi maxsus qo'shiq bilan nihoyalaydi. Malasan, *“Aldangan ayol”* filmida Gulsanam Mamazoitova, *“Tubanlik”*da Ziyoda, *“Odnoklassniki.ru”* va *“Gumrohlar”*da Ozodbek Nazarbekov ijrosida maxsus qo'shiqlar ijro etilgan. Shuningdek, uning o'zi filmlarida salbiy obrazlar yaratadi. Filmlarining xulosasini mavhum qoldiradi, bu borada qahramonning taqdiri nima bilan yakunlangani haqidagi jumboqning yechimini tomoshabinning ixtiyoriga havola etadi. Bu Hilol Nasimovning o'ziga xos yondashuv uslubi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. – Toshkent: “Star-poligraf”, 2009-y. 60-b.
2. Karimova N. O'zbekiston badiiy kinematografiyasining shakllanishi va taraqqiyoti. Avtoref. dok. diss... – T.: 2019-y. 84-b.
3. Rasulov S. Ekran san'atida tasviriy yechim va uning asoslari. O'zbekiston Davlat san'at instituti. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008-y. 176-b.

II BO'LIM

MUSIQA

SAN'ATI

Mashrab ERMATOV,
O'zDSMI "Milliy qo'shiqchilik" kafedrası professori

XONANDALARNING OVOZ HOSIL QILISHIDAGI ASOSIY KAMCHILIKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH

Annotatsiya. An'anaviy xonandalikda ovoz hosil qilish san'ati alohida ahamiyatga ega. Ovoz xonandaning eng kuchli qurolidir. Ushbu maqolada, xonandalarning ovoz hosil qilish jarayonidagi asosiy kamchiliklar sanab berilgan va ularni bartaraf etish yo'llari qisqacha keltirilgan.

Kalit so'zlar: xonandalik, tovush, ovoz, ovoz hosil qilish, rezonator, mashqlar, nafas.

ОСНОВНЫЕ ДЕФЕКТЫ ГОЛОСА ПЕВЦОВ И ИХ УСТРАНЕНИЕ

Аннотация. Особое значение в традиционном пении имеет искусство звукообразования. Голос – самое мощное оружие певца. В данной статье перечислены основные недостатки процесса звукообразования певцов и кратко описаны пути их устранения.

Ключевые слова: пение, звук, голос, звукообразование, резонатор, упражнения, дыхание.

THE MAIN DEFECTS IN VOICE PRODUCTION OF SINGERS AND THEIR ELIMINATION

Abstract. Of special importance in traditional singing is the art of sound formation. The voice is the singer's most powerful weapon. This article lists the main drawbacks of the process of sound formation of singers and briefly describes the ways of their elimination.

Key words: singing, sound, voice, sound formation, resonator, exercises, breathing.

Ovozni yo'lga qo'yish, ya'ni uni professional ijrochilik uchun moslashtirish va rivojlantirish – bu xonandaning eshitish va ovoz mushaklari qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida va o'zaro bog'liq ravishda tarbiyalash, to'g'ri hamda yaxshi ijrochilik odatlarini rivojlantirish jarayonidir. Bo'lajak xonandalar o'quv jarayonida ovozining rivojlanishi va ijro, shuningdek, tayyorgarlik jarayonida charchamasligiga erishishga harakat qilmog'i lozim. An'anaviy xonandalik yo'nalishida talabalar bilan bir necha yillar davomida ishlash natijasida angladimki, ustozlar talabalarga xonandalikdan dars berish bilan birga asosiy diqqatini bo'lajak xonandalarning ovoz hosil qilish jarayonidagi ko'plab kamchiliklarini bartaraf etishga qaratmog'i lozim.

Ovozni to'g'ri hosil qilish sharoitlarini tashkil qilish uchun ijro vaqtida vokal apparatining ishlash prinsipini to'g'ri tushunish kerak. Asar ijrosi vaqtida bir nechta mushaklar guruhi ishg'a tushadi. Ular nafas, artikulyatsiya, tomoq mushaklaridir. Bu mushaklarning to'g'ri shakllantirilganligi va rivojlantirilganligi xonandaning professional hayotida katta ahamiyatga ega. Ovoz hosil qilish jarayonining risoladagidek

kechishi ham aynan mana shu mushaklar faoliyatining to'g'ri tashkillashtirilganiga bevosita bog'liqdir. Aslida har bir bo'lajak professional xonandaga individual yondashmoq lozim. Chunki har bir talabaning ovoz hosil qilishda ishtirok etadigan a'zolari o'ziga xos, individual tarzda tuzilgan va rivojlangan. Ana shu individuallikdan kelib chiqqan holda ustoz mashg'ulotlarni olib bora, talabaga tushuntirsa, mos repertuar tanlasa va o'rganajak asarini o'zlashtirishga yordam beradigan mashqlarni to'g'ri tanlab bersa xonandaning ovoz hosil qilish vaqtidagi kamchiliklar bora-bora bartaraf etiladi. Bu esa, ustozdan bilim, mahorat va kuzatuvchanlikni talab etadi.

Talaba xonandalar orasida ovoz hosil qilish jarayonida bir qancha kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Shulardan biri, yuqori rezonatorlardan to'liq foydalangan holda baland ovozga erishishga intilish. Aslida bunday vaziyatlarda rezonatorlar imkoniyatidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish lozim. Chunki har bir talabaning tanglay chuqurligi, jag'lar tuzilishi, suyaklar holati turlicha, o'ziga xos ravishda bo'ladi. Mana shu individuallikdan kelib chiqqan holda ustoz bilan baland ovozga erishish "rejasi"ni tuzish lozim.

Kuylash davomida halqum mushaklarining harakatchanligi, ijro jarayonida egallagan holati ham muhim ahamiyatga ega. Bu a'zoning faolligini maxsus mashqlar orqali oshirish, quvvatlanishiga erishish mumkin. Shu bilan birga bu a'zoning har bir nozik harakatini ham xonanda o'ziga bo'ysuntira olsagina, professionalligi tobora ortib boraveradi. Ovoz nafaqat balandlik jihatidan, balki kuch va to'liqlik jihatidan rivojlanib boradi. Ba'zan xonandalar ijro vaqtida ovozida keraksiz yoki ixtiyorsiz tebranishlarni payqab qolamiz. Ayniqsa, endigina an'anaviy xonandalik yo'nalishida o'qiy boshlagan talabalarda bu holat kuzatiladi. Aynan mana shu keraksiz tebranishlar barqaror notalarni ijro etish vaqtida xalaqit beradi. Hattoki, bunday vaqtda xonanda ovozining tabiiy rangi yo'qolib qoladi. Bundan talaba ham, ustoz ham aslo xavotir olmasligi lozim, chunki bu ham to'g'ri mashg'ulotlar davomida o'z iziga tushadi. Mashg'ulotlar davomida halqum mushaklarini rivojlantiruvchi mashqlar bilan birgalikda nafas tayanchini shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlarni ham bajarishga e'tibor berish muhim. Ana shunda ovozda ortiqcha tebranishlar bartaraf etiladi va ovoz temбри sof holatda yangray boshlaydi.

Talaba xonandalar orasida ijro vaqtida tez-tez uchraydigan xatolardan yana biri, bosh rezonatorlarini ishga solmay faqatgina og'iz bo'shlig'ining o'zida ovoz hosil qilishidir. Ya'ni asar ijrosi vaqtida, faqatgina og'iz bo'shlig'i va artikulyatsiya apparatigagina urg'u beradi. Aslida esa xonanda asar ijro etar ekan butun vujudini his etmog'i, ijro protsessiga barcha a'zolarini uyg'unlik bilan jalb etmog'i lozim. Ayniqsa, ovoz rezonatorlaridan unumli foydalanish juda katta ahamiyatga ega. Xonanda ijro vaqtida, albatta, rezonator faoliyatini ham his qilmog'i lozim. Chunki bosh rezonatorlari xonanda ovoziga tabiiylik beradi. Xonandaning faqat o'zigagina xos bo'lgan ovozidagi obertonlar uning bosh rezonatorlari evaziga hosil bo'ladi. Bosh rezonatorlari yetarli darajada jalb qilinmaganida xonanda ovozida sun'iylik sezila boshlaydi, ijro ham tinglovchining qulog'iga yoqimli eshitilmaydi. Buni ayniqsa, "u" va "o" kabi tovushlarning talaffuzi vaqtida osongina payqash mumkin. Bu mauammoni bartaraf etish uchun ham nafas tayanchini shakllantirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega. Bu oson jarayon emas. U talabadan mashaqqatli mehnatga bardosh, ustozdan esa sabr talab etadi.

Bosh rezonatorlarining faoliyatini rivojlantirish uchun nafas tayanchi bilan birgalikda halqum mushaklarining erkin harakatlanishiga erishish lozim. Shu orqali rezonatorlar faoliyatidan to'liq va kerakli darajada foydalana oladigan holatga erishish, natijada esa ovozning rang-barang palitrasiga erishish mumkin. Shu o'rinda, ovoz hosil qiluvchi a'zolarining mashqlari bilan shug'ullanishdan avval, yoki vaqti-vaqti bilan foniatr shifokor ko'rigidan o'tish muhim ekanligini ham eslab o'tishimiz joiz. Sababi, ovoz hosil bo'lishida, hosil bo'layotgan ovozning sifatli bo'lishida bu a'zolarining salomatligi eng muhim o'rinda turadi. Shifokor tomonidan biror kasallik yoki o'zgarishlar

aniqlansa, avvalo, talaba davolanishi va patologik holatni bartaraf etishi lozim. Shundan keyingina ovoz hosil qiluvchi a'zolarini rivojlantiruvchi mashqlarni bajarishga ruxsat etiladi. Aks holda, ayanchli va ortga qaytarib bo'lmaz asoratlar yuzaga kelishi mumkin. Dars va mashg'ulotlar jarayonida ustoz aynan mana shu jihatlarga ham alohida e'tibor bilan yondashishi muhim.

Xonandalarning ovoz hosil qilish jarayonidagi yana bir kamchiliklaridan biri, majburlashdir. Majburlash orqali sog'lom natijaga erishish amrimahol. Avvalo, talabaning ijro dasturini tuzishda uning ovoz imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish darkor. Deylik, talabaga imkoniyatlaridan yuqori bo'lgan asar o'rganish uchun berildi. Uni ijro etish uchun hali tayyor bo'lmagan a'zolar majburlana boshlaydi. Bu qayta-qayta takrorlangach ovoz hosil qiluvchi a'zo va mushaklarda zo'riqish yuzaga keladi. Surunkali zo'riqish esa ovoz apparatining uzoq muddatga layoqatsiz holatga kelishiga sabab bo'ladi. Va aksincha, talabaning imkoniyatlaridan past bo'lgan asar tanlash ham yaramaydi. Chunki bunday vaziyatda xonandaning ovoz hosil qiluvchi a'zolarida rivojlanish, o'sish jarayoni susayadi. Ayni mana shu nuqtada, ustozdan sinchkovlik va tajriba talab etiladi. Har bir bo'lajak xonanda talabaning barcha imkoniyatlarini o'rganib, uning qiziqishi va ijro uslubini ham hisobga olgan holda asar tanlab berishi yuksak mahoratdir.

Bo'lajak xonandalar nafas olish tizimini mustahkamlash, rivojlantirish bilan bog'liq mashg'ulotlarni doimiy bajarib borish orqali ko'plab muammolarni va kamchiliklarni oldini olishga erishishlari mumkin. Chunki nafas tizimini mashq qilidirish orqali ovoz hosil bo'lishida ishtirok etuvchi nafas mushaklarining, diafragmaning harakatchanligiga erishiladi. Bu borada jahon xonandolari legato va stakkato mashqlaridan unumli foydalanadilar. Ular xonandalarning nafas olish tizimi va ovoz hosil qiluvchi apparatning faoliyatini oshiruvchi hamda chiniqtiruvchi mashqlar sanaladi. Ligato va stakkatolar orqali ovoz mashqlarini bajarish – nafasni uzoq cho'zib tura olish, nafas ishlatish usullari, nafas hujumlari, qisqa ovoz chiqarib aniq tonga tushish ko'nikmalarini o'rgatadi. O'zbek mumtoz xonandalik yo'nalishida stakkato shtrixini deyarli uchratmaymiz, biroq legato gliitsiando ko'plab topiladi. An'anaviy xonandalik yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar aynan ana shulardan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

Xonandalikni endigina o'rganayotgan talabalar orasida ovoz hosil qilishda yuzaga keladigan tipik kamchiliklarni quyida sanab o'tamiz:

- *tomoqdan kuylash;*
- *chuqur, ezilgan ovoz;*
- *baqiroq, majburiy, zo'riqqan ovoz;*
- *tund, bo'sh, tembrsiz ovoz;*
- *yuzaki, mayda ovoz;*
- *unli tovushlarning noaniq eshitishtilishi;*
- *manqalanib, burundan kuylash.*

Tomoqdan kuylash ovoz hosil qilishda juda ko'p uchraydigan holat bo'lib, bunda kuylovchi ovoz

apparating faqatgina og'iz-burun qismini ishga solgan holda kuylashga intiladi. Bunday holat ko'pincha kuylash haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmagan, xonandalikka endigina kirib kelgan o'quvchilarda kuzatiladi. Sabablari: halqumning o'ta zo'riqishi, kuylash vaqtida boshning keragidan ortiq yuqoriga ko'tarilganligi, nafas va rezonator munosabatlarining yo'lga qo'yilmaganligi, so'zlash registridan kuylash registriga o'tish ko'nikmasining shakllanmaganligi, shuningdek, pastki jag' mushaklarining tortishgan holati ham bo'lishi mumkin. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun halqumni stabilashtirish, pastki jag'ni bo'shashtirish, xonandalik nafasi va ovoz hosil qilishni rivojlantirish, tovush hujumini qo'llash, rezonatorlarni his qilish ko'nikmasini shakllantirish lozim.

Pastki jag' mushaklarining tortishganligi, kamharakatligi va zo'riqqan holati xonandaning tomoqdan kuylashiga sabab bo'ladi, chunki bunday holatda halqum kerakli balanlikni egallay olmaydi, natijada kuylash vaqtida ovoz tomoqdan eshitiladi. Jag'larning erkin harakatiga **"I", "E", "A", "O", "O", "U"** tovushlari ishtirok etgan mashqlar orqali erishiladi. "Yarim esnash" mashqi ham tomoqdagi tovushni bosh rezonatoriga to'siqsiz o'tishiga yordam beradi.

Mayin, yoqimli ovoz hosil qilishga to'g'ri xonandalik nafasi va nafas chiqarishni boshqara olish ko'nikmasi orqali erishiladi. Olingan nafasni bir maromda, tekis, asta-sekin chiqarishni o'rganish orqali xonandalar tovushni uzoq, tekis, bir maromda cho'za olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar va bu xonandalik san'atining asosi sanaladi.

Chuqur ezilgan ovoz asosan ovoz hosil qiluvchi apparatdan noto'g'ri foydalanish tufayli yuzaga keladi, lekin uning asosiy sabablari quyidagilardir: tovush yo'lining to'silishi, halqumning o'ta pastki sathda joylashishi, ovoz boylamlari ustki bosimining balandligi, ovozda yuqori xonandalik formantasining yo'qligi. Bu masalalarni ham bosh rezonatorlar bilan ishlash orqali hal etish mumkin.

Baqiroq, majburiy, zo'riqqan ovoz bilan kuylash nafaqat xunuk, balki tinglovchi uchun ham yoqimsiz, salomatlikka ham zarar yetkazadi. Bunday ovoz hosil qilishning uzoq davom etishi natijasida xonanda vaqti kelib ovozidan "mahrum" bo'ladi. Asosiy sabablari: doimiy ravishda qattiq ovoz hujumidan foydalanish, halqumning zo'riqishi, keragidan ortiq nafas olish va ruhiyatning mosligi. Bu kamchilikni bartaraf etish uchun mayin va nafas oldi tovush hujumidan ko'proq foydalanish, halqumdagi zo'riqishlarni bartaraf etuvchi mashqlarni bajarish, bosh rezonatorlarini his etish

ko'nikmasini shakllantirish, baland ovozda xirgoyi qilmaslik tavsiya etiladi.

Tund, bo'sh, tembrsiz ovozda kuylash aslida kamchilik sanalmaydi, ammo navbatdagi sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin: xonandalik tayanchining yo'qligi, rezonatorlarni his qilish ko'nikmasining shakllanmaganligi, artikulyatsion apparatning nomutanosib faoliyati, xonanda tonusining sustligi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun xonandalik tayanchini shakllantirish, rezonatorlarni his qilishni o'rganish, ovoz hosil qilishning aralash usullarini o'rganish, artikulyatsion apparatini faollashtirish muhim.

Yuzaki, mayda ovoz bilan kuylash so'zlashuv uslubiga o'xshab ketadi. Bunga faol bo'lmagan yumshoq tanglay, halqumning yuqori sathda joylashishi, aralash rezonatorlardan foydalana olmaslik sabab bo'lishi mumkin. Bartaraf etish uchun esa halqumning to'g'ri joylashishiga erishish, rezonatorlarni his qila olishga erishish lozim. Esnash mashqlari esa yumshoq tanglayni faollashtirishga yordam beradi.

Unli tovushlarning noaniq eshitishtirishiga sabablar sifatida kuylashning so'zlashuv uslubi va unli tovushlarni to'g'ri talaffuz eta olmaslik keltiriladi. Yechim sifatida esa unli tovushlarning talaffuzi bilan bog'liq mashg'ulotlarni ko'proq olib borish tavsiya etiladi.

Manqalanib, burundan kuylashning sababi tanglay pardasining pastda joylashganligi bo'lib, u tovushning og'iz bo'shlig'iga kelish yo'lida to'siq vazifasini bajaradi, natijada ovoz manqalanib eshitiladi. Asosan "U" tovushini hosil qilish bilan bajariladigan mashqlar orqali tanglay pardasining ko'tarilishiga erishish mumkin. Bundan tashqari to'g'ri esnash mashqlari, tovushda yuqori xonandalik formantasini shakllantirish, bosh rezonatorini rivojlantirish samarali natijalarga erishishga yordam beradi.

Xonandalarning ovoz hosil qilishidagi kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan bir qancha mashqlar mavjud bo'lib, ustoz dars jarayonida ulardan, albatta, talabani individual xususiyatlariga ko'ra foydalanishi zarurdir. Qolaversa, ushbu mashqlar shunchaki asar ijrosi oldidagina emas, balki doimiy ravishda muntazam bajarib borishlari lozim. Hattoki, mashqlar avtomatik tarzda bajariladigan holatga kelishi maqsadga muvofiqdir. Bu tarzda olib boriladigan mashg'ulotlar xonandaning ovozi chiroyli, baquvvat va sifatli bo'lishiga va bu ovoz uzoq yillar o'zgarmay o'z sog'lomligini asrab qolishiga yordam beradi. Betakror ovoz esa, xonandaning omad kaliti ekanini unutmazlik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ermatov M. An'anaviy xonandalik. – Toshkent: 2003-y.
2. Matyoqubov Sh.B. An'anaviy xonandalik asoslari.
3. Дмитриев Л.Б. Основная техника вокала. – Москва: «Музыка», 2007 г.
4. Rasulov O'. An'anaviy xonandalik o'qitish metodikasi. – T.: 2006-y.
5. Muxammedova G.I. Xonandalik uslubiyati asoslari (O'quv uslubiy qo'llanma). – T.: 2007-y.
6. Морозов В.П. Тайны вокальной речи. - Ленинград: «Наука», 1967 г.
7. Begmatov S. Hofizlik san'ati. – T.: 2007-y.
8. Isroilova X., Qosimov R. An'anaviy hofizlik san'ati. – T.: 2007-y.

VOKAL-XOR JAMOALARI FAOLIYATIDA ANSAMBLNING O'RNI

Annotatsiya. Mazkur maqolada, vokal-xor jamoalarining muvaffaqiyatli faoliyatida muhim o'ringa ega bo'lmish ansambl, ularning turlari, jamoa bo'lib kuylashda, tatbiq qilinishida dirijyorning vazifalari xususida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: xor, ansambl, ovoz apparati, registr, tessitura, dinamika, temp, interval, garmonik eshituv, artikulyatsiya, diapazon, intonatsiya, talaffuz, dirijyor.

РОЛЬ АНСАМБЛЯ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОКАЛЬНО-ХОРОВЫХ КОЛЛЕКТИВОВ

Аннотация. В данной статье изложены мнения по ансамблю, играющий важную роль в успешной работе вокально-хоровой деятельности, об их видах, а также обязанности дирижера при их исполнении в коллективе.

Ключевые слова: хор, ансамбль, голосовой аппарат, регистр, tessitura, динамика, темп, интервал, гармонический слух, артикуляция, диапазон, интонация, произношение, дирижер.

THE ROLE OF THE ENSEMBLE IN THE ACTIVITIES OF VOCAL CHORALS

Abstract. This article outlines opinions on the ensemble, which plays an important role in the successful work of vocal and choral activities, about their types, as well as the responsibilities of the conductor when performing them in a group.

Key words: choir, ensemble, vocal apparatus, register, tessitura, dynamics, tempo, interval, harmonic hearing, articulation, intonation, contribution, pronunciation, conductor.

Vokal-xor qo'shiqchiligi bu inson badiiy faoliyatining eng keng shaklidir. U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamini jadal badiiy faoliyatga va umumiylovga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqa klassik durdonalariga qiziqish uyg'otib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlikka chaqirish, ularga ma'naviy barkamollikka yetishish va ongini o'sishida yordam beradi.

Buyuk xormeyster-dirijyor В.Краснощёков «Вопросы хороведения» kitobida quyidagicha ta'riflaydi: *“Xor – bu katta vokal ijrochilari jamoasi bo'lib, u ijro etadigan asarlarning shaklan va mazmunan badiiy yaxlitligini o'z ijodiy faoliyati orqali xalqni estetik tarbiyalovchi jamoadir”*¹, – deb ta'kidlaydi.

Ansambl jamoa ijrochiligidan asosiy vokal-ijrochilik elementlaridan biri bo'lib, tovushlar sadosidagi birlik, aniq temp va ritmda ovozlarning tembriga ko'ra hamohangligi, xor ovozinig uyg'unlashuvi natijasidir. Jamoa ijrochiligi ansambli musiqa ansambllarining eng keng va qiyin turlariga kiradi va o'z ichiga ko'p sonli ijrochilarni oladi. Ansambl so'zi (fransuzcha “ensemble”) – birga, ya'ni hamohanglik demakdir. Ansambl turli xil bo'lib, xor san'atida – xor sadolanishining ifoda vositalaridan biridir.

Xor ishtirokchilarning aqli va qulog'iga bog'liq bo'lmagan muammolar ham bo'lishi mumkin. Kunlarning o'ta isib yoki sovib ketishi ham qo'shiqchining kuylash intonatsiyasiga ta'sir ko'r-

satadi, lekin bu qo'shiqchilarni nosoz kuylashlariga bahona bo'la olmaydi. Bunday kunlarda dirijyor o'zining g'ayrati, yorqin va quvnoq xarakteri bilan muammolarni yechishi kerak. Agar dirijyor bu muammolarga e'tibor bermasa, unda repititsiya jarayonlari sust bo'lib, ohang sozi yomonlashib xor kutilgan natijalarga erisha olmaydi. Tashqi muhit, ya'ni konditsionerli xonalarda repititsiyalarni o'tkazish orqali ba'zi muammolar hal bo'lsa-da, lekin muammolarning asosiy qismi: psixologik holat e'tiborsiz qolib ketishi mumkin.

Biroq repititsiyalarga tashqi muhit ta'siri, yuqori harakat va namlik bo'lgan joy qatnashuvchilarning sust, past sozda kuylashlariga bir sabab, omil bo'lishi mumkin. Shunday sharoitlarda ham dirijyor repititsiyalarni davom ettirishi, ish sur'atini tezlashtirishi, guruhlariga ehtiyotkorlik bilan yondashib, dam berib ish jarayonini davom ettirishiga tavsiya beriladi. Repititsiya jarayonlarini davom ettirishda asarni o'rganishdagi ketma-ketlikka qat'iy amal qilish zarur. Ushbu muammolarni fikrni jamlab kuylash orqali bartaraf etish mumkin.

Vokal-xor ijrosidagi ansambllar ikki ko'rinishda bo'ladi:

- **guruhlar ansambli** – ma'lum xor partiyalarining qo'shilib uyg'unlikda kuylashi;

- **umumiy ansambl** – xordagi ansambllarning qo'shilishi, ya'ni partiyalarning hamohang sadosi.

Ansambl – xor partiyalarining, butun xorning birgalikdagi muvozanatli sadolanishidir. Bu demak, har bir xonanda faqat o'z partiyasigina emas, balki butun xorni eshita bilishi va o'z ovozinig umumiy

¹ Краснощёков В.И. Вопросы хороведения – Москва: «Музыка», 1969 г. С.82.

sadoga qo'sha bilishi kerak. Xor partiyalarida biror xonandaning ovozi o'ziga mansub turiga qo'shilmasa, shu partiyada ansambl bo'lmaydi. Guruhlardagi ansambl buzilgach, bu hol umumiy ansamblga ham ta'sir qiladi va natijada umumiy ansambl hosil bo'lmaydi.

*“Jamoaa ijrochiligi ishining eng muhim va muvafaqqiyatli qismi bu ansamblida kuylashi, deysish mumkin. Agar xor hamohang kuylay olmasa, xormeysterning ishi juda oz va mukammal bo'lmaganligini anglatadi. Bu jamoani tonda kuylay olmasligi sabablaridan biri bo'lib muhim ahamiyat kasb etadi”*², – deb yozadi Gordon Lamb.

Xorda to'liq ansambl barpo etish juda ko'p faktorlarni o'z ichiga oladi. Ular: intonatsiya ansambli; tembr ansambli; soz ansambli; dinamika ansambli; diksiya-orfoepik ansambl; agogik ansambl; tessitura ansambli; faktura yozuvi ansambli. Qayd etilgan ansambl elementlaridan birortasi buzilsa, umumiy xor ansambli ham buziladi.

Jamoaa ijrochiligidagi badiiy ansambl turli ansamblardan tashkil topadi:

- *dinamik ansambl – sadolanish kuchiga ko'ra ovozlarning qo'llanishi;*
- *ritmik ansambl – ijroning ritmik birligi;*
- *tembr ansambl – ovozlarning tembriga ko'ra qo'shilishi;*
- *sur'at ansambli – ijroning sur'at birligi;*
- *garmonik ansambl – ovozlarning akkord, hamohanglikdagi muvozanatli sadosi;*
- *diksiyali ansambl – adabiy matnni kelishib talaffuz etish;*
- *intonatsiyali ansambl – tovush balandligini aniqlash sadolantirish.*

Qayd etilgan ansamblar to'g'risida buyuk xormeysterlar: P.G.Chesnokov, A.A.Yegorov, V.G.Sokolov, K.K.Pigrov, V.G.Jivov, S.A.Kazachkovlar kitoblarida juda qimmatli fikrlar yozganlar. Ko'rsatilgan ansamblardan birining buzilishi umuman xor sadolanishi ansamblining buzilishiga olib keladi. Yagona badiiy ijrochilik ansambliga erishish, xormeysterning eng qiyin vazifalaridan biridir. Vokal-texnik usullar va malakaning bir tipda bo'lishi, barcha asar tarkibi ijrosining birligi, asar mazmuni va g'oyaviy niyatini ochish haqiqiy badiiy ijrochilik ansamblini yaratishning muhim shartlaridandir.

Ovoz partiyalari teng tessitura sharoitida bo'lib, bir xil registrlardan foydalanilsa, hamohanglik tabiiy bo'ladi. Bu **tabiiy ansambl** deyiladi. Partiturada ovoz partiyalari bir xil tessitura balandlikda (registrda) yozilib, ularga bir xil tovush dinamikasi (“f”, “p” yoki “mf” l. k.) – berilgan bo'lsa, har bir ovoz partiyasi, shuningdek, butun xor tabiiy sharoitda sado beradi. Bu sado hamohang, juda uyg'unlashgan (bemalol) bo'ladi.

Sun'iy ansamblda esa – ba'zi xor asarlarida musiqa sifatlari yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday asarlarni xor bilan ijro qilishda dirijyor sun'iy ravishda

partiyalar sadosini uyg'unlashtiradi, ya'ni dinamik jihatdan tenglashtiradi. Bu sun'iy ansambl, deyiladi. Agar asarda partiyalaridagi ba'zi epizod, fraza yoki akkordlar har xil registrlarda yozilgan bo'lsa, (bir partiya yuqori registrda, ikkinchisi pastda) ovoz kuchi bir xil jaranglamaydi. Xorda umumiy ansambl buziladi. Bunday holda dirijyor ovozlarning dinamikasini (kuchini) sun'iy tenglashtiradi. Ba'zan hamma partiyalar bir xil tessitura sharoitida bo'lib, faqat bitta partiyada pastki registr notalari berilgan va umumiy xorga “mf” qo'yilgan bo'ladi. Dirijyor bu sharoitda uch partiyada “mf” qoldirib, to'rtinchi partiyaga “f” qo'yib, uni kuchaytiradi va umumiy ovoz tengligiga erishadi. Sun'iy ravishda **hamohanglik** barpo qiladi.

Xor adabiyotida xor partiyalarining bir-birlaridan baland yoki past tessitura sharoitida yozilgan xor fakturalari mavjud. Masalan, aralash xor uchun yozilgan partituralarda tenor partiyasi altga ko'ra, alt sopranoga ko'ra balandda yoki tenor bassdan, alt tenordan, soprano altdan pastda (ovozlarning kesishish hollari) bo'lsa, bunga ikki tomonlama qarash va ansambl turini aniqlash kerak bo'ladi.

Xor sadolanishida tessitura masalasi katta ahamiyatga ega. Tessitura sharoitiga qarab ansamblning tabiiy yoki sun'iylikini payqash mumkin. Tessitura sharoiti taxminan bir xil bo'lsa, ya'ni barcha xor qatnashchilari zo'r bermasdan past yoki yuqori kuylasa, yoxud barcha ovozlarning o'rta registrlarda bo'lsa, tabiiy ansambl ortiqcha harakatsiz hosil bo'ladi. Sun'iy ansambl ovozlari har xil tessitura sharoitida bo'lganda qo'llaniladi. U vaqtda sadolanishni me'yoriga yetkazish uchun ovoz kuchi sun'iy bo'rttiriladi yoki aksincha susaytiriladi. Yangi asarni o'rganishda talabalarda, albatta, hayajon bo'lib, notanish so'zlar va musiqaga nihoyatda ehtiyotkorlik, hushyorlik bilan notalarni xor dirijyorlari bilan o'qib, kuylab o'rganishlari lozim. Jamoaa qatnashchilari intonatsiyasi, ya'ni ohang sozi, xor ansambli uchun muhim ahamiyatga ega.

Intonatsiya sozini pastligiga bir qator omillar: iqlim; qismlar tessituras, qaytarishlar, vokal charchog'i, xona akustikasi, (boshqalarni tinglash ta'siri) tartibli joylashish to'g'ridan-to'g'ri (xor ichida va bo'limlar doirasida) qismni tayinlash, lekin eng muhim sabab bu diqqatsiz kuylash bo'lishi mumkin. Qo'shiq kuylash faoliyati yoshlarda melodik, garmonik eshituv, ladni his etish, sof intonatsiya kabi musiqiy qobiliyatlarni rivojlantiradi. Ijro jarayonida ovozi va musiqiy eshituvi turlicha bo'lgan yoshlar jamoaa bo'lib birlashadilar, ularda o'z ijrolarini va o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatish, birgalikda kuylashdan zavqlanish, diqqat, kuzatuvchanlik, intizom kabi sifatlarni tarbiyalanadi.

Kuylash faoliyati bir qator vazifalarni hal etishni nazarda tutadi: jamoaa bo'lib kuylashga qiziqish va muhabbatni o'stirish; musiqaga hissiy ta'sirchanlikni tarbiyalash; badiiy didni tarbiyalash; qo'shiqchilik ovozi, ya'ni chiroyli, tabiiy tovushda kuylashni shakllantirish, diapazonni o'stirish; badiiy ijroga erishish uchun vokal-xor malakalarini rivojlantirish; musiqiy qobiliyatlarni o'stirish.

Musiqa asari qism va davrlarga bo'linadi. Asarning ma'lum bir qismidagi musiqaviy fikr davrni tashkil

² Choral Techniques By: Gordon Lamb on n e x i o n s Rice University, Houston, Texas <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> 269 pg.

qiladi. Davr esa gaplarga, gaplar jummalarga, jumlar ohanglarga bo'linadi. Ana shu (ohang, jumla, gap, davr) musiqa bo'laklarini yaxlit bir fikrga birlashtirib, ma'nosini tushungan holda ijro qilish musiqaviy jumlash, deyiladi. Musiqaviy jumlash, muhim ifoda vositasidir. Musiqa jumllarini ravon ijro qilish, so'zdagi asosiy fikrni yaqqol ko'rsatish va kulminatsiyasini aniq kuylash, to'g'ri va ifodali jumlash hisoblanadi. Musiqa asarining ijrosida jumllarni aniq tushungan holda ifodali ijro etish katta ahamiyatga ega. Ijroda asarning avj nuqtasiga erishish, xarakter va uslubini anglash kabilar orqali uning badiiy g'oyasini ochish ishlari bajariladi. Asarni o'zlashtirish jarayonida uni ruhan sezish va mulohaza qilish bir paytda boshlanadi. Asar ijrosida musiqiy badiylikka erishish uchun uning jumllarini jamoa bo'lib birga his qilib, ohangdoshlikka erishib, dinamik tuslarini aniq bajarish lozim.

Jamoa ijrochiligida ko'p ishlatiladigan nafasning asosiy turi bu **zanjir yoki ulama nafas** olish usulidir. Musiqa asarlarida uzoq davom etuvchi kuy jumllari bo'lsa, xor yoki xor partiyalarini uzluksiz sadolanishini ta'minlab beruvchi ulama (zanjir) nafas qo'llaniladi. Bu holda xonandalar navbatma-navbat nafas oladilar va bu o'z navbatida o'z partiyalariga juda ehtiyotkorlik bilan sezilmas darajada qo'shilishlarini talab qiladi. Aks holda ansambl birligi buzilishi mumkin. Ba'zi asarlar boshdan oxirigacha ulama nafasda ijro etiladi. Kuyning yoki xor asarining bog'liqligini, uzviyligini ta'minlash maqsadida zanjir nafas qo'llaniladi. Zanjir nafasda kuylashni o'ziga xos qoidalari bor:

1. *Xor ishtirokchisi ikki yonidagi guruhdoshlari kuylayotgan vaqtda nafas olishi mumkin.*
2. *Nafasni olgach, guruhdoshlari va xorga sezdirmasdan qo'shilib kuylab ketishi kerak.*
3. *Olingan nafas oddiy nafasga nisbatan tezroq olinishi kerak.*
4. *Nafasni unli tovushlar kuylanib turgan vaqtda olinishi maqsadga muvofiq.*

Xor san'ati – musiqa va adabiy poetik ijodiyotni organik birlashtiruvchi san'atdir. Asardagi adabiy tekst so'zlarini tinglovchilarga yetkazib berish vositasi **diksiya**, deyiladi. Diksiya asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda muhim rol o'ynaydi. Agar so'zlar poetik fikrni aniqlashtirsa, musiqa ularni emotsional bo'yoqlar bilan to'ldiradi, chuqurlashtiradi.

Musiqiy nutq jilosi bo'lishida nutq a'zolari: og'iz bo'shliqi, til, yumshoq tanglay, pastki jag', bo'g'iz, hiqildoq qatnashadi. Bu a'zolarining (unli va undosh) nutq tovushlarini yaratishga qaratilgan ishi **artikulyatsiya** (talaffuz), deyiladi. Talaffuz a'zolari alohida ahamiyatga ega. Bu ovoz apparatining eng harakatchan va irodamizga bo'ysunadigan qismi. Ular

pastki jag' harakati, lablar ishi, yumshoq tanglaydir. Bu a'zolar ishi, avvalo, bo'g'iz bilan bog'liq. Talaffuz a'zolari ishi sustligi, xuddi zo'riqish kabi butun ovoz apparati ishiga ta'sir qiladi.

Xor ijrochiligida xonandalardan to'g'ri diksiya, ya'ni adabiy tekstni aniq va ravshan talaffuz qilish talab qilinadi. Tovush o'rnining to'g'riligi va nafas aktivligi diksiyaga bog'liq. Xor bilan musiqiy asarlar ijrosi jarayonida undosh va unli tovushlarning talaffuzi ustida muntazam ravishda ish olib borish zarur. Chunki undosh tovushlar unilarga qaraganda qisqa talaffuz qilinadi, undosh tovushlar qattiq talaffuz qilinganda ham ularning sadosi unilarga qaraganda bir necha bor past bo'ladi. So'z oxirida keladigan undoshlarni to'g'ri va aniq talaffuz etmaslik, so'zning ma'nosini anglashga xalaqit beradi. So'z oxiridagi undoshlarning barobar ijro etilishini xor jamoasidan aniq talab qilish zarur. Vokal-xor ijrochiligida bo'g'inlarni ko'chirilishida ham undosh tovushlarni kuylashda birlikka erishish zarur. Vokal-xor diksiyasi bir butun kompleks bo'lib, u tartibli ravishda xorning vokal ishlari bilan bog'lab olib boriladi.

Musiqada **dinamika** tovush kuchini bildiradi. Tovushning dinamik belgisi nyuans (frantsuzcha "nyuantse"-tus) deb ham yuritiladi. Musiqa asarini, qo'shiqlarni dinamik tuslarsiz tugal, to'laqonli asar, deb bo'lmaydi. Asar mazmuniga qarab tovush kuchi ma'lum joylarda o'zgarishi mumkin. Xor o'qituvchisi asarni xorga o'rgatish jarayonida dinamik tuslarni, musiqa tilini, tabiiy logik urg'ularni o'zlashtirgan holda har bir musiqaviy jumla va davrdagi fikrni o'quvchilarga o'rgata bilishi lozim. Nyuanslar ham badiiy ifoda vositasi hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib ta'kidlash joizki, dirijyor xor ansambli ustida ishlashda intonatsiya, diksiya, tessitura, tembr va nuanslarning sifatiga katta ahamiyat berishi zarur. Bunday ish natijasida xor ijrochilarida bir-birini tinglash va eshitish qobiliyati, o'z partiyasi va umuman jamodagi ovozlarni moslashtirish va muvozanatlash qobiliyatlari shakllanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, dirijyorning ijrochi va talqinchi sifatidagi vazifalari uning oldiga juda murakkab masala, muallif nazarda tutgan mulohazalarni tushunib, uning fikrlarini to'g'ri talqin etish muammosini ko'ndalang qo'yadi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, respublikamiz taraqqiyoti o'zgarishlarga boy hozirgi paytda yoshlarni har tomonlama kamol topishi davr talabi va ehtiyojidir. Yosh avlodni ma'naviy baquvvat, bilimli, o'z vatanidan faxrlanish tuyg'usiga ega etib tarbiyalash, zamonamizning dolzarb mavzusi hisoblanadi. Bu esa ta'lim-tarbiya oldidagi murakkab, keng ko'lamli muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Краснощёков В.И. Вопросы хороведения. – Москва: «Музыка», 1969 г. С.300.
2. Gordon Lamb. Choral Techniques. – Rice University, Houston, Texas. <http://cnx.org/content/col11191/1.1/> >. 2010. Pg.414.
3. Shomaxmudova B. Xor lug'ati. – Toshkent: "Musiqi", 2009-y. 305-b.
4. Malikova D. Xor sinfi (Darslik). – T.: "Fan ziyosi", 2021-y. 266-b.

COMPREHENSION OF GAIP DEMESINOV'S PIANO STYLE

Abstract. Gaip Demesinov perfectly felt the expressive possibilities of the piano – its timbre, dynamic colors, color palette. Particularly expressive spheres of side parts in the first parts of the concertos, manifested by their soulful – crystal clear lyrics, where the inner image manifests itself quite brightly and originally. Along with melodies of wide breathing, G.Demesinov's declamatory presentation of themes also plays an important role, imparting epic narrative, restraint and majesty to the music. The finals of the concertos are filled with the energy of movement, a swift sound stream of virtuoso octave passages in the part of the soloist.

Key words: music, piano, part, sound, soloist, cycle, toccatina, nocturne.

GAIP DEMESINOVNING PIANINO USLUBLARI

Annotatsiya. Gaip Demesinov fort pianinoning ifodaviy imkoniyatlari, dinamik bo'yoqlarini yaxshi his qilardi. Ayniqsa, konsertlarning birinchi qismlaridagi yondosh partiyalarining ifodaviy sohalari sof lirikasi bilan ajralib turadi. Keng nafasli kuylar bilan birga G.Demesinovda izohli bayon katta rol o'ynaydi, u musiqaga bayoniylik, ulug'vorlik baxsh etadi.

Kalit so'zlar: musiqa, fortepiano, partiya, tovush, yakkaxon, turkum, tokkatina, nokturn.

ОЩУЩЕНИЕ СТИЛЯ ПИАНИНО ГАИП ДЕМСИНОВЫМ

Аннотация. Гаип Демесинов прекрасно чувствовал выразительные возможности фортепиано – его тембр, динамические краски, колористическую палитру. Особенно выразительные сферы побочных партий в первых частях концертов, проявляющихся своей проникновенно – кристальной чистой лирикой, где внутренний образ проявляет себя достаточно ярко и самобытно. Вместе с мелодиями широкого дыхания большую роль у Г.Демесинова играет и декламационное изложение тем, сообщаемое музыке эпическую повествовательность, сдержанность и величавость.

Ключевые слова: музыка, фортепиано, партия, звук, солист, цикл, токкатина, ноктюрн.

Honored Art Worker of Karakalpakstan, laureate of the Berdakh State Prize, composer and conductor Gaip Demesinov occupies one of the most honorable places among composers and art workers of the twentieth century. His contribution to the treasury of Karakalpak music and his influence on the development of musical creativity of the country are exceptionally important. Gaip Demesinov is a composer who came to the musical art in the early 70s of the XX century. Gaip Demesinov's compositional work is multifaceted.

He created many works in all musical genres from symphony to song. These include symphonic works, works for chorus with symphony orchestra and arrangements of Karakalpak songs for voice and folk orchestra, a cycle of piano pieces for youth, chamber instrumental works, romances and songs. Being an innovator in many genres of professional academic music, the composer always strived to maximize the realization of his ideas and designs. According to musicologist, a member of the Union of Composers of Karakalpakstan D.Khudaibergenova "In the basis of all his works there is an original, creative thought, deep national origin" [1.p.31–33].

From an interview with the composer: "I was born in Karakalpakstan, in Kungrad. I know the language,

culture, traditions, customs of the people and I cannot imagine myself outside of Karakalpak music. My first symphony is dedicated to the establishment of Soviet power in Karakalpakstan. Its first movement is called "Komsomolists". The second symphony "Bozatau" is about the historical past of the people, the ancient land of the Karakalpaks.

The piano concerti utilize the intonation and harmonic structure of instrumental melodies of the Karakalpak people. This principle is preserved in the Prelude and Fugue for Symphony Orchestra. Besides, there are compositions of chamber-instrumental genre and vocal works. I consider it my duty to write music for the people on whose land I was born and grew up" from the interview with the composer [2. P.106].

After graduating from the conservatory, he attracted the attention of the musical community with his bright multi-genre works imbued with Karakalpak folk tunes and soon achieved recognition by the people. In 1973 he became a member of the Union of Composers of Uzbekistan. In order to develop modern musical creativity in Karakalpakstan, he worked hard: he created, taught, directed an orchestra, processed and propagandized folk music. Despite the fact that he lived a short life, he left a great trace in the history of

music of the country.

The fusion of man and nature expressed in the Nocturnes requires the performer to immerse himself in the world of spiritual life of the romantic soul of an artist who perceives reality poetically. The piano works of Gaip Demesinov, represented mainly by works of small form, are characterized by a bright and original style, the comprehension of which by the performer reveals fascinating creative tasks. The Toccata, which embodies images of will, energy and action, is indicative in this respect. The feeling of a huge intonational growth, rhythmic assertiveness, combined with the peculiar character of the work, prophesize the performer's artistic persuasiveness and impression in conveying the style of Gaip Demesinov's music.

The speed and accuracy of the motor reaction to the text being read depends to a great extent on the fingering technique, i.e. the ability to quickly select the most convenient fingering for a given situation, brought to automaticity. The development of auditory perceptions is constantly ahead of learning to read sheet music: elements of rhythm, melody, and harmony that are new to the child are mastered first by hearing and only then in musical notation. The rhythmic element of the recording is mastered first; rhythmoslogues are applied; the motor reaction is developed in the process of reproduction of ostinato rhythmic figures by musical notation [1.P.78.].

The pitch element of the recording is introduced immediately in the form of intonation turns consisting of two or three sounds. The image of the minor tertia becomes a graphic familiar-symbol of this intonation, causing a clear sound image and accurate motor response. It is necessary to pay attention to the formation of complex perception of the musical text.

Along with the development of auditory perceptions, free movement of the hands on the keyboard without the aid of visual control is fostered. Fingering exercises help to develop a quick and accurate reaction of the fingers to the note pattern. Work on the formation of piano playing skills should by no means be limited to the initial stage of training. This process should be continued throughout the entire period of study at the music school. The ability to quickly and freely play notes will open before young musicians wide opportunities to familiarize themselves with the richest musical literature [2.P.132–134.].

The result of these lessons should be the need to learn new things, to constantly make music. The mastering of musical notation takes place in the process of active music-making: singing, picking by ear, transposing, improvising, composing, etc. The student's auditory, visual and motor memory gradually accumulates typical textural, rhythmic and melodic forms characteristic of various styles of piano music. It is known that fingering is based on certain general rules, on well-learned formulas, on the progressive movement of the fingers. "Typical fingering of the original formulas of piano technique - scales, passages, double notes and chords - must

enter the student's blood, otherwise the situation can reach anarchy with the choice of random fingering" [3.P.52.].

The development of the basics of fingering technique is closely connected with the formation of sensitive orientation on the keyboard of the hands: mastering a singing, smooth legato, achieving a clear articulation of the fingers. Fingering exercises give the best results only when they are used simultaneously with work on mastering the keyboard using the "blind" method. This method is introduced during the period of familiarization with rhythm recording – approximately at the beginning of the second month of study.

Piano music, just like a score, should be read, first of all, vertically. The skill of such reading can be developed by the following exercises:

- 1) playing a sequence of chords in the form of harmonic figures, starting from the bass;
- 2) we play these figurations as consonances [4.P.102.].

Such exercises form the ability to quickly determine the harmonic logic in the accompaniment based on broken chords. The main condition for rapid horizontal reading is the ability to quickly divide the text into syntactic units. The initial phenomenon that tells us about the division of music is repetitions within a form. In this case, metrorhythmic similarity plays the most important role. Another less unambiguous indication of the division of music is the long durations that delay movement (resting points).

It is necessary for a coherent performance – each beat is prepared in the process of continuous movement. Continuity, without which there can be no coherent and expressive performance by notes, is possible only if the performer has at least a rough idea of the nearest continuation of the text in advance. "Reading from the sheet is to a large extent reduced to anticipation, as you can see by analyzing your reading of books" (I.Hoffmann) [5.P.221.].

The possibility of "anticipating" the continuation of the text depends on:

1. the degree of complexity of the text (objective factor) – for example, it is easier to read classical style works – this is explained by the "transparency" of the texture, a high degree of orderliness of the elements of this style.
2. the volume of so-called "formulas" (textural, rhythmic, melodic) accumulated in the student's memory (subjective factor). That is, in order to easily reproduce the musical text, it is necessary to accumulate in the visual, auditory and motor memory a sufficient stock of "typical turns" of piano music [6.P.90.].

To form and develop this skill:

1. The teacher stimulates the accumulation of stable models or "formulas" in the student's consciousness (horizontal – scales, arpeggios; vertical – intervals, chords).
2. The teacher works on overcoming the inertness of the student's thinking, achieves long concentration of attention and continuity of thinking (this is facilitated

by playing in an ensemble with the teacher light pieces, where the student's part is extremely simple melodically and rhythmically, and the teacher's part is an even pulsation, replacing the student's score) [7.P.46-47.].

The fusion of man and nature expressed in the Nocturnes requires the performer to immerse himself in the world of spiritual life of the romantic soul of an artist who perceives reality poetically.

Comprehension of Demesinov's piano style will allow the pianist to see and hear the world of his music – deliberately original and modern. Gaip Demesinov's works are performed by the Philharmonic Symphony Orchestra and the Karakalpakstan State TV and Radio Orchestra. The composer's chamber-instrumental works are used as teaching and methodological material in the repertoire of children's music schools, at various competitions for young performers and festivals. These works can be used to successfully form the intonational thinking of musicians in reliance on national musical traditions. The works differ from each other by a variety of style features, figurative

structure, texture, writing technique, but each of them contains a grain of ethnos mentality. Gaip Demesinov's works are set out in such a way that they take into account practically all the possibilities of the playing performing apparatus. Deep comprehension and organic perception of folklore artistic and expressive means allows the composer to saturate the musical fabric of his works with developed melodic structures characteristic of Karakalpak folk song and instrumental art [8.P.143.].

National characteristics are also manifested in rhythmic and harmonic forms. The music of Gaip Demesinov is characterized by dynamic development of the theme, polyphonization of the texture, epicism of expression, and cantilena. The use of such a wide range of expressive means forms the composer's compositional style, intonational and harmonic originality, national characteristic of his works. With all the complexity and versatility of the musical architectonics, the emotional openness and wisdom of philosophical generalizations conquer with artistic power.



Used literature:

1. Абросимова Т.Н. «Содержание и формы организации музыкально-образования учителей начальных школ конца XIX нач. XX в.» : Author's abstract of Cand. ped. sciences: 13.00.01.
2. Азарова Л.Н. Развитие творческой индивидуальности младшего школьника в условиях семейного и общественного воспитания».: Author's abstract Dis. kand. ped. nauk: 13.00.01. – Москва: 1997, с.24.
3. Скребков С. Художественные принципы музыкальных стилей. – М.: «Музыка», 1973.
4. Рабинович Д. Исполнитель и стиль. Избранные статьи. // Вып. 1. Проблемы пианистической стилистики. – М.: «Советский композитор», 1979.
5. Михайлов М. Стиль в музыке. – Ленинград: «Музыка», 1981.
6. Назайкинский Е. Стиль и жанр в музыке. // Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: «Владос», 2003.
7. Чинаев В. Исполнительские стили в контексте художественной культуры XVIII–XX веков (на примере фортепианного исполнительского искусства). Автореф. дис. д-ра искусствоведения. – М.: 1995.
8. Хашимова Д. Фортепианные произведения композиторов Узбекистана. Автореф. дис. канд. искусствоведения. – М.: 1985.

VOKAL-XOR SAN'ATI VOSITASIDA O'QUVCHI YOSHLARNING BADIY-ESTETIK DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada, o'sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy barkamol bo'lib kamol topishida xor san'atining o'rni, ijodiy fazilatlar va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanish omillari, bu borada ijtimoiy hayotdagi mavjud muammolarini bartaraf etish masalalari falsafiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyatlar, badiiy-estetik dunyoqarash, ijodiy faoliyat, xor san'ati, kasbiy tayyorgarlik, falsafiy tahlil.

ФАКТОРЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННО- ЭСТЕТИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ ЧЕРЕЗ ВОКАЛЬНО-ХОРОВОЕ ИСКУССТВО

Аннотация. В данной статье анализируется роль хорового искусства в развитии молодого поколения, факторы развития его творческих качеств и личностных особенностей, а также вопросы решения существующих в этой связи проблем в общественной жизни.

Ключевые слова: творческие способности, художественно-эстетическое мировоззрение, творческая деятельность, хоровое искусство, профессиональная подготовка, философский анализ.

FACTORS OF IMPROVING THE ARTISTIC AND AESTHETIC WORLD VIEW OF STUDENTS THROUGH VOCAL-CHORAL ARTS

Abstract. This article analyzes the role of choral art in the development of the young generation, the factors of development of their creative qualities and personal characteristics, and the issues of solving existing problems in social life in this regard.

Key words: creative abilities, artistic-aesthetic outlook, creative activity, choral art, professional training, philosophical analysis.

KIRISH

Ijtimoiy-ma'naviy hayotimizda sodir bo'layotgan hodisalar gumanitar fanlarning zimmasiga o'quv va tarbiya jarayonini takomillashtirishdek muhim vazifalarni qo'yimoqda. Bu jarayonda yosh avlodni estetik jihatdan tarbiyalash, ularning estetik dunyoqarashini boyitish, badiiy-estetik didini yanada yuksaltirish bilan bog'liq zamonaviy estetik tarbiya tizimini takomillashtirishni asosiy vazifalardan hisoblaydi. Shuningdek, "ommaviy madaniyat"ning har qanday ko'rinishiga hamda "fetish estetika" va "bozor san'ati" kabi tahdidlar bilan bog'liq muammolarni hal etishda ijtimoiy fanlarni estetika faniga integratsiya qilishga ehtiyoj sezilayotganligini ta'kidlash o'rinlidir.

San'at estetikaning obyekti sifatida o'ziga xos olam. Unda estetik xususiyatlar bo'rtib ko'zga tashlanadi. Shunga ko'ra, uni nafasatga burkangan ijtimoiy hodisa, deyish mumkin. San'at hayotni in'ikos ettirar ekan, insonning o'zini o'ziga ko'rsatuvchi ulkan ko'zgu vazifasini o'taydi. U insonni o'rgatadi, da'vat etadi, go'zallashtiradi. Bu vazifalarni bajarishda estetika san'atning ko'makchisi, yetakchisi hisoblanadi. Estetika bir tomondan, san'atning paydo bo'lishidan tortib, uning turlari-yu janrlarigacha, san'at asarining ichki murvatlaridan tortib, san'atkorning ijodkorlik tabiatigacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'rganadi. Ikkinchi tomondan, san'at uchun umumiy qonun-qoidalarni ishlab chiqadi va tatbiq etadi. Uchinchi tomondan esa, san'at asarini idrok etayotgan kishi

ruhidagi o'zgarishlarni nafasat nuqtayi nazaridan tadqiq qiladi. Shunday qilib, estetika san'atni to'la qamrab oladi va uning ich-ichiga kirib boradi: musiqiy asarning yaratilish arafasidagi shart-sharoitlardan tortib, to u bunyodga kelib, asl egasi – idrok etuvchisi, tinglovchiga yetib borgunigacha bo'lgan va undan keyingi jarayonlarni tadqiq etadi hamda ulardan nazariy xulosalar chiqaradi. Zero, "San'at falsafasi" iborasining siri ana shunda.

Vokal-xor san'ati yoshlarning badiiy-estetik dunyoqarashning yuksalishida muhim omillaridan hisoblanadi [2.102].

Xor bo'lib kuylash – musiqiy faoliyatlarning eng faol shakli bo'lib, u insonning barcha muhim psixofiziologik tizimlarini o'z ichiga oladi, san'at turining ulkan imkoniyatlarini belgilaydi, shaxsning insoniy fazilatlarini rivojlantirish jarayonida muhim va dolzarb vazifalarni hal qilishi mumkin va hal qilishi kerak. Yosh avlodni badiiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirish muammolari borasida so'z borganda, avvalambor, xor san'ati imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. So'nggi yillar kuzatuvlarimizga tayanib, san'atni rivojlantirish yo'lida yaratilayotgan ulkan shart-sharoitlarga qaramay xor san'ati rivoji susayib bormoqda.

Xor madaniyatining tarbiyaviy jihatlarini o'rganish o'z tarixiga ega va bu borada muayyan tajriba to'plangan. Ammo xor ijrochiligi faoliyatining bugungi kundagi o'zgaruvchan sharoitlari va buning natijasida yoshlarning badiiy-ijodiy ongida davom etayotgan

o'zgarishlar ushbu muammoni qo'shimcha ravishda ko'rib chiqishni talab qiladi.

Hozirgi kunda jamiyatda umumiy ta'lim va yosh avlodni estetik tarbiyalash tizimida xor san'ati turining musiqa ta'limidagi ahamiyatiga yetarlicha baho bermaslik yaqqol namoyon bo'lmoqda. Eng muhim muammo hisoblanmish san'at, shuningdek, vokal-xor san'atining shaxsning har tomonlama rivojlanishiga, ularning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'siri kabi jihatlari kam o'rganilgan.

METODLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Musiqa san'ati badiiy madaniyatning bir qismi sifatida yoshlarning ichki dunyosiga eng hissiy va chuqur ta'sir ko'rsatadigan, ongli va aqli munosabatida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshiradi, ijodiy rivojlanish va estetik ideallarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Musiqa madaniyati sohasida uning qadimiy kelib chiqishini tasdiqlovchi eng muhim omil, bu xor qo'shiqchiligi hisoblanadi. U tabiat tomonidan bizga saxovat sifatida berilgan asosiy asbob – ovozga asoslangan. Xor san'ati xalq qo'shiqlari va mumtoz musiqaning ko'p asrlig an'analari o'zida mujassamlaydi.

Xor san'atiga singgan musiqa san'atining roliga qiziqish barcha tarixiy davrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, bu masala olim, faylasuflar, madaniyat arboblari tomonidan o'rganilgan. Bu san'at yoshligidanoq bolalarning qalbini zabt etadi, ular atrofida uyg'un yashash muhitini yaratadi, go'zal va abadiylikni tushunishga bo'lgan cheksiz ishtiyoqni uyg'otadi. Bolalarni musiqa san'ati bilan tanishtirishning eng samarali shakli xor bilan kuylashdir. *“Musiqiy san'at va xor san'ati yoshlarning atrofida dunyoga va umuminsoniy qadriyatlarga bo'lgan qarashlarini tarbiyalash, estetik madaniyatni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir”*, – deya ta'kidlaydi mashhur rus pedagogi N.Zaytseva.

Yosh avlodning musiqiy qobiliyatini shakllantirishda badiiy-ijodiy jarayonda eshitish qobiliyati rivojlanganining o'zni nihoyatda katta ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Musiqiy eshitish qobiliyati ijro apparatining ishini boshqaradi, ovoz sifatini nazorat qiladi va asarning badiiy qiyofasini yaratishga yordam beradi.

Xor – qo'shiqchilar yig'indisi, shaxssiz mavhum birlik emas, xor – bu ko'plab shaxslar, shaxsiy tasavvurlar, kechinmalar, tushunchalar, shaxsiy baho ifodalari, shaxsiy ijoddir. Xor musiqasini yaratishning oliy maqsadi – tinglovchi bilan muloqot jarayonida yaratilgan musiqiy obrazning birligida ko'plab shaxsiy ijodkorlarning birlashishidir. Xor jamoasidagi shaxslar qanchalik yorqin bo'lsa, ularning individual idrok palitrasi qanchalik keng bo'lsa va musiqiy tasavvuri, shiddatli yo'nalishining ko'p bosqichli tizimi qanchalik murakkab bo'lsa, xor jarangi shunchalik qiziqarli va yorqinroq bo'ladi. Demak, shaxsni shakllantirish xor faoliyatining eng muhim ijtimoiy vazifasi va maqsadi, desak mubolag'a bo'lmaydi [3.10].

Xor sinfidagi mashg'ulotlar vokal, vokal ansambli, dirijyorlik, xor bilan ishlash usullari, xor adabiyoti, aranjirovka qilish, xor partituralarini o'qish kabi boshqa maxsus tizim fanlar o'rtasidagi samimiy munosabatlar, bo'lajak xor rahbarining kasbiy ta'limi muammolarini hal

qilishning zaruriy shartidir. To'g'ridan-to'g'ri amaliy ish jarayonida xor sinfida qo'shiq kuylash xor dirijyorining badiiy-estetik idroki rivojiga yordam beradi.

Xor sinfida muntazam ta'lim jarayonida talabalar quyidagi vokal-xor mahoratiga ega bo'ladilar:

- *o'rganilayotgan asarning badiiy obrazini yoritilishi;*
- *to'g'ri diksiya va ovoz yo'naltirish malakalari orqali tiniq talaffuzga ahamiyat qaratish;*
- *turli jamoalarda faoliyat olib borish mahoratiga;*
- *dirijyor imo-ishorasini anglash.*

Xor rahbari turli sohalarni va birinchi navbatda musiqani bilishda yuksak darajada rivojlangan intellektga ega bo'lishi kerak. Musiqa, xor adabiyoti tarixini bilishi, rivojlangan melodik va garmonik eshitish qobiliyatiga ega bo'lishi, diqqat bilan eshitish qobiliyatiga ega bo'lishi, ish usullarini yaxshi bilishi kerak.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bo'lajak xormeysterlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o'rganish talabalarni kasbiy tayyorlashda muhim jihatdir. Ixtisoslashgan vokal-xor sohasida shaxsiy mahoratidan foydalanish imkoniyati masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Bo'lajak mutaxassis xormeysterining ijodiy yo'nalishi bir nechta omillarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, bu xor san'ati sohasidagi bilimlar tizimi bo'lib, ular birgalikda ma'lum tezaurus va professional va ijodiy dunyoqarash darajasini tashkil qiladi.

Ikkinchidan, ijodkorlikning badiiy tamoyillari bo'lib, kelajakdagi xormeysterlarning kasbiy darajasini oshirishga yordam beradi.

Uchinchidan, bu bevosita xormeysterining faoliyati bo'lib, buning natijasida musiqiy tajriba to'planadi va ijodiy qobiliyatlar shakllanadi. Oxirgisi repertuarga turli uslub va janrdagi asarlarni, xususan, muqaddas folklor, mumtoz va zamonaviy xor musiqasining eng yaxshi namunalarini kiritishni talab qiladi, buning natijasida bo'lajak dirijyorlar va xormeysterlarning ijodiy faolligi darajasi oshadi.

To'rtinchidan, bu ijodiy va ijrochilik faoliyatida qo'llaniladigan evristik usullar, vositalar va usullardan dirijyorlik va xor mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyatidir.

Va nihoyat, bo'lajak dirijyorlarning badiiy va ijodiy faoliyatida hissiy darajani, intuitiv jarayonlarni, ilhomni, ijodiy dinamikani, ijodiy tavakkalchilikni ijro amaliyotida ijodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlari to'plami sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda talabalar ijodiyoti asosan professional musiqa ta'limi muammolari nuqtayi nazaridan (V.Jivov, Y.Medin, I.Musin, K.Olxov, M.Oseneyev, V.Samarin) ko'rib chiqiladi. Zamonaviy sharoitda oliy o'quv yurtlarida xor rahbarlarini tayyorlash tizimi badiiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirish va ijodiy faoliyatni amalga oshirishga qodir mutaxassislarni shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan. Lekin o'z navbatida, xor rahbari talabalardan o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini, turli yosh guruhleri, kasbiy va havaskorlik jamoalari vakillari bilan ishlash usullarini, o'rganishga individual yondashishni, samarali amaliy xormeyster faoliyati uchun musiqiy ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishni talab qiladi [3.160].

Talabalarni ijodiy jarayon sifatida kasbiy faoliyatga tayyorlash zarurati nafaqat ijtimoiy rivojlanishning obyektiv talablari, nafaqat insonning muhim imkoniyatlari, balki musiqiy faoliyatning ijodkorlik sifatidagi tabiati bilan ham belgilanadi. Taxminan bir xil shaxsiy xususiyatlarga va kasbiy mahorat darajasiga ega bo'lgan mutaxassisning faoliyati individuallikni belgilaydigan o'ziga xos xarakterli xususiyatlarda uslubda farqlanadi. Shu sababli, o'quvchilarni shaxs sifatida kelajakdagi ijodiy faoliyat subyektlari sifatida tayyorlash kerak [4.54].

Bo'lajak xormeystertalabalarining oliyo'quv yurtlarida tayyorlash mexanizmining muhim tarkibiy qismi sifatida ularning samarali, ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, badiiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirish masalasi alohida dolzarbdir. Bu xor rahbarining ko'p qirrali faoliyati, turli asarlar ustida ishlash jarayonida shaxsning ijodiy fazilatlarini rivojlantirish, musiqiy bilish usullarini va badiiy faoliyatning analitik hamda sintetik shakllarini o'zlashtirish, shuningdek, ijodiy qobiliyat muayyan xor asarini talqin qilish jarayonida mumkin bo'ladi.

Dirijyorning asosiy vazifasi badiiy-musiqiy obrazni tinglovchilarga yetkazishdir. *"Kompozitor – dirijyor – xor – tinglovchi"* murakkab badiiy-axborot sxemasida dirijyor asosiy ijodiy yukni o'z zimmasiga oladi. Xor asarini talqin qilishning badiiy natijasi dirijyorning uning strukturaviy elementlarini: agogika, temp, artikulyatsiya, zarbalar, dinamika, tembr, dirijyorlik usullari, qisman va asosiy kulminatsiyaga yondashuvlar, qay darajada idrok etishiga bog'liq. Qiyoslash, qarama-qarshi qo'yish, assotsiativlik va asosiy dramatik konfliktni anglash usullariga asoslanib, musiqali dramaturgiyaning rivojlanish qonuniyatlarini biladi.

Yuqorida aytilganlar umumiy madaniy va musiqiy-badiiy komponentlar birlashtirilgan dirijyorlik ta'lim tizimini yaratishni taqozo etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xormeyster va dirijyorlik faoliyati texnologiyasi masalalari nazariy, va ayniqsa, amaliy jihatdan turli davrlarda eng ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqilgan (P.Chesnokov, A.Sveshnikov, K.Ptitsa, A.Yurlov, B.Tevlin va boshqalar). Shu bilan birga, ushbu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalar salohiyatini ijodiy ro'yobga chiqarish aspekti hali ham har tomonlama ilmiy-nazariy asosni topmagan. Demak, mazkur muammoni

yanada chuqurroq o'rganish va oliy maktablar sa'y-harakatlarini bo'lajak xormeysterlarni kasbiy tayyorlash sifatini oshirishga, xususan, bu jarayonda ijodiy jihatni yangilashga yo'naltirishning dolzarbligi yaqqol ko'rinib turibdi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, xor rahbari faoliyati ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning shaxs, san'atkor, o'qituvchi yetakchi sifatida rivojlanishi mexanizmini ta'minlovchi turli xil ijodiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Ushbu komponentlar qiymatga yo'naltirilgan, motivatsion-kognitiv, axborotga yo'naltirilgan, tadqiqot, kommunikativ, hissiy-irodaviy va badiiy ijodiy kompetensiyalardan iborat. Asarni talqin qilishning badiiy-estetik jihatdan to'liq kontsepsiyasini yaratish orqali xormeyster ma'lum bir yo'nalish va uslub madaniyatining butun ijtimoiy tajribasini, xor san'ati asarlari bilan individual ishlash jarayonida mustahkamlanadigan ijro xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtiradi.

Yoshlarni jahon madaniyati va xor qo'shiqchiligi xazinalari bilan tanishtirish estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – ijodiy rivojlangan, go'zallik qonunlari, barkamol shaxsni shakllantirish, hayotiy amallarni amalga oshirishga katta intilishni shakllantirishning zarur shartidir. Yoshlarni hamma joyda barcha narsada go'zallikni ko'rishga o'rgatish estetik tarbiyaning haqiqiy maqsadi bo'lib, xor san'ati muhim vazifani hal qilishda faol va samarali yordamchidir. Xor san'atida estetik tarbiya o'quvchi-yoshlar qalbini ranglar, tembrlar va tovushlarni idrok etishga ochibgina qolmay, balki dunyoni chuqurroq va to'liqroq anglash, o'z ichki hissiyotlarini har tomonlama ochib berishga xizmat qiladi. Xor san'ati orqali insonning asosiy va hissiy ehtiyoji: tabiatan har bir shaxsga xos bo'lgan go'zallikka bo'lgan ehtiyoj, uyg'unlik, yaxlitlik va muvozanatga intilish kabi sifatleri ochiladi. Xor san'ati estetik tarbiya bilan chambarchas bog'liq holda shaxs rivojlanishining barcha bosqichlarida go'zallikka tegish imkoniyatini beradi, uning uyg'un takomillashishiga hissa qo'shadi.

Estetik tarbiyada aks ettirilgan xor asarlari shaxsga inson mavjudligining qadriyatli asoslarini go'zallik, yaxshilik va haqiqatni o'rganishga imkon beradi. Kasbiy faoliyat amaliyotida badiiy-estetik dunyoqarashini yuksalish omillari shaxsiy orttirilgan tajribasi asosini tashkil qiladi. Mazkur fikrlar bo'lajak xor rahbarlarining kasbiy tayyorgarligida asos bo'ladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher., Bahodir Husanov. Estetika (Uslubiy qo'llanma). – Toshkent: 2010-y. 7-b.
2. Mansurbekova F. Talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xor san'ati imkoniyatlaridan foydalanish. Farg'ona davlat universiteti 25-noyabr Musiqi ta'limdagi muammo va yechimlar Xalqaro konferensiya materiallari. 2023-y. 102-b.
3. Васильченко О.А. Хоровой класс (Учебное пособие). – Т.: 2016 г. С.10.
4. Анисимов А.С. Дирижер-хормейстер (творческо-методические записки). – Л.: «Музыка», 1976 г. С.160.
5. Аристотель. Как все безвредные развлечения [Текст] / Аристотель // История эстетики: памятники мировой эстетической мысли. – Москва: 1964 г. С. 165–167.
6. Щепотин А.Ф. Современные технологии обучения в профессиональном образовании. – М.: НПЦ «Профессионал-Ф», 2002 г. С.54.
7. Шинтяпина И.В. Развитие творческих способностей студентов-хормейстеров в процессе профессиональной подготовки <https://cyberleninka.ru/article/n/razvitiye-tvorcheskih-sposobnostey-studentov-hormeystero-v-protsesse-professionalnoy-podgotovki/viewer>

ОБ ОСОБЕННОСТЯХ ПРОИЗНОШЕНИЯ ИТАЛЬЯНСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье поднимаются вопросы о правильности произношения итальянских гласных в музыкальных произведениях. Навыки приобретённые в процессе обучения принесут определённую пользу в освоении *bellcanto*.

Ключевые слова: произношение, итальянский язык, сочетание гласных, отчётливость произношения, слияние гласных, звуковое оформление текста, музыкальность поэтической речи.

ITALIYAN TILI TALAFFUZI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqolada musiqiy asarlarda italyan unlilarining to'g'ri talaffuzi haqida so'z ketadi. O'quv jarayonida olingan ko'nikmalar bellkantoni o'zlashtirishda ma'lum foyda keltiradi.

Kalit so'zlar: talaffuz, italyan tili, unlilar birikmasi, talaffuzning aniqligi, unlilarning birikishi, matnning ovozli dizayni, she'riy nutqning musiqiyiligi.

ABOUT THE FEATURES OF ITALIAN PRONUNCIATION LANGUAGE

Abstract. The article raises questions about the correct pronunciation of Italian vowels in musical works. The skills acquired during the learning process will bring certain benefits in mastering *bellcanto*.

Key words: pronunciation, Italian language, combination of vowels, distinctness of pronunciation, fusion of vowels, sound design of the text, musicality of poetic speech.

Традиции вокальной школы, система воспитания певцов в нашей стране предусматривает знакомство и изучение вокалистами произведений на итальянском языке итальянских композиторов, особенно с его звуковым строем. Это знакомство начинается ещё в стенах учебных заведений. Уже в годы учёбы в программу академических концертов и экзаменов студентов вокально-исполнительских факультетов включаются романсы, песни и арии итальянских композиторов. Итальянский язык должен преподаваться во всех музыкальных учебных заведений республики. Бессмертные сочинения, рождённые на далёкой земле Италии занимают значительное место в репертуаре известных певцов. В настоящее время на сцене ГАБТ оперы и балета имени А. Навои Республики Узбекистан звучат шедевры мировой итальянской классики на итальянском языке. Это знаменитые оперы Дж.Верди: *“Аида”*, *“Травиатта”*, *“Трубадур”*, *“Риголетто”*. Это оперы Дж.Пучинни: *“Тоска”*, *“Богема”*. Г.Доницетти: *“Лючия де Ламермур”*, *“Любовный напиток”*. Арии и сцены из этих опер не раз звучали в концертных программах узбекских певцов, как Саодат Кабулова, Асад Азимов и представители нового поколения талантливых певцов – Куркмас Мухитдинов, Кирилл Борчанинов, Рамиз Усманов, Саида Мамадалиева, Маъсума Болтобаева и т.д.

Исполнение вокальных произведений на языке оригинала в современных условиях является практически обязательным и давно стало правилом на Республиканских и Международных конкурсах. Критика рассматривает эту сторону испол-

нительства как одно из проявлений музыкальной и общей культуры певца. Однако и сами певцы зачастую отдают предпочтение итальянской музыке и стремятся петь по-итальянски.

В чём же причина такой популярности итальянской музыки и итальянского языка?

Итальянский язык издавна принято считать музыкальным. В XVIII веке стихи известного поэта и либреттиста П.Метастазियो, к которому обращались самые знаменитые композиторы того времени, считались образцом гармонии, а слава поэта вышла далеко за пределами Италии. В те времена мелодрама представляла собой небольшое сочинение для сцены с музыкальным сопровождением, в котором музыка не превалировала над поэтическим текстом. Мелодичные коротенькие арии – ариетты «составляли основу музыкальной драмы, в них сочеталось, как правило, сладостное звучание музыкальных инструментов с самым общедоступным содержанием стихов и незамысловатыми развитием действия. И никто не сумел выразить в столь совершенной форме, как П.Метастазियो, вокальную легкость и своеобразие ритма итальянского стиха и итальянской речи. Между тем основу его поэтичного кредо составляют простота и симметрия.

Стихи П.Метастазियो необыкновенно просты и не только по содержанию, но и по своему звуковому оформлению. Если мы проанализируем звуковой материал, с помощью которого поэт строит текст, то обнаружим в нём не только обилие гласных звуков, но и то, что здесь регулярно чередуются гласные и согласные звуки речи, что слог обычно имеет самую элементарную струк-

туру – «**согласный + гласный**». Такие сочетания легко произносятся и легко поются. Заметим кстати, что в итальянском языке вообще стечение нескольких согласных звуков встречается крайне редко и возможно только для строго определённого ряда звуков. Кроме того, итальянское произношение отличается большой чёткостью и активной артикуляцией. В состав итальянского языка входит значительно меньше звуков, чем во многие другие языки мира, и потому четкое произношение каждого элемента речи очень важно как для передачи, так и для понимания содержания. Энергичное, отчётливое произношение, характерное для итальянского языка, помогает певцам в вокализации и, как считают прославленные педагоги Bell canto и развивает умение точно интонировать и способствует певческому долголетию.

Для итальянского языка характерно также то, что в нём крайне редко находящиеся по соседству гласные относятся к разным слогам. Чтобы произнести две гласные подряд, необходимо напрягать речевой аппарат, так как гласные обычно являются вершиной слога и их произношение требует большой активности органов речи. Почти во всех языках в подобных случаях гласные редуцируются, изменяют характер звучания, произносятся недостаточно отчетливо. А в итальянском языке при стечении гласных не происходит изменения качества звука, но может продолжительности звучания. В нотных записях мы часто видим, две или три гласные приходятся на один нотный знак, а это означает, что они входят в один слог, и одна из гласных теряет часть своей долготы, иначе говоря, гласные сливаются:

Ария Джильды

из II акта оперы Дж. Верди Риголетто

Andantino



Слияние соседних гласных значительно облегчает произношение, уменьшая напряженность речевого аппарата. Для певца оно становится своеобразной паузой, продолжающейся в звуке, что позволяет голос модулировать в соответствии с желанием певца.

Слияние гласных в один слог первоначально было распространено только в разговорном языке, в диалектах Италии, но уже в пору эпохи Возрождения, начиная с Данте и Петрарки, выда-

ющиеся итальянские поэты и писатели стали использовать эту особенность гласных в своих стихах для соблюдения метра, размера стиха и для достижения благозвучия.

Другой особенностью Языка итальянских вокальных произведений является исчезновения из произношения слабых элементов – слабых гласных и даже слогов, на которые не падает ударение. Сходные явления существуют и в других языках, они не чужды восточным языкам – узбекскому, казахскому, и всегда использовались в классической поэзии разных народов. В итальянском языке, однако, они получили значительно большее распространение, чем в других языках. Эти свойства гласных стали неотъемлемой чертой литературного языка, утвердились в качестве нормы и наложили особый отпечаток на весь звуковой строй итальянского языка.

Благодаря такому сжатию звуковой формы поэты получают возможность сохранить определённое количество слогов в стихотворной строке, что как известно, относится к одному из необходимых условий поэтического искусства. С другой стороны, звуковое оформление текста связывается с эстетическими идеалами, живущими в сознании народа. К примеру, столкновение гласных, вызывающее широкое раскрытие рта, итальянцы считали не эстетичным, старались его избегать и таким образом добиться более благородного звучания.

Звуковые изменения типа элизии¹ и усечения² тесно связаны с динамическим ударением и очень важны для организации ритма: слабые элементы исчезают, акценты становятся более яркими.

1 *Элизия – утрата гласной перед другой гласной;*

2 *Усечение – утрата гласной или слога перед согласной.*

Тексты итальянских сочинений для голоса насыщены этими специфическими звуковыми явлениями: они связывают и расчленяют отрезки речи, регулируют ритм, передают кантилену стиха.

Не вызывает сомнения, что звуковая форма играет исключительно важную роль в создании художественного образа, и особенно в музыкальных произведениях. В вокальных сочинениях происходит сближение разных по своей природе звуков – музыкальных и звуков речи. Для поэзии, как и для музыкальной гармонии, важны ритм, расстановка ударений, напевность, связанность или прерывистость потока звуков. Музыкальность поэтической речи реализуется в вокальных произведениях в сочетании с мелодией, и в этом отношении звуковой строй итальянского языка оказывается необычайно благодатным материалом для гармонических построений. Вместе с другими выразительными средствами языка элизии и усечение используются в поэзии как особый стилистический приём, с помощью которого передаются разнообразные и весьма тонкие оттенки мысли и чувств. Используя их как звуковые краски, автор

¹ Элизия – утрата гласной перед другой гласной;

² Усечение – утрата гласной или слога перед согласной.

Тексты итальянских сочинений для голоса насыщены этими специфическими звуковыми явлениями: они связывают и расчленяют отрезки речи, регулируют ритм, передают кантилену стиха.

и исполнитель создают особый эмоциональный колорит, атмосферу поэтической возвышенности и усиливают эмоциональное воздействие на слушателя. Наряду с музыкальными звуками звуки речи приобретают определённый символический смысл и становятся звукоизобразительными. Самую высокую гласную итальянского языка - **и** -, например, подчас называют самой экспрессивной. Этот закрытый и очень напряжённый звук словно концентрирует в себе остроту и резкость перехода от гласных к согласным, кульминационный момент выражения чувств. Самые высокие ноты вокальной тесситуры чаще всего исполняются посредством гласного - **и** -.

Певцы могут чрезвычайно искусно пользоваться возможностями, заложенными в звуковом строе языка. Например, слияние гласных и элизия подчёркивают плавность, кантилену потока звуков, усечение, напротив, способно дробить, разрушать стих.

В итальянском языке не существует значительной разницы между разговорной речью и поэтической декламацией, равно как и между вокализацией и обычным чтением стихов. В них больше сходства, чем различий, и в подавляющем большинстве произведений для голоса пунктуально

соблюдаются закономерности обыденной речи. Следуя правилам артикуляции и формирования звуков речи в пении, исполнитель не только не наносит ущерба музыке, но значительно обогащает её. Поскольку фонетика итальянского языка не сложна, то петь на нём обычно не составляет особенного труда и для певцов других национальностей. Вместе с тем знакомство с особенностями итальянского произношения расширяют певческий диапазон, способствует совершенствованию вокальной техники и мастерства исполнителя.

И так, причины особого пристрастия певцов к итальянскому репертуару оказываются весьма простыми. Они кроются в непреходящей ценности языковой и музыкальной культуры народа, на века сохранившего те достижения прошлых времён, которые некогда выдвинули Италию в первые ряды глашатаев новой музыкальной культуры. Несмотря на сложное развитие современных музыкальных форм, быть может, вопреки ему, культ простоты, гармонии, идеальных пропорций, утвердившийся в языке итальянского искусства на многие столетия, и в наши дни находят отклик у исполнителей и слушателей всех стран и народов.

Список использованной литературы:

1. Багадуров В.А. Очерки по истории вокальной методологии. Части 1 и 2. Музыкальный сектор государственного издания, 1929 г.
2. Левидов И. Певческий голос. Глава 9. Слово в пении. – Ленинград: «Искусство», 1939 г.
3. Садовников В. Орфоэпия в пении. МУЗГИЗ, 1958 г.
4. Вопросы вокальной педагогики. Выпуск №4, «Музыка», 1969 г.
5. Вопросы вокальной педагогики. Выпуск №7, «Музыка», 1984 г.

KO'HNA VA NAVQIRON TANAVOR

Annotatsiya. Xuddi shunday, Qo'qon xonligi saroyi "ichkari" sida yashovchi ko'plab ayollar, ehtimol, munosib yashash sharoitlariga ega bo'lsalar ham, haqiqiy oilaviy baxtdan mahrum edilar. Albatta, ular bu haqda ochiq gapira olmadilar. Binobarin, yoshlikdagi orzulari, oilaviy baxti, amalga oshmagan orzulari o'z ijrolarida goh ochiq, goh ishora bilan o'z his-tuyg'ularini to'kib soladilar. "Tanavor" usuli asosida yaratilgan "Qora sochim" ashulasi ana shunday ijodning beqiyos namunasidir.

Kalit so'zlar: ashula, kuy, ohang, tanavor, xonanda, raqqosa, yalla, ijrochi.

МНОГОВЕКОВОЙ И ВЕЧНО МОЛОДОЙ ТАНАВОР

Аннотация. Точно также многие женщины – обитательницы "ичкари" дворцов кокандских ханов, хотя, быть может, и имели достойные условия жизни, однако были лишены настоящего семейного счастья. Конечно же, они не могли говорить об этом открыто. Поэтому несбывшиеся мечты юности, несбыточная мечта о простом женском семейном счастье находила выход в их творчестве, в которой, подчас открыто, подчас намеками можно было излить свои чувства. Ашула "Qora sochim" ("Мои черные волосы"), основанная на усуле "Танавор", является несравненным образцом такого творчества.

Ключевое слово: песня, мелодия, танавор, певец, ялла, исполнитель.

CENTURIES-OLD AND FOREVER YOUNG TANAVOR

Abstract. In the same way, many women - inhabitants of the "ichkari" of the palaces of the Kokand khans, although, perhaps, had decent living conditions, were nevertheless deprived of real family happiness. Of course, they couldn't talk about it openly. Therefore, the unfulfilled dreams of youth, the unfulfilled dream of simple female family happiness found a way out in their work, in which, sometimes openly, sometimes in hints, they could pour out their feelings. Ashula "Qora sochim" ("My Black Hair"), based on the usul "Tanavor", is an incomparable example of such creativity.

Key words: song, melody, tanavor, dancer, singer, musician, yalla, performer.

Tanavorning tarixiy kelib chiqishiga nazar solsak, asosan XIX asrning birinchi yarmida Farg'ona vodiysi ayollari ijodida yuzaga kelganligining guvohi bo'lamiz. Aslida tanavor bu to'rt hissali muayyan raqsboq doyra usulining nomidir. Mazkur usul ko'p ashulalarda bo'lgani kabi "Qora sochim" da ham juda o'rinni qo'llanilgan edi. Qo'qon xonlari saroyi "ichkari" sida, ya'ni haramda faoliyat ko'rsatgan aksariyat xotin-qizlarning hayoti, garchand ularga zarur sharoitlar yaratilgan bo'lsa-da, haqiqiy oila baxtidan yiroq bo'lgan. Tabiiyki, bu holni ular ochiq-oydin tarannum etishlari mumkin emas edi. Shu sababdan ham ularning ijodida ushalmagan orzu, ro'yobga chiqmagan oilaviy baxt mavzulari yashirin yoki so'z ishoralari tarzida namoyon bo'lib turgan. Tanavor ashulasining kuy-ohangiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayollar ohang semantikasi aks etib, unda mahzunlik, g'amginlik ruhi ufurib turadi. Doyra usuli ushbu qayg'u va dard-alamni yashirib, ashulaga tantanavorlik, shod-hurramlik holatini baxsh etadi.

Tanavor usuliga asoslangan "Qora sochim" ashulasi esa ana shunday ijod namunalaridan biridir. Ammo mazkur ashulaning yuzaga kelish tarixi haqida bugungi kunda turlicha rivoyatlar, fikrlar mavjud. Bu o'rinda tanavorlarning kelib chiqish tarixiga oid quyidagi ma'lumotni keltirib o'tish joizdir: "Qo'qon xoni haramiga keltirilgan yangi qizlarning sochlari, odatda, boshqa ayollardan farqlash uchun, peshona yuqorisidan kalta

(2-3 sm.) qilib kesib qo'yilar ekan. Bu sochlar, tabiiyki, ma'lum vaqt (ikki-uch oy) o'tishi bilan yana qayta o'sib qoshlar ustiga tushgan. Ana shu vaqt mobaynida sochi kesilib haramga olingan qizlarning nafaqat turmush tarzida, balki taqdirida ham katta o'zgarishlar ro'y bergan. Xonga tortiq qilinganlar orasida Adolat ismli san'atga iste'dodli qiz ham bo'lib, u kesilgan sochi qoshi ustiga tushgunga qadar ko'rgan-kechirganlarini tanavor doyra usuli vaznida dardli ohanglarga solib, dutor chertib kuylagan ekan. Haramdagilarga bu vazmin raqs ruhida mahzun ashula juda manzur bo'lgan, zero bu honishda o'sha davradagi har bir ayol o'z qismatining badiiy hikoyasini anglagan edi"¹.

Ma'yus raqslar jo'rligida aytilgan dardli aytimlar shu tarzda yuzaga kelgan bo'lsa ajab emas. Demak, so'z yuritilayotgan "Qora sochim" ashulasi, nazarimizda, saroydagi ayol (yoki ayollar) ijodiga mansubdir. Bu o'rinda ashulaning an'anaviy tarzda dutor chertib aytilishi ham saroy va boylar xonadoni san'atiga ishoradir. Chunki ayollar orasida dutor ijrochiligi dastlab xon saroyida, zodagonlar uylarida urf bo'lgan edi.

Farg'ona viloyatida boylarning ham uylarida ularga xizmat qiluvchi alohida yallachilari mavjud bo'lgan. L.Avdeyevaning qayd etishicha, Farg'onada Nazirxon ismli mashhur yallachi yashab o'tgan. "Nazirxonni sotib olgan xo'jayini raqs tushushib, ashula kuylashini e'lon qilgan maxsus kunlarda Farg'onaga Iroq, Afg'oniston, Kavkaz, Hindiston va Xitoydan boy savdogarlar yetib kelishgan. Aytishlaricha, Nazirxon ipak parda ortida qo'shiq aytgan, uning yuzini raqs kechalari uyushtirilgan maxsus oqshomlardagina juda kam

¹ Ma'lumot O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Qoraqalpog'iston xalq artisti Muyassar Sotvoldiyeva bilan bo'lgan suhbatdan olindi (2015-yil, oktyabr). Bu ma'lumotni Muyassarxon opa 1970-yillari Farg'onaning qariya onaxonlaridan eshitgan.



kishilar ko'rgan. Shunday kunlarda raqqosa gilam va gullar bilan bezatilgan, "boylarning boylari"dan iborat tomoshabinlardan yigirma metrlar uzoqlikdagi sahnaga chiqqan.

Uni yaxshi tanigan Yusufjon qiziq shunday hikoya qiladi: *"Nazirxon kuylaganda yuraklar uvishib ketar, u tinglovchining barcha g'am-alamlaridan xabardordek tuyular edi; uning tovushi goh faryod urar, goh g'am to'g'risida yonib kuylar, gohida sekin shivirlashgacha pasayar va bu shivirlashda baxt to'g'risidagi shunchalik o'tli orzu, shunchalik og'riq bor ediki, tinglovchilar qalbi yorilib ketishga tayyor turar edi. U ayniqsa, Tanavorni juda yaxshi ijro etar, aytishlaricha, uning o'zi so'z yozib, musiqa bastalagan ekan. Nazirxon sochlarini yozib, qomatiga yopishib turadigan qora bahmal kamzolda raqs tushar edi... Bir kuni juda boy bir savdogar Nazirxonni san'atidan ta'sirlanib, unga qimmatbaho toshlar va oltin bilan to'la chinni tovoq sovg'a qilgan ekan. Biroq Nazirxon sovg'ani rad etib, savdogardan uning ko'zidan oqqan bir tomchi yoshni hadya qilishni so'rabdi.*

*Nazirxon faqat g'amgin qo'shiqlarni kuylar, g'am va alamga to'la raqslarni ijro etar ekan. Uning uzun kipriklari ostidagi g'amga to'la yirik ko'zlariga ko'zi tushgan tomoshabin oh urar, raqqosaning qo'llari ham oh chekayotgandek, qalbi esa og'riqdan tipirchilayotgandek tuyulardi. Birdaniga qo'llari sekin pastga tushar, yelkalari sekin-sekin silkinar, u sekin aylana boshlar, ko'zlar yumuq, tana jonsizdek tuyular edi..."*².

"Tanavor"larning o'ttizdan ortiq kuy va ashula yo'llari ustoz-shogird an'analari orqali sayqallashib yanada rivojlanib bugungi kunga qadar yetib keldi. Xususan, xonlik tugatilib saroy san'atkorlari va hofiza ayollar xalq orasida ijod qilishni boshlaganlaridan keyin ularning ijrolarini tinglab ilhomlangan hofiz va bastakorlar tomonidan aynan ushbu ashulaning doyra usuliga va kuy-ohangiga nazira qilish an'anasi orqali "Tanavor"ning turfa yo'llari yaratila boshlandi. Jumladan, Namanganda XIX asrda choyxonalarda

o'tkazilgan musiqiy kechalarda san'atkorlar tomonidan dutor jo'rligida "Namangan tanavori", "Mani borar joyim o'shal Andijon" so'zi bilan kuylanib, yosh o'g'il bolani raqsga tushirish urfga aylangan edi. Ko'rinib turibdiki, ayollarning dutor jo'rligida ushbu ashulani ijro etish an'analari ham erkaklarga o'tgan.

Ta'kidlash joizki, tanavorlarning barcha turi qo'shiq emas ashula janriga mansubdir. Afsuski, aksariyat musiqashunos va san'atkorlar orasida ushbu namunani qo'shiq, deb yuritish odat tusini olgan. "Qora sochim" namunasini tahlil etadigan bo'lsak, g'amginlik ruhi asosiy o'rinda turganligi bois uning kuy-ohangi sekin-astalik bilan bosqichma-bosqich yuqori pardalar tomon rivojlantirib boriladi. Natijada ayollarga xos bo'lgan ashula tarzidagi asar yuzaga keladi. Xususan, ashulalarda bo'lgani kabi daromad, miyonxat, avj va furovard kabi ko'rinishlardan tarkib topadi.

Shu o'rinda tanavor atamasiga to'xtalib o'tsak. Kosiblar orasida *"Poyabzalning boshlig'i va qo'nji uchun ishlatiladigan teri va undan bichib olingan andoza"*, tanavor deb atalgan³. Darhaqiqat, kosiblar hayvon terisidan foydalanib, mahsi tikishda tanavor atamasini ko'p qo'llaydilarki, va bunda oyoqning tovonini, to'pig'i va qo'nji tushuniladi. Teri asosida ishlanayotgan oyoq kiyim mahsulotining ana shu tanavor qismini ishlashda mehnat qurollari vositasida ma'lum ritmik harakatlarni amalga oshiradilar. Kasbiy ish faoliyatlari asosida tanavor nomli milliy musiqamizda mashhur usul yuzaga kelgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Farg'ona vodiysi kosiblari orasida ham iste'dodli san'atkorlar yetishib chiqqan edilar. Ular ham xalq sayillarida, davra suhbatlarida o'z ijrolari bilan ishtirok etganlar. Xususan, S.Abdullaning qalamiga mansub *"Muqimiynoma"* asarida keltirilishicha, kosiblar mavlono Muqimiyning bir qator g'azallarini sevib kuylaganlar. Uning mashhur asarlaridan biri *"Soyai"*dir.

***Soyaidirmenki boqmas, oftobim kim desun,
Bora-bora ketdi qadrim, intixobim kim desun.***

Ashulaning kelib chiqishi ushbu kosiblar bilan bog'liq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki asarni tahlil etar ekanmiz, uning tanavor doyra usulida, sho'x va raqsop tarzda kuylanishi, havaskor erkak xonandalar orasida keng tarqalganligi fikrimizning isbotidir. Asarda qayd etilishicha, marg'ilonlik Komiljon ismli mato to'quvchi yigit ashulani zo'r mahorat bilan maromiga yetkazib ijro etar ekan. Komiljon ishtirok etgan davralarda, albatta, bu ashula tinglanar ekan. Qolaversa, kosiblar yengil yallalarni ham aynan tanavor usulida ijro etishni odat tusiga aylantirgan edilar. *"Endi sandek", "Ey nozanin"* kabi ijrolarni tinglasak ham uning she'riy mazmuni, kuy-ohangi, tanavor doyra usulida ashula kabi kuylanishi dastlab erkaklar davrasida mashhur bo'lganligidan dalolat beradi. Ehtimol, ushbu ashula ham kosiblar tomonidan ijod etilgan asardir.

Ta'kidlash joizki, Qo'qon xonligi davrida ayollar san'ati erkaklar orasida ham mashhur bo'lgan bo'lsa, o'z o'rinda erkaklar xonishi ham ayollar davrasida yoyilgan edi. Bunga sabab, o'sha davrda o'rdaning old qismida haftada bir marotaba xalq orasidan yetishib chiqqan havaskor san'atkorlar ijro mahoratlarini xalqqa namoyish etganlar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Nazirxon yallachining ham o'rda atrofida o'z xonishini

² Avdeyeva L. O'zbek milliy raqsi tarixidan. – Toshkent: 2001-y. 104-105-b. Qodirov M. Yallachilik san'ati. – T.: "San'at", 2008-y. №3-4. 36-37-b.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. III-jild. – T.: "O'zbekiston", 2007-y. 687-b.

oddiy xalqqa namoyish etishi ayollar davrasida mashhur bo'lgan tanavor aytimlari erkaklar ijrolarida ham yoyila boshlagan bo'lsa ajab emas.

Rus olimi Mixail Alibekovning *“Qo'qon xoni Xudoyorxonning so'nggi hayoti”* («Домашняя жизнь последнего Кокандского хана Худаяр-хана») mavzusida yozgan risolasida Xudoyorxon haramida yashab ijod etgan xonga tortiq qilingan xotin-qizlar Muqimiyning *“Ulkim, jono, yuzni tobon aylading”* va *“Emdi sandek”* she'riy misralarini kuyga solib kuylaganliklari qayd etiladi⁴. Demak, ayollar tomonidan tanavor uslubida yaratilgan ushbu ashula erkaklar ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Yana e'tiborlisi ana shu oyoq tovon bilan bog'liq harakat tanavor ashulalari bilan bog'liq raqslarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni jumladan, M.Turg'unboyevaning xalq orasida mashhur bo'lgan *“Tanavor”* raqsidan ham sezish mumkin. Raqqosaning raqs harakatlariga e'tibor beradigan bo'lsak, gavda va qo'l harakatlari bilan birga oyoq harakatiga ham katta ahamiyat beriladi. Bunda raqqosa tanavor iborasidan kelib chiqib, oyoqning asosan tovon qismini mahorat bilan o'ynatishga e'tiborini qaratadi. Chunki *“tana”* so'zi tan, badan, *“ovar”* ovora so'zini bildirar ekan. Raqsda oyoq harakatlari orqali tanani ovora qilish, o'rnidan qo'zg'atish ma'nosini anglatadi. Bizningcha, tanavor iborasi musiqiy tilda oyoq harakatlariga ishora bo'lib, shu orqali haram ayollari uchun maxsus tayyorlangan kash⁵ – mahsi va shu kabi bejirim oyoq kiyimlarini ko'rsatib raqsga tushishiga nisbatan ham qo'llanilgan. Binobarin, haram ayollari uchun alohida bejirim qilib ishlangan maxsus kash-mahsilar tikilgan va ular raqslarida oyoq kiyimlarini ko'z-ko'z qilib o'ynaganlar.

Xususan, musiqashunos K.Olimboyeva-Ahmedova *“Qora sochim”* ashulasining kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi: *“Qora sochim” qo'shig'i ayollarning mahzun qo'shig'i turkumiga kiradi. O'tmishda qizlarni o'nikki-o'n uch yoshidayoq erga berish rasm bo'lgan. Buni sezgan qizchani g'am bosadi. U qayg'uli kayfiyatda bo'ladi. Bu yoshdagi qizchalar dugonalari bilan o'ynab-kulish, shodiyona hayot kechirish, raqsga tushib xursandchilik qilish o'rniga, atrofdagi qizchalarni ham chuqur o'yg'a soladigan mungli, g'amgin qo'shiqlarni aytadi”*⁶. Ma'lumki, *“Qora sochim”* ashulasi an'anaga ko'ra, dutor chertib aytilgan. O'ylashimizcha, 12-13 yoshli qizlar, olima ta'riflaganidek: *“...dugonalari bilan o'ynab-kulish, shodiyona hayot kechirish, raqsga tushib xursandchilik qilish”*ga moyil bo'lsa-da, lekin bu paytda dutor chertib,

g'amgin ashula kuylashlari ularning o'smirlik tabiatiga mos kelmagani bois biroz munozaralidir.

“Qora sochim” (“Tanavor”) ashulasi raqs bilan ijro etilarkan, uning kuy-ohangidagi g'amginlik holati raqs harakatlarida ham o'z ifodasini topadi. Bu holatni jonli his qilish uchun atoqli adib Abdulla Qodiriyning tarixiy voqealarga asoslangan *“Mehrobdan chayon”* romanidan quyidagi parchani keltiramiz: *“Xuftandan keyin uylardagi qizlar birin-sirin katta tanobiyg'a yig'ila boshladilar. Ikki childirma qizitildi va dutor, tanbur, g'ijjak, chang kabi asboblari sozlandi... Bu qirq qizlar esa mamlakatning turli shaharlaridan xonga tuhfa sifatida saroyga keltirilgan bo'lib, ular har oqshom g'am-anduhlarini, ichki ruhiy hissiyotlarini kuy, so'z va raqs orqali izhor etib bir-birlari bilan hasratlashar edilar. Oylar, yillar yig'lagan, hasratidan hushsiz yiqilgan baxtsiz bir qizning jonso'z faryodini gavdalanitirib ko'rsatdilar. Bu o'rinda sho'x kuy lobarg'ina qilib bir hasratka tarjimonlik etdi. O'ynoqi ruhda kuylab kelgan qizlar va doim nozu karashmada bo'lg'an o'rtadagi o'yunchi ham bunda og'ir ma'noni o'zicha olishqa tirishdilar...”*⁷.

Xalq orasida tanavorning *“Nisor”, “Do'sti yana mavlon”, “Qora sochim”, “Mayda tol”, “Madimari”, “Aminjoni”* va boshqa nomlar bilan yuritilgan yo'llari mavjud bo'lgan. Bularning alohida-alohida yallasi ham bo'lgan⁸. Bu yerda alohida yallasi mavjud bo'lgan deyilgan ikki qismli ashulalar nazarda tutilmoqda. Ikki qismli ashulaning dastlabki qismi tanavor usulida ijro etilgan bo'lsa, ikkinchi qism esa ufar doyra usulida, sho'x raqsbop tarzda kuylangan.

Cholg'u ijrochiligidagi ham tanavorlarning alohida o'rni mavjuddir. Ta'kidlash joizki, dutor sozlashda *“tanavor soz”* atamasi qo'llaniladiki, shu nomdagi kuy va ashulalar dutor jo'rligida ijro etilganda, tanavor soziga sozlangandir. Ma'lumki, bastakorlik ijodida ham tanavorga nazira qilish orqali ko'plab cholg'u va ashula yo'llari yaratilgan edi. Jumladan, Muxtorjon Murtazoyevning *“Farg'ona tongotguncha”*, Muxtorjon Murtazoyev va Mamasiddiq Madaliyev hamkorlikda ijod etgan *“Marg'ilon tanavori”*, O'zbekiston xalq hofizi Orifxon Hotamovning *“Yovvoyi tanavor”*i, M.Mirzayevning *“Yangi tanavor”* kuyi, qolaversa, kompozitor Abusaid Abdunabiyevning fortepiano uchun yaratgan *“Tanavor”* asari, A.Kozlovskiyning *“Tanavor”* simfonik poemasi (1952) va baleti (1968), Y.Rajabiyning *“Lolazor”, “O'zgancha”, “Yuzni oydek”* kabi asarlari tanavor ohanglari asosida talqin etilgan.

“Tanavor”larning o'ndan ortiq kuy va ashula yo'llari ustoz-shogird an'analari orqali sayqallashib, yanada rivojlanib bugungi kunga qadar yetib keldi. Hozirda esa ularning zamonaviy talqinlari N.Abdullayeva, A.Parpiyev, M.Egamberdiyeva, G.Mamazoitova, O.Mamazoidov, J.Otajanov, A.Olimov va boshqalar ijrolarida keng tarqalmoqda. O'zbek xalq musiqasida muhim o'rin tutgan tanavorning ashula va cholg'u yo'llari o'zga millat vakillari tomonidan ham sevib ijro etilishi quvonarlidir. Bu o'rinda O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti Jo'rabek Murodov, Yasmina Omar (koreys), Gulmira Mamat (uyg'ur) ijrosida tanavor ashula va raqsi qoyilmaqom tarzda ijro etilganligining guvohi bo'lamiz.

⁴ Алибеков М. Домашняя жизнь последнего кокандского хана. – Ежегодник Ферганской области, т. II, Н.-Маргелан, 1903-г. С.106–108.

⁵ Kash – Farg'ona vodiysi ayollari mahsining ustidan kiyadigan oyoq kiyimi. Ayrim hollarda ayollar bejirim qilib ishlangan kashning o'zini oyoq kiyimi sifatida ham kiyganlar. Bugungi kunga qadar Farg'ona vodiysida turmushga chiqayotgan qizlar nikoh kechasida kash-mahsi kiyish an'analari davom etib kelmoqda.

⁶ Olimboyeva K. O'zbek ayoli hayotida musiqqa. – T.: “Yozuvchi”, 1996-y. 21-b.

⁷ Qodiriy A. O'tkan kunlar. Mehrobdan chayon. – T.: 1992-y. 401–403-b.

⁸ Axmedov M.Sh. Xalq sozandarlari bilan suhbat (ekspeditsiya 1958-y.). O'zR FA San'atshunoslik instituti kutubxonasi. Inv. № 462.

III BO'LIM

SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Dilorom MUXAMMEDOVA,
O'zDSMI "Folklor va etnografiya" kafedrası dotsenti

FOLKLOR ASARLARINI SAHNALASHTIRISHDA MUSIQANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, folklor asarlarini amaliy sahnalashtirish jarayonida musiqa va uning alohida o'rni borasida fikr va mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: folklor, xalq o'yinlari, folklorshunoslik, musiqa san'ati, sahnalashtirish, jonli ijro, cholg'u asboblari.

РОЛЬ МУЗЫКИ В ПОСТАНОВКЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье представлены мысли и мнения о роли музыки и ее особом значении в процессе организации инсценировки исполнения и звучания фольклорных произведений.

Ключевые слова: фольклор, народные игры, фольклористика, музыкальное искусство, инсценировка, живое исполнение, музыкальные инструменты.

THE ROLE OF MUSIC IN THE PRODUCTION OF FOLK WORKS

Abstract. This article presents thoughts and opinions about the role of music and its special significance in the process of organizing the staging of the performance and sound of folklore works.

Key words: folklore, folk games, folkloristic, musical art, dramatization, live performance, musical instruments.

Dunyo xalqlari ma'naviy xazinasiga benihoya ulkan hissa qo'shgan ijodkor, xalqimizning badiiy so'z sehri o'ziga jo qilgan ko'ngil chashmasidan qaynab chiqqan injular bamisoli jo'shqin daryoga o'xshaydi. Xalq qalbining navolari dilrabo qo'shiqlar-u, an'ana va marosimlarga aylanib, asrlar davomida ajdodlarimiz badiiy dahosining muhtasham qadriyatlari xazinasini yuzaga keltirgan. Badiiy tafakkurning betakror mo'jizalarini o'zida mujassamlashtirgan xalq an'analari, marosim va odatlar, og'zaki poetik ijodiyot namunalari shu muqaddas zaminda ming yillar mobaynida yashab kelgan ota-bobolarimiz iqtidori va chechan momolarimiz ijodiy salohiyatining mahsuli o'laroq shakllangan azaliy milliy qadriyatdir¹.

Inson dunyoga kelgan kunidan boshlab, to hayotining eng so'nggi lahzasigacha o'zi mansub xalqning qadriyatlari, an'analari ichida ulg'ayadi, kamol topadi. Hatto, o'zini folklorga begona, deb bilgan bu atama ta'rifidan mutlaqo yiroq bo'lgan kishi shu an'analarda ichida ulg'aygan, uning ongi, shuuri shu

qadim an'analari ta'sirida shakllangan bo'ladi. Har bir sohaning o'z tarixi bo'lganidan, folklorshunoslik borasidagi izlanishlarning ham o'z ildizlari mavjud. Bu izlanishlar ildizi olis o'tmishga borib taqaladi. Mahmud Qoshg'ariy zamonidan to bugungi kungacha xalq og'zaki ijodi haqida nimaiki aytilgan, yozilgan bo'lsa, bularning bari o'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganishga o'zining munosib ulushini qo'shgan. Folklor va uni jonlantirishda musiqaning o'rni masalasi turli davrlarda turlicha o'rganilgan, turlicha yondashuvlar bo'lgan, biroq mustaqillikdan keyin u tom ma'noda yangicha mazmun va mohiyat kasb etgan. Inson ma'naviyatini yuksaltirishda folklorning o'rni haqida gap ketar ekan, aslida bu jarayon bolaning tug'ilishidan boshlanadi.

Momolarimiz, onalarimiz aytgan allalar, erkalamarlar, aytimlar, topishmoqlar, tez aytishlar, ertak va qo'shiqlar bolaning tili, dunyoqarashining shakllanishida xizmat qiladi. Xalq o'yinlari esa bolaning ham aqlan, ham jismonan ulg'ayishi uchun muhim omillardan biridir. Bola ana shu qadim an'ana va qadriyatlar ichida voyaga yetadi, biroq bugungi global jamiyatda ulg'aygani sari go'yo bu muhitga begona bo'la boshlaydi. Bu begonalik, eng avvalo,

¹ Axmedova O. Folklor asarlarini sahnalashtirish (Uslubiy qo'llanma). – Toshkent: 2018-y. 3-b.

har qadamda o'z ta'sir kuchini ko'rsatayotgan ommaviy madaniyat ta'siridan boshlanadi. Bularning barchasi ma'anaviyat ravnaqiga emas, aksiga xizmat qiladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun esa ta'lim jarayonining barcha bo'g'inlarida, maktabgacha ta'limdan to'liq o'quv yurtlarida til o'qitish va o'rganishda folklorga ilmiy-nazariy yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

*O'tgan asrning 70-yillaridan shahar, tuman va qishloq madaniyat uylarida folklor-etnografik ansambllar faoliyat ko'rsata boshladi. 1980-yillardan folklor-etnografik ansambllari, baxshi-shoirlar ko'rik-tanlovlarning o'tkazilishi o'zbek xalq musiqa ijodining targ'iboti, tiklanishi, yangi sharoitdagi rivoji uchun katta ahamiyat kasb etdi*².

Ushbu tarixiy yillarda folklor nafaqat milliy meros sifatida, balki musiqiy mazmunga mos tushadigan madaniyat bo'lagi sifatida o'rganila boshlangan. Jumladan, 80-yillardan boshlab o'zbek xalq marosim folklori B.Sarimsoqov tomonidan o'rganila boshlangan. Olim o'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi, tasnifi, genezisi va tarixiy taraqqiyoti, o'zbek oilaviy-maishiy marosimlar folklori, mavsumiy marosimlar folklori, so'z magiyasiga aloqador *badik*, *kinna*, *olqish* va *qarg'ish* kabi janrlarni tadqiq etgan. Chunki biz folklor namunalari ushbu davrda faqatgina milliy urf-odatlarimiz ifodasi bo'lgan marosim va bayramlarda kuzata olardik va sahlashirish bo'yicha urinishlar yetarli darajada emasdi.

Xalq milliy folklorini tipologik aspektda o'rgangan B.Sarimsoqov o'zining bu yo'nalishdagi tadqiqotlarini "O'zbek marosim folklori" (1986) nomli monografiyasida umimlashtirgan. Mazkur asarning ilmiy qimmat shundan iboratki, unda "marosim" va "marosim folklori" tushunchalarining mohiyati oydinlashtirilgan, o'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi bir necha mezonlar asosida izchil tasniflangan va ushbu klassifikatsiyaning tartibli joylashtirilishi va kelgusida sahnalashtirilishi uchun muhim harakatlarni bajargan. **"Yas-yusun", "Oblo Baraka", "Shox moylar", "Lola sayli", "Loy tutish"**, shamol chaqirish va yomg'ir yog'dirish bilan bog'liq marosim folklor namunalari, so'z magiyasiga asoslangan *badik* va *kinna* janrlari tadqiq etilgan.

Xalqimizning milliy taraqqiyotida, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy yuksalishida folklor, umuman badiiy so'z san'ati hamisha tayanch nuqta bo'lib kelgan. Zero, folklor bu millatning quvvati, tirikligi va buyukligidir. Bugungi global jamiyatda davlat chegaralari qo'riqlangani, muhofaza etilgani kabi millat tili va tafakkuri, estetik didi ham xuddi shunday asrab-

avaylanishga, qattiq himoyaga muhtojdir. Folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari me'morchilik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari tushuniladi. *Har bir san'at sohasida ish olib borayotgan mutaxassis o'zi tanlagan turni "folklor", deb ataydi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq me'morchiligini, folklorshunos olimlar esa, xalq og'zaki ijodiga taalluqli bo'lgan barcha janrlarni folklor asari, deb hisoblaydi*³.

Xalqning til boyligi birinchi galda uning folklorida namoyon bo'ladi. Biror bir xalqning qanday xalqligini bilish uchun uning folklorini o'rganish zarur, deb o'ylayman. Folklorida xalqning til imkoniyatlari, mushohada tarzi, ijodiy quvvati aks etgan bo'ladi. Og'zakilik, variantlilik, jamoaviylik folklorning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u xalq ijodi namunalari bevosita jonli ijro jarayoni bilan bog'liq ekanligini urg'ulaydi, ya'ni folklor asarlariga turg'unlik xos emas, u har galgi ijroda o'zgaradi, yangilanadi, bu esa badiiy til imkoniyatlarining yuksak namoyishi demakdir. Shuning uchun aytish mumkinki, folklor bu shunchaki so'z san'ati namunasigina emas, balki xalqning til zaxirasi, tushuncha va tafakkur tarzini bor bo'y-basti bilan o'zida aks ettirgan, olis o'tmishdan to bugungi kungacha jonli holatda xalqning o'zi bilan birga yashab kelayotgan doimiy harakatdagi tarixi va madaniyati hamdir. Bugungi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda, ma'naviyatini yuksaltirishda ko'plab usullar, vositalar, metodlar mavjud. Biroq bu usul va metodlar birinchi navbatda so'z san'atining ibtidosi sanalgan folklor namunalari suyanilgan holda amalga oshirilsa, yanada samarali va ta'sirchan bo'ladi⁴.

Folklor asarlarini sahnalashtirishda, avvalo, mavzu tanlash muhim ahamiyatga egadir. Tanlangan mavzuni chuqur o'rganish, uning boshqa hududlardan farqli va o'xshash jihatlarni tahlil etish, ilmiy-nazariy jihatini to'liq o'rganish lozim bo'ladi. Tanlangan mavzu qaysi hududga xos bo'lsa, aynan shu hududning dunyoqarshi, qo'shiqlari, odatlarini sinchiklab o'rganish sahnalashtirilayotgan dasturni mukammal chiqishiga zamin yaratadi. Nazariy jihatlar to'liq o'rganilgandan so'ng asar ssenariysi ustida ishlash, marosimda ijro etilayotgan qo'shiqlarni to'g'ri tanlash, jamoa bilan hamkorlikda ijro etish mahoratini ko'rsatish lozim bo'ladi. Hududning o'ziga xos ijro usullari, marosim qo'shiqlarining ijrochilik yo'llari hamda u bilan bog'liq musiqiy mahorat sirlarini tahlil etish, shuningdek, ularning sinxronik tomonlariga e'tibor qaratish ham muhim ahamiyatga egadir⁵.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, folklor-etnografik jamoalar reperturidagi asarlar folklor va etnografiyaga doir namunalardan iboratdir. Folklor-etnografik jamoalarining faoliyati hozirgacha nazariy va amaliy jihatdan maxsus o'rganilgan emas. Folklor-etnografik jamoalar faoliyatida qo'shiq ham, kuy ham, raqs ham, dramatik asarlar ham bor. Shu sababli folklori sinkretik san'at, deb atalishi ham bejiz emas. Hozirgi kunda folklor jamoalarida ijro etilayotgan ko'pgina

² Ismoil o'g, A.R.Z. (2023). Folklor-etnografik ansambllar ijodida musiqiy folklor namunalari shakllanishi. Образованіе наука і інноваційніе ідеі в міре, 24(1), 125–129.

³ Jo'rayev M. O'zbek mavsum marosim folklori. – T.: "Fan", 2009-y.

⁴ Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: "O'qituvchi", 1990-y.

⁵ Sayfullayev B. Nomoddiy madaniy meros va folklor ijro san'ati an'analari (O'quv qo'llanma). – T.: 2017-y.144-b.

qo'shiqlar xalq yo'lida emas, bastakorlik qayta ishlovi yo'lida ijro etilishi achinarli holatdir. Qo'shiq so'zlarini buzish, folklor materiallarini qayta ishlash, variantlilik masalalariga ko'pincha e'tibor berilmayapti.

Ajdodlar tomonidan yaratilib, xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an'ana, urf-odat va marosimlar bevosita folklor san'atida o'z ifodasini topgan. Folklor asarlarini sahnalashtirish bugungi kunda folklor san'atining serjilo janrlarini rivojlanishiga, talabalar qalbiga milliy ong, milliy g'urur, milliy iftixor kabi tuyg'ularni singdirishga zamin bo'ladi.

O'zbek xalqida raqs san'ati ashula va musiqa bilan chambarchas bog'lanib ketgan va shu an'ana hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz badiiy havaskorlik ijodining eng rivojlangan janri – bu ashula va raqs ansambllaridir. Xalq raqs san'atidan vosita sifatida hozir ham ko'pgina tadbirlarda foydalanilmoqda⁶. Xalq ijodini qo'shiq, raqs, o'yin, og'zaki drama kabi shakllarini mahalliy milliy urf-odat va marosimlarga bog'lab, sahnaviy talqinini namoyish qiladi⁷. Asarning sahnalashtirilishida musiqaning mavzuga mos tanlanishi har doim muhim jihat hisoblangan. Binobarin, shuni ta'kidlash joizki, to'y-hashamlar musiqasiga asos bo'lgan ko'pgina qo'shiqlar ishqiy, o'ynoqi qo'shiqlarga singib ketgan. Ammo shunga qaramay, **“Yor-yor”, “Hazorali” yoki “Kelinsalom”, “Al-muborak”, “Kelin va kuyov qutlovi”, “Kuyov**

sinov” va boshqa marosim qo'shiqlari ham ijro etiladi. Musiqaning folklor sahnalashtirilishidagi o'rnini, avvalo, nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va o'rgatish uslublari bilangina to'kis shaklda tushunish mumkin. Bunda:

✚ *har bir sohada, jumladan, ta'lim jarayonida ushbu janr mutaxassisi tomonidan folklor namunalarining notaga solingan va sahnalashtiriladigan namunalarini cholg'u asboblari yordamida ijro etib ko'rsatish;*

✚ *taniqli sozandalarni taklif etish, ular bilan uchrashuv tashkil qilish orqali o'rganilishi ko'zda tutilgan kuy mohiyati bilan tanishish;*

✚ *talabalar va o'quvchilar ham dastalarining a'zosi bo'lgan talabalar ijrosida o'rganilayotgan mumtoz kuyni tinglash;*

✚ *kuy-qo'shiqlarni jonli ijroda tinglashda bu jarayonining ustoz yoki musiqa fani o'qituvchisining diqqat-e'tiborida bo'lishi.*

Bir so'z bilan aytganda, folklor asarlarini sahnalashtirish masalasi va bunda musiqiy ritmlarning o'zni chuqur tahlil qilinmagan. Shunga qaramay ushbu masalani tahlil qilishda, avvalo, havaskor va professional folklor-etnografik ansambllarning faoliyatiga nazar tashlash kerak nazarimizda. Zero, ular aynan ushbu yo'nalishda ijod qiladilar va musiqani so'z va milliy meros bilan bog'lagan holda ajoyib san'at namunalarini yaratadilar.

⁶ Mamatqosimov J. Ommaviy bayramlar rejissurasida sahna madaniyati (O'quv qo'llanma). – T.: 2009-y. 53-b.

⁷ Eshova D.Sh. Sahnalashtirish faoliyati orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. (2022). Экономика и социум, (3-2 (94)), 1147–1152.

XORAZM DOSTONCHILIK SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Xorazm madaniyati va dostonchilik san'atning shakllanishi va taraqqiy etishi, dostonchilik san'atining inson ma'naviy kamolotidagi o'rnı, Oshiq Oydin pırning tarixiy shaxs bo'lganligi va dostonchilik maktabining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, baxshi, doston, Oshiq Oydin, musiqa, an'ana.

ИСТОРИЧЕСКИЕ КОРНИ ХОРЕЗМЬСКОГО ЭПИЧЕСКОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье представлены ценные сведения о становлении и развитии Хорезмийской культуры и эпического искусства в духовном развитии человека, исторической личности Ашика Айдин Пира, уникальных особенностях эпической школы.

Ключевые слова: Хоразм, бахши, эпос, Ашик Айдин, музыка, традиция.

HISTORICAL ROOTS OF KHOREZM EPIC ART

Abstract. The article provides information on the formation and development of Khorezm culture and epic art, the role of epic art in human spiritual development, the historical personality of Ashiq Aydin Pir, and the unique characteristics of the epic school.

Key words: Khorezm, bakhshi, epic, Ashiq Aydin, music, tradition.

O'zbek dostonchiligi juda qadimiy va mo'tabar ma'naviy meros nishonasidir. Xalq ijodiyoti, san'at insonning ma'naviy kamolotida alohida o'rin tutadi. Barcha san'atlarning rivoji negizida xalq og'zaki ijodi turadi. Insoniyat paydo bo'lganidan to bugungi kunga qadar san'atning adabiyot, qo'shiqchilik kabi turlarida xalq og'zaki namunalardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu namunalarning eng go'zal turi bu, baxshichilik san'atidir. San'at inson dunyoqarashini va tafakkurini boyitibgina qolmay, uni ezguliklar, yaxshiliklar, go'zalliklar olamiga boshlaydi. Inson umrini, hayotini kuy-qo'shiqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, san'at inson ma'naviy faoliyatining eng muhim qirralaridan biri, bunyodkorlikka undovchi buyuk va qudratli kuchdir [1.3-b.].

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari asrlar davomida avloddan avlodga o'tib, yangilanib, xalq madaniyati, ma'naviyatini o'z mazmunida ifodalab kelayotgan bebaho merosimiz hisoblanadi. Shuning ushun ham mamlakatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning respublikamizdagi ijodiy tashkilot xodimlari, adabiyotchilar, san'at ahliga qarata aytgan quyidagi: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi", – degan so'zlari bevosita folklorga ham taalluqlidir.

Xalqimizning turmush tarzini yuksalishida xalq og'zaki ijodining ahamiyati katta bo'lib, asrlar davomida boy ma'naviy e'tiqodiga ega meros to'planib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodining muhim yo'nalishi bo'lgan dostonlar juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, uzoq asrlar davomida yaratilib kelingan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ijro qilingan. O'zbek an'anaviy

dostonchiligining rivojlanib borishida, baxshichilik maktablari ham alohida o'rin tutadi.

O'zbek dostonchilik san'atida Xorazm dostonchiligi alohida ahamiyat kasb etadi. O'zining qadimiy ildizlari, betakror musiqiy janrlari, shuningdek, Xorazm maqomlari, yorqin jozibali kuy va qo'shiqlari, yalla-laparlari, raqsi, shuningdek, xalfachilik san'ati bilan ajralib turuvchi Xorazm, qadimiy davrlardan dostonchi va baxshilarning o'lkasi bo'lib kelgan. Keksa xivalik Bekjon ota Davletov bergan ma'lumotlarga qaraganda, baxshilar nikoh to'ylarida ishqiy dostonlarni boshqa to'ylarda, sayil va bayramlarda esa ko'proq qahramonlik dostonlarini kuylab kelganlar. Baxshilar o'tkazilgan tantanalarga qarab, katta-kichik dostonlarni tanlab, bir kechada yoki kun botgandan tong otguncha so'z va soz bilan kuylab ijro etganlar. Ular dostonning mazmuniga qarab ixcham va tushunarli qilib, yuksak ijodkorlik san'ati bilan voqealarning ijobiy va salbiy tomonlarini og'zaki tushuntirib dutor jo'rligida, imo-ishoralar, ovoz va mimika bilan baland yoki past ovozda kuylab, tomoshabinlarning diqqatini o'zlariga jalb qila bilganlar.

Ularning repertuarida o'zbek dostonlaridan Go'ro'g'liga bag'ishlangan turkum "Avazxon", "Bozirgon", "Sayyodxon va Hamro", "Oshiq G'arib va Sohсанam", "Shobahrom", "Qorako'zoyim", "Gulruh pari", "Yusuf va Ahmad", "Qirq ming", "Xirmondali", "Oshiq Oydin", "Oshiq Najab", "Oshiq Albанд", "Go'ro'g'li", "Asl va Karam", "Bahrom va Gulandom" kabi Xorazm xalq og'zaki ijodining nodir asarlari muhim o'rinni egallagan. Bu dostonlar o'zining mazmuni bilan dramatik va ishqiy, qahramonlik dostonlariga bo'lingan.

Yurtimizda Xorazm dostonchilik san'ati maktabi boshqa dostonchilik maktablaridan uslubi jihatdan

farq qiladi. Xorazm dostonlari yozma manbaga ega bo'lib, ba'zan aytuvchi ishqiy-romantik dostonlar kuylagan va jamoaviy ijrochilik yetakchilik qilgan. Boshqa dostonchilik maktablari farqi shundaki, voha baxshilari o'z ijrolarini ochiq ovozda kuylashadi. Xorazm baxshilari dostonning har bir ijrosini muayyan kuyda ijro etganlar, dostonchilar bularni baxshi yo'llari yoki baxshi na'malari, deb yuritadilar. Shuni alohida g'urur bilan aytish kerakki, o'zbek xalqi azaldan ijodkor, kuy va qo'shiqqa oshufta, yaxshilikni o'ziga shior qilib olgan xalq sanalib, ushbu tuyg'ularni o'zbek xalq og'zaki ijodining har bir janrida kuylagan ijrochini doimo yaxshilikka, mehr-oqibatga va ezgulikka da'vat etadi.

Qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri bo'lgan Xorazmda san'atning shakllanishi va taraqqiy etishi miloddan oldingi davrlarga to'g'ri keladi. S.P.Tolstovning "Qadimgi Xorazm sivilizatsiyasini izlab" kitobida san'at tarixi uchun muhim bo'lgan quyidagi so'zlar bor: "Tuproq qal'adagi marosimlar zali devorlarida rombsimon kataklarga mashshoqlarning rasmi ishlangan. Shu rasmlardan biri arfa cholg'u asbobini chalayotgan ayolning sarg'ish rangdagi nafis rasmi butunicha saqlanib qolgan. Shu xonada surnay va qum soat shaklidagi qo'sh nog'ora tasvirlangan naqsh fragmenti ham topildi". "Arfachi ayol xonasi" ostidan do'mbiraga o'xshash ikki torli cholg'u asbobining pardasini ushlab turgan odamning qo'li tasvirlangan naqsh fragmenti, yana bir xonadan esa niqob bilan o'ynayotgan ayol tasviri topildi. Bularga o'xshash rasmlarni Rim davridagi Suriya-Misir va qisman Qora dengizning shimolidagi muzofoti tasviri san'atida, O'rta dengiz vohasi hamda Hindiston, Eron san'atida yaratilgan obrazlarda uchratish mumkin. Shu tariqa bu rasmlarda ikki badiiy uslub, ikki an'ana bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan, biroq ular qadimgi Xorazm san'ati negizida o'ziga xos o'zgarishlarga uchragan" [1.214-215-b.].



Miloddan oldingi davridayoq shunday yuksak madaniyatga erishgan xalq orasida iqtidorli baxshilarning yetishib chiqishi ham tabiiy holdir. Zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning yaratilishi va uning "goh" larini koinlar tomonidan kuylanishi ham koinlik, shomonlik, baxshilik kasb-korlarining paydo bo'lishiga zamin hozirlagan [2.24-b.]. Zardushtiylik dini hukmron bo'lgan davrlarda har

bir Rustakda (qishloq, mahalla) otashgohlar bo'lib, unda koinlar "Avesto" kitobini targ'ib qilishgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, Xorazm dostonlarida "Avesto" va "Shohnoma"ga aloqador mifologiya hamisha o'zini namoyon qilib turadi. Xorazm dostonlari professional yozuvchilar tomonidan xalq orasidagi mif va afsonalar asosida yozilib, keyin og'zaki ijroga ko'chib, qorishiq holda faoliyat ko'rsatgan. Og'zaki ijrodagi dostonlar esa yana yozuvga olinib, kitobat qilingan. Xorazm vohasida eng qadimgi baxshi, o'z navbatida baxshilar piri Oshiq Oydin haqida ancha ma'lumotlar saqlanib qolgan. Sharq xalqlarida qadimdanoq har bir kasb-hunarning ustoz va pir sifatida biror shaxsning ulug'lanishi an'anasi mavjud.

Xorazmda ko'l va daryolarda qayiq va kema haydovchilar o'zlarining piri sifatida Nuh payg'ambarni tan oladilar. Temirchilar ish boshlaganda Dovud payg'ambarni yodga solishadi. Xorazm baxshilari esa o'zlarining ma'naviy ustozlari sifatida Oshiq Oydin piri e'zozlashadi. Bu tabarruk shaxs turkman baxshilarining ham piri hisoblanadi [3.34-b.].

Oshiq Oydin piri nomi "Xirmondali", "Oshiq Najab", "Oshiq Albani" kabi Xorazm dostonlarida ko'plab uchraydi. Ayniqsa, "Oshiq Najab" dostonida uning faoliyat doirasiga katta e'tibor qaratilgan. Najab Oshiq Oydin piri xizmat qilib, uning dutorini sovg'a sifatida olishga muvaffaq bo'ladi. "Xirmondali" dostonida soz va so'z borasida hech bir kimsa yenga olmagan Xirmondalini Oshiq Oydin aytishuvda yengib chiqadi. "Oshiq Albani" dostonida Oshiq Oydin pir epik qahramon taqdirining eng qaltis damlarida Albani uch kelib, unga yo'l-yo'riq ko'rsatadi, dalda bag'ishlaydi:

***Tanisangiz nafas etgan piringman,
Oshiqning maqsadini bilurman,
Sango duo etgan Oydin piringman,
Ko'p yig'lama, sevar yorni ko'rarsan***

[5.187-b.], – deb ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Xorazm baxshi, sozandalarining tilidan tushmaydigan bu shaxsning o'zi kim, degan savolga javob berishga harakat qilamiz. Ayrim manbalarda Oshiq Oydin piri ko'hna Urganchning janubiy G'arbida joylashgan Vos qal'asining Diyorbakr degan joyida va Bag'dod shahridagi ziyoratgohlardan birida qabrlari borligi qayd qilinadi. Turkman yozuvchisi Nuri Oltiyevning ma'lumot berishicha, o'tgan asrning 90-yillarida Oshiq Oydin pir ziyoratgohining shayxi bo'lmish Xo'ja otada "Avarif Sharif as-Salom Had" nomli kitobida ulug' piri hayotiga oid qimmatli ma'lumotlar saqlangan.

Oshiq Oydin pir dastlabki xalifa Abu Bakr Siddiq (632–634) bilan aloqador silsilaga borib bog'lanadi. Bu silsila o'ziga xos g'oyaviy oqim bo'lib, so'fiylik silsilasi, deb yuritilgan. Bu oqimga Abu Ali Ibn Sino, Abul Hasan Haraqoniy, Abu Sayid Mayxoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Mansur Halloj, Ahmad Yassaviy, Yusuf.

Hamadoniylar ham kirganlar. Oshiq Oydin pir maqbarasining shayxida saqlanadigan "Tazkirat ul-Husayn" nomli kitobda bu haqida aniq ma'lumotlar bitilgan. Unda ta'kidlanishicha: "Hazrati shayx Abduqodir G'iloniyni (1077–1166) suhbatlaridan

Karimboy baxshi va shogirdi Usmon baxshi

bahramand bo'lib, mashhur bo'lganlarning oxiri shayx Shahobiddin turur. Shayx Chingizxon fitnasidin keyin Abdul Qodir Kasiriyga murid bo'ldilar. Oshug'iddin har kishi mashg'uli mushkul bo'lsa, biruborga arz qilib ishg'ol qilur erdi. Shayxning vafoti hijriy yilning 632-sida voqe bo'ldi. Mudqat muboraklari shahri Bo'stonning Diyorbakr haddida hamda Bag'dodda ikki joyda ham ziyoratgohlari bor turur [6.485-b.].

Ushbu shaxsning Oshiq Oydin pir ekanligiga shubha qilmasa ham bo'ladi. Chunki biz yuqorida ta'kidlab o'tgan "Tazkirat ul-Husayn" asarida Oshug'iddinning vatani shariflari Suhravarddir, deyilgan. Yana o'sha kitobda aytilishicha, shayx hazratlarining "Avorif sharif as-Salohiy Had" degan asari ham bo'lib, u Makkada chop etilgan. "Oshiq Najab" dostonida Oshiq Oydingning shahri Bo'stonda yashaganligi, 360 so'fisi borligi, 115 yoshda ekanligi aytilgan. "Xirmondali" dostonida ham shunga yaqin ma'lumotlar berilgan. Uning Chingizxon bosqinidan keyin o'n olti yil yashaganligi haqida ma'lumot beruvchi manbalar ham mavjud. So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, haqiqatan ham Oshiq Oydin pirning shajarasi Eronning Suhravard shahri bilan uzviy bog'lanadi. Ular uch qarindosh Najib Suhravardiy (1097–1168), Shayx Shahobiddin Abu Hafs Yahyo Suhravardiy (1115–1191), Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy (1144–1234) bo'lib, Najib Suhravardiy ularga ustozlik qilgan [7.185-b.]. Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy biz so'z yuritayotgan Oshiq Oydin pirning xuddi o'zidir. Uning diniy arboblriga ishora sifatida Oshug'iddin laqabi yuzaga kelgan va xalq tilida Oshiq Oydin shakliga kirgan.

Xorazmda soz ilmi haqida so'z ketganda Qambar

bobo tilga olinadi. "Qambarning dutori" "Ali Qambar" kabi iboralar tez-tez quloqqa chalinib turadi. Bu kishi ham mashhur musiqa ustasi bo'lib, tarixiy shaxs sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Mabodo e'tibor berilsa, Oshiq Oydin pir baxshilarning, Qambar bobo esa sozandalarning piri sifatida mashhurlik kasb etadi. O'tgan asrning 90-yillarida Oshiq Oydin pir qabri joylashgan Vos qal'asida Oshiq-baxshilar musobaqasi o'tkazish an'anaga aylangan edi. 1991-yilda bu erda baxshilarning xalqaro bellashuv ko'rigi bo'lib o'tgan. Bu anjumanda Ozarbayjon, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, O'zbekiston Respublikalaridan kelgan ko'plab baxshilar ulug' pir qabrini ziyorat qildilar. Ayniqsa, Xorazm, Toshovuz va Qoraqalpog baxshilari bu tadbirda faol ishtirok etishdi [9.3-b.].

Oshiq Oydin pir tarixiy shaxs bo'lib, tasavvuf tariqatining asoschilaridan biri sifatida tanilgan. Shu bilan birga buyuk jamoat arbobi bo'lgan, o'z navbatida san'atkorlik ilmini o'zlashtirgan soz va so'z sohibi darajasiga ko'tarilgan. Uning yuksak xalqparvarligi, erkin va farovon turmush barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlari, qirg'inbarot urushlarni to'xtatish yo'lidagi mardona kurashlari xalq ongida muhrlanib qolgan. Natijada asrlar o'tishi bilan uning shaxsi haqida turli rivoyatlar va doston to'qilgan. Shu tariqa turkiy xalqlar orasida Sipira jirov, Qo'rquq ota, mulla G'oyib, Ollanazar Olchinbek kabi Oshiq Oydin pirga monand baxshi, jirovlar ham doston ijrochilarining piri, homiysi sifatida ulug'lanib kelingan. Ushbu shaxslarning karomatligi, buyukligi homiyligi haqidagi rivoyatlarning to'qilishida shomonlik an'alarining roli ham kattadir [12].

Bola baxshining farzandi O'zbekiston xalq baxshisi Norbek baxshi Abdullayev va shogirdlari Rasulbek baxshi Abdurahmonov va Azamat baxshi Yusupovlar



Xorazm dostonchilik maktabining yirik vakllaridan biri bo'lgan, O'zbekistonda birinchi O'zbekiston xalq baxshisi unvoniga sazovor bo'lgan baxshi Qurbonnazar Abdullayev (Bola baxshi) Xivaning Gulonbog' qishlog'ida 1899-yil dunyoga kelgan. To'qqiz yoshidan boshlab Mahtumquli so'zlari bilan qo'shiqlar va doston parchalarini ijro etishni boshlagan. Shu bois uni "Bola baxshi" deb atay boshlashgan. Bola baxshining doston kuylash mahorati juda yuksak, uning nutqi burro, ovozi jarangdor bo'lib, Xorazm

doston yo'llarini mukammal bilgan va ijro qilgan. Bir so'z bilan aytganda, Bola baxshi Xorazm madaniyati, tarixining o'ziga xos jonli qomusi edi [11.19–32-b.].

Bugungi kunda baxshichilik va dostonchilik san'atini mamlakatimizda va xorijda keng targ'ib etish, ustoz baxshilar, dostonchilar, soha olimlari iqtidorli yosh baxshilarni, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-sonli qarori bilan, baxshichilik va dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish, hamda takomillashtirish bo'yicha, 2018–2022-yillarga mo'l-jallangan "Yo'l xaritasi" tasdiqlangan. "Yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan chora tadbirlarning to'liq va sifatli bajarilishini nazorat qilish, mas'ul vazirliklar va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini tizimli asosda muvofiqlashtirish rejalashtirilgan.

O'zbek baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalari asrab -avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan

2018-yilning 1-noyabr kuni "Xalqaro baxshichilik san'ati" festivalini o'tkazish to'grisida"gi Qarori qabul qilinib, bunda festival tadbirlari orasida mazkur soha olim va amaliyotchilarining ijodiy uchrashuvlarini uyushtirish zarurligi belgilab berildi. Shu munosabat bilan "Jahon sivilizatsiyasida baxshichilik san'atining o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya tashkil etildi. Ushbu ilmiy konferensiyani o'tkazishdan asosiy maqsad, baxshichilik hamda dostonchilik san'atini yanada rivojlantirish, o'zbek va boshqa xalqlarning dostonlarini ilmiy o'rganish, bu borada ilmiy hamkorlik qilish, madaniyat va san'at sohasidagi, qolaversa, ma'rifat sohasidagi hamkorlikni xalqaro miqyosda kengaytirishdan iboratdir.

O'zbek xalq dostonlari barcha davrlarda ham urf-odatlarimiz, qadriyatlarimizni xalqning ongi va qalbiga singdirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Negaki, dostonlarda xalqimiz badiiy tafakkurining juda boy va qadimiy an'analari mujassam. Dostonchilik san'atining bunday badiiy an'analari xalq baxshilarining takrorlanmas amaliyoti va tinimsiz mehnati bilan bizgacha yetib kelgan. Shu tariqa bir-biridan go'zal, bir-biridan sara termalar va dostonlar butun salobati va malohati bilan hali-hanuz tinglovchilarni bahramand etib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolstov S.P. Qadimiy Xorazm sivilizatsiyasini izlab. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2014-y. 214-215-b.
2. Карпиев Б.А. Эпические сказки о Кероглы у тюркоязычных народов. – Москва: «Восточная литература», 1968 г. С.134.
3. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Т.: «Фан», 2008 г. С.66.
4. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский национальный героический эпос. – М.: «GIXL», 1947 г. С.294.
5. Oshiqnoma (II kitob).– Urganch: "Xorazm", 2006-y. 187-b.
6. Бертельс Э.Э. Суфизм и суфийская литература. – М.: «Наука», 1965 г. С.485.
7. O'zbek milliy ensiklopediyasi, 8-tom. – T.: "O'zbek milliy ensiklopediyasi", 2004-y. 184-185-b.
8. An-Nasaviy Shahobiddin Muhammad. Sulton Jaloliddin Manguberdi tafsiloti. – T.: "O'zbekiston", 2006-y. 30–40-b.
9. Matyoqubov B. Doston Navolari. – T.: 2009-y. 19–32-y.
10. Jabborov I. Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani. – T.: "O'zbekiston", 2012-y. 311–313-b.
11. [https:// inlibrary. uz/ index. php/ dllseteg...](https://inlibrary.uz/index.php/dllseteg...)

¹ Kochneva I., Yalovleva A. Вокальный словарь. – Москва: 1986 г. С-61.

O'ZBEKISTON MADANIYATI VA SAN'ATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek san'ati va madaniyatining ildizi, bugungi kundagi madaniyat va san'at sohasiga kiruvchi muassasalar faoliyati, sohaga doir statistik ma'lumotlar va boshqa kerakli ma'lumotlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, raqs, maqom, baxshi, madaniyat markazi, teatr, madaniy meros, nomoddiy madaniy meros.

КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В этой статье кратко освещаются корни узбекского искусства и культуры, деятельность учреждений, входящих в сферу современной культуры и искусства, а также излагаются конкретные статистические данные по культуре и искусству.

Ключевые слова: культура, искусство, танец, статус, бахши, культурный центр, театр, культурное наследие, нематериальное культурное наследие, фестиваль.

CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN

Annotation: In this article, the roots of uzbek art and culture, the activities of the institutions that belong to the field of culture and art today are briefly covered, as well as specific statistical data on culture and art.

Key words: culture, art, dance, status, bakshi, cultural center, theater, cultural heritage, intangible cultural heritage, festival.

Yurtimizda azaldan noyob iste'dod egalari, san'atimizning mohir namoyandalari yashab kelishadi hamda o'zbek xalq san'atining nodir an'alarini asrab-avaylab, avloddan avlodga yetkazib kelmoqdalar. Ushbu an'alar xalqimiz tarixi, ajoyib madaniyatimiz-u milliy qadriyatlarimizni unutishga yo'l bermaydi.

Xalqimiz qadimdan har sohada mohir va tadbirkor bo'lganligiga tarix guvoh. Shu qatori o'zbek san'ati tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Xususan, musiqa, raqs, teatr, qo'shiqchilik, qiziqchilik va dorbozlik kabi san'atning turli sohalari ham rivojlangan. Ilk o'rta asrlarda san'at sohasida Buxoro qiziqchilari, Samarqand naychilari, Toshkent raqqos yigit va raqqosa qizlari bilan shuhrat topgan. Choch raqqoslari ijro etgan mashhur "Choch raqsi" yoki doira chertmasiga imo bilan yelka uchirib tushadigan o'ynoqi "Doira raqsi" Xitoy ayonlarini maftun etib, ularni hayratga solgan edi. Birgina Buxoro shahrida usta hunarmandlar tomonidan o'n turdagi cholg'u asboblari yasalganligi ham tarixdan ma'lum. Aslida, har qaysi davlatni dunyoga ma'lum va mashhur qiladigan soha sport, san'at va madaniyatdir. O'zbek sporti jahon arenalarida yetarlicha mavqega ega. Xo'sh, o'zbek san'ati va madaniyatining o'ni bugun qay darajada?

Ko'pgina chet el mamlakatlari xalqlari bizning milliy matolar-u, o'ymakor naqshinkorlik san'atimizni bilishadi va qiziqishadi. Chindan ham milliy qadriyatlarimizdan biri sifatida bugungi kunda ustozshogird an'anasi sifatida avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu kabi san'at durdonalarimiz butun dunyoga ma'lum va mashhur. Buni mamlakatimizda o'tkaziladigan xalqaro festivallarda qatnashuvchi turistlar sonidan ham yaqqol sezish mumkin. Bundan ko'rinadiki, o'zbek nomi yangraganda bizning milliy liboslarimiz kabi san'at asarlarimiz chet el xalqlari

ko'zoldida gavdalanishi kundek ravshan.

Bundan tashqari, o'zbek musiqa san'atining ham o'zgacha mavqei mavjud. Aytishlaricha, u yoki bu madaniyatni tushunish, xalqning hayoti va turmush tarzini his qilish uchun uning milliy ohanglarini tinglash kerak ekan. Mamlakatimizda xalq musiqasining Farg'ona-Toshkent, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm mahalliy uslublari mavjud bo'lib, har birining o'zgacha o'rni va roli mavjud. Ayniqsa, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida katta ashula yoki patnis ashula (patnis bilan ijro etilgan qo'shiqlar) janrlari juda mashhurdir. Azaldan vodiy ahli san'atga shinavanda xalq. Eng mashhur, qo'shiqchi-yu, sozanda va qiziqchilarning ko'p qismi ham vodiy aholisi orasidan yetishib chiqqanligi barchamizga ma'lum.

Xususan, Lutfixonim Sarimsoqova, Tamaraxonim, Ma'murjon Uzoqov, Tavakkal Qodirov, Halima Nosirova shular jumlasidandir [1]. Ko'rinib turibdiki o'zbek san'ati va madaniyati butun dunyoga ma'lum va mashhur. Hozirgi kunda, ayniqsa, o'zbek maqom va baxshichilik san'atini alohida o'rinda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish bilan Madaniyat vazirligi shug'ullanadi. Madaniyat vazirligi tizimida Millatlararomunosabatlarvaxorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi, Kinematografiya agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, "O'zbeksirk" davlat muassasasi, "Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazi" davlat muassasasi, "O'zbekteatr" davlat muassasasi, "Madaniyat ta'limi markazi" davlat muassasasi, O'zbek milliy maqom san'ati

markazi, Baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan respublika maktab-internati, Buxoro, Farg'ona va Urganch maqom san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari, Respublika markaziy ko'zi ojizlar kutubxonasi, "O'zbekkonsert" davlat muassasasi, "Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Bahor" davlat raqs ansambli" davlat muassasasi, "Xalqaro festivallar direksiyasi" davlat muassasasi, "O'zbekiston davlat filarmoniyasi" davlat muassasasi, "Xalqlar do'stligi" san'at saroyi, Islom Karimov nomidagi Farg'ona viloyati teatr va konsert saroyi, "Surxondaryo san'at saroyi" davlat muassasasi, "O'zbekiston davlat simfonik orkestri" davlat muassasasi, "Respublika baxshichilik san'ati markazi" hamda "Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi" davlat muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va filiallari, qayta tayyorlash va malaka oshirish markazlari, professional ta'lim muassasalari, 40 ta professional teatr, 837 ta madaniyat markazi, 599 ta unvonga ega xalq ansambllari, 8 mingdan ortiq badiiy havaskorlik to'garaklari, 325 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, 210 ga yaqin tuman (shahar) madaniyat bo'limlari hamda yana bir qancha madaniyat va san'at muassasalari ishlab turibdi.

TEATRLAR


Axloqiy qadriyatlar, inson va olamning mushtarakligi haqidagi yangicha tushunchalar, tarix va zamonaviylik bugungi o'zbek teatrini ko'proq o'ziga jalb etmoqda. Milliy teatr taqdiriga qiziqishning ortishi, hayotga yaqinlik, yangi tomoshabin avlodi teatr san'ati arboblari yangi izlanishlarga undamoqda. Davlatning qo'llab-quvvatlashi tufayli mamlakatimizda bugungi kunda 40 ta professional teatr va teatr studiyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Madaniyat vazirligi davlat teatrlari va teatr studiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-114-son Farmoni asosida tashkil etilgan "O'zbekteatr" davlat muassasi tomonidan muvofiqlashtiriladi va uslubiy yordam ko'rsatiladi [2]. Turli janrlar: Yevropa tipidagi drama, milliy musiqali drama, opera va balet yashab, rivojlanib kelmoqda. Har bir viloyatda qo'g'irchoq teatrlari, Farg'ona, Samarqand va Toshkentda rus drama teatrlari, shuningdek, musiqali teatrlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika teatr hayotida Toshkent alohida o'rin tutadi. Bu yerda mamlakat teatrlar va konsert saroylarining uchdan biri joylashgan bo'lib, ularda o'zbek va rus tillarida spektakllar namoyish qilinmoqda. Bugungi kunda aynan Toshkent shahrida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri, O'zbekiston davlat musiqali komediya (operetta) teatri, O'zbek Milliy akademik drama teatri, O'zbekiston davlat drama teatri, O'zbekiston davlat satira teatri, O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatri, O'zbekiston davlat yoshlar teatri, O'zbekiston davlat akademik rus drama teatri, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri, O'zbek Milliy



qo'g'irchoq teatri, "Diydor" yoshlar eksperimental teatr-studiyasi" davlat muassasasi, "Tomosha" bolalar musiqiy teatr-studiyasi" davlat muassasasi, "Xalqlar do'stligi" saroyi, Turkiston san'at saroyi shular jumlasidandir. Bu teatr va konsert saroylar badiiy va tashkiliy jihatdan tajriba maydoniga aylanganligini alohida ta'kidlash joiz [3]. Bu teatrlarda o'zbek teatrining darg'alari o'z an'analari sodiqligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

MADANIYAT MARKAZLARI



Yurtimizda bugungi kunda 837 ta madaniyat markazlari va ularning qoshida 599 ta unvonga ega xalq ansambllari hamda 8 mingdan ortiq badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyat olib bormoqda. Madaniyat markazning asosiy maqsadi, O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analari o'zida mujassam etgan namunali dasturlarni shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish,

turli xil to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlarining tashqi ko'rinishi bilan quyidagi rasm orqali tanishishingiz mumkin.

MODDIY MADANIY MEROS OBYEKTALARI

Madaniy meros agentligi tizimida respublika bo'yicha jami moddiy madaniy meros obyektlari soni 8210 tani tashkil etadi. Shundan:

Arxeologiya yodgorliklari – 4797 ta

Arxitektura yodgorliklari – 2266 ta

Monumental san'at yodgorliklari – 617 ta

Diqqatga sazovor joylar – 530 ta.

O'zbekiston madaniyati, Markaziy Osiyo xalqlarining ko'p asrlik an'analari va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq boy tarixga ega. Buyuk lpak yo'lining chorrahasida joylashgan O'zbekiston hududida ko'plab me'moriy yodgorliklar, qadimiy qal'a va qasrlar, sirli va noyob tabiat yodgorliklari va folklor elementlari joylashgan bo'lib, ularning aksariyati hozirda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari tomonidan muhofaza qilinmoqda.



Bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi obyektlari Reprezentativ ro'yxatiga 4 ta me'moriy majmua – Xivadagi Ichan qal'a muzey-qo'riqxonasi (1990), Buxoroning tarixiy markazi (1993), Samarqandning tarixiy markazi "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" (2001), Shahrisabzning tarixiy markazi, shuningdek, Ugam-Chotqol milliy bog'i (2016) kabi madaniy meros obyektlari kiradi.

MUZEYLAR

O'zbekiston muzeylar soni esa 13 ta bo'lib, unda jami 2,16 million dona eksponatlar mavjud. Muzeylardagi eksponatlarning hududlar bo'yicha soni quyidagicha:

Qoraqalpog'iston Respublikasi – 93,7 mingta;

Andijon – 115,5 mingta;

Buxoro – 134,6 mingta;

Jizzax – 18,6 mingta;

Qashqadaryo – 69,4 mingta;

Navoiy – 25,9 mingta;

Namangan – 27,4 mingta;

Samarqand – 150,3 mingta;

Surxondaryo – 179,4 mingta;

Sirdaryo – 2,7 mingta;

Toshkent – 88,8 mingta;

Farg'ona – 143,0 mingta;

Xorazm – 40,3 mingta;

Toshkent sh. – 1067,7 mingta.

Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo'li haqida aholining bilimini oshirishda muzeylarning o'rni muhim. Muzeylar tariximizni o'rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to'g'ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi.

O'ZBEKISTONDA KO'ZGA KO'RINGAN MUZEYLAR:

1. O'zbekiston davlat san'at muzeyi
2. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
3. Temuriylar tarixi davlat muzeyi
4. Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi



5. Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi
6. O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi
7. "Shon-sharaf" davlat muzeyi
8. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi
9. Imom al-Buxoriy xotira muzeyi
10. "Sarmishsoy" davlat muzey-qo'riqxonasi
11. Termiz arxeologiya muzeyi
12. O'zbekiston kino san'ati tarixi muzeyi

NOMODDIY MADANIY MEROSI OBYEKTALARI

O'zbekistonda hozirgi kunga qadar YUNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga O'zbekiston tavsiyanomalariga binoan quyidagi 15 ta obyekt kiritilgan:

👉 Shashmaqom (Tojikiston bilan birgalikda, 2008);

👉 Boysun madaniy muhiti (2008);

👉 Navro'z (Ozarbayjon, Hindiston, Eron, Qirg'iziston, Pokiston va Turkiya bilan birga, 2009. Mazkur davlatlarga yana Tojikiston, Afg'oniston, Iroq, Qozog'iston, Turkmaniston ham qo'shilgan, yangilangan tarkibda – 2016);

👉 Katta ashula (2009);

👉 Askiya (2014);

👉 Palov madaniyati va an'analari (2016);

👉 Xorazm raqsi "Lazgi" (2019);



- 👉 Miniatyura san‘ati (Ozarbayjon, Eron va Turkiya bilan birga, 2020);
- 👉 Baxshichilik san‘ati (2021);
- 👉 Xo‘ja Nasriddin haqidagi latifalarni takrorlash an‘analari (2022);
- 👉 Ipakchilik va to‘quv uchun an‘anaviy ipak ishlab chiqarish (2022);
- 👉 “O‘zbekistonda kulolchilik san‘ati” (2023);
- 👉 “Bezak san‘ati: naqqoshlik” (2023-yil Eron, Ozarbayjon, Tojikiston va Turkiya hamkorligida);
- 👉 “Iftor va uning ijtimoiy-madaniy an‘analari” (2023-yil).

O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILADIGAN XALQARO FESTIVALLAR

Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati saqlab qolish, shu bilan birgalikda yurtni butun dunyoga tanitish, millatning o‘zligini anglash, uning o‘ziga xos milliy qadriyatlari va an‘analarini saqlash va rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san‘at turiga hurmat va e‘tibor tuyg‘ularini kuchaytirish, turli xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma‘naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida, yurtimizda quyidagi xalqaro miqyosdagi festivallar o‘tkazilib kelinmoqda:

1. “Toshkent bahori” xalqaro opera va balet festivali

2. “Lazgi” xalqaro raqs festivali
3. “Boysun bahori” ochiq folklor festivali
4. Xalqaro zardo‘zlik va zargarlik festivali
5. “Gullar bayrami” xalqaro gullar festivali
6. An‘anaviy xalqaro etnofestival
7. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali
8. Xalqaro hunarmandchilik festivali
9. Xalqaro maqom san‘ati anjumani
10. “Yevroosiyo” xalqaro teatr san‘ati festivali
11. “Bahor nafasi” xalqaro san‘at festivali
12. “Dunyo sadolari” xalqaro milliy estrada san‘ati festivali
13. “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro musiqa folklor festivali
14. “Nurli navolar” xalqaro folklor festivali
15. Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali
16. Xalqaro kamer va simfonik musiqa festivali
17. “Xalqaro sirk san‘ati” festivali



Xalqimizning hech bir kuni to‘y-u tomoshalarsiz o‘tmaydi. San‘atga oshufta qalblar doimo o‘lmas milliy qadriyat-u, san‘atimiz va madaniyatimiz bilan yashaydi. Madaniyat va san‘atga muhabbat, biz o‘zbek xalqining qonida mujassamdir. Bizdan talab etiladigan narsa esa, mana shu yuksak madaniyat va san‘atimizni asrab-avaylash, rivojlantirish hamda dunyoga yoyishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmo‘minov M. “O‘ZBEK SAN‘ATI VA MADANIYATI DAVLATNING IMIJI”. “Oriental Art and Culture” 4.2 (2023): 502–509.
2. Ikramov S.T., Xolmo‘minov M.Z. San‘at va madaniyat sohasini zamonaviy boshqaruv usullari (Uslubiy qo‘llanma). – Toshkent: “Ijod-print”, 2023-y . 250-b
3. Xolmo‘minov M. Milliy madaniyat – Renessans poydevori (Monografiya). “Metodist”, – T.: 2023-y. 154-b.
4. Haydarov A. Madaniyat – milliy yuksalish poydevori. – T.: “Oltin meros press”, 2021-y. 478-b.

XORAZM SHOIRLARI LIRIK SHE'RLARIDA MUSIQIYLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada, XIX asr oxiri XX asr boshlari Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II - Feruz davrida ijod etgan shahzoda shoirlardan Sayyid Muhammad Nosir to'ra Sultoni, Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy, Sayyid G'oziy to'ralar ijodi va ular tomonidan yaratilgan lirik she'rlarning ohangdorligi, musiqiyligi haqida so'z yuritiladi. Shahzoda shoirlar she'rlaridan namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: madaniyat, san'at, adabiyot, bastakor, kuy, shahzoda, shoir, g'azal, mustazod, vazn, radif, qofiya.

МУЗЫКАЛЬНОСТЬ В ЛИРИЧЕСКИХ СТИХАХ ХОРЕЗМЬСКИХ ПОЭТОВ

Аннотация. В этой статье рассказывается о правителе Хивы конца XIX го начала XX го века Мухаммеде Рахимхане, о княжеских поэтах, созданных во времена правления Феруза - II, Саййиде Мухаммаде Насире тора Султани, Саййиде Саъдулле Тора Саъдий, Саййиде Газий туре, и о тональности, музыкальности созданных ими лирических стихотворений. Приведены примеры стихотворений принцев поэтов.

Ключевые слова: культура, искусство, литература, композитор, песня, принц, поэт, газель, мустазад, вес, радиф, рифма.

MUSICALITY IN THE LYRICAL POEMS OF KHOREZM POETS

Abstract. This article talks about the late 19th – early 20th century Khiva ruler Muhammad Rahim Khan of the princely poets created during the reign of Feruz-II, Sayyid Muhammad Nasir tora Sultani, Sayyid sa'dullah tora sa'di, Sayyid Ghazi toora, and the tonality, musicality of the lyric poems created by them. Examples of poems by Prince poets are given.

Key words: culture, art, literature, composer, song, prince, poet, ghazal, mustazod, weight, radif, rhyme.

O'rta Osiyoda qadimdan Xorazm vohasi san'ati, adabiyoti, hunarmandchiligi bilan o'ziga xoslik kasb etgan. Bugungi kunda Xorazm lazgi raqsi O'zbekistonning madaniy yodgorligining bir qismi sifatida insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi ham bu xalq madaniyati nechog'lik beqiyos, takrorlanmas tarix ekanligini ko'rsatadi.

XIX asr oxiri XX asr boshlari Xiva hukmdori Muhammad Rahimxon II-Feruz davrida an'analarni davom ettirish, san'at, adabiyot, madaniyatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi. Muhammad Rahimxon II-Feruz shoh va shoir sifatida mumtoz she'riyatning ko'plab janrlarida lirik she'rlar yozdi va **"Devoni Feruz"**ga tartib berdi. Tabiiy **"Majmuai shuaro payravi Feruzshohiy"** tazkirasida Feruzning shoirlik iqtidoriga yuksak baho berib, uning yuzdan ortiq g'azallarini keltiradi. Feruz lirikasi mavzu jihatidan ko'proq oshiqona she'rlar bo'lib, ular tasviriy vositalarning xilma-xilligi, ifodaning bo'yoqdorligi va musiqiy ohangdorligi bilan ajralib turadi. Feruz g'azallarida Xorazm xalq musiqasiga monand vazn, radif, qofiya singari unsurlar tanlangan. Shuning uchun ham Feruz g'azallari o'z zamonasidayoq sozandalar tomonidan kuyga solingan, xonandalar esa ularni kuylashgan. Feruz bastakor sifatida ham faoliyat olib borgan va **"Shashmaqom"** kuylarini o'rgangan, **"Navo"**, **"Dugoh"**, **"Segoh"** kabi maqomlarga bog'lab o'zi kuy bastalagan. Feruzning musiqa tarixidagi yana bir xizmati, Xivada maqom ansamblini tashkil etishi bo'ldi.

Ma'lumki, Feruz madaniyaning barcha sohalariga birdek e'tibor qaratadi. Feruz Xiva xoni sifatida tazkira tuzish, majmua yozish, tarjima etish, bayozlar tuzish va devonlar tartib berishga qalam ahlini rag'batlantiradi, hatto, bu jarayonga qarindoshlari, shahzodalar va saroydagi ko'plab mansabdor kishilarni ham jalb etib, muntazam ijodiy kechalar tashkil etiladi. Shuning natijasida o'ndan ortiq shahzoda shoirlar yetishib chiqadi. Shulardan Sultoni, Sa'diy, G'oziy va Asad kabi shahzoda shoirlar o'z she'rlarini jamlab, devon tartib qilishgan va Feruz

g'azallariga tatabbular yozishgan. Bu haqida Lafasiyning **"Tazkirai shuaro"**, Bayoniyning **"Haft shuaro"**, Tabibiyning **"Majmuat ush-shuaro Feruzshohiy"**, Bobojon Tarrohning **"Xorazm navozandalari"** kabi asarlarda ko'plab ma'lumotlar beriladi.

E'tibor qilsak, bu shahzoda shoirlarning she'rlarida ham o'sha davr an'anasiga monand musiqiylilik, ohangdorlik kuchli ekanligi ko'zga tashlanadi. Sayyid Muhammad Nosir to'ra bin Sayyid Muhammadyor to'ra bin Sayyid Muhammad Rahim Bahodirxon Soniy XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashagan Xorazm adabiy-madaniy muhiti vakillaridan biri, shahzoda shoir edi. Sayyid Muhammad Nosir to'ra saroyda voyaga yetadi va u eski maktabni bitirgan, shoirlikda asosan ustozlardan darslar olgan. Sultoniya dars bergan ustozlari Yusuf Hoji Oxun, Siddiq Oxunlar Xivaning madrasalarida mudarris, Yusufbek Bayoni madrasada tahsil berish bilan birga o'z davrining yetuk tarixchisi, iste'dodli shoiri va mohir tarjimoni edi. Sayyid Muhammad Nosir to'ra 1920-yil boshqa shahzodalar qatori Sibirga surgun qilinadi, vafoti sanasi hozirgacha noma'lum.

Sayyid Muhammad Nosir to'raning **"Devoni Sultoni"**sidagi 198-raqamli **"Bir taraf"** radifli ushbu g'azaliga e'tibor qartsak:

*Ruxsori jonon bir taraf mehri munavvar bir taraf,
Xuboni olam bir taraf ul mohi paykar bir taraf.
Qaddini tashbeh aylamang sarvi sihiga, ey do'stlar,
Ul qaddi ra'no bir taraf, sarvi sanobar bir taraf.
Havroyi jannatg'a agar ko'z ochmasam, ermas ajab,
G'ilmonu havro bir taraf, ul la'li shakar bir taraf.
Mehr ila mahg'a do'stlar yorimni tashbeh aylamang,
Xurshid ila mah bir taraf, ruxsori dilbar bir taraf.
Gisuyi sunbul teng emas, yorimni mushkin zulfiga,
Gisuyi sunbul bir taraf, zulfi mo'ttar bir taraf.
La'li zilolig'a oning kavsar suyi teng bo'lmag'ay,
La'li ziloli bir taraf, ul obi kavsar bir taraf.*

*Sultoniy olam xo'blarin yoringg'a nisbat bermagil,
O'zga sanamlar bir taraf, sho'xi sumanbar bir taraf¹.*

G'azalning radifi va qofiyani yuzaga keltirgan "munavvar", "paykar", "sanobar", "shakar", "dilbar", "mo'ttar", "kavsar", "sumanbar" so'zlari poetik jihatdan tasvirni kuchaytirish bilan birga o'zaro musiqiylik, ohangdorlikni ham yuzaga keltirgan. Raviysi "r" tovushi sonor, titroq tovush bo'lganidan g'azalning kuyga solib, aytilishini yanada jo'shqin, shirali bo'lishini ta'minlagan. Shu o'rinda mashhur qo'shiqqa aylangan shoir To'ra Sulaymonning **"Gul bir yon, chaman bir yon"** she'ri ham ayni shu uslubda yozilgan, deyishimiz mumkin.

Feruzning yana bir nabirasi Sayyid Sa'dulloh to'ra Xivaning so'nggi xoni Said Abdullaxon (1918–1920-yillar Xiva xoni)ning o'g'li bo'lib, bobosi saroyida o'sib, ulg'aygan edi. Sayyid Sa'dulloh to'ra yoshligidan adabiyotga qiziqadi, Sharq mumtoz ijodkorlarining asarlarini o'qib o'rganadi. Sayyid Sa'dulloh to'ra taniqli muarrix va shoir Bayoniya shogird tushgan, 20 yoshligidan she'r mashq qila boshlagan, u arab, fors tillarini bilgan. Sayyid Sa'dulloh to'ra haqida Bobojon Tarroh – Xodim shunday yozadi: *"Sa'dulloh to'ra podshozoda oilasidan chiqqan. U juda zehni o'tkir odam edi. Bir ko'rgan narsasini, xoh arabiy bo'lsin, xoh forsiy bo'lsin, darrov yodlab olar edi"*². Sayyid Sa'dulloh to'ra she'rlariga Sa'diy taxallusini tanlagan, ko'proq bu shahzoda shoir Sa'diy Xorazmiy nomi bilan bayoz, tazkiralarda qayd etiladi. **"Devoni Sa'diy"**da shahzoda shoirming lirik she'rlari jamlangan bo'lib, asosan ular oshiqona va orifona mavzularda yozilgan. Sa'diy g'azal, mustazod, murabba', musaddas, qasida kabi janrlarda ijod etgan, uning she'rlarida o'ziga xos jarangdorlik, ohangga moslashuvlik holati ko'rinadi. Jumladan, Sa'diyning ushbu mustazodiga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

*Qadding g'amida qumri kibi aylaram izhor
yuz nolavu afg'on,
Aylab to'la qon g'uncha kibi bag'rimi ey yor
ul xanjari mujgon.
Ko'z qatra afshondur to'kubon gah yoshu gah xun
yo'ling uzra yotib.
Go'yoki sani boshingga har dam qilur isor
inju bila marjon.
Ul damki qilib zulfingni zor tomosho
g'am qaydig'a tushdim,
Kim qildi mani kufr eliga loyiqi zunnor
ul zulfi parishon.
Soldi boshim uzra yuz tuman sho'ri qiyomat
ul nargisi shahlo,
Aylab bu hazin ko'nglimi ishqi g'ami bemor
ey ofati davron.
Man xastani qil bazmi visoling aro mahram
lutfu karam aylab,
Man zorni qilmayin g'aming birla giriftor
ey sarvi xiromon.
Qilg'il mani lutfing birla serob
vasling mayi birla,*

¹ O'ZR Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. *Qo'lyozma*. Inv. raqami: AP–7095.

² Bobojon Tarroh. Xorazm navozandalari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994-y. 35-b.

³ O'ZR Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondi. *Qo'lyozma*. Inv. raqami: AP -7092.

⁴ Qarang: Bobojon Tarroh - Xodim. Xorazm shoir va navozandalari. – T.: "Tafakkur qanoti", 2011-y. 54-56-b.

⁵ O'ZR Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti. *Qo'lyozma* inv. raqami: P N 909-V.

*Tarki sitam etib jonima ey yori sitamkor
qilmay mani giryon.
Sa'diyg'a taraxxum ayla ey soqiy gulchehra
bu tun mayi vasling,
Kim bo'lmish anga bir necha yildin xumor
oshuftau hayron³.*

Ko'rinadiki, mustazodning qo'shilgan satrlar g'oyaviy-badiiy mazmunning yanada ochilishi bilan birga kuy, ohang jozibasini yanada chiroyli bo'lishini ta'minlagan. Ya'ni, she'rning matni o'z musiqasini tinglovchiga havola qilmoqda. Bunday lirik she'rlarga kuy bastalashda san'atkor uning mazmuni, poetikasini anglasa bo'ldi, ohangi tabiiy yuzaga keladi. Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diyning ko'plab she'rlarida bu holat kuzatiladi.

Saroyda ijod qilgan shahzoda shoirlardan Sayyid G'ozii to'ra she'rlari ham mazmunan boy, ohangi yoqimliliigi bilan ajraladi. Bobojon Tarroh – Xodimning "Xorazm shoir va navozandalari" kitobida yozilishicha, shoirming adabiy nomi o'z nomi bo'lgan. Sayyid G'ozii to'ra she'rlariga G'oziy taxallusini qo'yib, bobosi Feruzga taqdim etadi va xonga bu ma'qul bo'ladi⁴. Sayyid G'oziy to'raning lirik she'rlari "Devoni G'oziy"ga jamlangan. G'oziy she'rlari an'anaviy shaklda yozilgan va vazn jihatidan kuyga solinishi yengil kechadi. Masalan, G'oziyning "Kelur" radifi ushbu g'azalini keltiradigan bo'lsak:

*Lutf aylabon bazmim aro ul mohi ruxsorum kelur,
Shirin takallum aylab ul la'li shakkarborim kelur.
Dildorlig' rasmin tutib, alhamdkim, ul mahliqo,
Jonin yoqib ag'yorni ul chashmi bemorim kelur.
Har yon muanbar kokilin ruxsori uzra torqotib,
Yorutg'oli kulbamni ul xurshidi raxshonim kelur.
Mustag'niy o'lsam ayshdin tong yo'qki ushbu dam mango,
Maqsud hosil etkali bori vafodorim kelur.
Ishqida bemor erkanim bilsa bu kun ul mahjabin,
Emdi mehnat ko'rguzib ul bori g'amxorum kelur.
Ag'yor ahlidin qochib ham do'stlig' rasmin tutib,
Har bir so'zidin dur sochib ul shahd guftorim kelur.
Mast o'lsang emdi G'oziy yo husni jamolini ko'rub,
Ushbu kecha lutf aylabon kulbam aro yorim kelur⁵.*

G'oziy g'azalida radif bilan birga "ruxsorum", "shakkarborim", "bemorim", "raxshonim", "vafodorim", "g'amxorum", "guftorim", "yorim" kabi qofiyadosh so'zlar tanlanishi va "r" tovushining raviy bo'lib kelishi mumtoz she'rlarda an'ana bo'lishi bilan birga xalq qo'shiqlari matnida ham ko'p uchraydi. Shuning uchun ham bunday g'azallarni hofizlar tomonidan kuyga solib, ijro etilishi yengil kechadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XIX asr oxiri XX asr boshlari Xorazm adabiy muhitida 60ga yaqin shoirlar ijod qilgan bo'lsa, ularning she'rlarida Xorazm koloriti, ohangi, musiqiyliigi yaqqol ajralib turadi. Xususan, Muhammad Rahimxon II-Feruz ma'rifatli shoh va shoir sifatida adabiyot va san'atga, musiqaga katta e'tibor qaratib, uning o'zi g'azallariga kuy bastalar ekan, Feruz o'zining yaqinlarini bu jarayonga da'vat etgan. Feruz avlodlaridan bo'lgan Sayyid Muhammad Nosir to'ra Sultoniy, Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy, Sayyid G'oziy to'ralarning devonlariga kiritilgan she'rlarning asosiy qismi kuy, ohangga mos ravishda yozilgan. Bu davr Xorazm adabiy muhitida mumtoz an'analar deyarli saqlanib qoldi. Keyingi davrga kelib, she'r vazni, poetikasida o'zgarishlar yuzaga keldi. Bugungi kunda Sayyid Muhammad Nosir to'ra Sultoniy, Sayyid Sa'dulloh to'ra Sa'diy, Sayyid G'oziy to'ra kabi shoirlar she'rlarga bastakor, hofizlarimiz murojaat etishsa, xalqimiz mumtoz qo'shiqlari yanada boyib boradi.

ТВОРЧЕСТВО УРАЛА ТАНСЫКБАЕВА-ОСНОВОПОЛОЖНИКА ЭПИЧЕСКОГО ПЕЙЗАЖА В ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. Исследование развития пластических поисков, связанных с течениями и культурным наследием национального и мирового искусства в творчестве художника Урала Тансыкбаева, который является одним из основоположников пейзажной живописи Узбекистана, сформировало новую типологию образов природы, в котором было превалирующим песенное-эпическое начало, что было необходимо для совершенствования научного исследования по дальнейшему развитию пейзажного жанра, изобразительного искусства и культуры Узбекистана в целом.

Ключевые слова: авангард, искусство, культура, пейзажная живопись, постимпрессионизм, произведение, традиции, станковая живопись, Средняя Азия, художник, Узбекистан, школа, эпический, юбилей.

О'ZBEKISTON RANGTASVIRIDAGI EPIK MANZARA ASOSCHISI O'ROL TANSIQBOYEV IJODI

Annotatsiya. O'zbekiston manzara rangtasvirining asoschilaridan biri bo'lgan rassom O'rol Tansiqboyev ijodida milliy va jahon san'ati an'analari, yo'nalishlari va madaniy merosiga oid plastik izlanishlarning rivojlanishini o'rganish natijasida tasviriy san'atning yangi tipologiyasi shakllandi va unda tabiatning qo'shiqli-epos ko'rinishi ustun bo'lib, butun O'zbekiston manzara janri, tasviriy san'ati va madaniyatini yanada rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish uchun zarur edi.

Kalit so'zlar: avangard, san'at, madaniyat, manzara rasmi, postimpressionizm, asar, an'analar, dastgohli rangtasvir, O'rta Osiyo, rassom, O'zbekiston, maktab, doston, yubiley.

CREATIVITY OF URAL TANSIKBAYEV, THE FOUNDER OF EPIC LANDSCAPE IN UZBEKISTAN PAINTING

Abstract. The study of the development of plastic searches related to the trends and cultural heritage of national and world art in the work of the artist Ural Tansikbayev, who is one of the founders of landscape painting in Uzbekistan, formed a new typology of images of nature, in which the song-epic beginning was prevalent, which was necessary to improve scientific research on the further development of the landscape genre and fine arts of Uzbekistan as a whole.

Key words: avant-garde, art, culture, landscape painting, post-impressionism, work, traditions, easel painting, Central Asia, artist, Uzbekistan, school, epic, anniversary.

«Проблемы современного общества выходят за традиционные границы отдельных дисциплин и охватывают весь жизненный цикл инноваций, от исследований до накопления знаний и их применения на практике. Наука, техника и инновации должны стать основой обеспечения более справедливого и устойчивого развития общества в целом»¹. На этом этапе, интересен опыт стран Центральной Азии, которые демонстрируют уникальный симбиоз сохранения гуманитарных основ культуры, взаимодействия общемировых и локальных традиций, получивших самостоятельную интерпретацию в искусстве XX века.

Творчество народного художника Узбекистана, действительного члена Академии художеств Узбекистана, корифея живописи, основоположника и мастера национального эпического пейзажа Урала Тансыкбаева (1904–1974), чей 120 юби-



лей будет отмечать Узбекистан – одна из ярких страниц искусства и культуры нашей Республики. Урал Тансыкбаев по национальности казах, но его жизнь и творчество связаны с Узбекистаном [1.с.7].

Рисунок 1.
У.Тансыкбаев
– «Автопортрет». 1935 г.,
холст, масло.
ГМИ. Ташкент.

¹ Наука во благо общества. <https://ru.unesco.org/themes/наука-na-bлаго-obshchestva>

Историко-художественная проблема, обозначенная в названии статьи, включает в себе целых три уникальных аспекта: первый: Урал Тансыкбаев и мировая художественная традиция, второй: собственный творческий путь У.Тансыкбаева, третий: У.Тансыкбаев и пейзажная живопись Узбекистана. Логично, что рассмотрение каждого из вышеперечисленных аспектов в отдельности, а тем более анализ творчества мастера одновременно под тремя углами зрения практически немыслимы в ограниченных пределах одного исследования, что может привести к «раздроблению» такого целостного, поистине синтетического явления, каким было искусство Урала Тансыкбаева, а необходимо выпукло показать, что именно универсальный характер творческого наследия художника, ставит его в один ряд с наиболее значительными достижениями мировой живописи.

Будущий корифей изобразительного искусства Узбекистана родился в Ташкенте, в многодетной семье. Уже в 14 лет юный Урал был вынужден пойти работать в Первушенский завод по производству вина, так как его семья очень рано осталась без отца. А первое призвание как художника, связано с его выставкой рисунков, там же в клубе винного завода. В это время Уралу Тансыкбаеву было двадцать лет, его выставку отметили в газете «Туркестанская правда» (1924). Стоит отметить, что огромную роль в становлении У.Тансыкбаева как художника сыграли его педагоги – Н.В.Розанов, его первый учитель, который обучал Урала в студии при Ташкентском музее искусств, и И.С.Горюшкин-Сорокопудов, обучавший его в Пензенском художественном училище. А переломным моментом в судьбе будущего «Главы узбекистанских колористов» стало поездка художника в Москву в 1929 году, где в экспозиции русских музеев, У.Тансыкбаев открыл для себя передовую современную западноевропейскую живопись, которая стала толчком для освоения будущим мастером направлений и течений европейской авангардной живописи.

Уже в первые годы творческих поисков, У.Тансыкбаева заинтересовывает звучная красочность и неповторимая декоративная сила южной

природы с её сухим зноем, чистым и сильным звучанием цвета. Именно эти качества гармонировали с западноевропейскими авангардными исканиями начала XX века. Этот период творчества мастера отмечен формированием и новыми приёмами пейзажной композиции, которые позволяли выстроить пейзажное пространство не как кулисную декорацию с расчленением на планы, а как фрагмент живой природы. Таковы работы художника раннего периода «Багряная осень» [1931], «У озера» [1932], «Полдень в саду» [1934].

Поворот искусства в сторону социалистического реализма отмечен в исследованиях многих отечественных искусствоведов. На этом этапе важно замечание А. Хакимова: «...Рождение же собственно искусства соцреализма в Узбекистане датируется 1933-1934 гг., когда мемориальный стиль предшествующего десятилетия окончательно уступает место новой модели пластической и смысловой интерпретации. Именно из двух типов восприятия Востока (реальности вообще) – мемориального (гедонистическая утопия) и футурологического (социальная утопия) – сформировался весь последующий спектр пластического языка и жанров искусства Узбекистана» [2.с.280].

Основой развития становится формулировка «искусство национальное по форме и социалистическое по содержанию». К концу 30-х гг., эти принципы начали считаться основополагающими, соцреализм был признан единым стилистическим методом [3.с.58]. Ряд художников старшего поколения, внёсших значительный вклад в формирование живописной школы Узбекистана в 20–30 годы, в 40-х годах и особенно в первое послевоенное десятилетие резко отошли от своих прежних исканий и не в последнюю очередь – под давлением критики, догматически трактовавшей принципы социалистического реализма. Для О.Татевосяна, Н.Кашиной, Н.Карахана и У.Тансыкбаева этот период оказался противоречивым, в чем-то даже кризисным. Однако в их творчестве замечается и преодоление натурно-констатирующего направления благодаря сближению с принципами «беньковской школы» [4.с.19]. В этот период художник У.Тансыкбаев работает над созданием индустриальных пейзажей: «...В его картинах на индустриальные темы этих лет в построении объёмных пластических форм и отчасти в колорите с преобладанием локально-сопряженных, сближенных по тону красок (коричневой, синей или красной гаммы) чувствуется ещё влияние живописных концепций А. Волкова и более отдалённо П.Гогена» [2.с.86]. Картины Тансыкбаева – это всё ещё эксперименты с цветом, импульсивно на одном дыхании написанные грамотные куски узбекской жизни, но уже наполненные светом и воздухом, результат постоянной работы на пленэре, исследование окружающего мира. Несмотря на то, что художник создаёт эти картины ещё в традициях постимпрессионизма, они в полной



Рисунок 2. У.Тансыкбаев – «Багряная осень». 1935 г., холст, масло. Музей искусств. Нукус.

мере содержат в себе национальные особенности узбекского народа.

В этот период в творчестве Урала Тансыкбаева большое место занимает жанровый пейзаж с человеческими фигурами.



Рисунок 3. У.Тансыкбаев – «Кочевье». 1931 г., холст, масло. Музей искусства народов Востока. Москва.

В дальнейшем, уже в 40 годы У.Тансыкбаев работая в окрестностях Ташкента и в долине реки Чирчик, опираясь на многочисленные натурные этюды, создаёт картину «В долине Чирчика» (1940), которая существует в двух вариантах. Основной вариант был впервые экспонирован на весенней выставке пейзажа и натюрморта в Ташкенте (1940). Под непосредственными впечатлениями живой природы, он создавал пейзажи далеко не похожие на прилежные академические штудии, переходя к свободным композициям, многоплановости и обобщениям, высшей точкой, которой станет создание картины «Утро Кайрак-кумской ГЭС» (1957). Важно отметить, что этому полотну присудили Гран-При на всемирной выставке в Париже 1957 года. Но до этого работая во время войны в «Окнах УЗТАГА» (вместе с ним работали Н.Карахан, О.Татевосян, А.Подковыров) У.Тансыкбаев создаёт серию картин «По дорогам войны» [1942]. Эта серия, состоит из 15 полотен, картины выполнены в жанре пейзажа в приглушенных тонах, выбран «суровый» колорит. Их нельзя назвать этюдами с натуры, в полном смысле этого слова, но они ещё и не полноценные картины, а скорее исполнены как замыслы, как эскизы к циклу будущих исторических картин-пейзажей. Полотна решены как иллюстрации к письменным документам военного времени. Вместе они создают атмосферу ужаса, хаоса и безысходности. Каждая картина является дополнением другой.

Песенное начало в творчестве Урала Тансыкбаева связано с созданием циклов горных пейзажей

(60-е годы XX века). Художник много путешествует по Алайской долине, ездил на Памир и Киргизию. Спокойная созерцательность ранних пейзажей сменяется монументальной мощью, которую художник черпает из своеобразия самой природы. Именно эти качества отличают такие полотна, как «Горная дорога Ангрен-Коканд» (1962), «Сенеж. Вечер» (1966), «Дорога в горах» (1964), «Анзобский перевал» (1966), «Вечер на Алайской долине» (1966).

Но особый рассвет творчества мастера приходится на 70-е годы XX века, когда У.Тансыкбаев пишет пейзажи не как сторонний наблюдатель природы, обладающий тонким и точным чувством красоты матери-земли, а как человек, обретший родную землю и отдающий все силы своей души воспеванию её красоты. В связи с этим в работах позднего зрелого периода мастера исчезает налёт несколько отвлечённого декоративизма. Также это последние годы жизни мастера, но именно в этот период были созданы такие эпические пейзажи как «Алайская долина» (1972-73), «Дорога на Чимган (на Бричмуллу)» (1973), под впечатлением поездки в Таджикистан он создаёт монументальное полотно «На Нурекской стройке» (1972), серию полотен, посвященной строительству Чарвакского водохранилища – «На Чарвакской стройке» (1970), «Рождение Чарвакского моря» (1974), «Чарвак в 1973 году» (1974). Но уникальной жемчужиной зрелого периода мастера явилась картина «Моя песня» (1972). Именно этим произведением Урал Тансыкбаев объединяет песенный и интимно-лирический пейзаж, когда в образе природы художник выражает свои философские раздумья (об этом свидетельствует и общий синий, сиренево-индиговый колорит картины с яркими желтыми акцентами), и пейзаж, где художник стремится не только к целостному познанию мира, но и к тонкому и точному раскрытию во всех деталях жизни отдельного уголка природы.




Рисунок 3. У.Тансыкбаев – «Моя песня». 1972, холст, масло. ГМИ. Ташкент.

В заключении хочется процитировать слова Н.Ахмедовой: *«И хотя время безжалостно ко всему, но оно благосклонно к истинным талантам, подлинным мастерам, отдающим своё сердце, свою жизнь искусству. С годами живой интерес зрителей к творчеству Урала Тансыкбаева не ослабевает, музеи и коллекционеры мечтают пополнить его полотнами свои собрания, а исследователей всё больше привлекает непростая творческая судьба матеря»* [5.с.5].

В многоголосой симфонии пейзажной живописи Узбекистана, наряду с кубистическими исканиями

А.Волкова, импрессионизмом П.Бенькова, с тонкой лиричностью пейзажей его талантливых учеников Р.Тимурова и Р.Ахмедова, с чувством динамики современности, преображающий мир природы, раскрытой в пейзажах современной художницы Д.Мамедовой, песенная эпичность пейзажей Урала Тансыкбаева и сейчас спустя 50 лет со дня смерти матеря не теряют своей актуальности и ценности, так как созданный великим художником облик природы всегда будет отвечать эстетическим вкусам узбекского народа, обладающего культурой, отличающейся удивительным духовным богатством и многогранностью.



Использованная литература:

1. Тансыкбаев У. Альбом /Авт.-сост. Н.Р.Ахмедова – Москва: Советский художник, 1988. 136 с.: ил.
2. Хакимов А. Искусство Узбекистана: история и современность. – Ташкент: «Санъат», 2010. С.504.
3. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Т.: 2004. С.224.
4. Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана Основные тенденции. Диссертация кандидата искусствоведения. – Т.: 1984. С.200.
5. Урал Тансыкбаев. Избранные произведения. Автор вст. статьи и состав. Н.Р.Ахмедова. – М.: «Сов. художник», 1989.
6. Тансыкбаев Ё. Альбом. Нашр учун масъул Э.Ахмедова. Мақола муаллифи Н.Ахмедова. Албом. Ўзбекистон Бадий Академияси Марказий кўргазма зали. – Т.: 2004. 23-б.
7. Туланова Д.Ж. (2023, январь). ОСНОВНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ПЕЙЗАЖНОЙ ЖИВОПИСИ УЗБЕКИСТАНА ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА. В конференц-зоне Е (стр.19–24).
8. Туланова Д.Ж. и др. Изучение творчества Урала Тансыкбаева в патриотическом воспитании молодежи. “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni sohibi, O‘zbekiston xalq rassomi, akademik Malik Nabiyev tavalludining 105 yilligiga “Badiiy ta’lim tizimida dolzarb muammolar, integratsiya va istiqbol tendentsiyalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 22.04. 2021. С.412-279.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANINING SHARQ VA G‘ARB TILLARIGA TARJIMALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek realistik romani “O‘tkan kunlar” va uning Sharq va G‘arb tillariga, xususan, rus, ozarbayjon, nemis, tatar, ingliz, turkiy va arab tillari tarjimalariga bag‘ishlanadi. Maqolada asar tarjimasida tarjimonlar qay darajada mahorat bilan yondashganligi, o‘quvchilarning bergan baholariga to‘xtalib o‘tilgan va ba’zi o‘rinlarda tarjima variantlardan namunalar keltirilib, taqqoslanib izohlangan.

Kalit so‘zlar: tarjima, “Минувшие дни”, “The Days Gone By” “Bygone days”, “Days Bygone”, “Die Liebenden von Taschkent”, O‘tgen Kunler.

ПЕРЕВОДЫ РОМАНА «МИНУВШИЕ ДНИ» НА ВОСТОЧНЫЕ И ЗАПАДНЫЕ ЯЗЫКИ

Аннотация. Данная статья посвящена узбекскому реалистическому роману «Минувшие дни» и его переводам на восточные и западные языки, в частности русский, азербайджанский, немецкий, татарский, английский, турецкий и арабский. В статье акцентируется внимание на том, насколько умело переводчики подошли к переводу произведения, на оценках, данных читателями, а также кое-где приводятся и сравниваются и поясняются примеры вариантов перевода.

Ключевые слова: перевод, “Минувшие дни”, “The Days Gone By” “Bygone days”, “Days Bygone”, “Die Liebenden von Taschkent”, O‘tgen Kunler.

TRANSLATIONS OF THE NOVEL “BYGONE DAYS” INTO EASTERN AND WESTERN LANGUAGES

Abstract. This article is dedicated to the foremost Uzbek realistic novel “The Days Gone By” and its translations to Eastern and Western languages of the world as Russian, Azerbaijan, German, Tatar, English, Turkic and Arabic. Furthermore, the readers’ evaluation of the skillful approach of the translators in the translation of this work are discussed, in some places examples of translation options are given, compared and explained.

Key words: translation, “Минувшие дни”, “The Days Gone By” “Bygone days”, “Days Bygone”, “Die Liebenden von Taschkent”, O‘tgen Kunler.

Tarjimashunos olim Najmiddin Komilov “Bu qadimiy san’at” risolasida: “...qayta tarjima hayotiy zaruratdir”¹, deb ta’kidlaydi. Tarjima shunday kuchli qurolki, ma’lum bir xalq tilidan boshqa bir tilga qilingan tarjima asarlar orqali bir xalqning milliy madaniyati, an’analari, urf-odatlar, dunyoqarashi, hayotni anglash falsafasi, tafakkuri, tarixi, shuningdek, yashash tarzi haqida tasavvur hosil qilishda tarjimaning o‘rni beqiyos. Shuning uchun tarjima fan emas, muallif fikrini ifodalash san’atidir. Bu borada XIX asr rus mumtoz adabiyotining yirik vakili F.M.Dostoyevskiy: “Badiiy tarjimada bitta so‘z kam yoki ko‘p bo‘lmasligi kerak”², deb ta’kidlagan edi. Shu nuqtayi nazardan, xalqlarning ma’naviy darajasini ko‘tarishda adabiyot muhim vosita bo‘lsa, adabiyotning yuksalishida adabiy

aloqalarning o‘rni muhim. Badiiy tarjima juda qadimdan har bir adabiyotning rivojlanishida va shu orqali xalqlarni o‘zaro tanituvda ulkan omil bo‘lib kelmoqda³.

Mazkur maqolaning maqsadi, Izzat Sultonov so‘zlari bilan aytganda, o‘zbek adabiyotiga xuddi momaqaldiraqdek guldurosalar bilan kirib kelgan va xuddi chaqmoqdek hammaning diqqatini o‘ziga jalb etgan⁴ Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani va uning Sharq va G‘arb yozuvchilari tomonidan tarjima qilinish zamoni va makoni haqida batafsil ma’lumot berishdir. Bu asar o‘zbek romanchiligining dastlabki namunasi bo‘lishiga qaramasdan, mukammal buyuk adabiy yodgorliklar qatoridan va o‘z o‘quvchilari qalbidan chuqur joy olib ulgurdi.

Ushbu asar yozilishi bilanoq rus gazetalarda rus tilida nashr qilingan. Dastavval, romandan olingan bir necha xatboshi va jumlarlar “За пап-тию” jurnalining 1928-yil mart oyidagi sonida rus adibi M.Sheverdinning “Первый узбекский роман” sarlavhali maqolasida chop etilgan. M.Sheverdin o‘zbek tilini bilmaganiga qaraganda, unga bizga noma’lum bo‘lgan tarjimonlar tarjima qilishgan va taglamalar tayyorlab berishgan.

¹ Komilov N. Bu qadimiy san’at. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1998-y. 5-b.

² Фёдоров. Введение в теорию перевода. – Москва: 1952 г.

³ Mo‘minova N. “O‘tkan kunlar” romani turk tilida tarjima mahorati masalasi (Bitiruv malakaviy ishi). – T.: 2014-y.

⁴ Habibulla Qodiriy. “Otam haqida” (Xotiralar, to‘ldirilgan ikkinchi nashr). – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1983-y.

Roman kitob holida rus tiliga ikki rus adibalari L.Bat va M.Smirnova tomonidan XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida o‘g‘irilgan hamda 1958-yilda O‘zbekiston badiiy adabiyotlar davlat nashriyotida chop etilgan. L.Bat romanning birinchi qismini to‘liq va uchinchi qismini 8-dan 17-bobigacha tarjima qilgan. V.Smirnova esa romanning ikkinchi qismini to‘liq va uchinchi qismining 1-dan 7-bobigacha tarjima qilgan. Lekin bu tarjima to‘liq tarjima bo‘lmagan, chunki L.Bat va V.Smirnovalar asar yozilgan asliyat tilini bilishmagan va taglamalar asosida tarjima qilishgan. Bundan tashqari, mafkuraviy bosim ostida asarning vatan va istiqloq istiqboli, milliy o‘zlikni anglashga doir qismlari tarjima qilinmasdan tushirib qoldirilgan, shunga qaramasdan roman “Минувшие дни” nomi bilan rus o‘quvchilari orasida mashhur bo‘lgan.

XXI asrga kelib, asar M.Safarov tomonidan rus tiliga qayta o‘g‘irilgan. M.Safarov asarning asliyat tilini bilganligi sababli, bu tarjima nisbatan to‘liq tarjima, deb qabul qilingan va u 2009-yilda “Sharq” nashriyotida chop etilgan. Asarning yuqoridagi uch tur va o‘sha davrdagi tarjimalarining farqi shundaki, M.Sheverdin asarni o‘zi yashayotgan zamon va makon talabiga moslab, asar asliyatining ba’zi qismlarini butunligicha tushirib qoldirib, tarjima qilgan. L.Bat esa tarjima jarayonida asar yozilgan davr ruhi va milliy koloritni aks ettirib, muallif maqsad muddaosini imkon qadar saqlab qolishga harakat qilgan. Masalan, ruschasiga Semipalatinsk shahri nomini A.Qodiriy “Shamay” shaklida berganidek, L.Bat ham tarjima jarayonida Shamayligicha qoldirgan. Ayniqsa, asliyatdagi “o‘ris” so‘zining “urus” deb berilishi tarjimada o‘ziga xos milliy koloritni yaratishga xizmat qilgan.

M.Safarov tarjimasi haqida izoh beradigan bo‘lsak, tarjimon tarjima jarayonida zamon va makon qonuniyatini unchalik ham inobatga olmagan. Parchadagi “Men o‘risning idora ishlarini ko‘rib, o‘z idoramizning xuddi bir o‘yinchiq bo‘lg‘anlig‘ini iqror etishka majbur bo‘ldim...” degan gapni tarjimon M.Safarov quyidagicha tarjima qilgan: “Я вынужден признать, что по сравнению с административными порядками у русских, наши устои напоминают жалкой подобие игры...” Bil’aks tarjimada “административные порядки” birikmasining ishlatilishi kitobxonni voqea-hodisa hozirgi kunlarda sodir bo‘lgan ekan, degan noto‘g‘ri xulosa chiqarishiga olib keladi. Ushbu gapning uchta tarjimasini o‘zaro qiyoslaganda, M.Safarov tarjimasini nisbatan maqbulroq, deyishimiz mumkin.

“O‘tkan kunlar” romanining shuhrat topishida qardosh xalqlar tarjimonlarining mashaqqatli mehnati ham yotadi. Asar qardosh xalqlarimizdan ozarbayjon, turk, tojik, qozoq, turkman tillariga tarjima qilingan. Quyida romanni tarjima qilingan zamon va makonga oid ma’lumotlar bilan batafsil to‘xtalib o‘tamiz.



Asli Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumanida tug‘ilgan, Ozarbayjonda o‘qib, yashab qolgan Xolid Saidxo‘jayev 1928-yilda Abdulla Qodiriy “**O‘tkan kunlar**” romanini yozganidan xabar topib, uni o‘qishga jazm etdi. Toshkentlik eski tanishi, hatto, do‘stining bu asari unga g‘oyat manzur bo‘ldi. Bir

zamonlar taraqqiyparvarlardan ko‘ngli qolib, ulardan uzoqlashmoqchi bo‘lgan yigitning o‘n yil ichida zabardast yozuvchi darajasiga ko‘tarilgani va O‘rta Osiyo xalqlari adabiyotida birinchi milliy romanni yaratgani uni hayratga soldi. U shunday barkamol asarning barcha turkiy tillarga tarjima qilinib, nashr etilishini istadi va o‘zi birinchi bo‘lib, ozarbayjon tiliga tarjima qilishga kirishdi.

Qodiriy romanining ozar kitobxonlariga tezroq yetib borishini maqsad qilib, bu ishga O‘zbekistonda yashagan, o‘zbeklar orasida ulg‘aygani uchun o‘ziga Qamchibek taxallusini olgan Abdulla Gaynullinni ham jalb etdi. Xolid Said Qamchibek bilan Yangi turk alifbosi Markaziy qumitasi deb atalgan muvaqqat muassasada tanishgan va uning o‘zbek tilini “suv qilib ichib yuborgani”ni ko‘rib, g‘oyat xursand bo‘lgan edi. Xullas, ikki maslakdosh ijodiy mehnatining natijasi o‘laroq, 1928-yilda Bokuda “**O‘tkan kunlar**” romani ozarbayjon tilida to‘liq kitob holida nashr etildi⁵. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur asardan o‘zbek o‘quvchisidan keyin dunyoda birinchi bo‘lib aynan ozarbayjonliklar bahramand bo‘lganlar.


Asarda ko‘tarilgan masalalar, tarixiy voqealar, qahramonlar taqdiri ozarbayjonliklarga begona emasligi va ikki xalq adabiyotining o‘zaro mushtarakligi sababli, roman ozarbayjon tilida ham bir necha bor qayta nashr etildi. Binobarin, 2023-yilning 2-avgust kuni Bakuda “O‘zbekiston madaniyati kunlari” doirasida o‘zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning “**O‘tkan kunlar**” romanining ozarbayjon tiliga qayta tarjimasi namoyishi bo‘lib o‘tadi va “O‘zbekiston san’ati va adabiyoti” burchagi rasman ochiladi. Tadbirda yurtimizdan tashrif buyurgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi vakillari – taniqli shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar va madaniyat arboblari ishtirok etadilar. Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov ushbu tadbirda so‘zga chiqib, ozarbayjonlik qardoshlarimizga bunday e’tibor uchun o‘z minnatdorchiligini bildiradi. “Asar ilk bor 1929-yilda ozarbayjon tiliga o‘g‘irilib, bir necha bor qayta nashr etilgan. Bu ikki xalq adabiyotining o‘zaro mushtarakligi mevasi. Asarda ko‘tarilgan masalalar, tarixiy voqealar, qahramonlar taqdiri ozarbayjonliklarga ham begona emas. Shu sababli turkiy xalqlar “O‘tkan kunlar” asariga qayta-qayta murojaat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, bu asarni butun turkiy xalqlarning adabiy mulki, deb aytsek xato bo‘lmaydi”⁶, – deydi Qodiriyning nabirasi Xondamir Qodiriy.

⁵ Karimov N. Abdulla Qodiriyga bag‘ishlangan ikki maqola: Abdulla Qodiriy va Xolid Said. XURSHID DAVRON KUTUBXONASI www.kh-davron.uz



Voqeaga guvoh bo'lgan jurnalist Shuhrat Orifning so'zlariga ko'ra, kitobda romanni e'tirof etgan ulug' yozuvchi va olimlar, xususan, Muxtor Avezov, Yevgeniy Bertels, Jalol Ikromiy fikrlari, tarjimon haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu "O'zbekiston madaniyati kunlari" doirasida romanning ozar tilidagi nusxasi bilan asarning yuz yilligi ham nishonlanadi.

1959-yilda Mustafo No'monov tarjimasida **tatar tiliga** ham o'girilgan, ammo afsuski, bu haqda bizgacha juda kam ma'lumot yetib kelgan.




O'zbek nasrining gultoji hisoblanmish **"O'tkan kunlar"** romani turkiyalik mutarjim Ahsen Batur tomonidan 1992–1996-yillar davomida bir necha o'zbek nasrining mashhur namunalari qatorida **turk tiliga** tarjima qilinib, Turkiyada

nashr ettirildi. Buning uchun tarjimon 1994-yilda respublikamizning Alisher Navoiy mukofoti bilan taqdirlandi⁷. Shundan buyon bu asar turk tilida bir necha bor "Istanbul" nashriyotida nashr etilib, kitobxonlarga yetkazilmoqda.

Shuningdek, dastlabki realistik roman "Die Liebenden von Taschkent" ("Toshkentlik oshiqlar" yoxud "Toshkentlik sevrishganlar") nomi bilan Arno Shpecht tomonidan 1968-yilda rus tilidan nemis tiliga o'girilgan. 2020-yil 16-iyun kuni Youtubdagi "Amerika ovozi" jurnalisti Malik Mansurning xabar berishicha, asar 2020-yilda Germaniyada qayta nashr etilgan. Nashriyot tomonidan yozilgan taqrizda, – deydi jurnalist, kitob Abdulla Qodiriy tavalludining 120 yilligi munosabati bilan Berlindagi Humboldt universiteti o'qituvchisi Barno Aripova boshchiligidagi chop etilayotganligi ta'kidlangan. Uch yuz yetmish besh sahifadan iborat kitob qattiq muqovada, o'zbek milliy bezaklari bilan ishlangan, ancha salmoqli, bosiq va yoqimli ko'rinishda. Kitob so'ngida Abdulla Qodiriyning yozuvchilik va jurnalistik faoliyati, milliy uyg'onish harakati faollaridan bo'lgan yozuvchi

qatag'on qilingani, o'sha davrdagi ko'pgina o'zbek ziyolilari singari Sovet tuzumi dushmani sifatida otib tashlangani haqida ma'lumot berilgan. Taqrizda asarning asliyat tilidagi **"O'tkan Kunlar"** deb nomlangani ta'kidlangan, lekin nima sababdan nemis tilidagi kitobga **"Toshkentlik oshiqlar"** deb tanlanganiga izoh berilmagan.



Taniqli shoir va tarjimon A'zam Obidning bergan intervyusiga ko'ra, nemis tilidagi bu nashrga bundan 50 yillar avval rus tilidan qilingan Arno Shpecht tarjimasida asos qilib olingan. Arno Shpecht kitobxonlarni jalb etish maqsadida asar nomini aynan **"Die Liebenden von Taschkent"** ("Toshkentlik oshiqlar")

deb nomlagan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi shoir. A'zam Obid asarni tarjima qilib nashr qilish bilan birgalikda uni kitobxonlar orasida ommalashtirishga ham alohida ahamiyat berish kerakligini, hozirgi kun kitobxonlarning nafaolligidan norozi ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi. So'zi so'ngida A'zam Obid o'zbekistonliklarni va Barno Aripovani shunaqa kitob nashri chiqqanligi bilan tabriklaydi va o'z dil izhorlarini aytib o'tadi⁸.

Bu romanni dastlab O'zbekistonda ingliz tiliga ayni paytda O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori lavozimida faoliyat olib borayotgan Ilhomjon To'xtasinov boshchiligidagi bir guruh tarjimonlar 2017-yil **"The Days Gone By"** nomi bilan tarjima qilishgan.

Abdulla Qodiriyning **"O'tkan kunlar"** romani Lola Karimova Tillayeva boshchiligidagi Islom Karimov fondi homiyligida Britaniya universiteti rus adabiyoti fakulteti magistranti, o'ttizdan ziyod badiiy tarjimalar muallifi Karol Ermakova tomonidan Julie Vikenden muharrirligida tarjima qilindi va kitob **"Days Gone By"** nomi bilan 2018-yil Parijdagi "Nouveau Monde Editions" nashriyotida chop etilgan. Ushbu tarjimaga rassom Bobur Ismoilov illustratsiyalar chizgan.

"O'tkan kunlar" romani 2004–2019-yillar davomida amerikalik madaniyatshunos Mark Edward Reese tomonidan tarjima qilingan va **"Bygone Days"** nomi bilan kitob hoida Amerika Qo'shma Shtatlarida chop etilgan. Abdulla Qodiriyning nabirasi Xondamir Qodiriyning so'zlariga ko'ra, bu asar ya'ni tarjima dunyo yuzini ko'rish uchun so'nggi bosqich bo'ldi: 660 sahifadan iborat kitobda unda qo'llanilgan turli rasmlar, xaritalar va to'rt yuzdan ortiq holatlarga izohli lug'atlar berilgan. Mark Reese Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'zbekchadan inglizchaga to'liq o'giran birinchi tarjimon. U tarjima uchun asarning 1926-yilda bosilgan birinchi va qisqartirilmagan nashridan foydalangan. Ushbu nashr nusxasi Amerika Kongress kutubxonasidan o'rin olgan.

⁶ <https://oz.sputniknews.uz/20230802/otkan-kunlar-roman-ozarbayjon-qayta-chop-etildi-37510787.html>

⁷ Ibrohimova Sh. Odil Yoqubov romanlaridagi milliylikning turkcha tarjimada aks etishi. (Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati). – T.: 2010-y. 4-b.

⁸ <https://www.youtube.com/watch?v=fEuznYVvDY4>

“Dunyo” agentligining bergan xabariga ko‘ra, Misrning Ayn Shams universiteti professori, yozuvchi, tarjimon Muhammad al-Jibali 2013-yil iyun oyida O‘zbekistonga prezident saylovlarida ishtirok etish uchun kelgan chog‘ida, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasida suhbatlar o‘tkazgan, o‘zbek madaniyati va tarixi bilan yaqindan tanishgan va shu orqali Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romaniga qiziqish bildirgan. *“Muhammad al-Jibali ilk o‘zbek romanchiligi namunasini arab tiliga tarjima qilishga kirishdi”*, deb xabar beradi “Dunyo” agentligi.

Muhammad al-Jibali nihoyatda boy adabiy merosga ega o‘zbek adabiyoti durdonasi bo‘lmish **“O‘tkan kunlar”** romanining arab tiliga tarjima qilinishi, nafaqat Misr, balki butun arab dunyosida iliq kutib olinishiga, qolaversa, kitobxonlarning yangi avlodi badiiy asardan yanada ko‘proq estetik zavq olishiga ishonch bildirgan. Tarjimonning so‘zlariga ko‘ra, ikki xalqning madaniy-ma‘naviy yaqinligi, qolaversa, arab tilining sinonimlarga nihoyatda boyligi asar tarjimasining sifatli bo‘lishiga va asardagi badiiy go‘zalligini saqlab qolishga imkon beradi. Professor Muhammad al-Jibali asardagi ba‘zi arab imlosi (eski o‘zbek yozuvi)da bitilgan atamalarni asl xolida saqlab qolishni maqsad qilib, Abdulla Qodiriyning

nevaralaridan romanning asl nusxasini olishga muvaffaq bo‘ladi.

Romandagi o‘zbekona ruhni saqlab qolish, muallif tafakkurini idrok etish va tarjima sifatini oshirish maqsadida, mutarjim Muhammad al-Jibali O‘zbekistonning Misrdagi elchixonasi madaniy masalalar bo‘yicha mas’ul xodimi Otabek Alimov, ayni vaqtda Qohirada yashayotgan o‘zbekistonlik Husan Abdumajidov, Saudiya Arabistonida yashab tahsil olgan yozuvchi va tarjimon Said Muhammad Kosoniy va boshqalar yordamlashmoqdalar. Muhammad al-Jibalining so‘zlariga ko‘ra “O‘tkan kunlar”ning arab tiliga tarjimasini romanning yuz yilligi arafasida 2024-yil tayyor bo‘lishi va mintaqadagi eng yirik va nufuzli 55-xalqaro kitob yarmarkasida taqdim etilishi rejalashtirilmoqda.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, Abdulla Qodiriyning **“O‘tkan kunlar”** romani ham dunyo tillariga qayta-qayta tarjima etilib, u tarjimalar tarixini boshidan o‘tkazmoqda. Xalqning milliy-madaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan ganjina asar sifatida uni talqin va tarjima qilish, undan yangi g‘oyalar olish tarjimaning assotsiativ kontekstual bog‘liqliklarini ko‘rsatadi. Tarjimonlar qanchalik urinmasin millatga xos muqaddas qadriyatlarni adekvat tarzda aks ettirish doimo dolzarb bo‘lib qolaveradi.

IV BO'LIM

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Viktor ALIMASOV,
O'zDSMI "Madaniyatshunoslik" kafedrası professori,
falsafa fanlari doktori

TALABA YOSHLARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA MUTOALAANING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada, talaba yoshlarning kasbiy shakllanishida differensial xususiyatlar, ijtimoiy muammolar va ta'lim falsafasiga oid jihatlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim, studentlar, madaniyat, san'at, kasb, transformatsiya, differentsiatsiya, oila, mustaqil.

РОЛЬ ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ФОРМИРОВАНИИ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В статье обсуждаются дифференциальные особенности, общественные проблемы и аспекты философии образования в процессе профподготовки студенческой молодежи.

Ключевые слова: молодежи, образование, студенты, культура, искусство, профессия, трансформация, дифференциация, семья, свобода.

THE ROLE OF EDUCATION IN THE PROFESSIONAL FORMATION OF STUDENTS

Abstract. In the article discussion differensial aspect, social problems and aspects of philosophy education of young students.

Key words: young, education, students, culture, art, profession, transformation, different ion, farmily, freedom.

Talaba yoshlar, differensial xususiyatlariga muvofiq, alohida ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Maxsus tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqib, ularning differensial xususiyatlarini quyidagilarga guruhlash mumkin:

- talaba yoshlar mustaqil yashashga qadam qo'ygan;
- kasb-kor haqidagi tasavvurlarini real borliq bilan sinash imkoniga ega;
- o'zining kasbiy idealini va ichki salohiyatini realizatsiya qilishga intiladigan;
- ruhiyatida maksimalizm va optimizm ustun;
- kasbiy ideali va tasavvurlarini fluktatsion o'zgartirishga moyil;
- mobil va ijtimoiy talablarga adaptatsiyalashishga tayyor guruhdir [1;2;3].

Talaba yoshlar ota-onasining, oilasining kundalik nazoratidan, etnostereotiplar tazyiqiga nisbatan ozod bo'lgan shaxslardir. Maktab o'quvchiligida ular oilasi nazoratida edi, ota-onasi uning xatti-harakatlarini,

xulq-atvorini, darslarga qatnashini kuzatib turgan. U oilasi amal qiladigan etnostereotiplarga amal qilgan, ularni buzsa qoralanishini bilgan. Talaba o'z hayoti va turmushini mustaqil tashkil etishga majbur. Moddiy ta'minot oilasi, ota-onasi tomonidan yo'lga qo'yilgan bo'lsa ham u o'zini nisbatan mustaqil sezadi. Endi uning har qadami va xatti-harakatlarini nazorat qiladigan, goho dakki beradigan subyektlar yo'q. U o'z tasavvurlariga muvofiq yashash huquqiga ega va xatti-harakatlari uchun javobgar fuqarodir.

Talaba yoshlarda kasbiy ideali va tasavvurlarini real borliq orqali sinab ko'rish imkoniyati mavjud. Ular maktabda va oilaviy muhit ta'sirida shakllangan kasbiy ideali va tasavvurlarini OTMda sinab ko'rishda bir tomondan xursand bo'lishsa, ikkinchi tomondan, mustaqil yashash og'ir mas'uliyat ekanini ham anglashadi. OTM – kasbiy idealning sinov maydoni. Bu sinov mashaqqatli kechadi, u kasbiy idealni mutlaq o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Transformatsiyaga uchramaydigan ideal va tasavvurlar yo'q, ular mudom

ijtimoiy hayot ta'sirida bo'ladi, o'zgaradi [4.32-33-b.]. Buni talaba-respondentlarimizning javoblari ham tasdiqlaydi.

“Tanlagan o'quv yurtigiz kasbiy idealingizga mos keladimi?” – degan savolimizga birinchi bosqich talabarining 76%, ikkinchi bosqich talabalarining 61%, uchinchi bosqich talabarining 49%, to'rtinchi bosqich talabarining 22% “Ha”, deb javob beradi. Ko'rinib turibdiki, yuqori bosqichga ko'tarilgan sayin kasbiy ideallarda o'zgarish sodir bo'ladi, javob bergan respondentlarning deyarli beshdan biri OTM va kasbini to'g'ri tanlagan. Kasbiy shakllanish jarayonlarida transformatsiya yuridik (43%), iqtisodiyot va biznes (39%), adabiyot va estetika (17%) sohalar tomon ro'y bergan. 1% respondent javob bermagan. Jamiyatimizda yuridik va iqtisodiyot va biznes sohalariga qiziqish mudom ko'p bo'lgan, bu talablarga ta'sir etgan, albatta. Kasbiy ideal va tasavvurlardagi o'zgarishlar tabiiy jarayonlardir. Ijtimoiy hayot dinamikasi kishilarning subyektiv fikrlariga, qarashlariga ta'sir etmay qolmaydi. Bugun dunyoda har kuni 5 ta yangi kasb, mehnat, xizmat turi paydo bo'lmoqda. Demak, bir yilda 1 700 dan ortiq kasb-kor yuzaga keladi. Bu mehnat bozorida raqobatni avj oldiradi, yangi kasblarga moslashganlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotda o'z o'rnini topadi. Shuning uchun OTM shunchaki emas, balki mehnat bozorida o'z o'rnini topishga hozir kadrlar tayyorlashi lozim.

Kasbiy shakllanish aslida ilmiy yondashishni taqozo etadi. U: *“Ilmiyasoslangan usullaryordamida insonning u yoki bu ishni bajarishga tibbiy, ijtimoiy va psixofiziologik jihatdan yaroqliligini shakllantirish darajasi va imkoniyatlarini aniqlashdir. Kasb insonning xususiyatlari, qobiliyatlari va mayllari yig'indisidan iborat bo'lib, faoliyatning muayyan turi samaradorligini va tanlab olingan kasbdan qoniqish hosil qilish darajasini ifodalaydi”* [5.119-120-b.].

Talaba yoshlarda ular kasbiy qiziqish va maxsus bilimlar majmui sifatida keladi. Agar OTM amaliyotni mo'ljallasa, talabalarda ma'lum bir kasbiy-amaliy ko'nikmalar shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonlari professiogramma talabalariga muvofiq kelishi darkor. Professiogramma esa, ilmiy-eksperimental sinovlar mahsulidir. Ming afsuski, talaba yoshlarmiz professiogramma haqida aniq tasavvurlarga ega emas, ularning aksariyati kasbiy bilimlardagi xususiyatlarini takrorlashadi. *“Professiogramma haqidagi bilimlaringizdan mamnunmisiz?”* – degan savolimizga birinchi bosqich talabalarining 32%, ikkinchi bosqich talabarining 29%, uchinchi bosqich talabalarining 41% va to'rtinchi bosqich talabalarining 49% “Ha”, deb javob qaytaradi. Yuqori bosqichga ko'tarilgan talabalar professiogrammasi haqida zarur bilimlarga ega bo'lishadi. Biroq talabalarining yarmidan ziyodida bu bilimlar yetarli emas. Demak, birinchi bosqichdayoq professiogramma haqida maxsus darslar yoki predmet o'tilishi kerak.

Talaba yoshlar tabiatida serharakatchanlik, maksimalizm va o'z kuchiga ishonishga qurilgan

optimizm ustuvor. Psixofiziologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlar organizmi kuch sarflab rivojlanadi, jismoniy kamolga yetadi. Jismoniy yetuklik antik davrdan beri (Spartani eslang) insondagi go'zallik, komillik va ma'naviy pishqlik belgisi sanaladi. F.M.Dostoyevskiyning: *“Go'zallik olamni qutqaradi”*, – degan so'zini insonning jismoniy yetukligiga nisbatan ham qo'llash mumkin. Go'zallikni tez ilg'ash va uni, hatto, o'z imkoniyatlaridan yuqori darajada namoyon etishga intilmaydigan yosh topilmaydi. Yoshlardagi maksimalizm va optimizm ham shundandir.

Talaba-respondentlarimizning 41% o'z maksimalizmini kasbini chuqur egallashda, badiiy estetik ijodda o'z o'rnini topishda, 23% sportda biror yutuqlarga erishishda, 9% ikkinchi kasbni egallashda ko'radi. Ularning 12% esa nazariy bilimlarga qiziqishini, ushbu bilimlari bilan jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishga tayyorligini bildiradi. Bu talabalar, Internet imkoniyatlaridan foydalanishda ma'lum bir yutuqlarga erishayotganini ta'kidlaydilar. 15% respondentning javoblari mavhum, ular yoki maksimalizm nimaligini tushunishmagan, yoki o'z imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni aniq bilishmaydi. Talabalarining o'z imkoniyatlarini maksimal darajada tanlagan sohaga sarflashga (41%) intilishi ijobiy hol, albatta. Kasbiy shakllanish, ayniqsa, madaniyat va san'at sohasida shaxslar butun borlig'ini, kuch va imkoniyatlarini sarflashni taqozo etadi. Ijodkor uchun K.S.Stanislavskiy aytganidek, *“tanaffus”* yo'q. U san'at ichida yashab, hayotda o'z o'rnini topadi.

Optimizm inson orzu-umidlarini, o'y va intilishlarini behisob, zavqli, maftunkor va ulug' qiladi. Insoniyat nima yaratgan bo'lsa, undagi optimizm, kelajakka ishonch tufaylidir. Talaba yoshlardagi optimizm ularni maksimalist va serharakatchan qiladi. Shuning uchun ham insoniyat kelajakka umidini yoshlar bilan bog'laydi. Yoshlar dadilligi va jo'shqinligi bilan hayot, turmush mashaqqatlarini yengadi, ulardagi quvvat, harakatchanlik, ba'zan shoshma-shosharlik ifodasi bo'lsa-da, ijtimoiy hayot dinamikamiga muvofiqdir. Aynan yoshlar ijtimoiy hayotga dinamizm baxsh etadi, unga innovatsiyalarni joriy qiladi. Insoniyat hayotining boqiyiligi optimist yoshlar qo'lidadir.

Birinchi bosqich talaba-respondentlarimizning 54% kelajagini tanlagan kasbi va kasbiy bilimlari bilan bog'lashadi. Ularning fikricha, aynan ushbu kasb ularni elga tanitadi, jamiyat uchun zarur mutaxassis bo'lib yetishishiga yordam beradi. Ikkinchi bosqich talabalarida bu ko'rsatkich 43%, uchinchi bosqich talabalarida 41%, to'rtinchi bosqich talabarida 42%ni tashkil etadi. Xullas, talaba-respondentlarimizda o'z kasbiga optimizm yuqori darajada. Ularning 40%dan ziyodi tanlagan kasbiga nisbatan optimistik fikrda. Ha, tanlagan kasbiga nisbatan nooptimistik (pessimistik emas) fikr bildirganlar (33%) ham bor. Biroq ular ham jamiyat va davlat tomonidan madaniyat va san'at xodimiga kerakli e'tibor qaratiladi, degan umidni bildiradilar. Respondentlarimizning 13% kasbiy bilimlar berish jarayonlariga, professor-o'qituvchilarning dars berish

texnologiyasini turli e'tirozlar bildirishadi. OTMlarda ketayotgan modernizatsiyalash jarayonlarini barcha ham, ayniqsa, talaba yoshlar anglab yetgani yo'q. Videomateriallarni taqdim etish bilan dars jarayonlari modernizatsiyalash aybi, ular bir vosita, xolos. O'quv jarayonining tub mohiyatini professor-o'qituvchining bilimi, auditoriyani qiziqitira olish san'ati tashkil etadi.

Bugungi OTM tizimi etnopedagogik tajribalarni deyarli hisobga olmaydi, hisobga olganda ham tadbqiq etishi qiyin, traditsionalizm asorati sifatida tilga oladi. Bunday ta'lim, davr talablariga javob bermaydi. Prezidentimiz tomonidan tasdiqlangan (2018-yil) milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasida etnomadaniyat va etnopedagogik tajribalarga tayanish zarurligi ta'kidlangan. Bu milliy kadrlar tayyorlash tizimiga ham taalluqli ko'rsatmadir. Ming afsuski, OTM bu etnopedagogik tajribalarga emas, balki G'arbning mavhum, son-sanoqsiz tizimlarini tadbqiq etishga qaratilgani sababli, kadrlar tayyorlashda biror e'tiborli yutuqqa erisholmadi [8.2–7-b.].

Talaba yoshlarning kasbiy shakllanishi murakkab jarayon, ayniqsa, yoshlardagi maksimalizm bir tomondan, uni realizatsiya qilish imkoniyatlari yetarli emasligi, ikkinchi tomondan, qator tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy muammolarni keltirib chiqaradi. Oliy ta'lim nazariy jihatdan u yoki bu qarashlar, modellar va konsepsiyalarni taqdim etayotgan bo'lsa-da, ularning amaliyotga muvofiqligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Natijada ta'lim bilan amaliyot, kadrlar tayyorlash tizimi bilan ijtimoiy va madaniy ehtiyojlar o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga kelgan. To'rtinchi bosqich, talaba-respndentlarning ko'rsatishicha (58%) OTMdagi ta'lim real hayot talablaridan uzoqda, u hayot dinamizmiga muvofiq emas. Bu juda jiddiy e'tiroz. Shunday ekan, talabalarning kasbiy shakllanishi ilmiy muammo sifatida alohida tadqiq etilishi, bu borada eksperimentlar o'tkazilishi zarur. Aslida har bir dars eksperiment, faqat ushbu dars ilmiy tahlil qilinishi, unga muvofiq talaba yoshlarni kasbiy shakllantirishga oid samarali usullar tavsiya etilishi darkor.

Real voqelikni subyektiv fikrlar bilan chegaralab, o'lchab bo'lmaydi. Obyektiv borliq, ijtimoiy hayot

subyektiv fikrlardan keng, rang-barang. Shuning uchun talaba-respndentlarning ijtimoiy fikrini mutlaqlashtirmaslik zarur. Ular real borliqning, ijtimoiy hayotning bir qirrasini ifoda etadi, xolos. Kasbiy shakllanish jarayonlarining serqirra muammoligi, fluktatsion kechishi faqat ong, fikr, tasavvurlardan iborat emas, ular keng ijtimoiy munosabatlar ta'sirining mahsuli sifatida keladi. Masalan, davlatimiz tomonidan qabul qilingan Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish yoki mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish konsepsiyalari kasbiy shakllanish jarayonlariga bevosita ta'sir etadi. Yoki oilaviy muhit, undagi etnoan'analar, reproduktiv salomatlik haqidagi qarashlar, yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir etmay qolmaydi. Falsafa fanlari doktori R.T.Zohirovning maxsus tadqiqotlari ko'rsatadiki, oiladagi etnomuhit stereotiplar sifatida yoshlar ongiga ko'chadi va ularda hayotiy maqsadni, kim bo'lsam ekan, degan savolga javobni shakllantiradi [10.134–144-b.].

Mehnat bozori standart yondashishlarni, mutaxassislar tayyorlashda sxematizmni rad qiladi. Bugungi professiogramma ertaga to'g'ri kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham OTMlarda akademik mustaqillik, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ustuvor metodika sifatida qaralmoqda. Bir paytlari yangi davr falsafasining asoschisi F.Bekon falsafa fakulteti xususida fikr yurita turib, tabiiy va teologik fanlar pirovard natijada falsafaning sintez, umumlashtirish metodiga zarurat sezadi. **“Inson bilimlari sintezga muhtoj”**, deb yozgan edi.

Talaba yoshlarning kasbiy shakllanish jarayonlari, ularni ilmiy anglash va baholash ham falsafiy umumlashmani, hozirgi ilmiy ibora bilan aytganda, “ta'lim falsafasi”ni taqozo etadi. Ta'lim falsafasi talaba yoshlarni faqat kasb-korga emas, keng ijtimoiy hayotga tayyorlash masalasini kun tartibiga qo'yadi. Talaba-respndentlarimiz ta'kidlayotgan “nazariyani amaliyot bilan bog'lash”, integratsiya masalasi ham ushbu ta'lim falsafasi prinsiplariga muvofiqdir. Bu o'rinda gap kasbiy shakllantirish ustida emas, balki inson, uning kelajak haqidagi tasavvurlari, taraqqiyot borasidagi orzu umidlari, hayotdan mamnun yashashi haqidadir. Kasbiy shakllanish haqidagi fikrlar oxir natijada inson va uning borliqdagi o'rni masalalariga borib taqalaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кон И. Психология старшеклассников. — Москва: «Педагогика», 1987 г.
2. Маслоу А. Дальние пределы человеческой психики. — М.: АСТ, 2002 г.
3. Мид М. Культура и мир детства. — М.: «Прогресс», 1984 г.
4. Agzamxodjayeva S. Ma'naviy taraqqiyot va ijtimoiy ideal. — T.: “Falsafa va huquq”, 2007-y.
5. Mehnat va kasb sotsiologiyasi (O'quv qo'llanma). — T.: TDMI, 2008-y.
6. Психофизиологические проблемы развития человека. — Санкт-Петербург: «Питер», 2002 г.
7. Abilov O'. Optimizm. — T.: “Fan”, 1989-y.
8. Xolmuradov R. “Ta'limda yagona imtiyoz — faqatgina yaxshi bilim bo'lishi kerak”. “O'zbekistonda oliy ta'lim” jurnali, 2022-yil, 4 son. 2–7-b.
9. Бэкон Ф. Сочинения в двух томах. Том 1. — М.: «Мысль», 1978 г.
10. Zohirov R.T. Oila institutining etnogenetik va ssiyentik-falsafiy asoslari (Monogrifiya). — Qarshi: “Nasaf”, 2022-y.

BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLILIK SIFATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bugungi kunda ta'limga har tomonlama yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kasbiy kompetentligini takomillashtirish, zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini kompetensiyalarga asoslangan modulli o'qitish ta'lim muhitini shakllantirish, modulli o'qitish texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: bitiruvchi, raqobatbardoshlik, kasbiy faoliyat, kasbiy kompetensiya, ta'lim muhiti, modulli o'qitish, bilim, ko'nikma, malaka, integratsion jarayon, professionallik, san'at.

КАЧЕСТВА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ПО МУЗЫКАЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ

Аннотация. В данной научной статье сегодня на основе всестороннего подхода к образованию повышаются конкурентоспособность выпускников, повышение профессиональной компетентности будущих учителей музыкального образования, ориентированных на сферы профессиональной деятельности, формирование образовательной среды современного профессионального образования. Рассмотрено компетентностное образование, модульное обучение музыке будущего на основе широкого применения модульных технологий обучения на практике, повышение профессиональной компетентности педагогов образования.

Ключевые слова: выпускник, конкурентоспособность, профессиональная деятельность, профессиональная компетентность, образовательная среда, модульное обучение, знания, умения, компетентность, интегрированный процесс, профессионализм, искусство.

THE QUALITY OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF MUSIC EDUCATION TEACHERS IN FUTURE

Abstract. In this scientific article, today, on the basis of a comprehensive approach to education, the competitiveness of graduates increases, the professional competence of future teachers of music education focused on the fields of professional activity, the formation of the educational environment of modern professional education. Competence-based education, modular music education of the future based on the widespread use of modular learning technologies in practice, improving the professional competence of teachers of education are considered.

Key words: graduate, competitiveness, professional activity, professional competence, educational environment, modular training, knowledge, skills, competence, integrated process, professionalism, art.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori[1], "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohaları va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori[2] hamda muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi Oliy ta'lim muassasalari oldiga qator muhim vazifalarni qo'yadi va pedagogik kadrlar tayyorlash masalasiga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda jahonda ta'limga har tomonlama yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta'lim jarayonini loyihalashtirishning zamonaviy

metodik ta'minotini yaratish, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida kasbiy faoliyat sohalariga yo'naltirilgan kasbiy kompetentligini takomillashtirish, shuningdek, oliy ta'limning ta'lim sifatini ta'minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Shu ma'noda ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini kompetensiyalarga asoslangan modulli o'qitish ta'lim muhitini shakllantirish, modulli o'qitish texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Musiqa ta'limi o'qituvchisidan bilim tizimiga qo'shimcha ravishda nutq harakatlarida shaxsiy fikr bildirishni, umumiy ijtimoiy g'oyani – san'at va madaniyatlar muloqotini amalga oshirishga hissa qo'shadigan musiqiy cholg'u asbobi ijrochiligiga ega bo'lishni talab qiladi [3.17-b.].

Bugungi kunga kelib, oliy pedagogik ta'lim tizimida modulli o'qitish texnologiyalariga asoslangan ta'lim jarayonini loyihalash bilan an'anaviy o'qitish tizimi orasida bir qator farqlarning mavjudligi aniqlangan. Modulli o'qitish texnologiyalariga asoslangan ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish maqsadi qo'yilib, bilim, ko'nikma, malakalar hosil qilish esa shu maqsadga erishish yo'lida vosita sifatida xizmat qiladi, professor-o'qituvchilar talabalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan faoliyat yo'nalishini belgilaydilar va mazkur jarayonga rahbarlik qiladilar, bo'lajak o'qituvchilar esa professor-o'qituvchilar bilan o'zaro tenglik asosida modulli o'qitish texnologiyalariga asoslangan o'quv-biluv faoliyatiga kirishadilar [4.32-b.].

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyati ijtimoiy va ta'lim funksiyalarining murakkabligi tufayli yangi mazmun bilan to'ldirilmoqda. Bugungi kunda tor doiradagi yangi mutaxassis emas, balki malakali, pedagogik madaniyati, boy shaxsiy va ijodiy salohiyatiga ega bo'lgan o'qituvchini sifat jihatidan yangi shakllangan musiqa ta'limi o'qituvchisini tayyorlash muammosi, ayniqsa, dolzarbdir. Uning faoliyati samaradorligini faqat yuqori darajadagi kasbiy va pedagogik mahorat bilan ta'minlash mumkin.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining raqobatbardoshligini rivojlantirish zaruriyati, bandlik bozori, olingan bilimlarining sifati, ularning harakatchanligini oshirish, musiqa pedagogik ta'lim strukturasi va mazmunini o'zgartirishni talab qiladi. Bugungi kunda musiqa ta'limiga kompyuter texnologiyalarini jadal joriy etish, turli madaniyatlar va ijod turlarining o'zaro aloqasi musiqiy-ilmiy izlanishga tayyor va kasbiy kompetentligi yuqori bo'lgan bo'lajak musiqa o'qituvchilarini, san'at va ta'limning turli sohalarida bilimlarini rivojlantirish, o'zlarining professional faoliyatida fanlararo aloqalarni o'rnatish, ayniqsa, muhim. Shu ma'noda, bugungi kunda pedagogik madaniyati va mahoratiga ega bo'lgan bo'lajak musiqa o'qituvchilariga talab katta [5].

Zamonaviy jamiyatda, oliy ta'lim inson faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy, yetakchi omili sifatida qabul qilindi. Bunday e'tiborning sababi, zamonaviy jamiyatning eng muhim qiymati va asosiy kapitali yangi bilimlarni qidirish va o'zlashtirishga, nostandart qarorlar qabul qilishga qodir mutaxassisni tayyorlash ekanligini tushunishdir. Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo'nalishi o'qituvchini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir.

Umumta'lim maktabida o'qituvchi faoliyatining murakkabligi va ko'p qirraliligi uning kompetentlik darajasiga, tanlagan kasbida shakllangan chuqur bilim va ko'nikmalariga alohida talablar qo'yadi. Bitiruvchining kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorligi kasbiy kompetensiyani shakllantirish uchun asosdir.

Musiqa ta'limi o'qituvchisi kasbiy kompetentligining mohiyati shundaki, hozirgi paytda oliy ma'lumotli

mutaxassislar haqida gap ketganda, "kompetensiya" va "professionallik" tushunchalari keng qo'llaniladi. Shundan kelib chiqib, kompetensiya bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, professional barkamol shaxs, fikrlar va mulohazalarni bildirishga imkon beradigan va muayyan ko'p qirrali layoqatidan foydalanish bilan keng doiradagi vakolatlar kaliti, degan xulosaga kelindi. Maktabda musiqani o'qitish jarayoni o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklaydi. Uning rahbarligi ostida o'quvchi nafaqat musiqa san'atining asoslarini biladi, balki o'z aql-idrokini rivojlantiradi, tashqi fikrlash qobiliyatini egallaydi. Talabada hayotga ijodiy munosabat shakllanadi, kelajakda u o'zi tanlagan har qanday kasbda muvaffaqiyatli ishlashga yordam beradi. Musiqa ta'limi o'qituvchisining ijodiy individualligini shakllantirish, yuqori musiqa va pedagogik ma'lumotlarning dolzarb vazifasidir.

Musiqa ta'limi o'qituvchisi faoliyati qaysidir ma'noda ijodiydir, chunki musiqa san'atining tabiati o'qituvchining ijodi uchun katta imkoniyatlar ochib beradi. Pedagogik faoliyatning murakkab tabiati, ijtimoiy-pedagogik vazifalarning sifat jihatidan murakkablashishi mutlaqo boshqacha tafakkur turidagi musiqa ta'limi o'qituvchisini, yuqori darajada rivojlangan kasbiy muhim fazilatlar bilan uyg'unlashgan keng bilim, ko'nikmalarini talab qilishi natijasida musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy va pedagogik tayyorgarligining asosini tashkil etadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisining kasbiy muammolarni hal qilishga yuqori darajada tayyor bo'lishining zaruriy sharti uning musiqiy va pedagogik mahoratini shakllantirish va kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishdir. O'z navbatida, kasbiy va pedagogik kompetensiya faqat evristik va ijodiy faoliyat sharoitida shakllanadi.

San'at – o'z mohiyati va ijtimoiy mazmuniga ko'ra har qanday milliy madaniyatning uzviy qismi sifatida muayyan davlat, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti darajasini belgilovchi eng muhim va ustuvor mezonlardan biridir [6]. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirish nazariyasi va amaliyotini o'rganishda quyidagi ziddiyatlar aniqlandi:

- *kasbiy faoliyatni barkamol amalga oshira oladigan mutaxassisni tayyorlashga bo'lgan talab va kasbiy kompetentlikni takomillashtirish uchun pedagogik sharoitlarning nazariy va amaliy rivojlanishi yetarli emasligi;*

- *bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisini o'qitishda musiqa fanlarini o'qitishning zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash uchun integratsiyalashgan o'quv tizimini yaratish zaruriyati.*

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligini takomillashtirishning maqsadi uni o'zini ifoda etishga va o'zini namoyon qilishga intiluvchi kasbiy va ijodiy faoliyatga tayyorlash bo'lib, uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- *o'qituvchining musiqiy va pedagogik faoliyati asosini tashkil etadigan bilimlar tizimini o'zlashtirish va yangilash;*

- *pedagogik faoliyatga asoslangan musiqiy va pedagogik mahoratni shakllantirish va rivojlantirish;*
- *shaxs-faoliyat yondashuvi asosida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisi shaxsining kasbiy va pedagogik fazilatlarini to'plamini shakllantirish.*

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashni sifat jihatidan yaxshilash vazifasi musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari faoliyatining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish muammosini hal qilishni belgilaydi. Ushbu kasbiy kompetensiyalarning tabiati va xususiyatlari kelajakdagi kasbga tayyorgarlik ko'rishda yetakchi bo'g'in vazifasini o'tab, talabalar faoliyatining o'zaro bog'liq motivlari tizimi bilan belgilanadi.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentligi uning o'zi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya musiqiy bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi musiqiy bilimlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

№	Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentlik sifatleri	Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy kompetentlik sifatleri mazmuni
1	Musiqa savodi	Bo'lajak musiqa o'qituvchisining musiqa nazariyasini mukammal egallagan bo'lishi va kasbiy-pedagogik jarayonda o'quvchilarga o'rgata olishi;
2	Vokal ijrochiligi	Ashula aytish san'atini yaxshi egallagan holda dars jarayonida vokal ijrochiligini muvaffaqiyatli qo'llash orqali o'quvchilarning ma'naviyatini oshirish;
3	Cholg'u ijrochiligi	Bo'lajak musiqa o'qituvchisining cholg'u ijrochiligi orqali kasbiy faoliyati davomida darsning mazmunini boyita olishi, o'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqitira olishi;
4	Xor ijrochiligi va dirijyorlik	Musiqa darslarida jamoa bo'lib kuylash faoliyatini tashkil etishi, ularni boshqarish malakasiga ega bo'lishi;
5	Musiqiy idrok	Musiqa asarlarini tinglab ham musiqiy, ham mazmun jihatidan idrok etish va tahlil qilishga o'rgatish;
6	Musiqa psixologiyasi	Pedagogik jarayonda sog'lom muhitni yaratish, o'quvchilarning musiqa ijodiyoti va qobiliyatini, talantini, ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish layoqatiga ega bo'lishi;
7	Musiqa pedagogikasi	Musiqa darslarini faoliyat turlari asosida pedagogik jihatdan tashkil etish;
8	Musiqiy estetik kompetentlik	Musiqa san'atining mohiyatini, voqelikka munosabatini, ijtimoiy rolini, badiiy mazmunini his etishi, g'oyaviy xarakterini his eta olishi va ulardan barkamol inson tarbiyasida foydalana olishi.


Musiqiy kompetentlik – bo'lajak musiqa o'qituvchisining o'z kasbiga oid bilim, ko'nikma va malakalarga ega ekanligi, musiqa savodi, musiqa ijrochiligi faoliyatiga oid barcha pedagogik jarayonlarni tashkil eta olish va boshqara olish layoqatining mavjudligini ifodalovchi kasbiy imkoniyatlarini anglatadi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirish – an'anaviy kurslarni zamon talablariga mos ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsion va modulli o'qitish texnologiyalari orqali takomillashtirish hamda musiqiy ixtisoslashuvni ta'minlovchi yangicha o'qitish tizimini ishlab chiqish hisobiga ta'lim jarayonini mazmunan yangilashdir. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy kompetentligini takomillashtirishda modulli o'qitish texnologiyasi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini modulli o'qitish uchun sohaga oid professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini tizimli tashkil etish, darsliklar, o'quv-qo'llanmalari, reja va dasturlar mazmunini mazkur tizim asosida shakllantirish zarurati tug'ilmoqda.

Bu jarayonda modulli tizim asosida o'qituvchining innovatsion faoliyatini tahlil qilish va baholash, kelgusidagi faoliyatning aniq maqsadini shakllantirish, uni amalga oshirish imkoniyatlarini ham beradi. Oliy ta'lim muassasasida musiqa mashg'ulotlarida o'quv jarayonining sodda va muqobil yo'nalishlarini shakllantirish, o'qitishdagi innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil etgan holda ish olib borish, musiqa ta'limiga oid o'quv fanlarining o'quv-uslubiy majmualari, keyslar to'plami va amaliy topshiriqlarni yangicha mazmunda tashkil etish bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 18-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020-yil, 27-may.
3. Олешков М.Ю. Современные образовательные технологии: учебное пособие. – Нижний Тагил: НТГСПА, 2011 г. С.144.
4. Omanqulova Sh.N. "Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini xor dirijyorligi faoliyatiga tayyorlash orqali kasbiy kompetentligini takomillashtirish". "Murabbiy mahorati" jurnali, 2020-yil, №2. 31–35-b.
5. Оманкулова Ш.Н. Формирование музыкально-исполнительной компетентности будущего учителя музыки. Materials of the X international scientific conference on February 20–21, 2020. – Prague: Vedecko vydavatel'ske centrum «Sociosfera-CZ», 2020. Pg.194.
6. Abdullaeva O. San'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muammolarining yechimi qanday bo'ladi. // <https://uza.uz/oz/society/sanat-y-nalishidagi-oliy-talim-muammolarining-echimi-anday-b-01-06-2020>.



Ibrohimjon YO'LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori, professor

KITOBNING QUDRATI

Annotatsiya. Maqolada, kitob va kitobning inson hayotida tutgan o'rne, shuningdek, mutafakkir bobolarimizning kitobga bo'lgan munosabatlari haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: kitob, kitobxon, mutolaa, kutubxona, mutafakkir, inson, hayot, manba.

СИЛА КНИГИ

Аннотация. В статье говорится о книгах и роли книг в жизни человека, а также об отношении наших мыслящих дедушек к книгам.

Ключевые слова: книга, читатель, чтение, библиотека, мыслитель, человек, жизнь, источник.

THE POWER OF A BOOK

Abstract. The article talks about books and the role of books in human life, as well as the attitude of our thinkers to books.

Key words: book, reader, reading, library, thinker, person, life, source.

Bu yil Alisher Navoiy tug'ilganiga 583-yil bo'libdi. Demak, Navoiy 583 yoshga to'ldi. Chunki u hamon tirik, yashayapti. Jismonan oramizda bo'lmasa ham, ruhan tirik. Sababi, u qoldirgan adabiy meros uni abadiyatga yetaklamogda. U ruhan biz bilan. Nega shunday? Ushbu savolga har kim har xil javob berishi tabiiydir. Menimcha, Navoiy siymosining abadiyati u qoldirgan adabiy merosida, u haqda yozilgan xotiralarda. Navoiy juda ko'plab asar yozgan. Ular kitob qilingan. Bugun ham qilinmogda. Aynan shu yozilgan asarlar Navoiy umriga umr qo'shmogda. Demak, kitob qudratli kuchga ega. U insonni, uning umrini abadiyatga muhrlaydi.

O'ylab qolaman, o'zimga savol beraman: Ahmad Farg'oniy, Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Abu Nosir Forobiy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz ham Alisher Navoiydek umrboqiyliklarining boisi ularning doimo ilm bilan mashg'ul bo'lib, yozib qoldirgan ilmiy va badiiy asarlari – kitoblari tufayli emasmikan? Albatta, shunday! Ularning barchasi ham o'z ilmiy kashfiyot va badiiy ijod mahsullarini kitob holida yozib qoldirdilar. Ushbu bebaho ilmiy meros xazinasidan ilmsevar insonlar hanuz bahramand bo'lib kelmoqdalar.

Kitob. Biz uni oftobga o'xshatamiz va **"Kitob – oftob"** deymiz. Hech o'ylab ko'rganmisiz: nega kitobni oftobga, quyoshga mengzatamiz? Oftob, quyosh o'zi nima? Tabiat uchun, hayot uchun uning qanday ahamiyati bor? Savollarni yana davom ettirish mumkin. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga murojaat qilamiz: **"QUYOSH 1** (astronomiyaga oid termin sifatida bosh harf bilan) Quyosh sistemasiga oid markaziy jism – o'zidagi termoyadroviy reaksiyalar hisobiga yorug'lik va issiqlik tarqatuvchi (chiqaruvchi) ulkan gazsimon shar shaklidagi yoritqich.

2 Shu jismdan taraluvchi nur, issiqlik.

3 *Ko'chma* nimaningdir hayot, yashash manbai, asosi hisoblanadigan, shunday deb qaraladigan narsa haqida"¹.

Ushbu ta'riflarning har biri ilmiy asosga ega tarzda ifodalangan. Bizga uning uchinchisi ma'nosi hayotiyligi bilan yana ham ma'qul bo'ldi. Demak, quyosh hayot va yashash manbai, asosi sifatida butun mavjudotning, borliqning doimiyligini ta'minlaydi. O'zingiz tasavvur qilib ko'ring: agar quyosh yo'q bo'lib qolsa nima bo'ladi? Bizningcha, borliq yo'qlikka mahkum bo'ladi, yer yuzida hayot to'xtaydi, mavjudot qirilib ketadi. Naqadar dahshatli! Ko'rinadiki, quyosh O'lohning insoniyatga bergan buyuk ne'mati ekan. Kitobchi, uni nega quyoshdek ko'ryapmiz?

Kitobga berilgan ta'rifni keltiramiz: **"KITOB – axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik**

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli. 5-j. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008-y. 364-365-b.

qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targʻiboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga koʻra, hajmi 48 sahifadan kam boʻlmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, Kitob deyish qabul qilingan”². Albatta, kitob borasida keltirilgan ushbu ifoda kitobga berilgan ilmiy taʼrifdir. Ikkinchi taʼrifni keltiramiz: **“KITOB – 1) bilim, maʼnaviyat va maʼrifat manbai; 2) insonni ulugʻlaydigan, unda maʼnaviyat va maʼrifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil qilib tarbiyalaydigan kuch, u dunyo va bu dunyoni tanitish manbai. Biz oʻzligimizni, dunyoni, olam va odam munosabatini kitob orqali bilib olamiz”**³.

Kitobga berilgan ushbu izohlar har bir manbada maqsadga koʻra sharhlangan va oʻz oʻrni uchun maʼquldir. Biz aytmoqchi boʻlgan fikrlarga koʻproq ikkinchi izoh uygʻun keladi. Yaʼni biz bu dunyoni, oʻzligimizni, olam va odamlar oʻrtasidagi munosabatlarni, aytilganidek, kitob orqali tasavvur qilamiz. Kitobsiz hayot johillikka yetaklaydi. Insonni ulugʻlaydigan, komillik sari yoʻllantiradigan, uni tarbiyalaydigan kuch – kitobdir. Quyosh hayot uchun, mavjudot uchun qanchalik zarur boʻlsa, kitob inson hayoti uchun, oʻz maqsadlariga erisha olishi, yuksalishi, hayotni tanishi uchun shunchalik zarurdir. Kitobsiz hayot zulmatdir. Kitob insonning doimiy hamrohi boʻlib kelgan. Kitob oʻqisangiz u bilan birga yashaysiz, hayotni oʻrganasiz, muallif yoʻl qoʻygan xato va kamchiliklarni qaytarmaslik choralari koʻrasiz. Odamlarni u orqali yana ham yaxshi taniysiz. Aslida, kitobga hammamiz muhtojmiz. Kitob bilan bogʻliq hikmatli soʻzlarni keltirsam: **Kitobi yoʻq olim – mevasiz daraxt. Kitobdan emas, kitobsizlikdan qoʻrqing. Kitob – boylik. Lekin sotib olingani emas, oʻqilgani. Kitob – yolgʻizlik ummonida choʻkib ketayotgan odam uchun qutqaruv belbogʻi**. Kitob haqidagi bunday taʼriflarni uzoq keltirish mumkin.

Soʻzimizning boshida bejiz ulugʻ mutafakkir bobolarimiz haqida soʻz yuritmadik. Ularning har biri oʻzlaridan juda katta ilmiy va badiiy meros qoldirgan. Ular oʻz kitoblarini yozish uchun koʻplab kitoblarni mutolaa qilishgani tarixdan yaxshi maʼlum. Birgina Ibn Sino haqidagi hikoyani yodga olaylik. Ibn Sinoning oʻzi bu haqda shunday eslaydi: *“Kunlardan bir kuni Amir qattiq betob boʻlib qoldi va shifokorlar uning kasalini aniqlay olishmadi. Mening ismim ularga tanish edi va ular Amirga men haqimda gapirib, meni chaqirishlarini iltimos qilishdi. Men chaqirilgan joyga borib, ular bilan birga xizmat qildim”*. Buxoro amirining kasali va Ibn Sino uni nima bilan davolaganligi haqida maʼlumot yoʻq, biroq

muolaja shunchalik yordam berdiki, Buxoroning yorqin amiri Nuh ibn Mansur yana bir yil taxtni boshqargan. Minnatdorchilik evaziga Ibn Sino saroy kutubxonasidan foydalanish ruxsatiga ega boʻlgan. Buxoro kutubxonasi – oʻz davrining eng yirik va eng mashhur kitoblar ombori hisoblangan. Ibn Sinoning oʻzi Buxoro kutubxonasida ishlagan davrini ijodiy rivojining eng muhim bosqichi, deb hisoblaydi. Shu vaqtdan eʼtiboran uning taʼlimi yakunlanib, mustaqil hayot yoʻli bosqichi boshlanadi. Ibn Sino mazkur kutubxonadan bir necha yillar davomida foydalangan. Ehtimol, oʻz ichiga barcha alomatlari bilan kasallik nomlari koʻrsatilgan, shuningdek, kasallikning kelib chiqish sabablari va davosi kabilarni oʻzida jamlagan umumlashma tibbiyot asarini yaratish gʻoyasi unda Buxoro kutubxonasida ishlagan yillari uygʻongan. Aynan shu maqsad uchun Ibn Sino turli qoʻlyozmalardan parchalar koʻchirib olgan va ularni umumlashtirgan. Shunday qilib, Ibn Sinoning eng muhim asari *“Tib qonunlari” uchun materiallar tayyorlangan va bu ish ustida u koʻp yillar ishlagan*⁴.

Har bir buyuk mutafakkirning hayoti bilan qiziqsangiz, albatta, ularning yetuk bilim sohiblari boʻlib yetishishlarida kitobning oʻrni muhim boʻlganligini koʻrasiz. Bu borada soʻz mulkingning sultoni Mir Alisher Navoiy haqida gapirmasdan oʻtish nojoizdir. Sevimli adibimiz Pirimqul Qodirov yozadi: *“Alisherbekni besh yoshga toʻlar-toʻlmas maktabga beradilar. “Lison ut-tayr” asarida u oʻzining maktabda oʻqigan yillarini eslar ekan, shayx Saʼdiyning nasrda yozgan “Guliston” va “Boʻston”ini oʻqiganini, nazmda esa Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga alohida eʼtiqod qilganini koʻrsatib oʻtadi. ... Bir necha ming misrali dostonni oʻn yoshida fors tilida yod olganligi – Alisher Navoiyning zehni naqadar oʻtkir, xotirasi qanchalik kuchli boʻlganidan dalolat beradi”*⁵.

Navoiyning bolaligiga oid bu voqealarni barchamiz yaxshi bilamiz. Aytmoqchimizki, Alisherning buyuk Navoiy boʻlib yetishishida kitobning oʻrni beqiyos boʻlgan. *“Fariddin Attordan olgan tasavvuf saboqlari bir umr Alisher Navoiyning yodidan chiqmaydi. Fariddin Attor Navoiydan toʻrt asr oldin Xurosonning Nishopur shahrida tugʻilgan edi. Undan 120 ming misra sheʼr va koʻpgina asarlar meros qoladi. Fariddin Attor 1229-yilda Chingizxon boshlab kelgan moʻgʻul bosqinchilari qoʻlida fojiona halok boʻladi. Navoiy yashagan davrda uning maqbarasi xarobaga aylangan edi. Alisher Navoiy Shayx Attor sagʻanasini yangidan tiklab, salobatli bir maqbara qurdiradi. Davlatshoh Samarqandiyning guvohlik berishicha, bu maqbara Nishopurning ulugʻ ziyoratgohiga aylanadi”*⁶.

Tarixiy dalillardan koʻrinib turibdiki, yosh Alisherning kelajakda buyuk mutafakkir boʻlib kamol topishining boisi uning bolaligidan eʼtiboran kitob bilan oshno boʻlganligidadir, deb xulosa qilish mumkin. Boshqacha boʻlishi ham mumkin emas. Navoiy butun umri davomida kitobni oʻziga haqiqiy doʻst, yoʻldosh tutdi. Natijada jahon ahli hanuz uni yodida saqlaydi, unga ehtirom koʻrsatadi, eʼzozlaydi,

¹ Oʻzbek tilining izohli lugʻati. Besh jildli. 5-j. – Toshkent:

“Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2008-y. 364-365-b.

² Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – T.: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2002-y. 616-b.

³ Maʼnaviyat: asosiy tushunchalar izohli lugʻati. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010-y. 247-b.

⁴ <https://arboblar.uz/uzkr/people/abu-ali-ibn-sina>

⁵ Qodirov P. Til va el. – T.: “Maʼnaviyat”, 2010-y. 100-b.

⁶ Qodirov P. Til va el. – T.: “Maʼnaviyat”, 2010-y. 101-b.

ulug'laydi, nomini abadiylashtirishga harakat qiladi, asarlarini qayta-qayta chop etadi, undan namuna oladi, farzandlariga o'rnak qilib ko'rsatadi. Navoiy bilan bir davrda yashagan, hamnafas bo'lgan ijodkorlar u haqda go'zal asarlar yozib qoldirishgan. Xususan, buyuk tarixchi Mirxondning nevarasi Xondamir umrining asosiy davrlarini Alisher Navoiy hamda Boburiylar davrasida o'tkazgan. Demak, Xondamir har ikki buyuk insonning hayoti va ijodini bevosita shohidi bo'lgan. Xondamir yozib qoldirgan meros ulug' ajdodlarimiz tarixini o'rganishda juda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shu bois Alisher Navoiy hayoti va ijodiga befarq bo'lmagan har bir inson **“Makorim ul-axloq”**ni o'qib chiqishi katta naf keltirishiga ishonamiz.

Xondamir Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida kitobdorlik vazifasida xizmat qiladi. Navoiy unga yaxshigina maosh tayin qiladi. Xondamir Navoiyning butun umrini xalq dardi bilan yashashga baxshida etganligini, o'z xalqi uchun qilgan xizmatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rib ulg'ayadi. Saxovatpeshalik, insonparvarlik, bag'rikenglik borasida Navoiy olib borgan muborak ishlardan bag'oyat hayratga tushadi va bunday ulug' inson haqida biror asar yozmaslikni o'ziga ayb, deb biladi. Natijada ushbu **“Makorim ul-axloq”** yaratiladi. Bu haqda Xondamir shunday deydi: *“Bu omadli va saodatli Amirning fazilatlar, oliyjanob xulqlari va chiroyli odoblaridan bir qisminigina hikoya qiladigan bir necha bob yozilsa va unda uning ajoyib siyratlari, maqtovg'a sazovor xulq-atvorlari, boshqalarda kam uchraydigan holatlari va kayfiyatlari, qiziq va g'aroyib ishlari, sehrli iste'dodi xususiyatlari va nozik iboralarni qog'ozga tushiradigan qalami hosilalari sharhlansa, [qilingan] yaxshiliklarni bilish, qadrlash va uning haqqini ado etish kabi vojib amallarning bir daqiqasini bo'lsa-da, bajara olgan hamda to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi oliy hazrat tomonidan berilgan ne'matlarga shukr qilishning ozgina bo'lsa-da, uddasidan chiqa olgan bo'larding. Zero, bu ish qiyomatga qadar bo'lgan davrda va qiyomat chog'ida ham ul hazratning maqtovg'a sazovor amallari va ma'qul ishlari to'g'risida eslatmalar zamona kitoblari hamda davron varaqlarida mangu qolishiga sabab bo'ladi.*

Misra:

Yaxshi nomni ikkinchi umr demish ulug'lar.

Shundan kelib chiqqan holda, san'at ulug'ligi osmoni quyoshiga sano o'qishdan boshqa hunarim bo'lmagan men banda

Bayt:

Maqtashdan boshqa biror hunarim yo'q,

Duodan boshqa biror yaxshi narsa topolmadim.

Ko'nglimdagilarni yozishga kirishdim va yozganlarimni muqaddima, o'n maqsad va xotima shaklida tartib berib, uni **“Makorim ul-axloq”** deb nomladim⁷.

Xondamir bevosita Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab yana **“Xulosat ul-axbor”** hamda **“Habib**

us-siyar” asarlarini yozib qoldirdi va ular Alisher Navoiy haqida bitilgan haqiqiy tarixiy asarlar sifatida bebaho manbalardir. Demak, Navoiydek insonning buyuk qalb egasi, saxovatpeshalikda benazir, shoirlarning sultoni bo'lishida kitob bosh omillardan biri bo'lgan.

Ushbu satrlarni yozayotib, xayolimdan: bugun bolalar o'rtasidagi kitobxonlik masalasi qay ahvolda? Yoshlarimizning kitob mutolaasiga munosabatlari qanday? Umuman, bugun ham yoshlar tarbiyasida kitobning o'rni bormi? Bugun biz kitob bilan qanday muomalada bo'lyapmiz? – degan savollar o'tdi. Javoblar turlicha. Kimdir bugungi avlodning kitob o'qimay qo'yg'angligidan qattiq yozg'irsa, kimdir zamondan noliydi. To'g'ri, bugun kurrai zaminimizda yoshlarning kitobga bo'lgan oshnoligi, mutolaa darajasi qaysidir ma'noda pasaygan bo'lishi ham mumkin. Lekin o'z kelajagiga beparvo bo'lmagan yoshlar hanuz kitob bilan oshno bo'lmoqdalar. Buning isbotini men Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga borganimda doimo kuzataman: har doim kutubxona kitobxonlar bilan gavjum, o'rindiqlarda joy qolmaganidan yerga o'tirib olib kitob o'qiyotgan yoshlarni ko'p kuzataman. Mazkur kutubxonada har kim uchun zarur bo'lgan kitobning barchasi muhayyo. Kitobxonlar uchun barcha sharoitlar yaratib berilganini ko'rib, ko'nglingiz yayraydi.

Kitobxonlarga kitob o'qishlari uchun sharoitlar yaratib berish borasida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Axborot-resurs markazida olib borilayotgan ishlarni ham yaqqol misol qilish mumkin. Ushbu muassasada oxirgi besh yilda ARMning uchta filiali tashkil etildi. Institut hududidagi ikkita Talabalar turar joyining har birida alohida-alohida ARM filiallari faoliyati yo'lga qo'yildi. Kitoblar talabalarning turar joydagi xonalariga yaqin joyga olib kelindi. Kutubxonaning o'zida ham kitob o'qish mumkin, kerak bo'lsa, talaba o'z xonasiga olib ketishi uchun ham imkoniyatlar yaratildi. Buning uchun zaruriy imkoniyatlar yaratildi. Kutubxonachilar Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti talabalari safidan tanlab olindi. Ular ham ayni shu TTJda yashaydi. Shuningdek, institutning “S” binosida Kutubxona-axborot faoliyati hamda Xalq ijodiyoti fakultetlari talabalari uchun maxsus o'quv adabiyotlari bilan ta'minlangan filial barpo etildi. Qolaversa, ARMning markaziy binosida kitob o'qish uchun kelgan har bir kitobxonga bepul kahva siylovi tashkil etildiki, bu ham kitobxonlar qatnovini keskin oshishiga turtki bo'ldi.

Alisher Navoiy asarlarini o'qiyotgan talabalar uchun institut hovlisida zamonaviy yangi velosipedlarda sayohat qilish imkoniyati ham yaratildi. Bu yaratilgan imkoniyatlar talabalarni kitob bilan yanada yaqinlashishlariga olib keldi. Maqsad – talabalar o'rtasida kitobxonlik darajasini yanada kuchaytirish, ularning sifatli bilim olishlariga imkoniyatlar yaratish, bu bilan esa, yurtimizda davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessansga poydevor qo'yilayotgan bugungi kunda davrga monand bilimli kadrlarni tayyorlash. Zero, respublikamizda buning uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda.

⁷ G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul-axloq. – T.: G'ulom nomidagi NMIU, 2015-y. 8–10.

O'ZBEKISTONDA KUTUBXONACHI BIBLIOGRAF MUTAXASSISLIGINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAQIDA

Annotatsiya. Maqolada, O'zbekistonda kutubxonachi bibliograf mutaxassislarini tayyorlash oliy ta'limda shakllangan va rivojlanish bosqichiga ega bo'lgan mutaxassislik kafedralarining faoliyati o'rganilgan bo'lib, rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarning faoliyati keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kutubxona, bibliografiya, kitobshunoslik, fakultet, mutaxassis, kitob, nashr.

СТОНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ БИБЛИОТЕКАРЕЙ И БИБЛИОГРАФОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье изучается формирование кадрами и деятельность специализирующихся кафедр по подготовке кадров по библиотечному делу и библиографии в Узбекистане.

Ключевые слова: библиотека, библиография, библиография, факультет, специалист, книга, издание.

ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT OF TRAINING PERSONNEL LIBRARIES AND BIBLIOGRAPHERS IN UZBEKISTAN

Abstract. The article examines the activities of specialized departments that formed and developed the training of specialist librarians and bibliographers in Uzbekistan, and the activities of scientists who contributed to its development are widely disclosed.

Key words: library, bibliography, bibliography, faculty, specialist, book, publishing house.

Respublikamizda mutaxassislarni yuqori malakali axborot tizimini shakllantira oladigan yangi mutaxassislarni kutubxonachi-bibliograf kadrlar tayyorlash 1960-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutida mutaxassislarni tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Undan oldin Qo'qon pedagogika institutida bu mutaxassislik bo'yicha talabalarni o'qishga qabul qilish boshlanganligi ko'rsatgan nashrlar mavjud bo'lib, ularda mutaxassislarni tayyorlash shu institut faoliyati bilan bog'lanadi. Bizni maqsadimiz shu mutaxassislik bo'yicha faoliyat yuritgan kafedralarning Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutidagi shakllanishini boshlagan va 1974-yilda Toshkent davlat madaniyat institutida rivojlanishni davom ettirgan mutaxassislik kafedralari va unda faoliyat ko'rsatgan professor-o'qituvchilarning faoliyatini institutlarning "Kutubxonashunoslik" va "Bibliografiya" kafedralari faoliyati orqali tahlil qilish maqsad qilingan.

Agar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutidagi shu ikkita mutaxassislik kafedra faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1974–2012-yillarda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutidagi shu yo'nalish fakultetida "Kutubxonashunoslik", "Bibliografiya" kafedralari yoniga "Kutubxona fondlari va kutubxona kataloglari", "Bolalar adabiyoti va bolalar kutubxonalari" kabi yangi kafedralar qo'shilgan. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida tashkil etilgan mutaxassislik kafedrasiga sobiq ittifoqning markaziy shaharlaridagi oliy ta'lim muassasalarini bitirib kelaganlar ishga taklif qilingan. Ulardan mahalliy guruhlariga dars berishga Osiyo G'ofurovna Qosimova, Malika Sulaymonona Ulanova,

Muhtabar Rashidovna Rashidova taklif qiligan bo'lib, shuningdek, rus tilidagi ta'lim uchun t.f.d.professor G.N.Chabrov, N.V.Yaxnotova, M.I.Vittenson, Z.A.Nikolayev, Y.K.Vasileva, Chebotarevalar ishga taklif qilinganlar.

Ularning ichidan Osiyo G'ofurovna Qosimova 1975-yilda kutubxonachilik ishi tarixi bo'yicha nomzodlik va 1982-yilda doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shuning uchun ham Osiyo G'ofurovna Qosimova kutubxona ishi sohaning yetuk mutaxassislaridan biri darajasiga erisha olgan insonlardan biri deb tan olingan bo'lib, soha bo'yicha yagona fan doktori darjasini olgan olima hisoblanadi.

Osiyo G'ofurovna Qosimova o'tgan asrning 60-yillari o'rtalaridan "Kutubxonashunoslik" kafedrasiga mudir etib tayinlangan bo'lib, kafedraga 25 yildan ortiq davrda mudirlik qilgan. Kafedrada uning yonida t.f.n. dotsent A.I.Kormilitsin, p.f.n. dotsent I.M.Troitskaya, katta o'qituvchilar T.Yesimov, T.Shokirov, A.P.Kovalenkolar ishlaganlar ularning ham mutaxassislik fanlarida ko'plab qo'llanmalari yaratilgan. Keyinchalik kafedraga Leningrad madaniyat institutida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilib kelgan M.Rasulov ishga qabul qilingan, shuningdek, Moskava davlat madaniyat instituti aspiranturasining bitiruvchisi M.X.Mahmudov ham kafedraga ishga qabul qilindi. Osiyo G'ofurovna Qosimovadan keyin ushbu kafedraga shu olimlar boshchilik qildi. Kafedra xodimlari tomonidan O'zbekistonda kutubxonashunoslikni rivojlanishining umumiy xarakteristikasi T.B.Yesimovning "O'zbekistonda kutubxonashunoslik fanining shakllanishi va taraqqiyoti" risolasida (Toshkent-1994) va

A.G.Qosimova va T.B.Yesimovning “Umumiy kutubxonashunoslik” (Toshkent-1994) o’quv qo’llanmasida aks etgan. O’quv qo’llanma K.I.Abramova va N.S.Kartashovlarning “Библиотековедение. Общий курс” (Москва-1988 г.) asosida yaratilgan.

Bundan tashqari A.I.Kormilitsin, M.M.Rasulov, S.X.Davlatovlarning “Kutubxonashunoslik ishining nazariyasivatarixi” (Toshkent-2003) E.O.Oxunjanovning “Vatan kutubxonachiligi tarixi” (Toshkent-2004) asarlarida O’zbekistonda kutubxonashunoslik ishini tarixi masalalariga to’xtalib o’tilgan.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutida mutaxassislik bo’yicha ikkinchi kafedrani “Bibliografiya” kafedrasini ham alohida tashkil qilingan bo’lib, unga t.f.d. professor G.N.Chabrov rahbar qilib tayinlangan. Bu kafedraga shu institutning bitiruvchilari Sh.M.Shamsiyev, M.M.Turapov kabi yosh mutaxassislar ishga olib qolingan. G.N.Chabrov kitob tarixi, san’at tarixi, bibliografiya ishi va nazariyasini o’rgangan olimlardan biri bo’lib, 1974-yilga qadar, ya’ni bu mutaxassislik Toshkent davlat madaniyat institutiga o’tkazilgan davrgacha kafedraga mudirlik qildi.

1974-yilda “Bibliografiya” kafedrasiga mudiri qilib f.f.d.professor A.Z.Vulis tayinlandi. Bu olim kafedrani boshqarish davrida yoshlarning kafedraga ishga qolishiga katta ahamiyat berib, ularning kelajakda ilmiy ish qilishlariga katta ahamiyat bergan. Bunday e’tibor natijasida, Sh.M.Shamsiyev Moskva Davlat madaniyat instituti aspiranturasini tugatib, “Inqilobdan oldingi Rossiya vaqtli matbuoti bibliografiyasining manbashunoslik va funksional tahlili (1702–1917-y.)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo’lib, pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olgan bo’lsa, 1984-yil dotsent unvonini olgan.

Musa Mamatovich Turapov Leningrad davlat madaniyat instituti aspiranturasini tugatib, 1974-yilda “O’zbekiston haqida bibliografiya 1852–1970-yillar” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. F.f.d. professor A.Z.Vulis “Bibliografiya” kafedrasiga rahbarlik qilgan davrida 1982-yilda A.V.Nosirova “Adaptatsiya qilingan adabiyotlar bibliografiyasi” mavzusida; 1983-yilda P.Shumanova “Respublikashunoslik bibliografiyasi: tashkiliy-metodologik masalalari” mavzusida; O.G.Shabalina “Bolalar adabiyoti bibliografiyasi” mavzusida; M.K.Mirzaaxmedova “O’zbek tarjima adabiyoti: nashr qilinishi va bibliografiyalanishi” mavzusida; 1986-yilda M.I.Vitenson “O’zbekistonda yig’ma kataloglarning tashkil qilinishi” mavzusida; 1987-yilda I.V.Dolgoplova “O’zbekistonda tarjimonlik ishi va tarjima adabiyotlari tarixi” mavzusida; X.Mamatramova “O’lkashunoslik SBA mahalliy bibliografik resurslarning tarkibiy qismi sifatida” mavzusida; 1990-yilda T.D.Boyto’rayev “O’zbekistondatarixiy-o’lkashunoslikadabiyotlarining nashr qilinishi va bibliografiyalanishi” mavzusida; G’A.Narzullayev “O’zbekistonda vaqtli nashrlarni bibliografiyalash muammolari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilganlar.

Shuningdek, institutda “Kutubxona fondlari va kataloglari” va “Bolalar adabiyoti va bolalar kutubxonasi” kafedralari ham faoliyat olib borgan bo’lib, bu kafedralarning professor-o’qituvchilari tomonidan bir qator monografiyalar, darsliklar va o’quv qo’llanmalar, masalan, “Maktab kutubxonasi ishini tashkil etish”, “Maktab-litsey kutubxonasi ishini tashkil etish”, “Akademik-litsey, kasb-hunar kollejlari uchun” monografiyalari nashr etilgan. “Kutubxona fondlarini tashkil etish”, “Kutubxonada bolalar o’qishiga rahbarlik qilish”, “Hujjatlar fondini” va boshqalar proffesor E.Yo’ldosheva, “Ilmiy kutubxonalar tarixi” (monografiya), M.M.Turapova, darsliklar: “Kutubxona fondlari”, “Hujjat fondlari” (E.Yo’ldoshev bilan hammualliflikda) M.A.Rahimova, 2003-yilda bo’lim xodimlari (E.Y.Yo’ldoshev, I.I.Kattaxo’jayeva, M.R.Zohidova, M.T.A.Nigmatovalar) tomonidan ommaviy kutubxonalar uchun “O’zbekiston Respublikasi kutubxona-bibliografik tasnifi” jadvallari o’zbek tilida nashr etish ishlari amalga oshirildi va boshqalar), keyin esa maktab kutubxonalari uchun KBK jadvallari, lotin yozuvidagi mualliflik jadvallari, 2003-yilda I.V.Dolgoplova, Sh.M.Shamsiyevning “O’rta asrlarda bibliografiya tarixi (matbaa ixtiro qilingangacha)”, 2008-yilda X.Mamatramovaning “Bibliografiya tarixi”, 2009-yilda I.V.Dolgoplova “Axborot-kutubxona muassasalarining bibliografik faoliyatini boshqarish” kabi o’quv adabiyotlarini nashrdan chiqarganlar.

Hozirgi kunda kafedra O’zDSMI qoshidagi 2019-o’quv yilidan boshlab “Kutubxona-axborot faoliyati” fakultetida ish olib bormoqda. Kafedra mudiri vazifasida 2020-yil noyabr oyidan pedagogika fanlari nozodi, dotsent T.D.Bayturayev ishlab kelmoqda. Kafedrada, shuningdek, sohaning yirik mutaxassislaridan pedagogika fanlari nozodi, dotsent M.X.Mahmudov uning tomonidan “Kutubxona axborot faoliyatini boshqarish” bo’yicha darsligi va “Kutubxona axborot faoliyatini marketingi” fani bo’yicha o’quv qo’llanmasi nashrdan chiqqan. Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent vazifasini bajaruvchi G.A.Narzullayev va qator mutaxassislar bilan hamkorlikdan “Bibliografiyashunoslik” tarixi, nazariyasi va uslubi bo’yicha darsligi, o’qituvchi L.N.Muminxo’jayevaning “Kutubxona fondlari va kutubxona kataloglari” o’quv qo’llanmasi nashrdan chiqqan. Kafedraning o’qituvchisi M.I.Matmurodova qator mavzularda va qator olimlar faoliyatiga bag’ishlangan shaxs ko’rsatkichlari nashr qilingan. Shuningdek, institutda “Kutubxonashunoslik” kafed-rasi ham faoliyat yuritib kelmoqda unga O’Nosirov, A.N.O’rozov rahbarlik qilgan bo’lsalar, hozirgi kunda unga M.Hakimova mudirlik qilib kelmoqda.

Mutaxassislik bo’yicha institutda 2022-o’quv yilidan magistratura yo’nalishiga talabalar qabul qilish boshlangan. Hozirgi kunda magistratura yo’nalishida 9 ta talaba, 2-kursda 7 ta talaba ta’lim olmoqdalar. Intitutning shu yo’nalishini bitirgan talabalaridan 4 ta talaba magistraturani TATU shu mutaxassislik bo’yicha bitirib chiqqan. Ulardan 2 nafari institutning mutaxassislik kafedrasiga ishga qabul qilingan.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA MUTOLAA VA KITOBXONLIK MADANIYATINI TARBIYALASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada, kutubxona va bibliografik bilimlarni targ'ib qilish, o'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish uchun so'rovnomalar o'tkazish, suhbatlar uyushtirish, o'quvchilarni o'rganish, kuzatuv olib borish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: mutolaa, mutolaa madaniyati, katalog, kartoteka, bibliografik bilim, axborot madaniyati.

ЧТЕНИЕ И БИБЛИОТЕКА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ОБРАЗОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной научной статье освещены вопросы пропаганды библиотечных и библиографических знаний, проведения опросов для изучения потребностей студентов в информации, организации интервью, изучения студентов, проведения наблюдений.

Ключевые слова: чтение, культура чтения, каталог, картотека, библиографические знания, информационная культура.

READING AND LIBRARY FOR PRIMARY SCHOOL STUDENTS CULTURAL EDUCATION

Abstract. This scientific article covers the issues of promoting library and bibliographic knowledge, conducting surveys to study students' information needs, organizing interviews, studying students, and conducting observations.

Key words: reading, reading culture, catalogue, card index, bibliographic knowledge, information culture.

Maktab kutubxonasining asosiy vazifasi – o'quv dasturlarini amalga oshirishda o'qituvchilar bilan hamkorlik qilish, o'quvchilarning uy vazifalarini bajarish va mustaqil tayyorgarlik ko'rishida ularning ota-onalari bilan hamkorlik qilish, o'quvchilarda kitobga barqaror qiziqish, u bilan muloqot qilish istagi, badiiy matnni tinglash va tushunish qobiliyati, umuman, kelajakda mukammal ma'lumotli insonni tarbiyalash uchun asos, poydevor yaratadigan hamma narsaga qiziqishni ehtiyoj darajasiga ko'tarishdan iboratdir.

Bundan tashqari, o'quvchilarni kutubxona – axborot-bibliografik xizmatning barcha shakllari va usullari bilan ta'minlash, o'qituvchilar jamoasi bilan birgalikda o'quvchilarning o'qishlari uchun tavsiya etilgan kitoblar ro'yxatini tuzish, o'quvchilarning ijodiy fikrlash, ilmiy qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'quvchilarda ilmiy-ommabop adabiyotlarni o'qishga qiziqish uyg'otish, o'qituvchilarning ilmiy, uslubiy, pedagogik mahoratini oshirishga ko'maklashish ham asosiy vazifalar sirasiga kiradi.

Maktab kutubxonasida xizmat ko'rsatish, eng avvalo, kutubxona va bibliografik bilimlarni targ'ib qilishdan boshlanishi kerak. Bibliografik ish – kutubxona va bibliografik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha ish bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'lumotnoma – bibliografik apparatni saqlash:

- ☒ kataloglar;
- ☒ kartotekalar;
- ☒ tavsiya qilinadigan ro'yxatlar.

2. O'quvchilarni kutubxona va bibliografik bilimlar bilan tanishtirish:

- ☒ kutubxonadan foydalanish qoidalari bilan tanishtirish;
- ☒ fondni tartibga solish bilan tanishtirish;
- ☒ ma'lumotnoma va bibliografik apparat bilan ishlash usullari;
- ☒ kitobning tuzilishi bilan tanishtirish;
- ☒ ma'lumotnomalar bilan ishlash ko'nikmalarini o'zlashtirish va hokazo.

3. Kutubxona va bibliografik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha sinfdan tashqari ishlar va to'garaklar tashkil qilish.

Bibliografik ma'lumotlar ommaviy, guruhli, individual ma'lumot berishdan iborat bo'lib, bibliografik qidiruv bo'yicha topshiriqlar, bibliografik sharhlar, to'garaklarda targ'ibot ishlarining olib borish kabilarni o'z ichiga oladi. Axborot ishlari – kutubxona ishining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Axborot ishining mohiyati shundan iboratki, kutubxonachi muntazam ravishda o'quvchilarga kutubxona fondiga kelib tushgan yangi adabiyotlar, dolzarb mavzularga bag'ishlangan nashrlar to'g'risida ma'lumot berib boradi. O'quvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish uchun so'rovnomalar o'tkazish, suhbatlar uyushtirish, o'quvchilarni o'rganish, kuzatuv olib borish mumkin.

Zamonaviy maktab kutubxonasi mutolaa va axborot madaniyati, media savodxonlikni shakllantirish markazi hamdir. Maktab kutubxonasining kitoblar va kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha barcha ishlari o'quvchilarni imkon qadar ko'proq fondga jalb qilish,



ular ustida ishlashga o'rgatish, mavjud ma'lumotlarni an'anaviy va noan'anaviy qayta ishlashga qaratilgan tarzda tashkil etilishi kerak. Kutubxonalarda boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish asosan kitob bilan mustaqil ishlash qobiliyati, kitobga hurmat, mutolaa jarayonida diqqatni jamlash, ratsional mutolaa texnikasini bilish, fondga mavjud bo'lgan kitoblarni tez topish qobiliyati va boshqalarni rivojlantirishdan iboratdir.

Mutolaa madaniyatini tarbiyalash maktab kutubxonasining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib: kutubxonachi, o'quvchi, fan o'qituvchisi, ota-onalar hamkorligini talab qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini tarbiyalash maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar vositasida xalq donishmandligiga tayangan holda ham amalga oshiriladi. Ayniqsa, birinchi sinf o'quvchilarini kutubxonaga a'zo sifatida qabul qilish, "kutubxona bilan tanishish", mavzusida bayram shaklida o'tkazish va bunda:

- *kutubxonaga sayohat;*
- *kutubxona tushunchasi, kutubxonaga a'zo bo'lish va o'quv zali haqida ma'lumotlar;*
- *mustaqil kitob tanlay bilish;*
- *kitobga hurmat;*
- *kitob bilan ishlash qoidalari tanishtirilishi kerak.*

Kutubxonachi – foydalanuvchi va kitob, foydalanuvchi va yozuvchi o'rtasidagi vositachi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida erkin va do'stona muloqot muhitini yarata bilishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mutolaa madaniyatini shakllantirishda kutubxonachilar oldida turgan muammolardan biri bu, kitoblarga bo'lgan qiziqish va mutolaadagi qiyinchiliklarni yengish istagini kuchaytirishdir. Shuning uchun birinchi sinf

o'quvchilarini maktab kutubxonasiga a'zo sifatida qayd etishda, ular nima o'qishni xohlashlarini aniqlab olish maqsadga muvofiqdir. Bu mustaqil mutolaa uchun qaysi kitoblarni tavsiya qilishni, fan o'qituvchisi, ota-onalar, kutubxonachilarning qaysi kitoblar bilan tanishishlari lozimligini aniqlashga yordam beradi.

7-9 yoshli o'quvchilar allaqachon o'zlarining qahramonlariga ega bo'lib, kitobda tasvirlangan voqealarga ichkaridan emas, balki tashqaridan qaray oladigan bo'lganliklari uchun tasvirlangan holatni chuqurroq baholay olishlari uchun sharoit yaratish zarur bo'ladi. Chunki ularning o'qigan narsalariga munosabatini ifodalashi qiyinroq kechib, o'zlarining fikrlarini bir so'z bilan ifodalaydilar. Mutolaa munosabatining ushbu mezonni aynan yosh psixologiyasiga xos xususiyat hisoblanadi. Kutubxona xodimining boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishga ta'siri kattadir. Agar boshlang'ich sinf o'quvchisi kutubxonachidan yordam so'rab murojaat etganida uning qiyofasida mehribon, bilimli, aqlli suhbatdoshni, maslahatchini ko'rsagina kutubxonachining ta'sir o'tkazish darajasi kengayib boradi. Bunda eng muhimi boshlang'ich sinf o'quvchisining ruhiy dunyosiga kira olishdir, bu uning rivojlanish darajasiga, aqliy, hissiy, estetik va shu bilan birga uning keyingi rivojlanishiga yordam beradi.

Buning uchun maktab kutubxonasining har bir xodimi davlat ta'lim standarti, kutubxona standarti, huquqiy-meyoriy hujjatlari, ta'lim sifatini oshirish, o'z-o'zini tarbiyalash va tadqiqot faoliyati mavzularini, shuningdek, maktab kutubxonasi ishining shakllari va usullarini hisobga olgan holda turli ma'lumot va axborot manbalarini, davriy nashrlarni diqqat bilan muntazam tarzda o'rganib borishlari kerak. Maktab kutubxonalari amaliyotida mutolaaga individual va ommaviy rahbarlik

qilish usullari va shakllari qo'llaniladi. Eng katta ta'sir ushbu usullarning izchil va tizimli qo'llanilishidan kelib chiqadi. Mutolaaga rahbarlik qilishning individual usuli boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning individual xususiyatlarini, uning qiziqishlari, qobiliyatlari, sevimli mashg'ulotlarini hisobga olishni talab qiladi. Mutolaaga individual rahbarlik qilishning eng ko'p tarqalgan shakllaridan bir bu – suhbatdir.

Maktab kutubxonasining kundalik ishlarida maslahat suhbatlari, o'qilgan kitoblar to'g'risidagi suhbatlar, kitob ko'rgazmalaridagi individual maslahatlar keng tarqalgan. Suhbat davomida kutubxonachi nafaqat ma'lum bir kitobni tanlashga yordam beradi, balki kitobga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, uning idrokiga tegishli bo'lgan muhitni yaratadi. Ushbu suhbatning xarakteri o'quvchining so'rovlariga, rivojlanish darajasiga bog'liq.

Kutubxonachi, eng avvalo, o'quvchi nima o'qishni xohlayotganini bilib olishi, so'ngra ularning mazmuni bilan qisqacha tanishtirish, turli mavzulardagi kitoblarni namoyish eta bilishi kerak. Bu o'quvchilarda tanlov qilish imkoniyatini yaratadi. Maktab kutubxonasida o'quvchilarni mutolaa madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ommaviy tadbirlar ham o'tkazilib, kitoblar ko'rgazmasi, adabiyotlar sharhi, o'qilgan kitoblar to'g'risida ommaviy suhbatlar, kitoblar muhokamasi, o'quvchilar anjumanlari, turli xil o'yinlar, og'zaki jurnallar, adabiy tadbirlar singari shakllari mavjuddir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning eng samarali usullaridan biri, kutubxona darslaridir. Kutubxona darslari shaxsiy axborot madaniyati dasturining bir qismi bo'lib, saralangan badiiy adabiyotlarni o'qish, bolalarning ma'naviy dunyosi, axloqi, tafakkuri, hissiyotlari, nutqi, ijodiy yondashuvlarini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali kutubxona xodimi nafaqat muhim ma'lumotlar, axborotlar, bilimlar manbalariga yo'l ochib beradi, balki uning ruhini oziqlantiradi, o'z-o'zini anglashiga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflardagi kutubxona darslari o'quvchilarning badiiy estetik didini rivojlantirish, adabiyotga va boshqa fanlarga barqaror qiziqishni shakllantirish bilan birga quyidagi vazifalarni bajaradi:

- *ma'lumotnoma adabiyotlariga qiziqish uyg'otish;*
- *kitob bilan mustaqil ishlash, ma'lumot, axborot qidirish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish;*
- *u yoki bu matn olingan manbani ko'rsatish odatini rivojlantirish.*

Kutubxona darslari xilma-xil: bibliografik o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar, teatrlashtirilgan dars tarzida tashkil etilgandagina o'quvchilar ularni dars sifatidagina emas, balki erkin tarzda qiziqarli mashg'ulot sifatida qabul qiladilar. Masalan, yil davomida 2-4-sinf o'quvchilari uchun "Kitob do'stlari" darslarini tashkil qilish mumkin. Darslarning asosiy vazifasi maktab o'quvchilariga ta'lim va tarbiya vositasi sifatida bolalar mutolaasining hamda kitobga bo'lgan ijobiy munosabatining ahamiyatini tushunishga yordam

berish, ularning kelajak hayotiy taqdiri kafolati sifatida o'quvchilarda mutolaa madaniyatini shakllantirishdir. "Kitob do'stlari" darslarining asosiy maqsadi:

✓ *boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitob, uning yaratilishi va kelib chiqishi, tuzilishi, turli xalqlar madaniyatidagi o'rni to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish;*

✓ *qiziquvchanlik va ijodkorlikni rivojlantirish;*

✓ *kitob bilan ishlash, undagi ma'lumotlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish va mustahkamlash;*

✓ *boshlangan narsani oxirigacha yetkazish qobiliyatini shakllantirish;*

✓ *mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirishga yordam berishdan iborat bo'lishi kerak.*

"Kitob do'stlari" darslari muntazam va o'quvchilar qiziqishlari to'g'ri hisobga olingan holda tashkil etilgan kutubxonalarda quyidagi natijalarga erishildi:

✓ *barcha kerakli ma'lumotlarni kitobdan topishga o'rganish;*

✓ *kutubxonaning ma'lumot apparatlaridan foydalana bilish;*

✓ *lug'atlar, ensiklopediyalardan foydalana bilish;*

✓ *kataloglar va kartotekalardan foydalana bilish;*

✓ *ochiq fond sharoitida kitob javonidan kerakli kitobni tezda topa bilish ko'nikmasi shakllanadi.*

Adabiyotlarni ko'rgazmali targ'ib qilishning asosiy shakli kitob ko'rgazmasi bo'lib, maxsus tanlangan va tizimlashtirilgan matbuot nashrlarining majmuasi sifatida o'quvchilar tanishib chiqishlari uchun tashkil etiladi. Kitob ko'rgazmasi adabiyotlarni targ'ib qilishning an'anaviy shakllaridan bo'lib, "Bizning yangiliklarimiz", "Kitoblar olamiga sayohat", "Kitoblar yubileylari" mavzularida bo'lishi mumkin. Ko'rgazmani tashkil etish maqsadga muvofiq adabiyotlar, iqtiboslar, illyustratsiyalarni tanlash, savollar tayyorlash, mavzuni belgilash, kompozitsiya va dizaynni yaratish, ashyolarni joylashtirish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Muayyan mavzuga bag'ishlangan ko'rgazmalar qaysi kitoblarga talab katta ekanligini, umuman o'qilmaydigan yoki bolalarda qiziqish uyg'otmagan kitoblarni aniq belgilab olishga yordam beradi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ish olib borish uchun maktab kutubxonachisi yuqori kasbiy mahoratga ega bo'lishidan tashqari, o'z ishini va bolalarni sevishi, ularning ichki dunyosi va muammolarni anglashi, har bir o'quvchiga alohida yondashish, yangi o'quv dasturlari bilan tanishib borishi, amalga oshirilayotgan o'zgarishlardan xabardor bo'lishi, bitta umumiy maqsad – o'quvchini tarbiyalash va o'qitish uchun o'qituvchi, kutubxonachi va ota-onalar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmasiga va malakasiga ega bo'lishi kerak.

Ma'lumki, kutubxonaga ixtiyoriy qatnash foydalanuvchilar sonini tashkil etishning muhim tamoyilidir. Kutubxonaga ixtiyoriy qatnashish boshlang'ich sinf o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini qiziqarli va foydali narsalar bilan to'ldiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, ijtimoiy faoliyatga, mas'uliyat va javobgarlikka, jamoaviylikka o'rgatadi. Ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish uchun faol

o'quvchilar bilan ishlash to'garaklarni tashkil etish mumkin. Masalan, "Kitob do'stlari" to'garak a'zolari kutubxonaning barcha ishlarida ko'maklashishlari, boshqa tengdoshlarini to'garakka jalb qilishlari, ommaviy tadbirlarni tayyorlashda, kitoblarni ta'mirlashda qatnashishlari mumkin. Bundan tashqari, kutubxonachi ularning sevimli mashg'ulotlarini, nimaga ko'proq moyilligini o'rganishi asosida kitob bilan ishlashni, faol va mustaqil bo'lishni, qiziqishlarini bosqichma-bosqich oshirib borishni o'rgatadi.

Umuman olganda, xizmatlar yaxshi tashkil etilgan maktab kutubxonasi o'quv jarayonining yuragi bo'lib, tarbiyaviy vazifalarni ham bajaradi. Birgalikda o'qituvchi – bolalar – kutubxona – ota-onalar murakkab pedagogik muammolarni hamkorlikda hal qilishlari mumkin. Ayniqsa, ota-onalarning kitob bilan ishlashda ishtirok etishi avlodlar o'rtasidagi bog'lanishni ta'minlashda alohida ahamiyatga egadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishdagi muhim omillardan biri, kutubxonachilarning o'quvchilar ota-onasi bilan hamkorligidir. Kutubxonachi so'rovnomalar o'tkazish orqali ota-onalar farzandlarining kitob o'qishiga qiziqish uyg'otishda ishtirok etishi yoki ishtirok etmasligi, oilaning shaxsiy kutubxonasining mavjud yoki mavjud emasligini, o'qib chiqilgan kitoblar muhokama qilinishini, ota-onalar farzandlariga ovoz chiqarib kitob o'qib beradilarmi, farzandlar o'qigan kitoblari haqida ota-onalariga gapirib beradimi yoki yo'qmi, aniqlab olishlari mumkin.

Shundan kelib chiqqan holda o'quvchilarning ota-onalari maktabda va kutubxonada o'tkaziladigan kutubxona darslari, turli to'garaklar, "Kutubxona bilan tanishish", "Alifbe bilan xayrlashish", "Bolalar

kitobi haftaligi" singari tadbirlarga taklif etilishi zarur. Ota-onalarga oilada kitob bilan ishlash usullari (suhbatlashish, ovoz chiqarib o'qish va hokazo) haqida muntazam yo'nalish berib borish muhim ahamiyatga egadir. Bunday hamkorlik, eng avvalo, mutolaa madaniyatini shakllantirish sifatini oshirishga, bunda oilaning rolini alohida ko'rsatib berishga, oila oldida kutubxona va kutubxonachining imiji oshib borishiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy maktab kutubxonachisi boshlang'ich sinf o'quvchilarida mutolaa madaniyatini shakllantirishni yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun kutubxonalar birinchidan bilish, o'rganish, madaniyat va bag'rikenglikni tarbiyalash, ma'lumot olish singari ijtimoiy funksiyalarni umumlashtirilgan tarzda bajaradigan maskanga aylantirilishi zarur. Ikkinchidan, nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilari, balki ularning ota-onalari turli fanlar o'qituvchilari bilan ham hamkorlikda ishlash uchun pedagogika va psixologiya asoslari bilan birga boshqa fanlarning asosiy yo'nalishlaridan ham xabardor bo'lishlari zarur. Ana shundagina zamonaviy maktab kutubxonasi:

- *bilim ombori;*
- *media shakldagi ma'lumot manbalari maskani;*
- *kutubxonachi axborot mutaxassisi bo'lgan markaz;*
- *kutubxonachidan maslahat va ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan joy;*
- *axborotlar qidiriladigan markaz bo'lib qolishi mumkin.*

Eng asosiysi, "Kitob va mutolaaning umri o'tdi", degan texnokratik qarashlarga mutolaa orqaligini rad javobi berish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (Uchinchi nashr). – Toshkent: "O'zbekiston", 2022-u. 440-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risi"da Farmoni. 2017-yil, 12-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya chora-tadbirlar dasturi to'g'risi"da Qarori. 2017-yil, 13-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada shakllantirish to'g'risi"da Qarori. 2019-yil, 7-iyun.
5. Yo'ldoshev E. Kutubxonada bolalar o'qishiga rahbarlik qilish. – T.: "O'zbekiston", 2002-y. 128-b.
- Мелентьева Ю.П. Общая теория чтения. – Москва: «Наука», 2015 г. С.230.
6. Мелентьева Ю.П. Чтение: явление, процесс, деятельность. – М.: «Наука», 2018 г. С.282.
7. Чудинова В.П. Развитие наций читателей в разных странах мира: исследования, стратегии, проекты, практики. – М.: «Книга», 2014 г. С.344.
8. Umarov A.O. Mutolaa madaniyati: Shaxs, jamiyat, taraqqiyot. – T.: "Fan", 2004-y. 194-b.
9. Falsafa: Qomusiy lug'at. – T.: "Sharq", 2004-y. 469-b.

ZAMONAVIY JAMIYATDA KUTUBXONALARNING MADANIY VA AXBOROT FUNKSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, jamiyatni axborotlashtirish sharoitida ilmiy kutubxonalarning ijtimoiy funksiyalari o'zgarishini, xususan, madaniy va axborot funksiyalari rivojlanishi tahlil qilinadi. Kitobxonlarni tarix, madaniyat, ilm-fan haqidagi bilimlardan keng foydalanish istagi kutubxonalarda bu funksiyani amalga oshirish zarurligi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy kutubxona, ijtimoiy funksiyalar, ijtimoiy-madaniy funksiya, axborot funksiyasi, madaniy-axborot funksiyasi.

КУЛЬТУРНО-ИНФОРМАЦИОННАЯ ФУНКЦИЯ БИБЛИОТЕКИ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье освещается изменение социальных функций научных библиотек в контексте информатизации общества, в частности, развитие культурно-информационных функций. Стремление читателей широко использовать знания по истории, культуре, науке отмечает в библиотеках необходимость реализации этой функции.

Ключевые слова: научная библиотека; социальные функции; социокультурная функция; информационная функция; культурно-информационная функция.

THE CULTURAL AND INFORMATIONAL FUNCTION OF THE LIBRARY IN MODERN SOCIETY

Abstract. This article highlights the changing social functions of scientific libraries in the context of informatization of society, in particular, the development of cultural and information functions. The desire of readers to make extensive use of knowledge on history, culture, and science marks the need for libraries to implement this function.

Key words: scientific library; social functions; socio-cultural function; information function; cultural and information function.

Zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar kutubxonaning ijtimoiy funksiyalarini o'zgartirishga olib kelmoqda. Uning an'anaviy funksiyalari yangi tarkib bilan boyitilmoqda va ularni amalga oshirish imkoniyatlari kengaymoqda. Zamonaviy dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlar an'anaviy kutubxonalarning mavjudligi, kutubxonalarning kelajagi va zamonaviy sharoitda ularning vazifalari qanday bo'lishi kerak, degan masalani keltirib chiqarmoqda.

Kutubxonani ijtimoiy hodisa ekanligi ko'plab kutubxonashunos olimlarning asarlarida qayd etilgan. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari jamiyatni shakllantirishning zamonaviy sharoitida kutubxonani ijtimoiy-madaniy funksiyasini o'zgartirish muammosi nisbatan yangi degan, xulosaga kelishga imkon beradi. Kutubxona amaliyotini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy kutubxonaning roli bevosita ijtimoiy rivojlanish katalizatori sifatida ma'lumot va bilimlarga bog'liq.

Ilgari kutubxonaning asosiy vazifasi kitoblarni boshqa hujjatlarni saqlash, deb hisoblangan. Jamiyatdagi o'zgarishlar sababli, kutubxonaning roli haqidagi qarashlar ham o'zgardi. Xususan, XIX asrda kutubxonashunos olimlar kutubxonaning memorial (yodgorlik) va ta'lim funksiyalarini ajratib ko'rsata

boshladilar. 1917-yildan keyin (sobiq SSSRda) barcha ilmiy, madaniy va ma'rifiy muassasalarga xos bo'lgan mafkuraviy funksiya hukmronlik qildi. Biroq o'sha paytda ham kutubxonalarning yetakchi funksiyalari madaniy-ma'rifiy va ilmiy-axborot funksiyalari, deb tan olingan edi.

XX asrning 1970–80-yillarida kutubxonalarning ijtimoiy funksiyalarini batafsil o'rganish boshlandi. Taniqli kutubxonashunos olimlar Y.N.Stolyarov va A.V.Sokolovlar kutubxonalar faoliyatini o'rganishga mafkuraviy emas, balki ilmiy yondashdilar. Bu esa, kutubxonalarni ijtimoiy funksiyalarining tubdan yangi ro'yxatini shakllantirishga imkon berdi. Lekin bugungi kunga qadar kutubxonashunos olimlar va amaliyotchilari tomonidan bu funksiyalar aniq belgilanmagan, turlicha talqin etilgan [8;9; 0;11;12;13;14].

Zamonaviy kutubxonalarning, xususan, ilmiy kutubxonalarning asosiy faoliyatiga asoslanib, quyidagi asosiy ijtimoiy funksiyalarni ajratish mumkin: ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini axborot bilan ta'minlash va ijtimoiy-madaniy [5]. Chunki foydalanuvchining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish kutubxonaning ijtimoiy institut sifatidagi asosiy vazifasidir. Ijtimoiy o'zgarishlar axborot so'rovlarining o'zgarishiga olib keladi,

kutubxonaning maqsadi shunga mos ravishda o'zgaradi. U yangi vaziyatga moslashishga majbur bo'ladi va uning ijtimoiy roli va funksiyalarining o'zgarishiga olib keldi [6;7;8].

Muayyan ijtimoiy-madaniy sharoitda yaratilgan aloqa tizimlari turli darajadagi umumiylik va ularning ta'siri intensivligi ko'plab omillar bilan belgilanadi. Bugungi kunda ular asosida yaratilgan aloqa vositalari va axborot texnologiyalari doirasi doimiy ravishda kengayib bormoqda. Ular madaniyatda ma'lum bir o'rinni egallagan va bizning davrimizda turli joylarda sodir bo'ladigan boshqa hodisa va jarayonlardan ajratilgan holda tahlil qilinmasligi kerak.

So'nggi o'n yil ichida kutubxonalar moliyalashtirish va texnik qo'llab-quvvatlash muammolariga qaramay, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Hozirgi kunda ilmiy kutubxona muassasalari o'zlarini axborot, madaniyat markazlari, shuningdek, xalqaro aloqa markazlar sifatida ko'rsatmoqdalar. Bugungi kunda kutubxonalar foydalanuvchilar uchun yangi elektron mahsulotlar va xizmatlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Zamonamizning qiyinchiliklarini inobatga olgan holda, ular o'zlarining asosiy vazifalaridan biri – madaniy merosga kirishni ta'minlash, odamlarning bilimlaridagi bo'shliqni qoplashni ta'minlash, ularga ilm-fan, texnika, madaniyatning yangi yutuqlari to'g'risida doimiy ravishda ma'lumot berishning yangi vositalarini izlamoqdalar.

Kitobxonlarni erkin ijodiy rivojlantirish, milliy va jahon madaniyati qadriyatlarini bilan tanishish, madaniy faoliyat uchun sharoit yaratishga qaratilgan tadbirlar kutubxonaning madaniy, aniqrog'i, madaniy va axborot funksiyasini tashkil etadi. Zamonaviy ilmiy kutubxona madaniyatning ajralmas va organik qismidir. Foydalanuvchilarga an'anaviy yoki masofadan ma'lumot berish orqali kutubxona ularning madaniyatli, bilimli shaxslar sifatida shakllanishiga hissa qo'shadi, chunki aynan kutubxona mutolaa va muloqot ta'siri ostida intellektual, axloqiy, estetik izlanishlar muhitini yaratishning o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Kutubxona boshqa ijtimoiy muassasalarga nisbatan sezilarli afzalliklarga ega. Uni ijtimoiylashuv jarayonida ishtirok etishi vaqt va axborotdan foydalanishda chegara bilmaydi. Shuning uchun shaxslarning ijtimoiylashuvi kutubxona saqlaydigan madaniy merosni o'zlashtirish jarayonida sodir bo'ladi. Ushbu mahorat nafaqat an'anaviy vositalar (fondni shakllantirish, unga yangi axborot texnologiyalari yordamida kirishni kengaytirish), balki foydalanuvchilarni atrofdagi voqelikni faol anglashga jalb qilish usullari, turli darajadagi va barcha turdagi kommunikatsiyalar uchun imkoniyatlar yaratish orqali amalga oshiriladi [14;15].

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichi axborotlashgan, deb ataladi. Axborot xizmatlarining zamonaviy paradigmasi nafaqat qog'ozga asoslangan, balki ma'lumotlarga kirish uchun tubdan yangi imkoniyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Jamiyatni axborotlashtirishning hozirgi

sharoitida ilmiy kutubxona foydalanuvchilarga an'anaviy hujjatlar va undan tashqarida mavjud bo'lgan raqamli massivlardan foydalanish imkoniyatini beradi. Uni amalga oshirish foydalanuvchilarga Internet resurslardan foydalanish imkoniyatini va kerakli ma'lumotlarni qidirishda malakali maslahatlar berish bilan bog'liq. Ushbu jarayonda kutubxona o'zining madaniy va axborot funksiyasini bajaradi, fan va madaniyat sohasidagi jahondagi jarayonlar to'g'risida muhim ma'lumot kanali vazifasini bajaradi. Ilmiy kutubxona zamonaviy, intellektual jamiyatning madaniy va axborot markazi sifatida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- *milliy madaniyatni o'rganish, saqlash, tarqatish va himoya qilishni ishlab chiqadi va qo'llab-quvvatlaydi;*
- *milliy madaniy qadriyatlarini tarqatish va boshqa madaniyatlar bilan tanishtirishga yordam beradi, ularga hurmatni rivojlantiradi;*
- *ijtimoiy madaniyatlararo muloqotni tashkil etishga yordam beradi;*
- *yakka va jamoaviy ijodkorlik uchun sharoit yaratadi.*

Zamonaviy jamiyatda umumjahon globallashuv sharoitida, kutubxonaning madaniy va axborot funksiyasi har bir insonning tarix, madaniyat, ilm-fan haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish, shuningdek, boshqa mamlakatlar va xalqlar madaniyati tarixi, ilm-fani haqidagi ma'lumotlardan keng foydalanish istagi tufayli kuchayadi. Kutubxonalar an'anaviy ravishda axborot tarqatadi, ular zamonaviy jamiyatda ta'lim va umumiy madaniy jarayonlarning rivojlanishiga hissa qo'shadi, boshqa axborot institutlari orasida yetakchilik qiladi, chunki kutubxonalar boy tarixiy-madaniy bazaga, ya'ni universal mazmundagi fondlarga ega.

Ushbu bilimlarni targ'ib qilishning an'anaviy shakllari: ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari, tematik kechalar, kitob va illyustratsion ko'rgazmalar, rasm ko'rgazmalari, fotoko'rgazmalar, onlayn konferensiyalar va boshqa tadbirlar, elektron ko'rgazmalar (kitob, jurnal, illyustratsion materiallar, nota musiqasi va boshqalar) bilan birgalikda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda amalga oshirilmoqda.

Ilmiy kutubxonalar negizida milliy merosni asrab-avaylash bo'yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda: bibliografiyalash, konservatsiyalash va kitob yodgorliklarining alohida qimmatli qismini tashkil etuvchi hujjatlar nusxalarini yaratish va saqlash. Shuningdek, boshqa mamlakatlarning siyosiy va ijtimoiy hayoti, ularning madaniyati haqida ma'lumot beruvchi o'quv zallari va markazlari faoliyat yuritmoqda. Bu esa ushbu mamlakatlar vakillari bilan uchrashish va tillarini o'rganish imkoniyatini beradi [1].

Zamonaviy ilmiy kutubxona nafaqat muhim, balki jamiyatning ilmiy potensialini belgilovchi tarkibiy elementga aylandi. U axborot va bilimlardan, fan va madaniyat yutuqlaridan erkin foydalanish imkonini beradi, milliy axborot-kommunikatsiya infratuzilmasini

rivojlantirishda faol ishtirok etadi. Ushbu ilmiy va madaniy muassasalarda saqlanadigan axborotlar muhim strategik manbaga aylanadi. Kutubxonalarning o'zi jamiyatni intellektualizatsiya qilish, fan, ta'lim va madaniyatni rivojlantirish jarayonida markaziy o'rinni egallaydi [4].

Texnik va texnologik modernizatsiya zamonaviy kutubxonaning axborot funksiyasini mustahkamlashni ta'minlaydi. Kutubxona axborot makonining to'laqonli mavzusiga aylanadi. Zamonaviy kutubxona axborot madaniyatini tarqatish va takomillashtirishga muhim hissa qo'shadi, bu kompyuter savodxonligi bilan bir qatorda zamonaviy va kelajak jamiyatining to'laqonli a'zosi sifatida inson faoliyatining eng muhim shartlaridan biriga aylanadi [9]. Kitobxonlarni erkin ma'naviy

rivojlantirish, milliy va jahon madaniy qadriyatlar bilan tanishish, madaniy (reproduktiv va samarali) faoliyat uchun sharoit yaratishga qaratilgan tadbirlar kutubxonaning madaniy vazifasini tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, kutubxona o'z-o'zidan mavjud emas va o'zi uchun emas. Uning mavjudligi o'zining ijtimoiy funksiyalarini qanchalik samarali bajarishi bilan asoslanadi va shartlanadi. Kutubxona muassasalarining barcha faoliyati bitta umumiy va global maqsadga, ya'ni butun jamiyat hayotini, va xususan, har bir kitobxonni maqbul madaniy va axborot bilan ta'minlashga bo'ysunishi kerak. Ilmiy kutubxonaning madaniy va axborot funksiyasini tushunish uni davlatning madaniy va axborot markazi, muloqot joyi, madaniy va axborot maydoni sifatida tushunish bilan bog'liq.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Горовой В.Н. Библиотеки как информационные центры постиндустриального общества / В.Н. Горовой // Бки нац. акад. наук: пробл. функционирования, тенденции развития. – Киев: 2005 г. Вып. 3. С. 9–16.
2. Дворкина М.Я. Библиотечное обслуживание: Новая реальность: Лекции / М.Я. Дворкина. – Москва: «Профиздат», 2000 г. С.46.
3. Дворкина М.Я. Некоторые стереотипы библиотечного сознания / М.Я. Дворкина // Профессиональное сознание библиотекарей. Необходимость перемен в переходный период (Материалы семинара 3-4 мая 1993 г., Москва). – М.: 1994 г. С. 14–18.
4. Евстигнеева Г.А. Научная библиотека в информационном обществе / Г.А. Евстигнеева // Науч. и техн. б-ки. 2004 г. № 8. С. 5–15.
5. Жадько Н.В. Анализ сущностных характеристик библиотеки как социокультурного института / Н.В. Жадько // Библиотековедение. 1996. № 3. С.54–64.
6. Каленов Н.Е. Функции библиотек РАН в современных условиях / Н.Е. Каленов // Информационное обеспечение науки: новые технологии: сб. науч. тр. – М.: 2005 г. С.6–16.
7. Костенко Л.И. Функции и статус библиотеки информационного общества / Л.И. Костенко, М.Б. Сорока // Библиотеки и ассоциации в меняющемся мире: новые технологии и новые формы сотрудничества. Тема 2002 года: Электронные информационные ресурсы и социальная значимость библиотек будущего: тр. конф. / 9-я междунар. конф. «Крым 2002». – М.: ГПНТБ России, 2002 г. Т. 2. С.743–746.
8. Матлина С.Г. Мобильное, реальное и виртуальное. Социально-культурные аспекты модернизации библиотечного пространства / С.Г. Матлина // Библ. дело. 2011 г. № 21. С.9–15.
9. Мотульский Р.С. Библиотека как социальный институт / Р.С. Мотульский; Бел. гос. ун-т культуры. Мн., 2002 г. С.374.
10. Соколов А.В. Метатеория социальной коммуникации / А.В. Соколов. СПб.: Изд-во В.А. Михайлова, 2001 г. С.352.
11. Столяров Ю.Н. Библиотека: структурно-функциональный подход / Ю.Н. Столяров. – М.: «Книга», 1981 г. С.255.
12. Столяров Ю.Н. Сущностные функции библиотеки: Актуальность и значимость проблемы / Ю.Н. Столяров // Шк. б-ка. 2003 г. № 3. С.15–18.
13. Фирсов В.Р. Сущностные функции библиотечной деятельности: Культуроведческий подход / В.Р. Фирсов // Науч. и техн. б-ки. 1985 г. № 5. С.15–20.
14. Юдина И.Г. Зарождение информационной функции научной библиотеки / И.Г. Юдина // Электронные ресурсы региона: регион. науч.-практ. конф. (г. Новосибирск, 24–28 сент. 2007 г.). – Новосибирск: 2008 г. С.359–363.
15. Юдина И.Г. Информационная функция в теории и практике библиотечного дела / И.Г. Юдина, А.Г. Лаврик; науч. ред. Б.С. Елепов. Новосибирск: ГПНТБ СО РАН, 2010 г. С.255.

ЭВОЛЮЦИЯ ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА В КОНТЕКСТЕ СОЦИАЛЬНЫХ ТРАНСФОРМАЦИЙ

Аннотация. В статье ведется речь о глобальных информационных процессах, происходящих в мировом сообществе, затрагивающих все сферы человеческой деятельности, в том числе и информационно-библиотечные учреждения. Современное общество ставит перед библиотеками новые задачи, предъявляет новые требования и для того, чтобы оставаться важным общественным институтом им необходимо чутко реагировать на все изменения, происходящие в обществе. В статье последовательно рассмотрены основные направления, получившие наиболее активное развитие в процессе эволюции информационно-библиотечной системы нашей страны.

Ключевые слова: эволюция, информационно-библиотечная система, информационно-библиотечное учреждение, нормативно-правовая база, подготовка кадров, международные связи, информационные технологии.

IJTIMOIIY O'ZGARISHLAR MUHITIDA O'ZBEKISTON AXBOROT-KUTUBXONA TIZIMI EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya. Maqolada, jahonda ro'y berayotgan global axborot jarayonlari inson faoliyatining barcha sohalarini, jumladan, axborot-kutubxona muassasalarini qamrab olganligi haqida so'z yuritiladi. Zamonaviy jamiyat kutubxonalar olamiga yangi vazifalar, talablar qo'yadi va muhim jamoatchilik instituti bo'lib qolishi uchun jamiyatda ro'y berayotgan voqealarni nozik ilg'ab olishi kerak. Maqolada, shuningdek, yurtimizda axborot-kutubxona tizimining evolyutsiyasi jarayonida faol rivojlangan asosiy yo'nalish uzviy ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: evolyutsiya, axborot-kutubxona tizimi, axborot-kutubxona muassasasi, me'yoriy-huquqiy baza, kadrlar tayyorlash, xalqaro aloqalar, axborot texnologiyalari.

EVOLUTION OF THE INFORMATION AND LIBRARY SYSTEM OF UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF SOCIAL TRANSFORMATIONS

Abstract. Global processes occurring in the world community affect all areas of any activity, including information and library institutions. Modern society poses new tasks for libraries, creates new demands, and to establish public institutions, they almost need to respond to all the changes occurring in society. The article provides a general overview of the state information and library system in Uzbekistan. The main directions that have become the most rapid development in the process of evolution of the information and library system of our country are consistently considered.

Key words: evolution, information library system, information library institution, regulatory framework, personnel training, international relations, information technology.

В «Концепции развития информационно-библиотечной сферы Республики Узбекистан на 2019–2024 годы» отмечено: «Особое значение в обеспечении глубокого познания национальной культуры, анализа её развития и эволюции приобретают информационно-библиотечные учреждения республики с универсальными фондами. Возникает необходимость повышения статуса образовательных учреждений, развития научного и информационного потенциала отраслевых научных информационно-библиотечных учреждений, а также государственно-частного партнёрства в информационно-библиотечной сфере, сети частных и цифровых (виртуаль-

ных) информационно-библиотечных учреждений страны»¹.

В современном мире происходят глобальные изменения во всех сферах общества – политике, экономике, науке, образовании и культуре. Библиотеки, являющиеся учреждениями культуры, выполняющие функции информационного обеспечения учреждений науки и образования, объединенные в информационно-библиотечные системы, содействуют своей деятельностью общественному прогрессу и намечают дальнейшие пути развития социума. Осмысление эволюции библиотечно-информационных систем в контексте цивилизационного развития, что соотносится с повышением интереса общества к изучению, сохранению и использованию национального историко-культурного наследия при выработке определенной стратегии в различные исторические периоды, актуально и социально значимо. В этом отношении история эволюции библиотек отдель-

¹ Концепция развития информационно-библиотечной сферы Республики Узбекистан на 2019–2024 годы: приложение № 1 к Постановлению Президента РУз от 07.06.2019 г. № ПП-4354 // Всё законодательство Узбекистана. – URL: https://nnm.uz/content/?doc=591266_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana (дата обращения: 01.04.2021).

ных регионов является способом ориентации во времени и пространстве.

В Узбекистане, расположенном в Центральной Азии, так же, как и в других государствах, трансформации происходящие в обществе закономерно приводят к его эволюционному развитию. Просвещения, о чем упоминается в трудах Геродота, Страбона, Арриана, Птолемея. При дворцах и медресе создавались книгохранилища и дворцовые библиотеки. Для библиотек того времени характерным было то, что они были малочисленны и недолговечны. Внутри государств происходили междоусобные войны, поэтому, библиотека, основанная каким-либо правителем, исчезала после его кончины. Так, например, случилось с библиотеками Амира Тимура (1336–1405) и его внука Улугбека (1394–1449) в Самарканде.

История свидетельствует о том, что в 1867 г. на территории Средней Азии было образовано Туркестанское генерал-губернаторство – административное образование Российской империи. Дворцовые библиотеки Хивинского, Бухарского и Кокандского ханств были утрачены, наиболее ценные книги были отправлены в российские библиотеки, в частности в Императорскую публичную библиотеку в Петербурге. Большое количество ценных рукописей и печатных изданий на восточных языках было продано и вывезено в Англию.

В 1870 г. на территории Туркестана была открыта первая общественная библиотека в Средней Азии, были созданы библиотека для воинских частей, а также специальные библиотеки при научных обществах. Эти библиотеки были сформированы усилиями таких известных ученых, как П.П.Семенов-Тянь-Шанский, В.В.Бартольд, В.В.Обручев и др. В начале XX в. открывается ряд народных библиотек, созданных узбекскими писателями-просветителями Хамзой Хакимзаде Ниези в Коканде и Саидахмедом Сиддики в кишлаке Халвон-Джам.

На рубеже XX–XXI вв. в мире произошли большие перемены. После распада СССР и провозглашения независимости Республики Узбекистан (РУз.), начиная с 90-х годов XX в. и до XXI в., в культуре, в том числе и библиотечном деле произошли значительные изменения. Экономическая нестабильность, разрушение межгосударственных связей, инфляция, отсутствие финансирования, деформация государственной системы книгоиздания и книгораспространения, переориентация общества на иные духовные ценности – все это негативно сказалось на библиотечной системе республики.

Первыми шагами на пути реформирования библиотечной системы Узбекистана стало принятие ряда законодательных актов: Указ Президента от 20 февраля 2002 г. «О совершенствовании организации научно-исследовательской деятельности», Постановление Кабинета Министров от 12 апреля 2002 г. «О создании Национальной библиотеки Узбекистана им. Алишера Навои». Принятие

этих документов благотворно сказалось на библиотечной системе республики – прекратилось необоснованное сокращение библиотек и массовое списание литературы, якобы утратившей свою актуальность. На дальнейшее развитие и совершенствование деятельности библиотечной системы республики было направлено и Постановление «Об организации информационно-библиотечного обеспечения населения республики» от 20 июня 2006 г. и Закон Республики Узбекистан «Об информационно-библиотечной деятельности» от 13 апреля 2011 г., Постановление Президента Республики Узбекистан «О дальнейшем совершенствовании информационно-библиотечного обслуживания населения Республики Узбекистан».

Одним из важных направлений в эволюции информационно-библиотечной системы нашей страны явилось формирование нормативно-правового обеспечения деятельности библиотек, которое должно способствовать сохранению и развитию библиотечного дела страны. Принятые в настоящее время нормативно-правовые акты, для регулирования сферы библиотечного дела, в том числе и смежные, определяют общие принципы государственной политики в области культуры и библиотечного дела. Поэтому одной из основных задач государственных органов является согласованная работа библиотечных работников с законодателями при подготовке законопроектов, затрагивающих отдельные направления библиотечной деятельности.

Эти законодательные акты определили принципиально новые позиции и видение уже не библиотечной, а информационно-библиотечной системы, создали прочный правовой фундамент для развития данной отрасли. Все законодательные документы затрагивают общие вопросы библиотечного дела, а детальные вопросы должны обеспечиваться целой системой подзаконных нормативных актов, которые еще предстоит разработать.

Другим важным направлением, которое необходимо рассмотреть это комплектование фондов библиотек. Формирование рыночных отношений в конце XX в. негативным образом отразилось на книгоиздании и книгораспространении в республике, что нашло подтверждение в динамике и тенденциях книгоиздания переходного периода. Неопределенность государственного управления книжной отраслью, её неподготовленность к деятельности в условиях рынка, разорительное налогообложение без учёта того, что книга – товар особого рода; резкая коммерциализация и децентрализация книгоиздания и книгораспространения; устранение государственной поддержки книгоиздания; рост цен на бумагу и полиграфические услуги; резкое сокращение платёжеспособной части населения всё это не замедлило сказаться на главном секторе книжного дела – книгоиздании.

Интеграция издательств и книготорговых организаций с библиотечно-информационными учреждениями республики является одной из насущ-

ных проблем при формировании сети и фонда библиотек, требующих нового осмысления и анализа. Во многом будущее библиотек поставлено в зависимость от специалистов, занимающихся вопросами формирования их фондов. Не исключено, что скоро публичные, научные и иные библиотеки будут различаться не объемом своих фондов, а возможностями доступа к информации, полнотой и точностью удовлетворения информационных запросов, т. е. качеством информационных услуг в целом. На состояние комплектования библиотек Узбекистана, в том числе научных, существенно влияет неопределённость нормативно-законодательных актов, касающихся библиотечной и издательской деятельности. В республике нет закона об обязательном экземпляре (его разработка и принятие предусмотрены на втором этапе реализации «Концепции развития информационно-библиотечной сферы Республики Узбекистан (2019-2024 гг.)»).

Каждая библиотека ищет свои пути сотрудничества, формирования деловых отношений с поставщиками издательской продукции – самими издательствами, книготорговыми организациями и другими субъектами книжного рынка. Чтобы сохранить надлежащий уровень комплектования фондов, библиотекам необходимо предоставить приоритетные права в книгообеспечении, определённые финансовые льготы и привилегии. Например, как оптовые получатели газет и журналов библиотеки должны иметь право на снижение оплаты за доставку заказанных изданий предприятиями связи.

Процесс информатизации вывел деятельность библиотек мира на более высокий уровень, открыл качественно новые возможности выполнения технологических операций, работы через мобильные устройства, предоставления доступа к полнотекстовым ресурсам в удалённом режиме. Эти изменения коснулись и библиотек Республики Узбекистан. С конца 1990-х гг. начался активный процесс внедрения информационно-коммуникационных технологий и автоматизации библиотек республики, который продолжается до сих пор.

В Узбекистане была проведена большая работа по внедрению информационно-коммуникационных технологий в библиотеках. Прежде всего, это касается автоматизации библиотечных процессов и операций, связанных с формированием и каталогизацией фондов, научным и методическим обеспечением этих работ, были заложены основы качественно новой системы информаци-

онно-библиотечного обслуживания. В библиотеках формируются собственные электронные ресурсы – библиографические, фактографические и полнотекстовые базы данных. Создаются информационно-библиотечные сети, в которых участвуют библиотеки разных ведомств и уровней. Создаются и развиваются электронные библиотеки.

Эволюционные изменения, произошедшие в информационно-библиотечной системе нашей страны предъявляет новые требования к подготовке квалифицированных кадров. Развивающаяся национальная экономика республики все больше нуждается в высококвалифицированных специалистах, с большим инновационным потенциалом.

Поскольку в библиотечных учреждениях республики происходят кардинальные изменения: внедряются компьютерные технологии, происходит активная информатизация всех процессов библиотечной деятельности, появляются новые категории пользователей, все это требует пересмотра образовательного процесса в целом.

В Узбекистане подготовку кадров для информационно-библиотечных учреждений республики готовят два высших учебных заведения: Государственный институт искусств и культуры и Ташкентский университет информационных технологий. Ташкентский университет информационных технологий до 2018 г. был единственным вузом, осуществлявшим подготовку библиотечных кадров. Подготовка студентов в этом вузе ведется с уклоном на информационные технологии, многие специальные библиотечные дисциплины не преподавались, а в учебном плане преобладали дисциплины, связанные с информационными технологиями. В учебную программу Государственного института искусств и культуры направления «Библиотечно-информационная деятельность» включен более широкий спектр специальных дисциплин по библиотечному направлению, а также другим дисциплинам, способствующим всестороннему развитию будущих специалистов библиотек.

Процесс реформирования подготовки кадров для информационно-библиотечных учреждений в республике Узбекистан продолжается поэтапно и планомерно. Общественность и научные работники Республики Узбекистан осознают необходимость усиления гуманитарной и социально-культурной составляющей профессиональной подготовки специалистов информационно-библиотечной сферы. Эти же задачи стоят и перед коллективом преподавателей Государственного института искусств и культуры³.

Трансформации, происходящие сегодня в глобальной культурной сфере, требуют от библиотек новых подходов к стратегии развития всех направлений своей деятельности, в том числе и в вопросе развития международных связей. Международное сотрудничество способствует развитию библиотечных учреждений, позволяя учитывать в

² Концепция развития информационно-библиотечной сферы Республики Узбекистан на 2019–2024 годы: приложение № 1 к Постановлению Президента РУз от 07.06.2019 г. № ПП-4354 // Всё законодательство Узбекистана. - URL: https://nrm.uz/contentf?doc=591266_&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana (дата обращения: 01.04.2021).

³ Цай, И.К. Развитие библиотечного образования в республике Узбекистан // И. К. Цай // Труды ГПНТБ СО РАН. - 2020. - № 2 (6). - С. 63-68. DOI <https://doi.org/10.20913/2618-7515>

работе тенденции мирового развития, оценивать свою деятельность и достижения, решать свои проблемы в более широком контексте, в сравнении с деятельностью других библиотек, равняться на международные стандарты.

Развитие международных связей библиотечно-информационных учреждений Республики Узбекистан ведется по следующим основным направлениям: деятельность в рамках договоров «О совместном сотрудничестве» с зарубежными партнерами; сотрудничество с региональными зарубежными представительствами; проектная деятельность; партнерство с учебными заведениями, организациями, культурными центрами; международные библиотечные проекты; проведение разнообразных культурно-образовательных программ на качественно-новом уровне; профессиональное обучение библиотечных работников.

Сегодня всем библиотечно-информационным учреждениям Республики Узбекистан необходимо искать новые формы международного сотрудничества, выходить на общие международные проекты, объединяя усилия и обмениваясь опытом.

Совокупность представленных сведений и обоснованных аргументов о развитии информационно-библиотечной системы подтверждает, что информационно-библиотечные учреждения, как

центры современной цивилизации и культуры, выполняя важные функции – мемориальную, информационную, просветительскую, культуроформирующую и социальную, являются значимым фактором развития общества.

В библиотеках Узбекистана за последние годы значительно изменились основные приоритеты библиотечной деятельности. Трансформировались процессы комплектования, обработки, сохранности фондов, выдачи документов. К традиционным формам и методам работы добавились новые информационные продукты и услуги. Все эти изменения происходят благодаря освоению и внедрению в библиотечную практику информационных технологий.

Таким образом, системные трансформации в экономике, науке, образовании и культуре, в том числе и в информационно-библиотечной отрасли, требуют особого внимания для определения адекватной модели ее развития в эпоху глобализации и информатизации. Изучение процесса эволюции информационно-библиотечной системы Узбекистана в условиях исторических и социальных трансформаций имеет важное значение для развития информационно-библиотечной деятельности и для теоретической базы библиотековедения как науки.

Использованная литература:

1. Ахунджанов Э.А. Очерки по истории книги и книжного дела в средней Азии. – Ташкент: «Ибн Сино», с.67–163.
2. Бетгер Е.К. Из истории книжного дела в Узбекистане (К 70-летию первой узбекской литографической книги). – Т.: Академия наук УзССР, 1951 г. 78 с.
3. Болкунова Ф.В. Новые возможности медицинских библиотек // KUTUBXONA.UZ. 2009 г. №2. С.7–11
4. Касымова А.Г. Библиотечное дело в Узбекистане. – Т.: «Узбекистан», 1968 г. 119 с.
5. Коваленко А.П. Современные тенденции в непрерывном профессиональном образовании // Бетгерские чтения. – Т.: Изд-во Нац. биб-ки им. А. Навои, 2005 г.
6. Кудратова Д.К. Информатизация и библиотеки: пути взаимодействия // Kutubxona.uz. 2011 г. №1(9). С.7–10.
7. Рахматуллаев М.А. Информационные технологии в библиотеках: методическое пособие по разработке проектов с использованием новых информационных технологий в библиотеках. – Т.: 2003 г. 54 с.
8. Умаров А.А. Библиотечное дело Узбекистана: состояние, проблемы, перспективы // Интернет и библиотечно-информационные ресурсы в науке и культуре, образовании и бизнесе: сб. ст. CentralAsia-2002// Нац. б-ка им. А. Навои. – Т.: 2002 г. С.3–5.
9. Цай, И.К. Развитие библиотечного образования в республике Узбекистан / И.К. Цай // Труды ГПНТБ СО РАН. – 2020 г. № 2 (6). С.63– 68.
10. Цюн Ян. Поверх барьеров. Опыт китайских университетских библиотек по международным обменам // Библиотечное дело 2009. № 17 (107). С.17–20.

⁴ Цюн Ян. Поверх барьеров. Опыт китайских университетских библиотек по международным обменам // Библиотечное дело 2009. № 17 (107). С. 17–20.

MUTOLAA MADANIYATI INTELLEKTUAL SALOHİYATNI BELGILOVCHI OMIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada, barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati, aynan mutolaaning insonga bilim va axborot berishi, ma'naviy olamini boyitishi haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: mutolaa, noshirlik faoliyati, farmoyish, ma'naviyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

КУЛЬТУРА ЧТЕНИЯ – ФАКТОР, ОПРЕДЕЛЯЮЩИЙ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ

Аннотация. В данной статье говорится о воспитательном значении книги в воспитании зрелого поколения, о том, что чтение дает человеку знания и информацию, обогащает его духовный мир.

Ключевые слова. чтение, издательская деятельность, порядок, духовность, информационно-коммуникационные технологии.

READING CULTURE IS A FACTOR THAT DETERMINES INTELLECTUAL POTENTIAL

Abstract. This article talks about the educational significance of books in the education of the mature generation, that reading gives a person knowledge and information, enriches his spiritual world.

Key words: reading, publishing, order, spirituality, information and communication technologies.

Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishda beminnat dastyordir. Mutolaaga qiziqish susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonligi darajasi pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Umummiy kompleks dasturlar ishlab chiqilmogda. Ularda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari, kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlik subyektlari, sohadagi fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari sa'y-harakatlarini birlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish ko'zda tutiladi. Bunda kitobxonlikning qadri va ahamiyati haqida ijtimoiy ongni shakllantirish, aholi turli qatlami o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, noshirlik faoliyatini takomillahtirish, jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy ehtiyojlariga to'liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qartilmogda. Dunyo tajribasiga ko'ra, bunday maqsadli dasturlar hamda konsepsiyalar qabul qilinishi ijobiy natija beradi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha

komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi bu borada yuzaga kelgan muammolarni kompleks hal qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda maxsus ishchi guruh kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi loyihasini ishlab chiqmogda. Bu jarayonda kitobxonlikni ommalashtirish, unga bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, respublikamiz kutubxonalarida mutolaani rag'batlantirish, kitobxonlik va kitob savdosini rivojlantirish, soha uchun kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini takomillahtirish, kitob o'qish holatini monitoring qilish bo'yicha chora-tadbirlarga alohida urg'u berilmogda.

Kitobxonlikni ommalashtirish maqsadida, keng aholi qatlamini kitob mutolaasiga jalb qilish va ularni kitob bilan ta'minlash bo'yicha ommaviy tadbirlar, xayriya aksiyalarini tashkil etish, ijtimoiy reklamalardan unumli foydalanish, o'zbek hamda jahon adabiyotining, taniqli mualliflarning mumtoz va zamonaviy badiiy asarlarini targ'ib qilish, ushbu sohada jamoatchilik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ko'ngillilik (volontyorlik) harakatini rivojlantirish, kitobxonlik muammosining keng jamoatchilik muhokamasini, shu jumladan, ijtimoiy tarmoqlar hamda Internet imkoniyatlaridan keng foydalangan holda tashkil etish bo'yicha aniq ishlar olib borilishi ko'zda tutilmogda. Shuni qayd etish kerakki, bolalarni kitobga oshno qilish, ularni o'qishga muhabbat ruhida tarbiyalash, o'smirlar va yoshlar ongiga kitob mutolaasi o'z maqsadiga erishish hamda



jamiyatga ijtimoiy moslashishda ta'sirchan va nufuzli vosita ekanligini singdirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shularni hisobga olgan holda bolalar va o'smirlar uchun kitob nashr qilinishi, shu jumladan, maxsus elektron kitoblar ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, bolalar va maktab fondlarini modernizatsiyalash hamda yanada yaxshilash, bolalar va o'smirlarning kutubxonalar, maktabdan tashqari hamda yozgi mutolaalarini rag'batlantirish, oilaviy kitobxonlik an'analarini tiklash va ommalashtirish, bolalar hamda o'smirlar adabiyotining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish, o'z ona tilida kitob o'qishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlar kiritilmoqda.

Kutubxonalar yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash, kitob fondini yanada yaxshilash hisobiga modernizatsiya qilinadi. Uzoq aholi punktlarida yashaydigan hamda kutubxonalarga borish imkoniyati cheklangan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida ko'chma kutubxona xizmatini rivojlantirish, kutubxonalararo abonement va hujjatlarni yo'lga qo'yish, ushbu ziyo maskanlarida individual guruh hamda ommaviy kitobxonlikni tizimli ravishda tashkil qilishni rivojlantirish, mutolaa madaniyatini tarbiyalash, yuksak badiiy asarlarga oshno tutintirish, mamlakatimizdagi kutubxonalar imijini yaxshilash bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Noshirlik faoliyati rivojlanib, kitob mutolaasi yanada ommalashib borayotgani muloqotning audio, video

vositalar, radio, televideniye, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari hayotimizdan chuqur o'rin egallashi bilan odamlarda kitob o'qishga qiziqishni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

"NOP World" xalqaro reyting agentli ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda odamlar haftasiga 16.6 soat vaqtini televizor ko'rishga sarflasa, 8.9 soatni kompyuter qarshisida o'tkazadi, 6.5 soatni esa, mutolaaga ajratadi. 2016-yilda haftasiga eng ko'p kitob o'qiydigan mamlakatlar ro'yxatida Hindiston – 10.7, Rossiya – 7.1, Shvetsiya – 6.9, Fransiya – 6.9, Vengriya – 6.8 soat bilan yuqori o'qinlarni egallaydi. Shu o'rinda O'zbekistonchi? Bugungi kunda jamiyatda kitobning ma'naviy hamda axloqiy ozuqa, madaniyat vatil ravnaqi uchun asosiy manba, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan intellektual meros sifatida mavqei hamda ahamiyatini saqlash, va hatto, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash, milliy hamda jahon adabiyoti namoyandalarining asarlarini saralsh, tarjima qilish ishlarini puxta o'ylangan tizim asosida tashkil etish lozim. Bundan tashqari, yosh avlodning kitobga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirish kerak.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatda kitobxonlikning o'sishi, avvalo, shaxsning ma'naviy va axloqiy yuksalish omilidir. Bu esa xalqimizning intellektual salohiyati o'sishiga, inson resurslari sifatida oshishiga, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda innovatsion taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqil tarqqiyot yo'lida. – Toshkent: "O'zbekiston", 1994-y. 48b.
2. Ibrohimov A. Ruhiy oziq mahzani. – T.: "Yangi asr avlodi", 2012-y. 428-b.
3. Ibrohimov A. Yorug'lug'. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006-y. 376-b.
4. Анисимов С.Ф. Духовные ценности: производство и потребление. – Москва: «Мысл», 1998 г. С.253.

VI BO' LIM

YOSH TADQIQOTCHI

Izzat YULDASHEV,
O'zDSMI o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

O'ZBEK ETNOMADANIY SINKRETIZMIDA IMMANENT XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek etnomadaniyatidagi sinkretiklikda immanentlik, ichki o'ziga xos xususiyatlar ochib berilgan bo'lib, ichki-generativ, iyerarxik-stixiyali va ong-amaliyot shakldagi immanent xususiyatlar tuzilmalaridan tarkib topgani asoslab berilgan. Etnomadaniy sinkretiklikda ayni immanent xususiyatlar etnosentristik va shovinistik g'oyalarga qarshi kurashib kelishi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: madaniyat, etnomadaniyat, sinkretizm, immanent, folklor, artefakt.

ИММАНЕНТНЫЕ ЧЕРТЫ (ХАРАКТЕРИСТИКИ) УЗБЕКСКОГО ЭТНОКУЛЬТУРНОГО СИНКРЕТИЗМА

Аннотация. В данной статье раскрываются имманентность, внутренняя специфика синкретичности в узбекской этнокультуре и обосновывается, что она состоит из структур имманентных признаков внутри-генеративной, иерархически-стихийной и сознательно-практиковой форм. В этнокультурном синкретизме выявляется, что одни и те же имманентные черты борются с этноцентристскими и шовинистическими идеями.

Ключевые слова: культура, этнокультура, синкретизм, имманент, фольклор, артефакт.

IMMANENT CHARACTERISTICS IN UZBEK ETHNO-CULTURAL SYNCRETISM

Abstract. In this article, immanence, internal specific features of syncreticity in Uzbek ethnoculture are revealed, and it is justified that it consists of structures of immanent features of internal-generative, hierarchical-spontaneous and consciousness-practice forms. In ethnocultural syncretism, it is revealed that the same immanent features fight against ethnocentric and chauvinistic ideas.

Key words: culture, ethnoculture, syncretism, immanent, folklore, artifact.

“Falsafa qomusiy lug'ati”da “sinkretizm” – yunoncha “synkretismos” – birlashtirish, qo'shish ma'nosi bildirilishi o'laroq, biron-bir hodisani qismlarga bo'linmasligini ifodalovchi tushuncha sifatida qayd etilgan [7.369-b.]. Faylasuf, madaniyatshunos V.Karpushin: “Madaniyatning sinkretik xarakteri shuni anglatadiki, din animizm, totemizm yoki magik g'oyalar ko'rinishida eng qadimgi jamiyatning ibtidoiy san'ati va axloqi bilan birlashtirilgan hamda bu ijtimoiy ongning barcha shakllari hali ham moddiy ishlab chiqarish – ovchilik va dehqonchilik jarayonidan ajralmaganligidir”, – deb ta'kidlagan edi [25.9-b.]. A.Doxayeva: “etnik madaniyat – bu etnos tomonidan ilgari ishlab chiqilgan qadriyatlarni, shuningdek, etnosning zamonaviy tajribaga moslashgan madaniy tajribasini rivojlantirish singari yangi qadriyatlarni o'z ichiga olgan madaniy sinkretizmdir”, – deya qayd etgan [4.33-b.].

Etnomadaniy hayotda inson madaniylashuvga tomon intilgani, harakatlangani natijasida, u o'z hayotiy zarurat hamda ehtiyojlaridan kelib chiqib, etnoartefaktlarni yuzaga chiqargan, qayta ishlab takomillashtirib boravergan. Etnomadaniy sinkretiklikda an'anaviylik, og'zakilik, jamoaviylik, tarixiylik hamda ijodkorlik singari ichki-generativ immanent xususiyatlarning yaxlit tarzdagi ta'siri insonlarga etnik-madaniy dominantlikni ifodalaydi. Ichki-generativ immanantlik aspektiga ko'ra, insonlar tomonidan etnoartefaktlar qaror topilishi, qayta ishlab chiqarilishi va rivojlantirilishi etnik-hayotiy tarzdagi ta'sirlar orqali, etnomadaniy muhitdagi liberalizmning ultraliberalizmga, konservativlikning haddan ziyod mutlaqlashuvi va absolyutlashuviga berilib ketmaydi. Etnomadaniy sinkretiklikda etnoartefaktlar axloqiylik, estetiklik va tarbiyaviylik kabi ong-amaliyot turkumidagi immanentlik bilan

birga butun bo'lib kelishi ta'siri orqali, etnik-madaniy munosabatlar umumiyatidagi ma'naviy va insoniy imperativlik ta'minlanishi muttasil tarzda ro'y beradi. Etnomadaniy sinkretiklikda quyi, o'rta va yuqori inkulturatsiyalar iyerarxik-stixiyali immanentlik bo'lib, ular etnomadaniyat artefaktlarini etnik, milliy, umummilliy va umuminsoniy madaniyat darajasida insonlarga tanishtirishni, singdirishni, kompetensiya qilishni ta'minlaydi.

Og'zakilik uzoq o'tmishdan beri folklorning keyingi mavjudligi uchun uning muttasil qayta ishlanib borishini, yangilanib turishini, yaratuvchanligini, yashovchanligini garmonik, sintez tarzda ta'minlovchisi bo'lgan. Etnomadaniy muhitdagi insonlar bir-biri bilan hayot, tabiat, inson va oila haqidagi bilimlarini, tajribalarini og'zaki tarzda almashib kelishgan. Buning natijasida, insonlar tomonidan yangi etnoartefaktlar, etnoqadriyatlar shakllantirilib kelingan. Shu orqali, folkloriy sinkretikada og'zakilikning mavjudligi, namoyon bo'lishi shartli, muhim bo'lib kelgan. Folklordagi og'zakilik – etnomadaniyatning artefakt va boyliklarini, umuminsoniy qadriyatlarini sinkretik tarzda bog'lovchi xalqalardan biridir. Etnomadaniyatda og'zaki an'analarga tayangan insonning yaratuvchanlik imkoniyatlari sinkretik tarzda kengayib boradi.

Folklor – xalqning hayotiy, madaniy va dunyoviy, ijodiy tajribalariga, izlanuvchanligiga, o'zgartirishga qaratilgan sinkretik faoliyati hamdir. Folklor tarkibida, ko'lamida marosim va bayramlar sinkretikaga tomon tartibli tarzda o'z shakllariga ega bo'lib boravergan. Bunda, xalq badiiy havaskorlik san'ati, xalq tomosha san'ati, dostonchilik san'ati va boshqalar tuzilmaviy (struktural) holat sifatida birlashib keladi.

O'zbek xalqining an'anaviyligida, ijodkorligida, jamoaviyligida hozirgi kunda o'tkazilayotgan mavsumiy marosimlar inson hayotiga rekreativ, regulativ, informatsion va kommunikativ tarzda ta'sir o'tkazish sifatida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham marosimlar etnoartefaktlar sifatida xalq kayfiyatining, qarashlarining, huzur-halovatining bir-biriga uyg'unlashtirilishi sifatida ifodalaniladi. Sumalak tayyorlash jarayoni ayollarning jamoaviylik, ijodkorlik amaliyoti sinkretikasi asosida marosim va tadbirga keltirib kelingan. Pishirilayotgan paytdagi sumalak qozoni atrofida hikoya, ertak, latifa va rivoyatlar aytilgan bo'lsa, pishirilgandan keyingi jarayonda esa doyra chalish, raqsga tushish, qo'shiq aytish amaliyotlari yaxlitligi qozon atrofiga yig'ilganlarga huzur-halovat, ko'tarinki kayfiyat bag'ishlagan [21.83-b.]. Xalq sayillarida, bayramlarida, marosimlarida, gurunglarda askiyachilik, deyishma ijro etilgan bo'lib, ular tomoshabinlarga xush kayfiyat ulashgan [12.314-b.]. Jamoa va inson munosabatlarining sinkretik qolipi asosan xalq marosim va bayramlarida yanada mustahkamlanadi. O'zbek xalq marosim va bayramlarida insonlarning bir-birini o'ylashi, qayg'urishi ham ularning ko'tarinki kayfiyatlari, his-tuyg'ulari, quvonchli holatlari bilan uyg'unlashib keladi. Shu asnoda, etnomadaniyatning jamoaviylik, og'zakilik, ijodkorlik, tarixiylik va an'anaviylik

xususiyatlari etnopedagogizm bilan birga shakldan shaklga o'tib borgan.

O'zbek xalq madaniyatida gap-gashtak, ziyofat, yas-yasun kabi yig'inlar yaqinlarning birligi, ahilligi sifatida qaralib kelingan [23.122–124-b.]. Etnomadaniy marosim va bayramlarda qatnashuvchi insonlarning qo'shiq aytishi, hazil-mutoyiba va o'yin-kulgi qilishi, hikoyalar, ertaklar, rivoyatlar va latifalar aytish amaliyoti sintezlashuvi o'laroq, ular yordamida ayrim yangicha etnosan'at va folklor namunalari shakllanishiga zamin tayyorlab kelishi nazarda tutiladi. Kundalik hayot kontekstidagi folklor an'analarning evristik imkoniyatlarini madaniy voqeilikda ochib berishga urinadi [27.154-b.]. Etnomadaniyatning immanentligida ijodkorlik xususiyati etnos hayotiga folklor sifatida uyg'unlashib ketishi ifoda etiladi. Etnomadaniyat sinkretikasida folklor etnoartefaktlar ishlab chiqilishining generativligini ta'minlab kelishida alohida manbadir. Folkloriy amaliyot asosida inson ba'zida o'zi sezmagan holda, hayotni, tabiatni, yon-atrofni o'rganishda, o'zlashtirishda, o'zgartirishda qatnashayotgan bo'ladi.

Madaniyatshunos U.Utanova: *“...madaniyat insonning aqlu tafakkuri va amaliy faoliyati jarayonida yaratilgan artefakt (sun'iy dunyo)dir”,* – deya ta'kidlaydi [26–138-b.]. O.Nishonova esa: *“Etnomadaniyatda etnosning mangu, umrboqiy qadriyatlari, an'analari, artefaktlari mujassam. Etnos mazkur qadriyatlari, an'analari, artefaktlari orqali o'zini ham umrboqiy etnik birlik sifatida sezadi, idrok etadi. Yangi avlodlar madaniyatning ustki qatlami ta'siriga qancha berilmasin, etnos o'zining umrboqiy, mangu qadriyatlari, an'analari, artefaktlaridan voz kechmaydi, balki mudom ularni asrashga, rivojlantirishga intiladi”,* – deya ta'kidlagan [18.133-b.]. Etnosning ma'naviy-ruhiy olamiga kirmagan, etnopsixologik sintez amaliyotida muvofiqlashmagan artefakt etnomadaniyatda joy ololmaydi [6.444–446-b.].

Madaniyatshunos Y.Kaminskaya ta'biricha, xalq og'zaki ijodining o'zi uchun professional badiiy madaniyat sohasida bo'lishi uning ommaga moslashtirish, shakldan shaklga o'tkazish, saqlash, tinglovchilarga yetkazadigan darajada badiiy obrazlar tizimiga kiritish orqali xotirada joy olish imkoniyatini beradi [13.305-b.]. Folklor tarixiy xotirani o'z zimmasiga olgan zamonaviy jonli hodisadir [13.303-b.]. Shu orqali, folklorida xalq hayoti, tarixi, taqdiri badiiy tarzda aks etadi [28.13-b.].

Etnomadaniyatdagi kommunikativ, rekreativ, himoya-moslashuv, regulativ, informatsion va imperativ funksiyalarning tarixiylik xususiyatlari etnoartefaktlar sinkretikasida amal qilayotgan innovatsion, konstruktiv, integratsion, proyektiv va modellashtirish kabi funksiyalar orqali muvozanatga keltiriladi, barqarorlashtiriladi. Tarixiylik bunday munosabat va funksiyalar yaxlitligini iyerarxik tarzda ifodalaydi. Etnoartefaktlardagi tarixiylik xususiyatlari etnos tomonidan doim proyektiv, konstruktiv, innovatsion, integratsion va modellashgan tarzda saqlanib kelingan.

Tarix fanlari doktori, professor A.Mavrollov: *“Odamlarda turli birlashmalar, uyushmalar, kishilar*

guruhlarida birgalikda yashash ko'nikmasi mavjud. Bu ularning insoniylik darajasini belgilaydi, – deya ta'kidlagan [16.101-b.]. Folklorshunoslar: *“Folklor asari xalq orasida ommaviy yashaydi”*, – deya ta'kidlashadi [28.18-b.]. Ular ta'biricha, folklor namunalari muallifi xalq ommasi hisoblanganidek, uning jamoaviy (kollektiv), og'zaki, ommaviy tarzda avloddan avlodga ijro etilib, ijro jarayonida variantlarga va davrlar o'tib versiyalarga ega bo'lib kelgan [28.13-14-b.]. Navro'z bayrami tabiatning uyg'onishi, dehqonchilikning boshlanishi sifatida tashkil etib kelingan bo'lib, bayramlardagi sayillar, kurash tushish, qo'chqor urishtirish, darbozlar, masxarabozlar, yog'och-oyoq o'yinchilarining tomoshalarini yaxlit, keng jamoaviy, bayramona tarzda ommaviylashib kelavergan [20.19-b.]. O'zbek xalq bayramlaridagi turli namoyishlar, tomoshalar tashkil etilishining o'zi etnomadaniyatning kompleks tarzidagi jamoaviyligini ifodalaydi.

Folklorshunoslar ta'biricha, an'anaviylik – jamoaviy ijod mahsuli va yashash tarzi, shu bilan birga folklor asarini jamoaviy holda asrab qolishning ham o'ziga xos shakli, omili hisoblanadi [28.17-b.]. M.Abdullayeva ta'biricha, an'anaga o'zgarmas va o'zgaruvchan, dinamizm (odat) va konservatizm (ritual) birligi sifatida ritual, odat kiradi [1.45-b.]. Madaniyatshunos G.Gadjinayev ta'biricha, an'ana nafaqat o'tmishni doimiy tarzda o'zgartirib boradigan, balki uni ayni zamonda ham sintez qiladigan, shakldan shaklga o'tkazish va kelajakka tomon ildamlab borish imkonini beradigan ijtimoiy xotira tashuvchisidir [9.49-b.]. An'ana umume'tirofi bo'lgan, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan stereotiplarni avlodlar almashinuvi tizimi sifatida odamlarning mifologik, e'tiqodiy qarashlarini, ritual va marosim amaliyotlarini, folklor ijrochiligini o'ziga qamrab oladi [19.152-b.]. Madaniyatshunos O.Kruteyeva ta'kidicha, madaniy an'analarning dinamikasi – bu qaysidir madaniyat uchun muayyan bir vaqtda zarurat hisoblanmagan biror-bir narsa va hodisa yo'qotilmasligining, asrab-avaylanishining, yangi o'zgartirilgan artefaktlar yuzaga kelishining doimiy jarayonidir [14.120-b.].

Insonning etnomadaniy artefaktlarni, qadriyatlarni asrab-avaylab kelishi – uning ma'naviy, tarbiyaviy, estetik va axloqiy qarashlari, faoliyatlari bilan uyg'unlashuvi orqali amalga oshib kelgan. Sharqona axloq, odob, ma'naviyat an'analari qayta tiklash va ulardan inson, yangi avlod tarbiyasida foydalanish o'zbek xalqi an'anaviy madaniyatiga tayanishdir [26.110-b.].

Madaniyatshunos G.Gadjinayev: *“Xalq madaniyati etno-axloqiy va etno-estetik ong bilan shu qadar to'yinganki, u ong osti va tarixiy xotira darajasida nazariy va amaliy fanlarga singib ketadi va xulq-atvor tuzilmalariga kiritiladi”*, – deya ta'kidlagan edi [9.120-121-b.]. Y.Makarova ta'biricha, etnomadaniy muhitdagi til orqali xalqning butun bilimlari, tajribalari, uning axloqiy, ijtimoiy-estetik, badiiy va tarbiyaviy ideallari yaxlit tarzda aks ettirilgan [15.42-b.].

O'zbek xalq ijodi asarlari boshqa xalqlar og'zaki ijodi mahsuli bo'lgan Rustam, Alpomish, Go'ro'g'li, Farhod, Sherzod, Muqbil, Nasriddin Afandi singari

qahramonlar, birinchi galda, insondagi mehnatsevarlik, erksevarlik, elparvarlik kabi fazilatlariga ijobiy axloqiy fazilatlarini, estetik tasavvur va tushunchalarni yaxlitlashtiradi [10.152-b.]. Bunday estetik tasavvur va tushunchalar xalq madaniy hayotida unib-o'sib kelayotgan yoshlarning didaktik-axloqiy hamda tarbiyaviy qarashlarini yaxlit tarzda rivojlanishida ham muhim omillardan biri.

Falsafa fanlari doktori, professor V.Alimasov: *“Ma'naviy-axloqiy xislatlar kishilarning turli ijtimoiy va shaxsiy munosabatlarida, adolat, haqiqat va ezguliklarni qo'llab-quvvatlashlarida namoyon bo'ladi”*, – deya ta'kidlagan edi [2.147-b.]. Artefaktlar qaror topayotgan paytda, ularga doim adolat, haqiqat va ezgulik haqidagi qarashlar, sa'y-harakatlar estetik, tarbiyaviy, ma'naviy-axloqiy tarzda uyg'unlashib keladi.

Professor U.Qoraboyev: *“Asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib, an'anaga aylangan: bahorgi – “Qurultoy”, “Gul bayramlari”, “Navro'z”, “Darvishona”, “Qo'sh oshi” (“Shoxmoy”), yozgi – “Suv sayli”, “Choy momo”, kuzgi – “Uzum sayli”, “Qovun sayli”, “Paxta to'yi”, “Anor sayli”, “Anjir sayli”, qishki – “Yasan-tusan”, “Gap-gashtak” kabi marosim va bayramlar dehqonlar hayoti, turmushi, mavsumiy mehnat jarayonida va ma'naviy olamida samarali shakllar bo'lib, ularning mazmuni yoshlarning ekologik ongini ravnaq toptirish, tabiat boyliklarini qadrlash, yil fasllarida vujudga keladigan go'zalliklardan zavqlanish, mehnatni qadriga yetish, insoniylikni ulug'lash kabi vazifalarni bajarishda yaxshi xizmat qilgan”*, – deya ta'kidlagan edi [22.152-b.].

Madaniyatshunos F.Atamuratova: *“Etnomdaniyat milliy tarbiyadagi katta imkoniyat shundaki, uning tarkibiy qismi hisoblangan milliy bayramlar, to'y marosimlar, ommaviy sayillar va boshqa bir qator tadbirlarda millat vakillari ommaviy shaklda ishtirok qiladilar. Ana shunday tadbirlarni ommalashtiriladigan har bir urf-odat, an'ana, qadriyat, udum, marosim va kiyimlar nafaqat uning ishtirokchilarida, shuning bilan birga ular orqali butun mamlakat aholisiga yetib boradi. Shuni hisobga olganimizda etnomadaniyatning ana shu imkoniyatlaridan milliy tarbiyani olib borishda foydalanish amaliy ahamiyatga ega bo'ladi”*, – deya qayd etgan edi [3.151-b.].

Tadqiqotchi M.Murodov: *“Bola tarbiyasiga e'tibor xalq donishmandligi – og'zaki ijod namunalarda, an'anaviy xalq tarbiya usullarida har tomonlama chuqur ishlangan, oilaviy udumlar, odatlar, an'analarda o'z ifodasini topgan”*, – deya qayd etgan edi [17.23-b.]. O'zbek etnomadaniyati an'analardagi, urf-odatlaridagi konservativ xususiyatlar etnik jamoaning, xalqning ma'naviy-axloqiy, estetik jarayonlarini, manfaatlarini tarbiya jarayonida aks ettirib boradi. Ba'zida konservativ xususiyatlar orqali xalq madaniyatining ma'naviy dunyosi umumiy, yaxlit tarzda himoya qilinadi.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarzda tarbiyalashda xalqning milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlariga hamda umuminsoniy qadriyatlariga doir

tashkillashtiruvchi, pedagogik shakl va vositalar ishlab chiqilgan [11.18-b.].

Madaniyat antropologi, AQShlik tadqiqotchi M.Xertskovits inkulturatsiya atamasini fanga kiritib, uni shaxsni madaniyat bilan tanishtirish, madaniyatga xos odatlar, me'yorlar, xatti-harakatlar modellarini o'zlashtirish jarayoni sifatida ta'rif bergan edi [5.24-b.]. Madaniyatshunos V.Sokolov: *"Inkulturatsiya – bu shaxs tomonidan madaniy me'yorlar va qadriyatlarni, shuningdek, urf-odat va an'analarni, tilni o'zlashtirish jarayoni"*, – deya ta'kidlagan [24.40-b.]. Madaniyatshunos A. Fliyer esa: *"Inkulturatsiya – bu shaxsga o'zi yashayotgan jamiyat institutlariga nisbatan madaniy kompetensiya berish jarayoni"*, – degan edi [8.212-b.].

Etnomadaniyat sinkretizmiga ko'ra, inkulturatsiya jarayoni uch darajada namoyon bo'ladi. Ular: quyi (ichki), o'rta (tashqi) va yuqori inkulturatsiyalardir.

Quyi inkulturatsiya etnomadaniy hududlardagi, ba'zi qishloqlardagi etnik-hayotiy, jamoaviy munosabatlar uyg'unligida namoyon bo'ladi. Shu orqali etnomadaniyat o'zini o'zi an'anaviy, tarixiy-madaniy, ijodiy-madaniy tarzda saqlaydi, ta'minlaydi, qayta tiklaydi. Quyi inkulturatsiya immanent jihatdan, ba'zida urf-odatlarning, bayram va marosimlarning, folklor va etnosan'at namunalarining, xalq tomoshalarining va etnosport faoliyatlarining yaxlit sur'ati, uyg'unlashib kelishi sifatida amal qiladi. U etnomadaniy hududlardagi insonlarning turmushi, yashash tarzi, ehtiyojlari mohiyatidan, o'zagidan kelib chiqib amal qiladi.

Quyi inkulturatsiya o'zining jamoaviy tarzdagi jarayonini faqat xalq bayram va marosimlarida emas, balki oilada, mahallada, qarindosh va yaqinlarning bir-birini yo'qlab kelishida, hol-ahvol so'rash maqsadidagi yig'ilishlarida amalga oshib keladi. Bunday jarayonlarda otadan, onadan va katta yoshdagi qarindoshlaridan farzdandlar etnosga xos axloq, tarbiya, hayotga nisbatan go'zallik va nafosat haqidagi qarashlarni yaxlit tarzda qabul qilib kelishadi. O'zbek etnomadaniyatida ilgari beri bir bolaga yetti mahalla, qarindosh va yaqinlar tomonidan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlari amalga oshirilib kelinadi. Etnomadaniyatning quyi inkulturatsiyasi – oila va mahallaning kundalik hayotida uzluksiz tarzda faol bo'lib kelgan jarayondir. Bunda, ayniqsa, oila boshliqlarining, mahalla oqsoqollari va yoshi kattalarning etnopedagogik, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda roli g'oyatda muhim.

Tashqi (o'rta) inkulturatsiya milliy qadriyatlar negizi va asoslaridan, milliy madaniyatning institutsional manfaatlarini kesishgan nuqtalaridan, etnomadaniyatga xos bo'lgan ma'naviy, gumanistik, tolerantlik va identlik haqidagi manbalaridan kelib chiqiladigan jarayondir.

Quyi inkulturatsiya etnomadaniy hududlarda tabiiy (ta'lim va madaniy maskanlar faoliyatlarisiz kechadigan) jarayon sifatida amal qilib, u shu bilan cheklanib qoladi. U etnosning ichki sferasidan tashqi (milliy-madaniy) sferasiga chiqib ketmaydi. Tashqi inkulturatsiya esa etnomadaniy hududlarda

faqat ta'lim bilan amal qilinishi sifatida cheklanib qolmasdan, balki etnoartefakt va etnoqadriyatlar asosida shahar hududlaridagi milliy madaniyatning institutsional yaxlitligini himoya qilinishiga qaratiladi. Shuning uchun ham etnomadaniyatning tashqi inkulturatsiyasi uning quyi inkulturatsiyasidan bir muncha farqli, differensial jihatlariga ega bo'lib, u etnosning ichki va tashqi sferasida amal qiladigan sinkretik jarayondir.

Etnomadaniy sinkretika jarayonlarida milliy madaniyat – bu ba'zida o'zi uchun tashqi qobiq, sfera yuzaga keltiriladigan, ba'zida integratsiya va innovatsiya jarayonlari, munosabatlari keng qamrab olinadigan keng madaniy maydon va xalqadir. Milliy madaniyat o'z ichki mazmunidagi etnomadaniy sinkretikaning tashqi sferasidan, qobig'idan tashqi inkulturatsiya sifatida foydalanadi. Chunki etnomadaniyatning milliy madaniyatda ancha chuqur o'rnashib qolgan, hamjihatlikka (milliy o'zlikni anglash sifatida) keltira oladigan, katta kuchga aylantiradigan ko'plab arxetiplari, qadriyatlari, artefaktlari va ba'zi stereotiplari unda muvofiqlashib, uyg'unlashib singib ketgan. Ammo etnomadaniyati mavjud sanalgan milliy, institutsional madaniyatlar o'zlarining tashqi inkulturatsiyalarini shakllantirishi uchun ular doim quyi (ichki) inkulturatsiyalariga tayanib kelishadi. Tashqi inkulturatsiya quyi inkulturatsiyani himoya qilishga, etnomadaniy an'ana va qadriyatlar saqlanishiga kirishadi.

Shahar madaniyatida folklor, etnosan'at va marosim amaliyotlari ham uchraydi. Shahardagi marosimiy va folkloriy jarayonlar quyi inkulturatsiyaga tegishli bo'lsa ham, lekin undagi etnomadaniy amaliyotlarda postmodernistik va ommaviy madaniyat elementlari kuzatilishi mumkin. Tashqi inkulturatsiyaning maqsadi ham zamonaviylashib borayotgan shaharlarda etnomadaniy artefaktlarni, milliy-madaniy qadriyatlarni rivojlantirish va ularni saqlab qolishdir. Bunday holatlar quyi va tashqi inkulturatsiya jarayonlari uyg'unligini yanada mustahkamlaydi. Etnomadaniy sinkretikada tashqi inkulturatsiya bilan ichki inkulturatsiya struktural, tizimli tarzda yaxlitdir.

O'zbek etnomadaniy sinkretikligida ichki-generativ jihatdan tarixiylik, og'zakilik, jamoaviylik, ijodkorlik, an'anaviylik singari immanent xususiyatlar asoslanishi orqali, unda ong-amaliyot jihatidan axloqiylik, estetiklik, tarbiyaviylik xususiyatlari yaxlitligi, iyerarxik-stixiyali tomonlama esa inkulturatsiya kabi o'ziga xos immanent xususiyat muhim rol o'ynaydi. Muxtasar aytganda, etnomadaniy sinkretiklikda ichki-generativ, iyerarxik-stixiyali va ong-amaliyot shakldagi immanentlik tuzilmalar mavjud bo'lgani uchun ham ular etnosning, etnomadaniy borliqning etnoekzistensial, etnogumanistik va etnosotsial tuzilmalari o'zagini belgilaydi, yashovchanlik mohiyatini ifodalaydi. Shu orqali, inkulturatsiya hozirgi zamon sinkretik hodisasi sifatida etnomadaniy muhitning, etnoartefaktlarning yashovchanligini, uzluksizligini, ko'p tomonlama kechadigan voqeyiy umumiylikni stixiyali tarzda ta'minlaydi.

Etnomadaniy sinkretiklikda ichki-generativ, iyerarxik-stixiyali va ong-amaliyot shakldagi immanent xususiyatlar madaniylashuvda bir butunlikka tomon uyg'unlashib keladi, ya'ni ular bir-birisiz sinkretik tarzda voqe bo'la olishmaydi. Xullas, etnomadaniy sinkretiklikdagi ichki immanent xususiyatlar sinkretizm funksiyalari bilan bir butun bo'lib keladi. Etnomadaniy sinkretiklikda madaniyat funksiyalari sinkretizm funksiyalari

bilan birga yaxlitdir. O'zbek etnomadaniyati inkulturatsiyasi madaniy jarayonlarda shovinizm va etnosentrizmga berilmaydi, vaholanki, shovinistik va etnosentristik g'oyalarga qarshi chiqadi. Shuning uchun ham etnomadaniyat inkulturatsiyasi boshqa etnomadaniyatlar bilan integratsiyani amalga oshirib kelgan holda, u turli etnomadaniy muhitga xos gumanistik munosabatlar birligini, ustuvorligini ta'minlab kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаева М.Ш. Этнокультурная идентичность народов Дагестана: единство и многообразие. диссерт. доктор. культуролог. наук. – Санкт-Петербург: 2013 г. С.45.
2. Alimasov V.A. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish sharoitida madaniy-ma'rifiy muassasalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari. Fal. fan. dokt. dissert. – Toshkent: 2001-y. 147-b.
3. Atamuratova F.S. Mustaqillik sharoitida o'zbek milliy mentalitetida etnomadaniy jarayonlar. Fal. fan. nom. dissert. – Toshkent: 2010-y. 151-b.
4. Дохаева А.Б. Религия в системе этнической культуры чеченцев. 24.00.01 – теория и история культуры. Диссертация на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Грозный: 2014 г. С.33.
5. Дугарова Цырегма Дорчиевна. Инкультурация личности в современной национальной школе. Дисс. канд. культуролог. наук. – Чита: 2004 г. С.24.
6. Этнопсихологические проблемы вчера и сегодня. – Минск: Хварест, 2004 г. С.444–446.
7. Falsafa qomusiy lug'at. – T.: "Sharq", 2004-y. 369-b.
8. Флиер А.Я. Культуралогия для культурологов: Учебное пособие для магистрантов, и аспирантов, докторантов и соискателей, а также преподавателей культурологии. – Москва: Академический Проект, 2002 г. С.212.
9. Гаджинаев Г.М. Сиинкретизм народной художественной культуры Дагестана: историко-культурологические аспекты. диссерт. канд. культуролог. наук. – Махачкала: 2013 г. С.120-121.
10. Hasanov U.U. Xalq og'zaki ijodi ijtimoiy-falsafiy va estetik g'oyalar manbai sifatida. Fal. fan. nom. dissert. – T.: 1996-y. 152-b.
11. Himmataliyev D.O. O'quv tarbiya jarayonida o'quvchilarning kasbiy madaniyatini milliy qadriyatlar asosida shakllantirish (O'rta maxsus, ksab-hunar ta'lim muassasalari misolida). Ped. fan. nom. dissertat. – T.: 2003-y. 18-b.
13. Каминская Е.А. Традиционный фольклор: культурные смыслы, современное состояние и проблемы актуализации. диссерт. доктор. культуролог. наук. Челябинск: 2016 г. С.305.
14. Крутева О.В. Народные художественные промыслы урала и их сохранение в современных социокультурных практиках. диссерт. канд. культуролог. наук. – Челябинск: 2019 г. С.120.
15. Макарова Е.Ю. Язык как основа этнической культуры. диссерт. канд. филос. наук. – Волгоград: 2006 г. С.42.
16. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o'zgarishlari. – T.: "Adolat", 2004-y. 101-b.
17. Murodov M. O'zbek qadriyatlari (I kitob). – T.: "Cho'lpon", 1995-y. 23-b.
18. Nishanova O.D. O'zbek etnomadaniyatining estetik mohiyati va funksiyalari. Falafa fanlari doktori disser. – T.: 2016-y. 133-b.
19. Пушкирёв В.Г. Культурный потенциал современного фольклорного театра. диссерт. канд. культуролог. наук. – Санкт-Петербург: 2011 г. С.152.
20. Qilichev T. Xorazm xalq teatri: XIX asr oxiri – XX asr boshlari, tarixiy-21. etnografik ocherk. – T.: "Adabiyot va san'at", 1988-y. 19-b.
21. Qoraboyev U. O'zbek xalq bayramlari. – T.: "Sharq", 2002-y. 83-b.
22. Qoraboyev U. Madaniyat masalalari. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2009-y. 158-b.
23. Sattor M. O'zbek udumlari. – T.: "Fan", 1993-y. 122–124-b.
24. Соколов В.А. Культурология. Ростов н/Д: – Феникс: 2004 г. С.40.
25. Тенасе А. Культура и религия. Пер. с румын. – М.: Политиздат, 1975 г. С.9.
26. Utanova U.A. Mustaqil O'zbekistonda xalq madaniyatining ravnaqi (falsafiy-madaniy yondashuv). Falsafa fanlari nomzodlik disser. – T.: 2008-y. 138-b.
27. Ядрышников Л.Г. Фольклор и постфольклор в культурных практиках повседневности. диссерт. канд. культуролог. наук. – Екатеринбург: 2008 г. С.154.
28. O'zbek folklori [Matn]: darslik / T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A.Tilavov. – T.: "Tafakkur bo'stoni", 2021-y. 13-b.

KINO VA TEATR SAN'ATIDA AKTYOR IJROCHILIGI HAMDA AVLODLAR ALMASHINUVI

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada, o'zbek teatr va kino san'ati aktyorligida ijro mahorati hamda avlodlar almashinuvi haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: kino, teatr, aktyor, rejissyor, operator, syujet, ssenariy, ekran.

АКТЕРЫ КИНО И ТЕАТРА ОБМЕНЯЮТСЯ СПЕКТАКЛЯМИ ВСЕХ ПОКОЛЕНИЙ

Аннотация. В этой научной статье будет рассказано об исполнительском мастерстве в узбекском актерском искусстве театра и кино, а также о смене поколений.

Ключевые слова: фильм, театр, актер, режиссер, оператор, сюжет, сценарий, экран.

CINEMA AND THEATER ART ACTORS EXCHANGE PERFORMANCES OF ALL GENERATIONS

Abstract. This scientific article will tell about performing skills in the Uzbek acting art of theater and cinema, as well as about the change of generations.

Key words: film, theater, actor, director, cameraman, plot, script, screen.

Kino va teatr aktyorining san'ati asosida butun dunyo tan olgan K.S.Stanislavskiy sistemasi yotadi. Aktyorlar ushbu sistemani mukammal o'zlashtirsalar, rollarni ijro etishda chuqurlik, haqqoniylik va ifodalilikka erishadilar. Ikkala yo'nalishdagi aktyorlarning ifoda vositalari yagona. Bularga plastika, mimika, xatti-harakat, ifodali nigoh, so'zlashuv ohanglar kabi unsurlar kiradi. Lekin kino va teatr aktyorining o'yinidagi farq ikkala san'atning o'ziga xosliklaridan kelib chiquvchi shart-sharoitlar bilan farqlanadi.

"O'zbek kinosining tashkil etishda aktyor alohida o'rin egallagan. Ma'lumki obyektiv sabablarga ko'ra respublikamizdagi "Sharq yulduzi" studiyasi mahalliy rejissyor, operator, ssenariyavis, rassomlarga ega emasdi. Bu vazifalarni respublikamizga kelgan rus kinematografchilari bajarar edilar. O'zbek kinosining birinchi tashabbuskorlari ovozsiz filmlarda rollarini ijro etish uchun jalb etildi"¹.

Shunisi diqqatga sazovorki, kelgusida o'zbek kinosining yirik namoyandalariga aylangan Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Yo'ldosh A'zamov, Malik Qayumovlar o'z ijodiy yo'llarini aktyor sifatida boshlashgan edi. Ular doim ekranda xotirada qoladigan obrazlarni yaratish ustida katta g'ayrat, tashabbus ko'rasata bilish bilan birga, film sayyor postanovkachilariga mahalliy sharoitni to'laqonli, keng talqin etishda, obrazlar tasvirida sun'iylik va soxtalikdan qochishda katta yordam ko'rsatadilar. Aktyorlik san'atiga bunday jiddiy munosabatda bo'lish eng yaxshi ovozsiz filmlarning sifatiga ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

"O'zbek kinosida chinakam ijrochilik mahoratini shakllanishida .K.Stanislavskiy aktyorlik maktabining ilg'or realistik prinsiplarini qabul etgan va uni milliy

sharoitda ijodiy rivojlantirgan. Shu bois Hamza nomli o'zbek davlat akademik drama teatri ijodkorlari katta rollarni o'ynagan", – deydi kinoshunosi J.Teshaboyev.

1930–1940-yillarda o'zbek kinosidagi turli filmlarda Yetim Bobojonov, Shukur Burhonov, Obid Jalilov, Abror Hidoyatov kabi Hamza nomli (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri) teatrdagi yetishib chiqqan aktyorlarning muvaffaqiyatli ishtirok etishi suratga olish maydoni bilan sahna o'rtasida katta tafovut bor, degan fikrlarning asossizligini isbotlab berdi. Shu bilan birga yangi san'atning ichki qonuniyatlarini chuqur his etgan iste'dodli sahna ustalari hayotiy materiallarni boy aktyorlik texnikasini o'rinli qo'llagan holda ssenariydan unumli foydalanishgan.

"Drama teatrlarining aktyori kinoga yuksak madaniyat va ijro san'atini hamda obrazda "yashash"ning nozik tomonlarini olib kirgan. Uning obraz ustida ishlashi "oliy maqsad"ga qaratilgan holda izlanish va psixologik teranlik hamda komillik bilan uzviy bog'liqlik jihatlarini ajratib bergan. Stanislavskiy ta'limotiga asoslangan bunday o'yin maqsad burjiga kamera rakurslarining ta'sirini ko'zlagan kadrning tasviriy go'zalligini va inson xarakterini mensimagan har qanday "uslubkashlik", "tasviriy kino"ning qonun va metodiga qarshi bo'lgan edi"².

Milliy teatr aktyorlarining imkoniyatlarini birinchi marta to'la va yorqin aks ettirgan filimga Lutfixonim Sarimsoqova, Yetim Bobojonov, Hikmat Latipov, Asad Ismatov, Shahodat Rahimovlar taklif etilgan "Qasam" filmi misol bo'la oladi. Ularning filmdagi ijrolari yuksak teatr madaniyati va professional kinoaktyorlariga xos bo'lgan axloqiy tabiiylik bilan uyg'unlashish bir butunlikni tashkil etgan. "Qasam" filmidagi aktyorlik mahoratlari, ijrochilik muvaffaqiyati o'zbek kinematografidagi bosh yo'nalishlaridan biri psixologik kinematografini belgilab berdi. Qahramonlarning ruhiyatiga qiziqish, ichki kechinmalarni yaxshi yoritib beruvchi texnikaga ega bo'lgan aktyorga e'tibor bu yo'nalishning asosiy

¹ Teshaboyev J. O'zbek kinosida aktyorlik maktabining shakllanishi. – Toshkent: 1987-y. 4-b.

² O'sha manba. 5-b.

xususiyatini tashkil qiladi. Bu sahna aktyorlari uchun mohiyat e'tibor bilan obraz ustida ishlash jihatidan mutlaqo yangi, notanish va murakkab yo'l bo'lgan. Shu vaqtdan boshlab, o'zbek teatri ijrochisi oldida o'z iste'dodini, badiiy tasavvurini sarflamoq uchun uning ijod maydoni yuzaga kelgan.

Filmda ishtirok etuvchi aktyorlar sahnada "ishlanmagan" usulni o'rganib olishi, sof kinematografik fikr yuritishni o'rganishi lozim edi. Bunday kinoda obraz yaratishning yangiliklari, qonuniyatlarini o'rganmaslik natijasida yirik sahna ustalari suratga olish maydonida o'zlarining iste'dod va teatrdagi orttirgan tajribalarini kerakli darajada namoyon etganlar.

O'zbek kino aktyorlari mahoratining tez va jadallik bilan o'sib borishi hamda mukammallashishi O'zbek kinosining rivojidagi umumiy qonuniyatlar bilan bog'liqdir. **"Qasam", "Azamat", "Tohir va Zuhra", "Alisher Navoiy", "Nasriddinning sarguzashtlari", "Farg'ona qizi"** filmlarida o'zbek kinosiga yangi aktyorlarning kirib kelishi milliy rejissura, dramaturgiyada erishilgan dastlabki yirik muvaffaqiyatlar natijasida, 1940-yillar boshida o'zbek kinosida aktyorlik maktabiga asos solindi va mahalliy kino mutaxassislarning ijodiy maydoni kamolga yetdi.

O'zbek kinosida suratga olingan filmlarda Abror Hidoyatov, Asad Ismatov, Shukur Burhonov, Obid Jalilov, Lutfixonim Sarimsoqova, Rahim Pirmuhammedov, Razzok Hamroyev kabi yirik kinoaktyorlar muvaffaqiyatli rollarini ijro etishdi. Ular ijrosidagi rollarning har biri tugallangan, tipik obrazga aylangan, hayotiy, haqqoniy va aniq, o'zining takrorlanmas bo'yog'iga ega bo'lgan turli xarakterdagi personajlar silsilasidan iboratdir. Bular: kambag'allarning dohiysi – sardor ("Tohir va Zuhra", A. Hidoyatov), ayyor, makkor vazir – Majiddiddin ("Alisher Navoiy", O. Jalilov) xalq donishmandligining timsoli, Navoiyning oshpaz do'sti Abdumaloh (R. Pirmuhammedov) obrazlarini va qishloq militsioneri ("Qasam", R. Pirmuhammedov) obrazlarini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek ekranida ijodiy diapazoni keng, tragik, tuganmas imkoniyatlarga ega san'atkor Asad Ismatovning paydo bo'lishi diqqatga sazovordir. Uning timsolida bizning kino yuksak saviyadagi ijodkorga, chuqur zamonaviy qarashi, xalq vakillarining turli xil va teran, serqirra obrazini tajassum etuvchi aktyorga ega bo'ldi. "Qasam" filmidayoq Asad Ismatov iste'dodining eng yaxshi qirralari: tabiiylik va tajassumini dilbandligini, ruhiy holatning murakkab nyuanslarini rang pardoqligini ifodalovchi ekran obrazlarini yaratish kabi xislatlar namoyon bo'ldi. Keyingi filmlarda Asad Ismatov o'zi ustida ishlashi natijasida mahorati yanada oshib, yuksak ijodiy natijalarga erishdi.

*"O'zbek aktyorlik maktabi tug'ilishining asosiy xususiyati shundan iboratki, u ko'p millatli sovet kinosining yuqori taraqqiyot bosqichida shakllandi"*³. *"Aktyorlik – faxrli, olijanob, sermashaqqat va sharaflil, ayni paytda o'ta mas'uliyatli kasb. Aktyorlik*

*birgina iste'dod yoki mahorat bilan emas, balki kuchli bilim, sabr-toqat, did va farosat, go'zallik va nafosat orqali yetishiladigan mo'jizakor va sehrli kasbdir. Aktyorlik his-tuyg'uga boy, ehtiros va muhabbatga o'ch, sog'inish va sog'intirishga moyil kasb. Aktyorlik dono va donishmand, sabrli va bardoshli, e'tiborli va kuzatuvchan, xalqchil va zamonaviylik talab etuvchi kasb. Aktyorlik hayotiy haqiqat va sahnaviy yolg'on mahorati mevasi. Aktyorlik tarixiylik va zamonaviylik, rosto'ylik va yolg'onchilik, oq va qoraning bir vaqtda namoyish etilishidan paydo bo'ladigan mahorat farzandi. Qalbning hamrohi, uni yupatuvchi, kuldiruvchi gohida yig'latuvchi, yoxud yolg'izlikka chorlovchi telba do'st, mehribon ota-ona, samimiy muhabbatdir"*⁴. Haqiqatdan ham aktyorlik kasbi juda ma'suliyatli, sharaflil va mashaqqatli kasbdir.

Teatr – aktyor uchun dastlabki tajriba maydoni, mahorat va ko'nikmalarni shakllantiruvchi muqaddas maskan. Bu borada taniqli ustoz san'atkor, qolaversa, o'z aktyorlik maktabiga ega bo'lgan va tajribali pedagog Munavvara Abdullayeva o'zining "Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati" kitobida shunday fikr yuritadi. *"Aktyorlik san'atining asosi xatti-harakatdir. Faqat teatrgagina xos bo'lgan birdan-bir metarial – harakat. Xatti-harakat orqali aktyor spektaklning muhim elementi – obrazni yaratadi, pyesa voqealarini ifoda etadi. Xatti-harakat – ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, inson tomonidan sodir etiluvchi jarayondir. U ikki xil turda, ya'ni jismoniy va ruhiy shaklga bo'linadi. Fikrimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, xatti-harakat aktyorlik san'atining asosiy xususiyatini belgilab beruvchi material hamdir. Aktyor bir vaqtning o'zida ham ijodkor, ham o'z san'atining quroli hisoblanib, bu jarayonda xatti-harakat ma'lum bir obraz yaralishiga xizmat qiladi. Aktyor xatti-harakat orqali sahnada jonli, tabiiy va shu bilan birga badiiy hayotni ifoda etadi. Voqealar tomoshabin ko'z oldida sodir bo'ladi. Teatrning afzalligi ham shunda, ya'ni bir necha o'nlab odamlarni bir joyga jamlab ularni bir voqea g'ami, shodligi, fojiasi, baxtiga sherik qilishga, bir taassurot ostida asir etishga qodirligidir"*⁵.

Bir asrdan oshiqroq vaqt davomida aktyorlik mahorati fani rivojlanishi, shakllanishida teatr, kino va ularga ta'sir qiluvchi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kabi tashqi omillar muhim ahamiyat kasb etdi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, kino san'ati rivojlanib borish barobarida kino aktyorligi sohasiga ham ma'lum talablarni qo'ya boshladi. Ekranida aktyor ijro uslubida hissiyot ifoda vositalari shakllandi. Bora-bora kino va teatr aktyorligi ijro uslublari bir-biridan farq qila boshladi. Shunga qaramay, bu ikki sohani bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Aktyorlik mahoratida har ikkisinin ham o'z o'rnini, vazifasi bor. Teatr va kino san'ati paydo bo'lganidan boshlab ko'plab san'at darg'alari aktyorlik mahorati sirlarini o'rganish va rivojlantirishda teatr sahnasini asosiy poligon sifatida tan olib kelganlar. Buni inkor etmagan holda shuni ham ta'kidlash kerakki, kinoaktyorligi yo'nalishi ham alohida bilim, mahorat va ko'nikmalarni talab etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, aksariyat aktyorlar teatr sahnasini tasvirga olish maydonlaridan ustun qo'yib kelganlar. Buning sababi, teatr sahnasi aktyor

³ Teshaboyev J. O'zbek kinosida aktyorlik maktabining shakllanishi. – T.: 1987-y. 6-b.

⁴ Sayfullayev B., Mamtqosimov J. Aktyorlik mahorati – T.: 2012-y. 104-b.

⁵ Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. – T.: 2014-y. 26-b.

mahoratini spektakldan spektaklga charxlab boradi. Ya'ni aktyor ma'lum bir rolni spektakl namoyishidan namoyishiga qarab, kuzatib, xatolarini tuzatib o'z qahramoni qiyofasiga yangiliklar kiritib, pishiq-puxta shakllantirib olish imkoniyatiga ega. Kino bunday imkoniyatdan xoli. Ya'ni kino – lahzalik san'at. Aktyor bir dublda o'z ijro uslubiylatining faqat birgina turini namoyish qila oladi. Agar ma'lum bir epizod qayta tasvirga olingan taqdirda ham aktyor avvalgi hissiyotlarini namoyon qila olmasligi va yoki aksincha bo'lishi mumkin. Aktyor bir obrazni har safar turli hil uslubda ijro etadi.

Teatrdagi aktyor xatti-harakatga katta urg'u beradi. Aktyorning sahnadagi har bir harakati, yurish-turishi, qo'l harakatlari ma'lum bir ma'noga ega bo'lib, katta ahamiyat kasb etadi. Kinoda ham harakat muhim ahamiyatga ega. Biroq teatrchalik pafosga ega bo'lmaydi. Ya'ni, kamera qarshisida aktyorning asosan tashqi qiyofasidagi ifoda uslublari, ko'z qarashlari obrazning ichki kechinmalarini ochib beradi.

Aktyor o'ziga berilgan obrazni yetarli darajada o'rgana olmagan kamera qarshisida uning nigohlarida namoyon bo'ladi. Teatr sahnasida ahamiyatli sanalgan keskin harakatlar, pafosga ega va yuqori ovoz kamera qarshisida o'z ahamiyatini yo'qotibgina qolmay, obrazning yaxlitligiga putur yetkazadi. Stanislavskiy ta'biri bilan aytganda, tomoshabinning ishonmasligiga olib keladi. Aksincha, teatr sahnasida aktyorning ichki iztirobi uning xatti-harakatlarida ko'proq namoyon bo'ladi. Buning sababi sahna va tomoshabinlar zali imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Ya'ni aktyor sahnada o'z ichki hissiyotlarini hadeb yuz ifodalarida, ko'z qarashlarida namoyon etadigan bo'lsa, tomoshabin uning bu ijro uslubini payqamasligi mumkin. Kinoning esa bu borada imkoniyatlari katta bo'lib, kamera aktyorning yuz qiyofasi va nigohidagi eng kichik o'zgarishlarga namoyon qilishi mumkin. Shuning uchun ham kinoda ichki hissiyotlarni ifodalashda yuz mimikalari, nigoh, hatto, aktyorning olgan nafasi va yutgan yutumigacha muhim rol o'ynaydi. Aktyor kamera oldida o'z obrazini to'laqonli ijro eta olishi uchun o'z rolini chuqur tahlil qilgan, obraz xarakteri ustida ishlagan bo'lishi kerak.

*“San'atda aktyor qiyofasi ko'p sozlik simfonik orkestrga o'xshashi kerak, deydilar. Albatta, aktyor qiyofasi bu spektaklning qiyofasidir. Aktyorning afi yuvilmagan piyoladay bo'lib tursa, tomoshabin undan nima oladi”*⁶. K.Stanislavskiyning bu gapida katta ma'no bor. Go'zallik va nafosat aktyorlik talabining bosh mezonlaridir. Aktyor ijodida uning ko'zi katta ahamiyatga ega. Aktyorda bosh mezon uning tili emas ko'zidir.

Buyuk aktyor Abror Hidoyatovning *“Aktyor ijodiy muhofaza uchun doim rahbarga, ustozga muhtojdir”*, so'zlarida aktyor uchun naqadar rejissyorning maslahatlari kerakligi, aktyor va rejissyor bir qushning ikki qanoti ekanligini uqtirgan bo'lsa ajab emas. Rejissyor

hamma vaqt aktyorning maxsus xususiyatini hisobga olishi kerak. “Aktyor o'z fantaziyasiga ega, hayotni biladi”, degan fikrni rejissyor unutmasligi kerak. U aktyorning ruhiy, jismoniy iste'dodini, o'ziga xos tomonlarini ocha bilishi shart, uni ishonтира olishi va o'zining tasavvurini va pyesani yaxshi o'rgangan haqidagi tushunchani aktyor ongiga yetkaza bilmog'i lozim.

“Aktyorlar orasida ham kosib xilidagilar bo'ladi. Ularning ishi muallif ishini takrorlashdan iboratdir. Aktyor-kosiblar faqat rolni yod olib, uni tayyor qoliqlar vositasida tomoshabinga taqdim etadi”. Abror Hidoyatovning bu fikrlarida bir qarashda dangasa, o'z ustida ishlamaydigan aktyorlar tanqid ostiga olingan bo'lsa, tub ma'noda barcha ayb rejissyorlarga qo'yilgan. Chunki aktyorning kosiblik qilishiga rejissyor imkoniyat yaratib bergan.

Aktyor ijrosining to'g'ri yoki noto'g'riligini oynadek ko'rib turgan rejissyor o'zining subyektiv xohishlarini aktyorlarga zo'rma-zo'raki o'tkazmasdan, unga yordam beradi. Shundagina aktyorlar o'z kamchiliklarini ixtiyoriy tuzatishga harakat qiladi, obraz uchun kerakli xususiyatlarni bunyod etishga intiladi. Aktyorlarni o'z vaqtida to'g'ri yo'lga solish, obrazning tub mohiyatlarini ochib berish, obraz xarakterini, odatlarini, qiliqlarini to'g'ri topishda aktyorga yaqindan yordam berish rejissyorning asosiy vazifasidir. Aktyorlar bilan to'g'ri ishlash rejissyorlik qobiliyatining muhim o'lchovidir.

Rejissyor ssenariyni to'g'ri tahlil qiladigan, aktyorlar oldida aniq maqsad va vazifalar qo'yadigan, sahnada maqsadga muvofiq harakatni barpo qiladigan, dekoratsiyaning qulay joylashtiradigan boshqaruvchi emas, balki barchasini sinchkovlik bilan kuzata borib, zarur iker-chikirlarni vaqtida tuzatadigan va o'z professional bilimlarini namoyon qiladigan mutafakkir ijodkordir. U o'z tafakkuri va badiiy qobiliyati, ijodiy kuchi bilan dramaturg g'oyasini, aktyorlar qalb haroratini, zamon talabini mujassamlashtirgan holda sahnada jonli jarayon aniq turgan kino asari – film yaratuvchisidir. Bu murakkab jarayonda u bilimidan, hayot tajribasidan, xalq madaniy-badiiy boyligidan, boshqa san'at asarlaridan maqsadga muvofiq foydalana oladigan va mustahkam o'z estetik e'tiqodiga ega bo'lgan ijodkor shaxs.

Ma'lumki, kino san'ati xalq ma'naviyati, yoshlar ongining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ana shu jihatdan ham kinoijodkorlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi. O'z navbatida yuksak ma'naviyat, qadriyatlarga, boy tarixiy an'analarga, alloma ajdodlarga ega xalqimiz uchun san'at asarlari yaratish ikki hissa mas'uliyatdir. Ta'bir joiz bo'lsa, bugungi kunda milliy kino san'ati ijodkorlari yelkalaridagi ana shu mas'uliyatni his qilgan holda kino maydonida shahdam qadamlar bilan ijod etmoqdalar. Milliy kino esa doimo intilish, izlanish va raqobat bilan yuqoriga intilib, rivoj topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abulqosimova X. Kino teledramaturgiya asoslari. – Toshkent: O'zDSMI, 2009-y.
2. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – T.: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009-y.
3. Akbarov H. Adabiyot va kino. – T.: “Fan”, 1981-y.
4. Muhamedov M. Rejissura asoslari. – T.: O'zDSMI, 2008-y.

⁶ Stanislavskiy K.S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. – T.: 1965-y.

O'ZBEK TEATRI TARAQQIYOTIDA IJTIMOY-MADANIY JARAYONLAR TA'SIRI

Annotatsiya. Bugun biz bunyod etayotgan yangi hayot, yangi jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashda teatr san'ati muhim ahamiyatga egadir. Maqolada o'zbek teatri taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy jarayonlar ta'siri haqida so'z yuritilgan. Keltirilgan ma'lumotlar asosida teatrning bugungi kundagi ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni xususida tahliliy fikrlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek teatri, ijtimoiy-madaniy jarayonlar, ijtimoiylashuv, integratsiya, transformatsiya, jadid, modernizatsiya, madaniy aloqalar, spektakl.

ВЛИЯНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ НА РАЗВИТИЕ УЗБЕКСКОГО ТЕАТРА

Аннотация. Театральное искусство играет важную роль в дальнейшем укреплении духовных основ новой жизни, нового общества, которое мы строим сегодня. В статье говорилось о влиянии социокультурных процессов на развитие узбекского театра. На основе представленной информации были высказаны аналитические соображения относительно сегодняшнего значения театра, проделанной работы, его роли в жизни общества.

Ключевые слова: узбекский театр, социокультурные процессы, социализация, интеграция, трансформация, Джадид, модернизация, культурные связи, спектакль.

THE INFLUENCE OF SOCIO-CULTURAL PROCESSES ON THE DEVELOPMENT OF UZBEK THEATER

Abstract. Theatrical art plays an important role in further strengthening the spiritual foundations of a new life, a new society that we are building today. The article talked about the influence of socio-cultural processes on the development of Uzbek theater. Based on the information provided, analytical considerations were expressed regarding the current importance of the theater, the work done, and its role in the life of society.

Key words: uzbek theater, socio-cultural processes, socialization, integration, transformation, jadid, modernization, cultural ties, performance.

Inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEV

Akademik M.Rahmonovning arxeologik topilmalar asosida guvohlik berishicha, qadimgi Markaziy Osiyo sarhadlarida teatr san'ati tarixi, uch ming asrga yaqin vaqt hisobi bilan o'lchanadi¹. M.Rahmonovning o'zbek teatri tarixi haqidagi tadqiqotlari har bir hodisaning ijtimoiy-madaniy kelib chiqish sabablarini chuqur o'rgangani, faktlarni o'zaro solishtirib, ular asosida zarur ilmiy xulosalar qilganligi bilan e'tiborlidir.

Teatrning badiiy taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ta'siri kuzatiladi. Jadidlar teatrga o'zining g'oyaviy ta'sirini olib kirdi. Teatrda badiiy xususiyat birlamchi hisoblanadi, lekin uning g'oyaviy tomonlariga esa ijtimoiy-jarayonlar ta'sir ko'rsatadi. O'zbek teatridagi eng demokratik davr bu jadidlar davri (1920-yillar). Chunki bu davrda



davlatning, hukmron mafkuraning siyosiy ta'siri yo'q. Bu yerda truppalarning g'oyalari bor. 1917-yildan keyin vujudga kelib, 1920-yillar o'rtasida kuchayib 30-yillarda konkret oldiga g'oyaviy dushmanlarga qarshi kurashni elon qilgan jadidlar to'liq mafkuraviy teatni quradi. Ushbu yillarda sahnalashtirilgan Shekspirning **"Gamlet"** asari nimaga xizmat qildi? U jamiyatdagi boy qatlamning mavjud bo'lishiga qarshi edi. U oddiy odamlar tarafdori edi. O'sha davrda sahnalashtirilgan **"Navoiy"** spektakli ham

¹ Rahmonov M. O'zbek teatri: qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar. – Toshkent: "Fan", 1975-y. 284-b.

umuminsoniy fiklari, xalqparvarligi, aksincha, kambag'alparvarlik qilib ko'rsatildi. Navoiyning **"Farhod va Shirin"** dostonidagi aslida podshohning o'g'li bo'lgan Farhod timsoli olib tashlanib, uning mehnati haqidagi qismlar birinchi planga ko'tarildi. **"Layli va Majnun"** dostonida ham bu jarayon kuzatildi. Qahramonlar Qays ham, Layli ham aslida boy qatlam vakillari bo'lishsa-da, bu jihatlar olib tashlanib, doston muhabbat talqiniga aylandi. **"Sab'ai sayyor"**dagi shoh Bahrom ham ichkilikka berilgan, Diloromni yo'q qilgan tentakka chiqarildi va salbiy qahramon qilib ko'rsatildi. 1920-yillarda o'zaro janjallar bo'lmadi. Har kim millatni rivojlantirishda o'zining eng yaxshi topilmalarini qo'yishni boshladi. Kimdir buni xalq og'zaki ijodida ko'rди, ya'ni folklorida **"Tohir va Zuhra"**, kimdir uni insoniylikdan ko'rди, kimdir illatlarni olib chiqdi. Masalan: **"To'y"**, **"Baxtsiz kuyov"**, **"Padarkush"**. Bular ijtimoiy tanqidni badiiy shaklda ko'rsatish bilan boshladi.

XX asrning sovetlar hukmronlik qilgan davri, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida alohida yoritildi. Sovet tuzumi iskanjasidan chiqib, mustaqillikka erishgan o'zbek xalqi qaramlikning salbiy oqibatlarini hayotida, qalbida, ongida yaqqol ko'rib turar, uning asoratlardan xalos bo'lish orqali, o'z kelajagini qurishga intilardi. Shu sababdan, bu davrni qalamga olgan ijodkorlar qahramonlik, ulug'vorlik, buyuklik, qadimiylk kabi g'oyalarni emas, balki tarixdan xulosa chiqarish, qora kunlarning sabab va oqibatlarini mushohada qilish tamoyillarini ilgari surdilar².

Ijtimoiy-madaniy jarayonlar teatrga ta'sir ko'rsatadiki, u turli davrlarda turli yo'nalishda bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatrga ta'siri qanday bo'ldi? Buni qanday tushunish mumkin? Masalan, romantizm va realizm yo'nalishlari tasviriy san'atda paydo bo'ldi. Tasviriy san'atdan keyin adabiyotga o'tgan, adabiyotdan keyin qisman teatrga o'tgan va undan keyin kinoga o'tgan. Endi savol paydo bo'ladi: madaniy jarayonlar qaysi jihatlarida namoyon bo'ladi? Teatrning O'rta Osiyoda vujudga kelishi ijtimoiy-madaniy ta'sirning hosilasi edi. Chunki hech kim dastlab kelib yurtimizda teatr ochish niyatida bo'lmagan, u boylarning ermagi sifatida kirib kelgan. Ya'ni bu dastlab rus

zodagonlarining dala hovlilarida, uylarida rus teatrlari faoliyat yuritgandi. Albatta, bu joylarga hamma kela olmagan, bundan tashqari juda qimmat hisoblangan. Keyinchalik ozorbayjon, tatar, arman teatrlari kirib kelishi boshlandi. Negaki, ularning tili bir, urf-odati, qadriyatlari va mentaliteti yaqin. Ruslardan farqli o'laroq bularniki xalqqa ko'proq ma'qul bo'ldi. Bu albatta, madaniy ta'sir edi. Bu o'zidan o'zi sodir bo'lmadi. Bu yerda 2 ta ta'sirni kuzatishimiz mumkin. Birinchi ta'sir, ijtimoiy jarayonlar vaqtida mustamlaka o'lkada siyosiy mustamlaka bo'lganimiz uchun biz o'sha katta imperiyani bir qismi sifatida oziqlandik. Ikkinchisi, madaniy jarayonlar ta'siri. Jadidlarning paydo bo'lishi Ismoil Gaspiralining faoliyati, odamlar gazeta nimaligini bildi. Gazeta shunchaki ma'lumot manbai emas, u inson tafakkurini rivojlantirishdagi manbalardan biri ekanligi anglandi.

Jahon teatrshunoslik fanida ijtimoiy-madaniy jarayonlarning teatr san'atiga ta'siriga oid ilmiy-nazariy asoslarni yaratish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Mavzu doirasida "Zamonaviy viloyat teatri auditoriyasining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari" K.O.Chepelenko³ dissertatsiyasining asosiy mohiyatini qamrab olgan. Unda zamonaviy viloyat teatrlarining ijtimoiy-madaniy jarayonlardagi ishtiroki, mahalliy rus madaniyatining o'ziga xosligi masalasi chuqur tahlil qilingan. Y.I.Grebenik esa "Teatr jamoatchiligi madaniy hodisa ekanligiga" alohida etibor qaratgan⁴. Madaniyat tarixi va nazariyasi yo'nalishida Didkovskaya N.A.XX–XXI asrlar rus provinsiyalarida teatrning sotsio-madaniy modelini Yaroslav guberniyasi misolida tadqiq etgan⁵, tadqiqotchi L.A.Zaks "Teatr ijtimoiy madaniyat modeli sifatida" nomli maqolasida teatrni zamonaviy madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilgan hamda teatr san'atning bir ko'rinishi sifatida jamiyat ijtimoiy-madaniy muhitini tasvirlashga xizmat qilishi haqida alohida to'xtalib o'tgan⁶.

XX asrning 20-yillari juda murakkab davr bo'lib, unga nisbatan yengil, beryoqlama qarab bo'lmaydi. O'sha davr siyosiy-ijtimoiy holatini anglagan holda imkon qadar xolis munosabat bildirish lozim. Tadrijiy ravishda millat istiqloli sari intilayotgan jadidlarning harakatlarini 1917-yildan bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelish jarayonlari uzib qo'ydi. Bu davr o'zbek teatri, xususan, dramaturgiyasi g'oyaviy (jadidlar hamda sovetlar o'rtasidagi) kurash maydoniga aylandi va qaysidir ma'noda o'zida haqiqiy demokratik tamoyillarni namoyon qildi.

Sho'rolar davrida o'zbek teatr san'ati targ'ibotchilik rolini, kishilarni hukmron mafkura nuqtayi nazaridan tarbiyalash funksiyasini bajardi. Ehtimol shu bois, mumtoz merosga murojaat etishda asarlarning zohiriy tomonlari ko'proq e'tiborda bo'lib, botiniy jihatlariga diqqat qaratilmagandir. Aslini olganda, teatr insonni shaxs sifatida shakllanishiga yordam beruvchi, kishining botiniy his-tuyg'ularini uyg'otish, fikrlash va mushohada qilishi uchun imkoniyat, shart-sharoit yaratib berishga qodir bo'lgan qudratli kuch bo'lmog'i lozim. Bu borada xalq ijodiyoti va mumtoz

² Yakubov B. Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991–2016-y.). San.fan.bo'yicha fal.doktori (PhD) diss. – Toshkent: 2019-y. 77-b.

³ Чепеленко К.О. Социокультурные особенности аудитории современного провинциального театра. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. Саратов, 2008 г.

⁴ Гребеник Е.И. Театральная публика как культурный феномен. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук.

⁵ Дидковская Н.А. Русский провинциальный театр рубежа XX–XXI веков: ярославская социокультурная модель. // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата культурологии по специальности 24.00.02 – историческая культурология. – Ярославль: 2000 г.

⁶ Закс Л.А. Театр как модел социокультуры. // Ярославский педагогический вестник. 2020 г. № 3 (114). С.174–183.

adabiyot munosabatlarini chuqur o'zlashtirishi muhim o'rin tutadiki, ana shunda hayotning butun silsilasi, dramatik, poetik ko'rinishi, oq-qora va turfa ranglardagi ifodasini idrok qilish imkoniyati paydo bo'ladi⁷.

Yangi davr O'zbekiston teatr san'atining umumiy holati asosiy yo'nalish va tendensiyalari jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va ustuvor vazifalari, amaldagi teatr tarmog'i modelini aniqlash teatr-tomosha muassasalarida menejment iqtisodiyot masalalarini ko'rib chiqish, turli yo'nalishdagi teatrning repertuarlari, sahnalashtirilgan muhim spektakllarning tahlili asosida teatr san'ati sohasida yangilanish jarayonini kuzatish hamda teatr san'atida ijodiy, tashkiliy-iqtisodiy ishlarining o'zaro bog'liqligini bilish orqali o'zbek teatr san'atida ro'y bergan o'zgarishlarni bilishimiz mumkin. Bu borada ko'plab olimlar tadqiqot olib borishgan. Avvalo, bu borada, xorijda amalga oshirilgan ishlarga to'xtalamiz. Jumladan, teatr san'ati yo'nalishida N.R.Frolova o'zining "Rossiya repertuar dramatik teatri zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarda: tashkiliy-ijodiy jihatlari" nomli dissertatsiyada XX asr oxirida Rossiya repertuar teatri boshidan kechirgan tizimli inqiroz sabablari va ularni aniqlash masalalari tahlil qilingan⁸.

Uzoq yillik mashaqqatlardan so'ng, biz erishgan mustaqillik teatr san'atida uzoq yillik tarixga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy jarayonlarning yangi davrini boshlab berdi. Yangi siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar teatr san'atining ham yangicha tamoyillar asosida rivojlanishini talab qilishi, tabiiy ahamiyat kasb eta boshladi. Xususan, mafkuraviy yangilanishlar davrida zamon va tarixga obyektiv

munosabat bildirish talabi qo'yildi. Taraqqiyotning bozor iqtisodiyoti yo'liga o'tgan jamiyatning teatrga munosabati va zamonaviy jarayonlarning badiiy ijodga ta'siri oldingidan o'zgacha ko'rinish oldi. Bu esa, mustaqillik davri ijtimoiy-madaniy jarayonlarida teatr san'atining tutgan o'rnini, dastavval, uning tarixiy-nazariy xususiyatlari asosida ko'rib chiqish va tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyotida teatrlar rivojiga ham jiddiy e'tibor qaratilib, o'z o'rnida adiblar, dramaturglar, rejissyorlar, aktyorlar, umuman teatr san'ati fidoyilari zimmasiga bajarilishi lozim bo'lgan mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda. Shu tufayli bugungi kunda teatr san'atining ahamiyati nihoyatda yuksak va muhimdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatimiz fuqarolarini, ayniqsa, yurtimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, qat'iy iroda va e'tiqodga ega shaxslar qilib tarbiyalashdan iborat. Bu esa teatr san'atining hozirgi holati, undagi mavjud muammolar va ularning yechimlarini aniqlash, soha kelajagiga daxldor masalalarni tadqiq etish mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir davrdagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar o'zbek teatrining rivojlanishi uchun ta'sir ko'rsatdi. Shuning asosida spektakllar sahna yuzini ko'rtdi. Aynan bugungi kun o'zbek teatrida sahnalashtirilgan spektakllar ham g'oyaviy-badiiy jihatdan puxta, shaklan va mazmunan yaxlit bo'lishi barobarida sahna qonuniyatlari asosida yaratilishi va eng asosiysi tomoshabinning estetik didini oshirish, ma'naviy ozuqa berish va zavq ulashishga xizmat qilishi zarur.

⁷ Tojiboyeva O. Epos va teatr (Birinchi kitob). – T.: "San'at", 2015-y. 236-b.

⁸ Фролова Н.Р. Российский репертуарный драматический театр в условиях современной социокультурной ситуации: организационно-творческие аспекты. Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата искусствоведения. – Москва: 2017 г.

YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDA MILLIY MA'NAVIYATNING O'RNI

Annotatsiya. Yoshlarda ta'lim-tarbiyani shakllantirishdagi muhim omillardan biri bu – milliy madaniyatimiz va ma'naviyatimiz hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy madaniyatimiz, ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizning yoshlar tarbiyasidagi o'rni haqida atroflicha fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, ma'naviyat, milliy madaniyat, qadriyat, renessans, milliy o'zlik, jamiyat, insonparvarlik, transformatsion jarayonlar.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. Одним из важных факторов формирования образования молодежи является наша национальная культура и духовность. «В этой статье подробно изложены мысли о месте нашей национальной культуры, духовности и ценностей в воспитании молодежи.

Ключевые слова: молодежь, духовность, национальная культура, ценности, Возрождение, национальная идентичность, общество, гуманизм, трансформационные процессы.

THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY IN YOUTH EDUCATION

Abstract. It would be wrong to say that one of the important factors in the formation of youth education is our national culture and art. That's why this article talks about the place of our national culture and values in the education of young people and gives detailed thoughts.

Key words: youth, national culture, value, renaissance, national identity, society, humanitarianism, transformational processes.

Yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash biz uchun eng muhim masalalardan biridir.

Sh.M.MIRZIYOYEV

Hozirgi globallashuv jarayoni hayotimizga tez kirib kelmoqda. Globallashuv bu, avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jarayonida, davlatlar o'rtasida turli xil integratsiya va hamkorlikning kuchayishi, zamonaviy axborot texnologiyalari hamda ilm-fan yutuqlarining tezda tarqalishi, xalqlar o'rtasidagi muloqotning yangicha sifat kasb etishi, o'zaro hamkorlik imkoniyatlarining yuzaga kelishi hisoblanadi¹. Shunday davrda kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlarimizni jahondagi integratsion jarayonlarga tayyorlashimiz, ularning milliy mafkurasini har xil buzg'unchi g'oyalardan saqlashimiz, ularda milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va san'atimizga xos bo'lgan immunitetni oshirish uchun yoshlarimizni ta'lim va tarbiyasiga alohida e'tibor berishimiz lozim. Albatta, yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasida milliy madaniyatimiz, urf-odatlarimiz, qadriyat va san'atimizning o'rni katta. Sababi, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ijtimoiy taraqqiyotning ma'naviy va o'zligimizga xos bo'lgan dominantini topish, passivlik, konformizm va pessimizm ruhini yengish, yoshlar ongi va qalbida o'zini to'laqonli ro'yobga chiqarish istagini uyg'otish juda muhim.

Darhaqiqat, milliy ma'naviyatimiz Uchinchi Renessans poydevori sifatida xalqimizning yengilmas yuksak ma'naviy olamini yanada yuksak darajaga ko'tarish uchun xizmat qiladigan poydevor sifatida e'tirof etilmoqda. Bugun rivojlangan ijtimoiy tarmoq va takomillashgan texnologiyalar asosida o'sib kelayotgan yoshlarimiz milliy ma'naviy va madaniy makon ta'sirida bo'lishlari shart. Chunki yoshlarimiz Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasini yaratish uchun bugungi kunda jamiyatimizdagi real ma'naviy holatga nazar tashlashlari kerak bo'ladi. Yanada aniqroq aytganda, aslida bugungi yoshlarimizning ma'naviy va madaniy holati Yangi O'zbekiston ma'naviy qiyofasiga poydevor bo'lishi lozim. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari o'zining har bir chiqishida, barcha asarlarida madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat masalasiga ustuvor ahamiyat berib kelmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat manaviy muhitini barqarorlashtirish va uni axloqiy me'yorlashtirish, ijtimoiy va madaniy yuksalishning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ma'naviy-axloqiy muhitni yanada barkororlashtirishda ma'naviyat va axloq masalasiga alohida e'tibor qaratilishi bilan taraqqiyotning rivojlanish qonuniyatlari tufayli yoshlarni ma'naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalaydi. Zero: *"Biz boshqalarga ergashuvchi emas, balki doimo ergashtiruvchi xalq bo'lib kelganmiz. Bilim, ma'rifat, madaniyat bilan boshqalarga o'rnak bo'lganmiz. Bu – bizning qon-qonimizga singib ketgan, qadriyatimizga aylangan fazilatdir"*². Yangilanayotgan O'zbekiston ijtimoiy munosabatlarida jamiyat ma'naviy

¹ Alimasov V. Madaniyat falsafasi. – Toshkent: 2018-y.

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021-y. 298-b.

muhitini barqaror rivojlantirib borish va uning shaxs kamolotidagi ta'sirini oshirish dolzarb ahamiyatga aylanmoqda.

Ma'naviy va madaniy sohadagi o'zgarishlar yoshlar ko'z o'ngida bo'lib, ularning beixtiyor ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Shuning uchun yoshlarning ushbu muammolarga munosabati masalasi juda keskin va dolzarbdur, yoshlarimizning milliy o'zligini hamda milliy madaniyatimizni shakllanishi uchun asosiy tamoyillar bo'lishi lozim hisoblanadi. Bular esa quyidagilar:

✓ *yoshlarimizni o'zgarishlar yetakchisi sifatida tan olish;*

✓ *madaniy qurilishning samarali yo'nalishlari va dasturlarini ishlab chiqish zarurati;*

✓ *sivilizatsiyalashgan ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlar va milliy qiymat yo'nalishlari tizimini shakllantirish uchun o'tish mexanizmining ta'sirini tan olish va yoshlarimizni ushbu jarayonlarga jalb etish;*

✓ *yoshlarning milliy-madaniy qadriyatlari va idealarini shakllantirish va rivojlantirish zarurati;*

✓ *yoshlarda millatimiz va milliy munosabatlarimiz nazariyasiga oid zamonaviy qoidalar va madaniyat konsepsiyamizga xos bo'lgan barcha bilim va ko'nimalarni o'rgatish;*

✓ *respublikamizdagi barcha milliy madaniyatimiz va san'atimizga xos bo'lgan qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishning umumiy o'ziga xos xususiyatlari tahlilini yoshlar o'rtasida doimiy o'tkazish;*

✓ *zamon bilan hamnafas bo'lgan yoshlarning kasbiy va madaniy ijtimoiy guruh sifatidagi xususiyatlarini aniqlash;*

✓ *butun dunyo tan beradigan Sharq mutafakkirlarimizning yozib qoldirgan asarlari misolida zamonaviy ta'lim muhiti sharoitida yoshlarning qadriyat yo'nalishlari tizimining mazmunini va uning dinamikasi yo'nalishini o'rganish va buni real hayotda aks etishini ta'minlash va boshqalar.*

Jamiyat tobora rivojlanib borgan sari milliy o'zlikni anglash, milliy madaniyatga o'z ta'sirini o'tkazib boradi. Dunyoda nechta millat yoki elat bo'lsa, hammasining o'ziga xos, takrorlanmas madaniyati bo'lib, har birining madaniyati shaklan va mazmunan bir-biridan farq qiladi³. Madaniyatdagi turli-tumanlik ma'lum millat yoki elatning soni oz-ko'pligida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xo'jalik yuritish tarmoqlarining xilma-xilligi, tabiiy va iqlim sharoiti, geografik joylashuvi, ma'naviy turmush tarzi va boshqa qator omillar bilan belgilanadi. Milliy va tarixiy an'analar o'z yo'li bo'yicha, sun'iy ta'sirlarsiz va tazyiqlarsiz kechgandagina, o'z qiyofasini saqlaydi. Sun'iy g'oyalar, qarashlar, tushunchalarni olib kirish, milliy va tarixiy an'analarni o'zgartirishga urinishlar yoki taqiqlar ijobiy natija bermaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yoshlarning madaniy-milliy qadriyat yo'nalishining shakllanishi ko'plab

jahon mafkuraviy tizimlarining tanqidiy holatining namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan butun insoniyat jamiyati qadriyatlaridagi global o'zgarishlar fonida sodir bo'ladi, desak xato gapirmagan bo'lamiz⁴.

Yoshlar faolligini ta'minlashning yana bir muhim yo'nalishi ular ongida milliy urf-odat va an'analarni shakllantirishdir. Milliy urf-odatlar hayotimizning har bir sohasiga singib ketgan bo'lib, bu urf-odatlar bizni aynan qaysi xalq vakili ekanligimizni ko'rsatuvchi izoh, ya'ni bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Xususan, yoshlarda ijtimoiy faollik elementlarini qadriyatlarimiz orqali rivojlantirishda xalqimizning ko'p yillik an'analari, madaniyati, urf-odatlari, milliy bayramlari, boy madaniy va qadimiy merosi o'zining alohida o'rni, ahamiyatiga ega. Ta'lim-tarbiyaning mushtarak olib borilishi, o'zbekona milliy qadriyatlar, an'analar, marosimlar, urf-odatlar bilan chambarchas holda ular ongiga singdirilishi haqiqiy vatanparvar, millatparvar farzandlarni voyaga yetkazadi. Chunki ma'naviy barkamol yoshlarni o'ziga xos bo'lgan milliy urf-odatlar: saxovat, mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, iffat, bosiqlik, ulug'vorlik, sabrlik kabi ma'naviy fazilatlar: mehmondo'stlik, bag'rikenglik, bolajonlilik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat va an'analarda qaror topadi. Shunday ekan, milliy madaniyat va qadriyatlarga hurmat bilan qarash bu millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shilib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi. Qadriyatlarning barcha turlari insonning, ayniqsa, yoshlarning farovon hayot kechirishi, erkin yashashi, ma'naviy-axloqiy kamol topishi uchun xizmat qiladigan vositalar bo'lib hisoblanadi.

Yoshlarning g'oyaviy tarbiyasida insonparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik kabi xususiyatlar faqat konkret-amaliy harakat orqali muayyan mazmun hamda mohiyatga ega bo'lishi mumkinligiga ham e'tibor qaratish darkor. Shunday sharoitda turli halokatli kuchlar, totalitar mafkuralar zarari barham topishiga imkon yaraladi. Buning uchun ta'lim-tarbiyani insonparvarlashtirgan holda uning milliy mafkura bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanishini ta'minlash zarur. Zotan: *"Yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga saqlash – milliy mafkuraning bosh maqsadidir"*⁵. Jumladan, 2018-yilning 28-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4038-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda xalqimiz va yoshlarimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviy qadriyatlari va ma'naviy merosini asrab-avaylash hamda jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlantirish, milliy madaniyatni keng targ'ib etish, uning xalqaro madaniy makonda tutgan o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash maqsadida juda ko'plab ishlar amalga oshirildi.

³ Nishonboyeva Q. Madaniyatning millatlararo va umumbashariy muammolari (O'quv qo'llanma). – T.: "Innovatsiya-ziyo", 2020-y. 192-b.

⁴ To'ychiyeva S. Qadriyatshunoslik. – T.: "Fan ziyosi", 2021-y. 125-b.

Ko'rib turganimizdek, hozirgi qaytarilmas jarayonlarda zamon va tarix bir joyda turmaydi, ammo biz ayni vaqtda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi bilan yaqindan shug'ullanmasak, ular ongiga milliy madaniyatimiz va ma'naviy qadriyatlarimizning xulq-atvorini singdirmasak, sog'lom turmush tarzini ommalashtirmasak, jamiyat tanazzuliga aylanadi. Bu muammoni hal qilish uchun jamiyatdagi barcha shaxslar Prezidentimiz hamda hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qaror, farmon va qonunlarni, ya'ni 2016-yil 14-sentyabr kuni imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-

son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentyabrdagi 736-son "Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyundagi 310-son "2022–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil

3-oktyabrdagi 558-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amaliyotga tatbiq etish hamda bajarish samaradorligini oshirsak, kelajak avlod, hech qachon adashmaydi, balki milliy qadriyatlarimiz hamda madaniyatimizni asrab-avaylashga o'z hissasini qo'shadi.

VII BO'LIM

E'TIROF

Ibrohim ABDURAHMONOV,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

SAHNA EPOPEYASI USTASI

(O'zbekiston xalq rassomi Muborak Yo'ldoshevning 90 yilligi oldidan)

Annotatsiya. Maqolada teatr bezagi sohasida o'z dastxatiga ega bo'lgan musavvir, sahna epopeyasining asoschisi, opera va balet asarlariga betakror eskizlar yaratgan ijodkor, sahna bezaklarining mohir ustasi, ustoz san'atkor, O'zbekiston xalq rassomi Muborak Yo'ldoshevning ijodiy portretiga oid ma'lumotlar ilmiy umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: eskiz, teatr bezagi, maket, butaforiya, sahna libosi, rangtasvir, epos, doston, opera, balet, portret.

МАСТЕР СЦЕНЫ ЭПОПЕИ

(К 90-летию Народного артиста Узбекистана Мубарака Юлдашева)

Аннотация. В статье научно обобщены сведения о творческом портрете Муборака Юлдашева, народного артиста Узбекистана, художника, имеющего свой почерк в области театральной декорации, основоположника сценического эпоса, создателя уникальных эскизов к оперным и балетным произведениям, искусный мастер-художник.

Ключевые слова: эскиз, театральная декорация, макет, реквизит, костюм, картина, эпopeя, опера, балет, портрет.

MASTER OF THE EPIC SCENE

(To the 90th anniversary of the People's Artist of Uzbekistan Mubarak Yuldashev)

Abstract. The article scientifically summarizes information about the creative portrait of Muborak Yuldoshev, People's Artist of Uzbekistan, an artist with his own signature in the field of theatrical decoration, the founder of the stage epic, the creator of unique sketches for opera and ballet works, and a skilled master artist.

Key words: sketch, theatrical scenery, layout, props, costume, painting, epic, opera, ballet, portrait.

Taniqli musavvir, O'zbekiston xalq rassomi Muborak Yo'ldoshev hayot bo'lganida bu yil roppa-rosa 90 yoshni qarshilagan bo'lardi. Ijodkordan o'zbek milliy rangtasvirida alohida o'ringa ega bo'lgan mingga yaqin epik asarlar qoldi. Hikoyanavislik negizida yaratilgan kartinalarida rassomning uzoq yillik hayotiy tajribasi, kuzatishlari mujassam. Ijodkor mavjud manbalardagi bitiklar, baxshilar hikoyatlarini tinglagan holda o'z tafakkuri asosida eposga oid qahramonlar obrazlarini yaratar ekan, eng avvalo, badiiy ifoda shakli va tasvir usullarining sodda, tushunarli va ommabop bo'lishiga e'tibor qaratadi. Tasvirlanayotgan voqealarga teran mantiqiy yondashishi, qahramonlar qiyofasini ertakona, mubolag'ali yoritishi rassom uslubining o'ziga xosligini belgilaydi. Obrazlarni tasvirlashda xayoliy tasavvurga erk berib, o'z uslubida ularning biron-bir bo'rtirilishiga erisha olgan. Ammo xayoliy tasavvur hayotiy haqiqat bilan uyg'unlashtirilgan. Ularda epik salmoq va bo'g'iq ranglar gammasi

yetakchilik qiladi. Musavvir asarlaridagi bunday xususiyatlar barqaror tizimga ega bo'lib, ular barcha voqealarning asosiy qahramoni bilan bog'liq holda rivojlantiriladiki, buni vatanimiz rangtasviridagi o'ziga xos yangilik deyish mumkin.

Musavvirning umr yo'li ancha murakkab va sinoatlarga to'la. 1934-yil 23-fevral kuni hozirgi Qozog'iston Respublikasining Chimkent shahrida ko'p farzandli Saidlar oilasida dunyoga kelgan. Oilada eng kichik farzand bo'lganligi bois taqdir uni hayot g'ildiragida biroz ertaroq aylanishiga majbur qiladi. Otasi Yo'ldoshxo'ja ibn Saidoqilxon turmush o'rtog'ining vafotidan so'ng kichik o'g'li bilan Tojikiston Respublikasiga ko'chib boradi. Ammo bu yerda ham uning hayot yo'li bir tekis kechmadi. Taqdir uning boshiga turli sinovlarni soldi. Shunday qiyin vaziyatlarda ham ilm olishga intilaveradi.

Dastlabki tahsilni Muborak Tojikistondagi o'rta maktabda boshlaydi. Ko'p o'tmay 107 yoshli otasining



vafotidan keyin Muborakni Dushanbedagi bolalar uyiga topshirishadi. Tarbiyachilar boladagi rassomlik san'atiga bo'lgan qiziqishni ko'rib, uni Dushanbedagi "Kamoliddin Behzod" nomidagi rassomlik texnikumiga tavsiya qiladilar. 1952–1956-yillarda mazkur ta'lim maskanida o'z ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqarish maqsadida tinimsiz izlanadi. 1956-yilda o'qishni a'lo baholar bilan tamomlab, 1962-yilga qadar sobiq Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomchilik (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn) institutining "Teatr bezagi rangtasviri" yo'nalishida o'qishni davom ettiradi. Institutda taniqli rangtasvir ustalari Ch.Ahmarov, M.Saidov, V.Riftinlardan tasviriy san'at sirlarini o'rgana boshlaydi.

1962-yil "**Nasriddin Buxoroda**" spektakliga ishlagan kartinasini diplom ishi sifatida himoya qilib, ustozi V.A.Riftinning maslahati bilan ikki yil Alisher Navoiy nomidagi akademik opera va balet katta teatrida bosh rassom sifatida mustaqil faoliyatini boshlaydi. Shu davr oralig'ida sahna dekoratsiyasining eng taniqli ustasi Meli Musayev bilan birga J.Puchchinining "**Floriya Toska**" operasini muvaffaqiyatli sahnalashtiradi.

1964-yildan Muxtor Ashrafiyning tavsiyasiga ko'ra yangi qurilib o'z faoliyatini boshlagan Hamid Olimjon nomidagi Samarqand viloyati opera va balet teatrida bosh rassom sifatida faoliyatini davom ettiradi. Aslida viloyat teatrlarida ishlovchilarni doimo bir muammo qiynaydi, u ham bo'lsa ijodiy muhit. Ulardagi shart-sharoit bilan poytaxtdagi ijodiy muhit orasida katta farq bor. Samarqand teatrida qanchadan-qancha spektakllarga bezaklar ishlab, o'zini mohir sahna rassomi ekanini ko'rsata olgani bilan baribir ishidan

qoniqmasdi. Ammo ikkinchi tomondan viloyat markazidan uyli bo'ldi. Uylanib, turmush o'rtog'i bilan ikki qiz farzand ko'rdi. To'ng'ichi Nigina otasining izidan borib rassomlik sohasini tanlagan bo'lsa, kenjasi Manzura esa el suygan taniqli xonanda va kinoaktrisadir.

Muborak Yo'ldoshev 1965-yildan respublika va chet mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazmalarda o'z asarlari bilan faol ishtirok eta boshlaydi. Rassomning ijodidagi barcha ijobiy o'zgarishlar bevosita shu teatr jamoasidagi faoliyati bilan bog'liq. Sakkiz yil davomida 18 dan ortiq spektaklning maketidan tortib, barcha sahnalarni badiiy bezashda bevosita ishtirok etgan. Ularning aksariyati xalq dostonlari asosidagi asarlar edi. A.Asafyevning "**Bog'chasaroy favvorasi**", G.Mushelning "**Shopeniana**", "**Kashmirafsonasi**"ga ishlangan sahna bezaklarida rassomning dastxati yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbek xalq dostonlari "**Tohir va Zuhra**", "**Ravshan va Zulxumor**" musiqali komediyasiga ishlangan sahna bezaklari orqali epik mavzularda asar yaratish borasida muayyan tajriba orttiradi. Keyinchalik "**Zafar**", "**Sehrgar muhabbat**" kabi sahna asarlarining bezaklarini chizishda ham o'z uslubini namoyon etadi.

Rassomning kompozitor S.Balasanyan bilan hamkorlikda sahnalashtirgan "**Layli va Majnun**" baleti 1967-yilda Moskvada o'tkazilgan Adabiyot va san'at dekadasi tadbirlarida namoyish etiladi. Uning spektakl uchun tayyorlagan oltita eskizi teatr rassomlarining xalqaro tanlovida eng yuqori bahoga loyiq, deb topildi. Chunki sahna liboslari tarixiy-etnografik asoslarga ko'ra har tomonlama mukammal yaratilgan edi. Majnun obrazi nimiliq rangdagi ochiq saroyda safdoshlari bilan birga chuqur ruhiy kechinmalar girdobida tasvirlanadi. Maydonda jang libosidagi yigitlar o'ng qo'lidagi qilichini tepaga ko'targan holda, chap qo'lidagi qalqonini yon tomonga qaratib raqs harakatlarini bajarayotganday. Ular ustiga sovut kiyib olib, boshiga bir xildagi oq salla o'rashgan. Aksariyat kuchli dinamik harakatda ekanligini ifodalash uchun ularning tashqi plastik holatlariga e'tibor qaratilgani ham ta'sirchan talqin qilingan.

Layli obraziga ishlangan liboslar ham o'zining tarixiy-etnografik asoslariga ko'ra to'g'ri hal etilgan. Sahnada to'rtburchak shaklidagi so'rining ustida uch nafar raqqosa yashil va oq rangli libosda qush kabi yengil harakatlari bilan qo'lidagi oppoq ro'molini tepaga hilpiratib, oyoqlari uchida go'yo sakrayotganday xirom aylamoqda. Bahor nafasini eslatuvchi sahna foni ham oppoq bo'lib, gullagan daraxt novdalari, oq bulutlar, moviy osmon va nimqizil rangli yer-zamin bir-birini to'ldirgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, teatr rassomining imkoniyati kino rassomnikiga nisbatan ancha cheklangan. Kino rassomiga kerakli obyektни tasvirlash uchun kameraning qulayliklari qo'l keladi. Kinoda voqea-hodisa joyi asardagidek tasvirlanadi. Teatr bezakchisi muallif fikrini to'g'ri anglashi va rejissyor kabi fikrlashi lozim. Ularning hamfikrligida to'laqonli badiiy asar yuzaga keladi. Cahnada shartlilik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli rassom

ortiqcha unsurlarni qo'llamasligi, har bir detalning o'z vazifasi, "yuki" bo'lishi zarur. Parda ochilishi bilan tomoshabin o'zini tomosha zalida ekanligini unutishi, rassom yaratgan muhit esa aktyorlarning erkin harakatlanishiga imkoniyat yaratishi lozim. Rassom har doim shu *"temir qoida"*ga amal qilib kelgan.

Rassom 1972-yilda poytaxtga ko'chib keladi. Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutida sakkiz yil talabalarga rangtasvir sirlaridan saboq beradi. Bunda o'z boshidan o'tkazgan tajribalari, hayotiy kechinmalarini, tasavvuridagi obrazni har tomonlama mukammal tasvirlashni bo'lajak rassomlarga singdirib, ijod yo'lining pastu balandliklarini sabr bilan bosib o'tish lozimligini erinmasdan tushuntiradi.

Muborak Yo'ldoshev ijodida xalq eposiga oid mavzu yetakchi o'rin tutadi. Aksariyat kartinalarida epik obrazlar bolalarga mos ertakona mubolag'a va badiiy to'qima bilan o'zaro uyg'unlashtirilgan. *"Go'ro'g'li"*, *"Ko'hna Urganch"*, *"Alpomish"*, *"Avesto"*, *"Xo'ja Hofiz"* turkumida asarlar, *"Amir Temur"* triptixi va boshqalar, shuningdek, portretlar *"Kompozitor Karim hoji"*, *"Ergash Jumanbulbul"*, *"Pulkan shoir"*, *"Islom shoir"* kabilarning qiyofasini mahorat bilan tasvirlaydi. Ijodkorning mahoratli rangtasvirchi va tajribali pedagoglik faoliyati alohida hayotiy sahifani tashkil etadi. U faqatgina teatr bezak yo'nalishida emas, balki ajoyib manzaralar ijodkori sifatida ham katta shuhrat qozongan. Bir qator ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli ishtirok etgan. Bu boradagi ijodining manbai Bo'stonliq tumanining tog'li hududlari, go'zal tabiat ko'rinishlaridir.

Rassomning asarlari asosan bahor, kuz, yoz fasllariga bag'ishlangan. Ularda jo'shqin hayot, yorqin quyoshli kunlar, yoki sokin tabiat, yam-yashil o'tloqlar va ular uzra chaman-chaman bo'lib ochilgan lolazorlar-u gullar go'yo gilam kabi borliqni qoplab olgan ko'rinishlari ifodalangan.

Shuningdek, ko'hna Samarqand shahrining tarixiy binolari va ko'chalari manzaralarini o'zgacha maroq bilan tasvirlagan. Manzara janridagi asarlari orasida



*"Qayumarsning azoblanishi".
(O'lchami: 120x160 sm. Mato,
moybo'yoq. 2001-yil).*



*"Devlar ustidan g'alaba qozongan
Go'ro'g'li".
(Mato, moybo'yoq. 1977-yil).*



*"Turonning buyuk arsloni - Alpomish".
(Mato, moybo'yoq.
O'lchami: 120x160 sm. 1998-yil).*

mavzuli *"Samarqand bozori"*, *"Amir Temur maqbarasi"*, natyurmortlaridan *"Siren"* kompozitsiyasi alohida ajralib turadi.

Ijodkorning kamtarona mehnati hukumat tarafidan ham e'tirof etildi. U 2000-yilda O'zbekiston xalq rassomi yuksak unvoniga munosib ko'rildi. Rassom o'zining ijodida asosan o'zbek xalqining folklori, afsonaviy turmush tarzi va badiiy madaniyatini tasvirlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi va butun umri davomida shunga intilib ijod qildi. Musavvir mashhur dostonlar – *"Go'ro'g'li"* (40dan ortiq asar), *"Alpomish"* (24 ta kartina), *"Zardusht"* (5 ta kartina) kabi asarlar muallifi sifatida katta shuhratga ega edi.

1995-yilda, o'zining oltmish yillik yubileyi arafasida O'zbekiston badiiy Akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida shaxsiy ko'rgazmasini taqdim etgandi. Natijada rassom tasviriy san'at sohasida ko'rsatgan xizmatlari uchun kumush medal bilan taqdirlanadi. Bu e'tibor rassomni yangi marralar sari yetaklaydi. Kuchiga kuch qo'shilib, yanada shijoat bilan yangi asarlar yaratishga kirishadi.

2005-yilda O'zbekiston badiiy Akademiyasining Markaziy ko'rgazmalar zalida muallif 450ta asardan iborat, 2013-yilda esa 520ta asarni o'z ichiga olgan shaxsiy ko'rgazmasini taqdim etganligi vatanimiz madaniy hayotida katta voqeaga aylanadi. Chunki namoyish etilayotgan kartinalarning har biri o'zicha bir olam edi.

Rassom haqida matbuotda unchalik ko'p yozilmagan. Ustoz san'atkor haqida kaminadan tashqari A.Egamberdiyev, E.Rahimovalar tomonidan sanoqli maqolalar yozilgan xolos. Ammo umrining oxirgi yillarida *"Jo'shqin ranglar asiri"* nomli qisqa metrajli hujjatli film suratga olingan. Film rassomning 81 yoshga to'lishi munosabati bilan qizi Manzuraning yelib-yugurishi natijasida maydonga kelgandi.

Ekrandagi voqealar go'yoki tushga o'xshaydi. Tushlarida ham surat chizadigan rassom Muborak Yo'ldoshevning asli dunyoga kelishi ham mo'jiza bo'lib, u dunyoga kelganida otasi 94 yoshda,



"Zardusht payg'ambar".

(Mato, moybo'yoq. O'lchami: 160x180 sm. 2001-yil).

onasi esa 50 yoshda bo'lganligi, **"Go'ro'g'li"** va **"Yoriltosh"** kabi qator sahna asarlari muallifi ekanligi, Muxtor Ashrafiy bilan yelkama-yelka hamkorlikda ishlaganligi, ranglar ustida olib borgan tinimsiz izlanishlari, ularning taftini o'zlashtirishga ketgan umr haqida fikr yuritar ekan, abadiy yashash haqidagi to'rtlik keltiradi. Bu dunyoga kelib faqat qorin g'ami bilan yashash emas, o'z millati, yurti va tarixi uchun ma'naviy yodgorliklarni yaratish bilan

umri o'tadigan ijodkorlar haqidagi film bugungi kunda tarixga aylandi. Bunday insonlar o'z asarlarida abadiy yashaydi. Rangtasvir tarixiga muhrlanib, davrlar osha kelajak uchun qo'ldan qo'lga o'tib, jilolari bilan o'z falsafasini namoyon etayotgan kartinalarida azaliy va abadiy mavzularga murojaat qilingan.

M.Yo'ldoshev teatr rassomi sifatida vatanimiz san'atini rivojlantirishga qo'shgan hissiy beqiyos. Ijod yo'lida o'ziga xos rang-barang mavzudagi asarlarining har biri o'zicha bir olam bo'lishi uchun butun borlig'i bilan harakat qildi. Asarlarida ustozlaridan olgan bebaho saboqlari asosida mustahkam va pishiq g'oyalarga asoslangan sahna bezaklarini rassomning keng mushohadali ijodkor ekanligini yana bor bor tasdiqlaydi. Musavvir ustozlari an'analaridan ijodiy asosda foydalansa-da, ko'pincha o'zining ranglar va hissiyotlarga boy asarlari bilan tasviriy olamini turfa chechaklarga to'ldira oldi. Yaratgan asarlarida kompozitsion yechim, rang, ohang yaqqol sezilib turadi. Badiiy bezaklari orasida harakatga to'la, qabariq, jozibador, ko'p ma'noli, shartli va ramziy mohiyat bilan to'lib toshganlari ham talaygina. U sahnani to'ldirib tashlashni yoqtirmaydi, sahnaning katta qismini bo'shliq sifatida ko'rsata oladi. Liboslarida sharqona rangin naqshlarni aks ettirish orqali bezaklarda milliy raqs, o'yinlar shiddati va aktyorlar harakatini gavdalantirish orqali yaxlitlikka erisha olgan.

Botir MATYOQUBOV,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy
musiqqa san'ati instituti professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi,
Ardaxan (Turkiya) universiteti dr.professori

TO'RT KARRA XALQ ARTISTI OTAJON XUDOYSHUKUROV TAVALLUDINING 80 YILLIGI OLDIDAN

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston, Turkmaniston, Tatariston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Otajon Xudoyshukurov hayoti haqida so'z yuritiladi. Hofiz ijodining ochilmagan qirralari qalamga olinadi.

Kalit so'zlar: doston, Segoh maqomi, mumtoz ashula, Kurd Eshvoyi, Samarqand Ushshog'i, Toshkent Irog'i.

В ПРЕДВЕРИИ 80-ЛЕТИЯ ОТАЖОНА ХУДОЙШУКУРОВА НАРОДНОГО АРТИСТА ЧЕТЫРЕХ РЕСПУБЛИК

Аннотация. В статье рассказывается о жизни Отаджона Худойшукурова, народного артиста Узбекистана, Туркменистана, Татарстана и Каракалпакстана. Делается попытка пролить свет на неизведанные стороны творчества Хафиза.

Ключевые слова: достон, Сегох маком, мумтаз, Курд Эшвой, Самарканд Ушшоғ, Ташкент Ироғи.

ON THE EVE OF 80TH ANNIVERSARY OF FOUR-TIME NATIONAL ARTIST OTAJON HUDOYSHUKUROV

Abstract. This statement talks about the life of Otajon Hudoyshukurov, which is a national artist of Uzbekistan, Turkmenistan, Tatarstan and Karakalpakstan. An attempt is being made to shed light on the unexplored sides of the singer's work.

Key words: dastan, the Segoh makom, classical Ashula, The Eshvoy of Kurd, Ushshok of Samarkand, Irok of Tashkent.

Qo'shiq insonning doimiy hamrohi, ovunchog'i va madadkoridir. Qo'shiq va musiqaning betimsol ruhiy quvvati odamzodni hayotga va ezgulikka chorlab kelgan. Soz chalinganda go'yo inson tanasidagi jon junbushga kelganday goh qo'l, goh oyoq, goh tana harakatlarida, yuz-ko'z ifodasida va ayniqsa, ovozda o'z aksini topadi.

"Avesto" kitobidagi madhiyalar ham qo'shiq shaklida ijro qilingan. Qur'oni karim Rasulullohga ovoz va ohang orqali nozil bo'lgan. Shu sababdan uning oyatlarini qiroatli xushnavoz ovoz bilan tilovat qilish Alloh kalomini ta'sirchanligini oshirgan. Azonni yuqori pardalarda, chiroyli ovozda aytish esa hazrati Biloldan qolganligi ma'lum. Bundan xulosa shuki, odamzod ma'lum bir e'tiqodni, muqaddas g'oyalarni o'ziga, o'zgalarga qudratli so'z, go'zal ohang orqali singdirgan va undan ta'sirlangan.

Xalq orasida: "Alloh tomonidan xushsado go'zal ovoz ato etilgan kishi yarim podshohdur", degan hikmat bor. Otajon Xudoyshukurov ana shunday ne'matdan bahramand bo'lgan insonlardan edi. Uning ovoz imkoniyati yuksak darajada rivojlangan, pastki pardadan eng yuqori avj pardasigacha ikki oktavadan ortiq tovush ko'lamini o'z ichiga olgan, qaysi pardada xonish qilmasin barchasida birdek tovush jarangdorligiga erishgan, chiroyli tembrli, lirik tenor ovozga ega edi. Bunday ovozlari kamdan-kam bo'lsa-da, uchrab turadi. Ammo insonga ato etilgan bu inoyatni asrab-avaylash, tomoqning pay

mushaklarini tarbiyalash, ravon va quvvatli nafas ila rivojlantirish, uni to'g'ri qo'llay bilish, yurak dardini, qalb tug'yonini bunday buyuk ne'mat vositasi bilan mashaqqatli mehnat orqali, yuksak san'at darajasida yuzaga chiqarish va barchani undan bahramand qilish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Otajon aka ana shunday tinim bilmas, qalbi daryo, mehri ummon, Xudoning erka va tanti bandalaridan biri edi, desak xato qilmaymiz. Bunday fazilatlar, avvalo, Alloh tomonidan ato etilgan bo'lib, qolaversa, o'zining tengdosh do'stlari orasida bo'ladigan o'tirishlar, ziyofatlar, bazmlar va davralarda shakllangan. Ayniqsa, bunda amakisi va dastlabki ustozlari Yo'ldosh (Taqir) Olloshukurov, Nazir qori, Jumanazar Bekchonov, Komiljon Otaniyozov va qolaversa, ansambldagi safdoshlarining roli ham katta.

Otajon Xudoyshukurov ashulalarining muxlisi va oddiy bir musiqashunos sifatida uning ijodini ancha kuzatib, o'zi bilan ko'p muloqotda bo'ldim. Konsertlarida tomoshabin sifatida, sahna ortida, to'y va mehmonxonalarda bir shinavanda sifatida ijodini o'rganishga, qo'shiqlarini notaga tushirishga harakat qildim. Nazarimda, Otajon Xudoyshukurov ijodiy faoliyati davomida ijro etgan va yaratgan asarlarni shartli ravishda quyidagicha taqsimlash mumkin.

- Doston yo'llari
- Mumtoz ashulalar
- O'zi yaratgan asarlar



Yuqorida doston qo‘shiqlarini birinchi bo‘lib qo‘yilganining boisi, Xorazm va umuman Amudaryo quyi oqimidan yetishib chiqqan xonandalar o‘z ijodiniing dastlabki bosqichida doston qo‘shiqlariga murojaat etishadi. Bu bejiz emas. Chunki Xorazm dostonchiligi o‘ziga xos bir maktab bo‘lib, Markaziy Osiyo hududida bunday dostonchilik maktabining qiyosi yo‘q. Ushbu maktab baxshilari doston matnini hikoya tarzida, she‘rlarini esa ochiq ovozda, qo‘shiq shaklida (dutor yoki tor, bulomon yoki g‘ijjak, doira) kichik ansambl jo‘rligida ijro etishadi. Mumtoz ashula va maqomlar saroy muhiti va uni tinglashga tayyorgarligi bor muxlisga mo‘ljallangan bo‘lsa, doston qo‘shiqlari birinchi navbatda she‘ri barmoq vaznidagi, barchaga tushunarli, kuy jumalari ham uncha murakkab bo‘lmagan motivlardan tuzilgan, doira usullari oddiy, lekin rivojlanib, maydalanib, jo‘shqinlashib boruvchi, qo‘shiq diapazoni keng ovoz ko‘lamini talab qilmaydigan asarlardir. Ular shakl jihatidan ixcham, o‘ynoqi, avjlari uncha baland bo‘lmagan va o‘rtacha murakkablikdagi qo‘shiqlar bo‘lib, boshlovchi xonandalar uchun dastlabki pog‘ona vazifasini o‘tagan. Otajon aka ham bundan mustasno emas, albatta. Uning yetmishinchi yillari plastinkalarga darj etilgan **“Go‘ro‘g‘li”** dostonidan Og‘a Yunus Pari tilidan aytilgan:

Jonima o‘t soldi ayroliq g‘ami,

Yorni mannan mani yordan ayirdi.

Endi qona do‘ndi ko‘zimning nami,

Yorni mannan mani yordan ayirdi, – qo‘shig‘i o‘sha davrning kattayu kichik shinavandalari yodida muhrlanib, qayerda yursa ham xirgoyi qilinadigan ohanglardan biri bo‘lib qoldi. Yoki shundan sal keyinroq Oshiq G‘arib va Shohsanam dostonidan:

Go‘rdim ikki pari galar,

Galar sallona-sallona.

Oshig‘ining ko‘nglin olib,

Galar sallona-sallona, – nomasi avj

pardalaridan **“O – Hoy”** hangi bilan boshlanib, naqarotlari daromadda qaytariladi. Xususan, Otajonga ergashadigan, ya‘ni yaxshi ma‘noda unga taqlid qiluvchi yoshlar **“sallona”** so‘zidagi **“S”** harfini Otajon akaga o‘xshatish uchun **“Sh”**simon qilib aytishardi (chunki O.Xudoyshukurovda xuddi shunday talaffuz mavjud edi). Shuningdek, Najab O‘g‘lon dostonidan **“Kimni sevar yorisan”**, Bahrom va Gulandomdan **“Ayroliq”**, Avazxondan Baxshi Muxammasiga aytilgan **“Qalandarim”** qo‘shiqlaridagi ehtiros, shijoat va jo‘shqinlik ijrochining doston mazmunini chuqur bilishi, bunday qo‘shiqlarni unutilmas va tinglovchilar qalbidan chuqur joy olishiga muhim omil bo‘lgan, desak yanglishmaymiz.

Doston, kuy va qo‘shiqlari ularning usullari va uslublarini yaxshi bilgan xonanda shu asosda yaratilgan Hoji Abdullaziz Abdurasulov ijodiga mansub **“Bozurgoniy”**, **“Qo‘shchiyor”**, **“Guluzorim”**, shuningdek, **“Kurd Eshvoyi”**, **“Samarqand ushshog‘i”**, **“Toshkent irog‘i”** kabi asarlarni me‘yoriga yetkazib ijro etdi. Buning natijasida, uning xonandalik ijodi tabiiy ravishda tobora sayqallanib, rivojlanib bordi.

O‘tgan asrning 70–90-yillarini Otajon ijodining eng gullagan davri, desak xato bo‘lmaydi. Bu vaqtga kelib, yirik ashulalardan Xorazm Suvoralari va Feruz turkumlarini o‘rganib, ijro etib elga manzur qila oldi. Ayniqsa, Xorazm Segoh maqomidan **“Tani maqom”**ni me‘yoriga yetkazib aytgani Otajon qo‘shiqchilik ijodining gultoji, desa bo‘ladi. Shu sababdan ham bu maqom 1999-yildan boshlab har ikki yilda bir martaba o‘tkazib kelinayotgan Otajon Xudoyshukurov nomidagi respublika tanlovining majburiy dasturi sifatida qabul qilingan edi.

Ustoz san‘atkor ijodiy faoliyati davomida uch yuzdan ortiq qo‘shiq va ashulalar yaratgan. Undan asarlari to‘g‘risida so‘raganimizda: qo‘shiqlar azobli,

ijodiy to'lg'oq (hazil aralash) evaziga dunyoga kelganligini aytib, har birini farzandlaridek ko'rishini va ijod haqida ko'p so'zlagandan ko'ra, ashula aytib berishni ma'qul ko'rar edi. U doim: *"Eng odilona bahoni birinchi navbatda xalq beradi, qolganini davrning o'zi belgilaydi"*, – deb aytardi.

O.Xudoyshekurov ashulalarining parda tizimi o'ziga xos bo'lib, har doim originallikka intilib kelgan va Komiljon Otaniyozov maktabining boshqa namoyandalarinikidan ajralib turadi. Buning sababi, Otajon aka ko'proq mang'itlik Nazir qori va Jumanazar Bekchonov kabi ustozlarga nisbatan katta mehr qo'ygan va hurmati baland edi. Ularning ijodiy yo'li doston kuylari asosidagi yaratuvchilik bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, doston, kuy va nomalarining badiha-improvizatsiyaga moyilligi, ulardagi vazn, parda, usullarning barqarorlik va beqarorlik xususiyatlarini o'z ijodlarida qo'llash, zavqi kelgan paytda torni yuqori (xususan J.Bekchonov va O.Xudoyshekurov *"do"*, *"ga"* sozlangan torni *"re"* pardasiga ko'targanlar) pardalarga sozlab ashula aytish, ular bilan tez-tez muloqotda bo'lish, xabar olish Otajon ustozga xos xususiyat edi. Shuning uchun ham O.Xudoyshekurov o'z ijodida yuqorida nomlari keltirilgan ustozlarga ergashgan holda qo'shiq va ashulalar yaratishga intilgan.

Otajon ustoz yaratgan qo'shiqlar bir-biridan go'zal, bir-biridan maftunkor. Uning har bir asari haqida juda ko'p mulohaza yuritish va fikrlar aytish mumkin. Shu o'rinda **"Jayhun shamollari"** asari ustida to'xtalmoqlikni joiz bildik. Ashulaning so'zini Qoraqalpog'istonning otashnafas shoiri, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim Yusupov yaratgan. Avvalo, she'r haqida qisqacha so'zlaydigan bo'lsak, she'r oddiy barmoq vaznida yozilgan. Unda vatan sog'inchi, el-yurt, fasllar go'zalligi, ijodkor umrining shu tuproq bilan chambarchas bog'liqligi yuksak ehtiros bilan ifodalangan. Shuningdek, she'rda sog'inch va mehr bilan birga umrning bepoyonligi, umrning o'tib borayotganligidan achinish hissi yengil mung orqali tasvirlanadi. She'rdagi ana shu nozik tuyg'ularni yurakdan chuqur anglagan Otajon aka doston qo'shiqlaridan **"Zorinji"** nomasi pardalarida **"Jayhun shamollari"** asarini yaratgan.

Dostonlarda Zorinji pardalar shu nomli qo'shiqlarda aks etgan bo'lib, kichik va orttirilgan sekundlardan tashkil topadi. Mazkur nomalar garchi dutorning bosh yoki o'rta pardalari birinchi bosqichlaridan boshlansa-da, o'rtadagi **"Lol"** pardalar xatlab o'tilib, orttirilgan sekunda (bir yarim ton) va yonma-yon yarim pardalar hosil bo'ladi. Buning natijasida o'ziga xos mungli, zorlanuvchi tovushqator (lad) vujudga keladi. Shuning uchun bo'lsa kerakki, ushbu tovushqatorda chalinadigan va aytiladigan kuy va qo'shiqlar **"Oqsoq Zorinji"** yoki **"Mungli Zorinji"**, ya'ni zorlanuvchi pardalar, deb ataladi. Bu zamonaviy Yevropa musiqiy ilmi II va V bosqichlari pasaytirilgan garmonik minor yoki lokriy ladi deb ham yuritiladi va boshqa lادلarga qaraganda juda kam uchraydi. **"Zorinji"** nomidagi

pardalar, kuy va qo'shiqlar turkman, ozarbayjon, turk doston yo'llarida ham mavjud.

"Zorinji" nomasi ko'pchilik doston voqealari rivojining eng dramatik, qayg'uli, fojiaiy joylarida baxshilar tomonidan qo'llanilgan. Ayniqsa, O'zbekiston xalq baxshilari Bola baxshi – Qurbonnazar Abdullaev, Norbek baxshi – Abdulla Qurbonnazarov, Qalandar baxshi – Normatovlar ijro etgan **"Baziryon"** dostonining avjida Go'ro'g'lining panada turib o'q-yoy bilan Baziryonning ko'kragiga uchta o'q qadagandan keyin tuyalardagi taxtiravon ustidan qulab tushgan Baziryon jon talvasasida faryod chekib: *"Meni yot ellarda qonga belagan odam o'g'li odamzod, kimsan? Do'stmisan, dushmanmisan? Agar mani bu ahvolga solg'aningni Go'ro'g'li og'am bilsa, darhol kelib xunimni olar edi"*, – degan xitobidan keyin dushman so'ziga kirib aldanganini bilib, xuni giryon yig'lab, Baziryonni oldiga borib, Zorinji nomasida Go'ro'g'lini aytib turgan so'zi:

Qurbon bo'lay go'zdan oqqan yoshingga,

Jonima toza o't solding voy-voyey Baziryon.

Dushmona inonib galdim yoningga,

Chiqa olmas dog'a qoldim voy-voyey Baziryon,

– deb pushaymonga to'la dardini kuylaydi.

Baxshilar ijrosida **"Zorinji"** 3/8-2/4 o'lchovida oqsoq, ya'ni lang usul deb ataluvchi doira usulida, bir oktava hajmidagi ovoz kengligida aytiladi. Bu yerda qo'shiqning mungli, qayg'uga to'la, do'st sog'inchi, qahramonning ig'vo orqali aldanib qilgan ishidan pushaymonligi, bundan qalbidagi iztirobi va tug'yoni aks etadi.

Otajon Xudoyshekurov pardalardagi bunday mung va zorlanishni bastakor sifatida yurakdan his qilgan holda shu tovushqatorda, 2/4 o'lchovida, asosi "gum-taq-taq-gum" doira usulining rivojlangan turida, o'rtacha tez sur'atda va faqat Otajonning o'ziga xos bo'lgan bir yarim oktavalik avj pardalarida yangi bir shoh asar yaratgan. Ushbu qo'shiq va pardalar haqidagi fikrni Otajon akaning o'zidan so'raganimizda qisqagina qilib: *"Xalq ohanglarida qulog'imizga nima singib qolgan bo'lsa, shu asosda yaratdik-da"*, – deb kamtarona javob bergan.

"Jayhun shamollari" qo'shig'ida ona vatanga mehr-muhabbat, undan uzoqda bo'lgandagi sog'inch, hayotga bo'lgan chanqoqlik va umrning oqar suvdek o'tkinchi ekanligi aks etgan bo'lsa, avj pardalarida Amuning o'zidek jo'shqinlik va shiddat, pirovardida esa xayollarni umid va orzular og'ushiga eltuvchi mayin shabadani tasvirlashga harakat qilingan, desa bo'ladi.

Men ham Otajon aka bilan oldindan Matrasul ukam Otajon Xudoyshekurovning yonida o'n besh yil hamnafas bo'lib qo'shnay chalganligi tufayli tanish edim. 1994-yil 22-dekabrda Otajon aka og'ir xastalikdan 50 yoshda vafot etdi. Uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida, 1998-yilda Ellikqal'a tumani hokimi Ne'matullo Xudoyberganov uning nomi bilan bog'langan Respublika tanlovini tashkil qilish va o'tkazishda yordam berishimizni so'radi. Bu vazifa Madaniyat vazirligida ishlayotganim uchun mening zimmamga tushdi. Ellikqal'ani **"Duldul"**



otlag‘an” degan joylarga yaqin bo‘lganligidan u yerlarda vujudga kelgan **“Aliqambar”** afsonasi bilan bog‘lashga harakat qilib, **“Qambarning oltin sozi”** nomi bilan shu festivalni tashkiliy guruhi, shartlari, dasturlari va boshqa tashkiliy hujjatlarini ishlab berdim. 1999-yil avgust oyida bu tanlov juda tantanali ravishda bo‘lib o‘tdi va har ikki yilda bir marta o‘tkaziladigan bo‘ldi.

Keyinchalik **“Nafosat bo‘stonim manim”** nomi bilan atalib o‘tkazila boshlandi. Bu festival dastlab faqat an‘anaviy xonandalik janrida boshlangan bo‘lsa, keyinchalik opera xonandaligi, an‘anaviy xonandalik, baxshi va xalfalar san‘ati, estrada qo‘shiqchiligi, tasviriy san‘at, xalq amaliy san‘ati, kulolchilik, haykaltaroshlik va boshqa o‘nga yaqin san‘at turlari namoyandalari orasida eng iqtidorlilarini saralash bo‘yicha katta respublika anjuman tadbiriga aylandi. Unda nomlari hozirda elga tanilgan Soyibjon Niyozov, Ravshan Matyoqubov, aka-uka G‘ofur va G‘ulom Eshchonov va boshqa ko‘pgina yoshlar kashf qilinib, san‘at chamaniga yo‘llanma oldilar. Eng qiziqarlisi festival doirasida mamlakatimizning taniqli shoir hamda yozuvchilari ishtirokida mushoira kechalari, olimlar, el sevgan san‘atkorlar, artistlar va sportchilar bilan uchrashuvlarning o‘tkazilishi festival ko‘lamining yanada kengayishiga olib keldi.

O‘tgan yillar mobaynida Madaniyat vazirligida mas‘ul lavozimlarda faoliyat yuritishim davomida baholi qudrat mazkur festivalning tashkiliy masalalari, ommaviy axborot vositalarida yoritilishi, ba‘zi yo‘nalishlarida hay‘at a‘zosi sifatida Ortiq

Otajonov, Muyassar Razzoqova, Ismoil Jalilov, O‘lmas Rasulov, Abduhoshim Ismoilov, Munojot Yo‘lchieva, Mahmudjon Tojiboyev, Rahmatjon Qurbonov, Gulshod Otaboyeva, Abdunazar baxshi Poyonov kabi taniqli san‘at ustalari bilan birga hay‘at a‘zosi sifatida qatnashdik. Shu festival bois shoirlar, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Jumaniyoz Jabborov, Oshiq Erkin, Omon Matchon, sportchi Birodar Abdurayimov, xalq artistlari Baxtiyor Ixtiyorov, Yoqub Ahmedov, Yodgor Sa‘diev va boshqa juda ko‘plab el sevgan mashhur ijodkorlar bilan birgalikda o‘tkazdik. Bu festival hozirgi kungacha muntazam davom etib kelmoqda.

Haqiqatan ham o‘zagi xalq ohanglarining chuqur ildizlaridan bahra olib yaratilgan asar tinglovchi va shinavandalarni yuragiga yetib boradi, qalb to‘ridan joy oladi va umri boqiylik kasb etadi. Bir kichik maqola doirasida Otajon Xudoyshekurovning butun ijodiy faoliyatini qamrab olish mumkin emas, albatta. U haqida bir qancha risola, maqola, esdaliklar yozilgan va yana yozilajak. Yaratgan asarlari va aytgan qo‘shiqlarini yoshlar o‘quv yurtlarida, havaskorlik jamoalarida, respublika tanlovlarida ijro etib, izlanib o‘rganmoqdalar. Maktablar, ko‘chalar, xiyobon va bog‘lar uning nomi bilan atalmoqda.

El e‘zozlagan san‘atkor o‘z xalqining xotirasidan umrbod o‘chmaydi. Uning jo‘shqinligi misoli Jayhundek betakror ijrochilik san‘ati, qoldirgan merosi, zamon va makon sarhadlaridan umr karvoni mulkida tinglovchilarining ruhiyatiga ozuqa va quvvat bag‘ishlab, yosh ijodkorlarni ilhomlantirib, avloddan avlodga o‘tib borajak.

HOFIZLIK – QO'SHIQ SAN'ATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, milliy qo'shiqchilik darg'alaridan biri bo'lgan Jo'raxon Sultonov haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hofiz, qo'shiqchi, san'at ustasi, ishtiyoq, dutor, patnisaki, grammoфон.

ХАФИЗЛИК – ИСКУССТВО ПЕСНИ

Аннотация. В данной статье речь ведется о Джуррахане Султанове, который был певцом, мастерски исполнявшим национальных песен.

Ключевые слова: хофиз, певец, мастер искусства, желание, дутар, патнисаки, граммофон.

КНАФИЗЛИК – THE ART OF SONG

Abstract. The present article speaks about Djurakhon Sultanov, who was a singer masterly performing national songs.

Key words: khafiz(singer), performer, master of art, dutar, patnisaki, gramophone.

Xalqimiz ardog'idagi hofiz Jo'raxon Sultonov haqida so'z borar ekan, ustozning bolalik yillariga to'xtalmoqlikni o'rinli, deb bildik. Ya'ni Jo'raxon Sultonovning ijodiga doir muallif Sultonali Mannopov va Nabijon Soliyevning "Ko'kardi chaman, gulzorim qani?" nomli kitobining 25-betida ta'rif berilishicha, Jo'raxon Sultonovning tug'ilgan yili 1897-yilga to'g'ri keladi. Uning shogirdi ustoz Ma'murjon Uzoqovning tug'ilgan yili esa, 1914-yil deb ma'lumot berilgan. Hozirgi manbalarda esa Jo'raxon Sultonovning tug'ilgan yili 1903-yil deb keltirilmoqda. Gap shundaki, ularning tug'ilgan yilining orasidagi farq atigi bir yil bo'lishi haqiqatga to'g'ri keladi. Ushbu dalil 1917-yil Farg'ona shahrida mehnat faxriysi Karimjon Rahmatov bilan Jo'raxon Sultonovning suhbatidan ma'lum bo'lgan. Shuningdek, farg'onalik Adusattor ota Aburasulovning aytishicha, u kishi Jo'raxon Sultonov bilan xolavachcha bo'lgan va 1898-yil bir paytda dunyoga kelgan.

Padari buzrukvori Ibrohimjon ota san'atni jon dildan sevuvchi inson bo'lib, Jo'raxon Sultonovni yana bir sevikli san'atkor Ma'murjon Uzoqov bilan yonmayon o'sib katta bo'lganligini eslatib o'tadi. Jo'raxon Sultonov oilada ikki o'g'il farzand bo'lib, onasi Saodat aya ko'p yillar farzanlari uzoq yashamasdan yosh nobud bo'laverganligi tufayli milliy urf-odatga ko'ra, akasi dunyoga kelganda tarozining bir pallasiga yangi tug'ilgan chaqaloqni, ikkinchi pallasiga donni to'ldirib go'dakning og'irligicha donni doyaga berib sotib olganligi ma'lum. Shuning uchun ham chaqaloqqa Sotiboldi, deb ism berishgan ekan. Qarangki shundan so'ng oilada yetuk san'atkor Jo'raxon ustoz dunyoga kelgan. Bunda ham Sotiboldiga ergashib katta bo'lsin degan maqsadda, Jo'raxon deb ism berishgan. Aka-uka dastlab mahallasidagi Yusufjon qoridan uy sharoitida eskicha xat-savod chiqardi.



"Namuna" kolxozi choyxonasida xalq xonandalari (chapdan o'ngga) Yusufjon Qiziq, Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovning chiqishlari.

1938-yil Farg'ona

Ota-onalari ilmi bo'lganligi tufayli maktabga o'qish va yozishni o'zlashtirgan holda qadam qo'ydi. Ilmga bo'lgan intilishi tufayli nazmda Nasimiy, Sa'diy, Hofiz, Umar Xayyom, Lutfiy va Alisher Navoiyning kulliyotlarini bimalol o'qib tushunadigan bo'lib qoladi. Misralarni oxirigacha tushunib yetmasa ham undagi mazmun va ishoralarni anglab yetadigan darajaga boradi.

Shoirarning g'azal, mustazod, muxammaslarini mutolaa qilganda ayrim g'azallarni past ovozda xirgoyi qilishga jazm eta boshladi. Kunlarning birida otasi Ma'murjon ismli bolakayning ovozini eshitib, mahliyo bo'lib qoladi va unga "Ul kun jonon yuzni tobon aylading" radifi bilan boshanadigan ashulani aytib beradi. "Xudo xohlasa bir kun kelib katta hofiz bo'lasan. Endi bu yigitcha bilan yaxshilab o'rtoq bo'lib ol, ismi Jo'raxon", deb tanishtirib qo'yadi. Qo'llarini

duoga ochib: *“Shu kundan boshlab yuzlaringni bir-biringga Yaratganning o‘zi issiq ko‘rsatsin. Tug‘ishgan birodarlardek, mehr-oqibatli aka-uka bo‘linglar, unib-o‘singlar”*, – deb yuziga fотиha tortadi. Darhaqiqat bundan keyingi muvaffaqiyatlar padari buzrukvorining yaxshi niyat bilan qilgan duosining ijobatidir.

Azaldan ma‘lumki yurtimizda choyxona madaniyat markazi sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysida, qolaversa, Marg‘ilondagi bunday maskanlarni shunchaki tilga olish mumkin emas. Chunki ko‘plab ilm ahli va fozillar ana shunday maskanlarda saboq olgan, elga tanilgan. Marg‘ilondagi har bir choyxonada o‘zining hofizlari, shoirlari, so‘z ustalari bo‘lgan. Ustoz Jo‘raxon Sultonovning ilk qadamlari ham shu choyxonlardagi bazmi jamshidlar bilan bog‘liq, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yosh Jo‘raxon Madali hofiz, Bolta hofiz, Mamatbobo Sattorov kabi ustozlar bilan ilk bor shu choyxonadagi bazmlarda tanishgan. U birinchi ustoz Madali hofizdan tanbur chalib kuylashni, Boltaboy hofiz va Mamatbobo Sattorovdan patnisaki ashula aytish yo‘llarini o‘rgandi.

San‘atkorning birinchi ustoz Madalibek Rahmatullo o‘g‘li haqida iliq so‘zlar aytish mumkin. Madalibek Rahmatullo o‘g‘li Shahrixon shahrida tug‘ilgan. Dastlabki saboqni usta hofiz va tanburchi Nurxon otadan olgan. U keyinchalik Marg‘ilon shahrida yashagan. Yusufjon qiziq ta‘sirida mashhurlik darajasiga yetgan. 1912-yil Robert Kens firmasi “Abdurahmonbegi” turkumidagi yallalarni plastinkaga jamlagan. U hozirgi kungacha Marg‘ilondagi muzeyda saqlanadi. Madali hofiz 63 yoshida vafot etgan.

San‘at sirlarini egallashida taniqli san‘at ustasi Mamatbuva Sattorovning ham xizmatlari katta bo‘lgan. Shu o‘rinda Mamatbuva Sattorov haqida qisqa ma‘lumot berib o‘tishni o‘rinli bildik. Ya‘ni Mamatbuva Sattorov 1885–1969-yillarda Marg‘ilonda yashab ijod etgan va Farg‘onaning eng suyuqli san‘atkorlaridan biri hisoblangan. Farg‘ona vodiysi ijrochilik maktabi ustasi Madalibekdan ko‘p yallalar o‘rgangan. Bolta hofiz bilan hamnafaslikda ashulalar ijro etgan. Uning mashhur bo‘lishiga otashzabon shoir Ziyovuddin Haziniy to‘raning ta‘siri katta bo‘lgan. *“Chorgoh”*, *“Ushshoq”*, *“Munojot”* singari ashulalarning patnisaki yo‘llarini shu kishidan o‘rgangan. Keyinchalik Toshkentga kelib Shorahim, Shojalil va Mirsoat hofizlar bilan muloqotda bo‘lgan. 1923-yilda Moskvada birinchi qishloq xo‘jalik ko‘rgazmasining O‘zbekiston pavilonida Muhiddin Qoriyoqubov tuzgan etnografik ansambl bilan birga qo‘shiqlar ijro etgan. Jo‘raxon Sultonov bilan hamnafaslikda yovvoyi patnisaki ashulalar ijro etgan. 1937-yil xalq hofizi faxriy unvoniga sazovor bo‘lgan. U 1969-yil 85 yoshda hayotdan ko‘z yumdi.

San‘atkorlar ijodida maxsus ishtiyoq bilan kuylab kelinayotgan *“Ushshoqi Sadirxon”* nomli ashulani



kuylashga ishtiyoqi bo‘lmagan hofiz topilmasa kerak. Sezib turibsizki, ustozning yana bir pirlaridan bo‘lmish Sodirxon hofiz Bobosharipovni eslash o‘rinlidir. Sodirxon hofiz Bobosharipov 1875-yil Xo‘jand shahri Qushbegi mahallasi kosib oilasida tavallud topgan. San‘atkor Buzrukxon to‘radan dutor chalish va ashula aytish sirlarini o‘rgangan. Madkarim hofizdan qo‘shiq aytish sirlarini egallagan. Xo‘janddagi Zohirxon hofiz, Sulaymon Hofiz, To‘raxo‘ja hofiz, Salohjon hofiz, Karimjon hofiz, ota-bola Mirsolih, Mirabdulla, Mirfayoz singari dongdor san‘atkorlar

ijodidan bahramand bo‘lib o‘tdi. Sodirxon 20 yoshida mashhur hofiz bo‘lib yetishdi. U *“Amir nasrulloji”*, *“Kiyik”*, *“Qora tong”*, *“Gulyori shahnoz”*, *“Buzruk”*, *“Qari navo”*, *“Dugohi Husaniy”*, *“Chorgoh”*, *“Sarparda”*, *“Rohbaland”*, *“Dilxiroj”* singari mashhur ashulalarning ijrochisidir. Yuqorida qayd etilgan ashulalar 1905-yil O‘rta Osiyo bo‘ylab etnografik ekspeditsiya uyushtirgan Gofman kompaniyasi tomonidan yozib olindi. 1909-yil esa «Пишуши Амур» grammofon firmasi ham Hofizning bir qator qo‘shiqlarini yozib oldi. Bu san‘atkorning ijodidan Jo‘raxon Sultonov, Orif Alimaxsumov, Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonov, Tavakkal Qodirov singari mashhur hofizlar bahramand bo‘lgan.

1917-yil “Sanoyi nafisa” tashkiloti tuzildi. Bunga Yusufjon qiziq Shakarjonov, Boltaboy hofiz Rajabov, Mamatbobo Sattorov, Usta Olim Komilov, Otaxo‘ja Saidxo‘jayev, Qo‘zixon Madrahimov, Muhammadsaid changchi, Yo‘ldosh madum naychi, Abdurahmon g‘ijjakchilar qatorida Jo‘raxon Sultonov ham a‘zo bo‘ldi. U yerda Muhiddin Qoriyoqubovdan ko‘p narsa o‘rgandi. 1926-yil Marg‘ilonda O‘zbek davlat etnografik ansambli tashkil etildi. Ansamblga Muhiddin Qoriyoqubov rahbarlik qildi.

Kezi kelganda shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, o‘z davrida hukumatni boshqargan Fayzulla Xo‘jayev, Usmon Yusupov, Yo‘ldosh Oxunboboyev, Buzrukxo‘ja Usmonxo‘jayev singari rahbarlar san‘atni xalq ma‘naviyatining boyligi va yuksalishida qudratli kuch ekanligiga alohida ahamiyat bergan. Bunga 1924-yil Muhiddin Qoriyoqubov rahbarlik qilgan “Etnografik ansambl”ning qay tarzda tashkil etilganligini misol keltirish mumkin. Bu asnamblga Tamaraxonim, Yusufjon qiziq, Usta Olim Komilov, Abuqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, To‘xtasin Jalilov singari eng iste‘dodli san‘atkorlar jalb etilgan. Shunda Xudoybergan hofiz Ma‘sumov, Jo‘raxon Sultonov kabi yoshlar ham qabul qilingan. Yangi tashkil etilgan ansamblga esa davlat tomonidan oylik maoshlari to‘lanmagan bir paytda davlat rahbari Fayzulla Xo‘jayevning yordami bilan Qoriyoqubovning sotib yuborilgan uyining puli qaytarib berilgan hamda ansambl qatnashchilarini maosh bilan ta‘minlangan. Fayzulla Xo‘jayev va Yo‘ldosh Oxunboboyevning topshirig‘iga ko‘ra

yangi zamonaviy ansambl bo'y cho'zdi. 1927-yil Moskva, Leningrad, Qozon, Kuybishev, Astraxan, Baku shaharlariga gastrol safarlari uyushtirildi. Gatroldan qaytishda Xorazmda bo'lib, mashhur maqomdon hofiz Hojixon Boltayevdan Jo'raxon Sultonov **"Suvora"**, **"Feruz"** ashula yo'llarini o'rgandi.

1928-yil Marg'ilonda etnografik ansablga asos solingan ijodkorlarga tayangan o'zbek musiqali drama teatri tashkil etildi. Bu teatrga Jo'raxon Sultonov direktor etib tayinlandi. Bu sahnada birinchi o'zbek musiqali dramasi G'ulom Zafariyning **"Halima"** (Halima rolini Halima Nosirova o'ynagan), Xurshidning **"Farhod va Shirin"**, U.Hojibekovning **"Arshin mol-olan"** dramalari sahnada namoiyish etildi. Jo'raxon Sultonov shogirdi Ma'mujon Uzoqov bilan tanishuvida Yusufjon qiziq Shakarjonovning hissasi katta degan taxminlar bor. Ustoz Mam'urjon Uzoqov 1904–1963-yillarda yashab ijod etgan.

1932-yil Jo'raxon Sultonov Toshkentga ko'chib keldi. Bu yerda **"Ey nozanin"** qo'shig'ini Muqimiy she'ri bilan ilk bora ijro etdi. Bu davlatimiz rahbari Yo'ldosh Oxunboboyevning tashabbusi bilan yaratildi. Ma'murjon Uzoqov bilan aytilgan yallaga Tamaraxonim raqsga tushdi. Bu yalla keyinchalik katta sayillarda, kanal qurilishlarida, xalq hasharlarida ham ijro etildi. Jo'raxon Sultonov Toshkentda ko'plab san'atkorlar, xalq artistlari bilan yaqindan tanishdi. Ayniqsa, **"Xalq akademigi"**

nomini olgan Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, bastakor Imomjon Ikromov, xalq sevgan san'atkorlar aka-uka Shojalilovlar bilan yaqin muloqotda bo'ldi. Mulla To'ychi Toshmuhammedov 1866–1945-yillarda yashab ijod etgan.

Endi xalqimiz orasida keng tarqalgan katta ashula xususiga ham to'xtalsak. Dovudiy ovoz sohiblari Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqovning bu borda **"Keldim"**, **"Bog' aro"**, **"Kirib bo'stonni kezzim"** singari ko'plab katta ashulalarini tilga olish mumkin. Bu an'anani taniqli hofiz va bastakor Orifxon Hotamov hayoti va ijodi bilan ham bog'liq, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bastakorning ko'pgina ashulalari shu ustoz ijrolarining ta'siri asosida yaratilganligi ma'lum. Orifxon Hotamov 1927–2002-yillarda yashab ijod etgan.

Ma'lumki, Mahbuba Hasanova, Matluba Dadaboyeva Mahmudjon Tojiboyev, Mahmudjon Yo'ldoshev, Beknazar Do'stmurodovlar shogird sifatida Jo'raxon ustoz yo'llarining davomchilaridir. Biz betakror ovoz sohibi Jo'raxon Sultonov hayoti va ijodiga bir nazar soldik, xolos. Ustoz haqida ko'plab kitoblar, maqolalar yozish mumkin. Fikrimizcha, bu ma'lumotlardan yoshlarimiz san'atning qanchalik mashaqqatli va serzavqliligini his qiladi. Bo'lajak qo'shiqchilar o'tmishda yashab ijod qilgan hofizlarni chuqur o'rganishi, ularni doim yodda saqlashi lozim.

SAHNA NUTQI RAVON BO'LISHIDA BASHORAT BOBONAZAROVANING ILMIY METODIK IZLANISHLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, "Sahna nutqi" kafedrasini dotsenti Bashorat Bobonazarovanning ijodi, ilmiy izlanishlari, fanni o'qitish metodologiyasini chuqur egallashiga oid fikrlar o'rin olgan. Shuningdek, uning ustozlari, hamkasblari va shogirdlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: aktyorlik mahorati, o'qitish metodologiyasi, nutq madaniyati, pedagogik uslub, adabiy til, monolog, dialog, nutq odobi, so'z sehri.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ БАШОРАТ БОБОНАЗАРОВОЙ О БЕГЛОСТИ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Аннотация. В данной статье изложены мысли о творчестве, научных исследованиях и глубоком понимании методики преподавания естественных наук Башората Бобоназаровой, доцента кафедры «Сценическая речь». Обсуждаются также его учителя, коллеги и ученики.

Ключевые слова: актерское мастерство, методика преподавания, культура речи, педагогический метод, литературный язык, монолог, диалог, речевой этикет, магия слова.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL RESEARCH ON STAGE SPEECH FLUENCY BY BASHORAT BOBONAZAROVA

Abstract. This article contains thoughts on the creativity, scientific research, and deep understanding of science teaching methodology of Bashorat Bobonazarova, associate professor of the "Stage Speech" department. His teachers, colleagues and students are also discussed.

Key words: acting skill, teaching methodology, speech culture, pedagogical method, literary language, monologue, dialogue, speech etiquette, word magic.

Sahna nutqi kafedrasida uzoq yillar mobaynida o'qituvchi, katta o'qituvchi va dosent lavozimlarida ishlab, hozirgi kunda nafaqa yoshida bo'la turib yosh avlodning nutqiy bilimlarini oshirish yo'lida tinmay ijod qilayotgan ustoz Bashorat Bobonazarovanning hayoti va ilmiy-ijodiy ishlariga nazar tashlaymiz. Chunki ustoz kafedrada ishlagan davrlarida ma'lum bir metodikaga ega bo'lib, ushbu o'zi yaratgan metodlar orqali talaba-aktyorlarga sahna nutqi sir-asrorlarini o'rgatgan. Bu orqali ko'plab ilmiy izlanishlar natijasida amaliy metodikani nazariyaga aylantirib, respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda va xorijda nashr etiladigan ko'plab matbuotda maqolalar chop etgan. Ayniqsa, sahna nutqi fanini chuqurroq o'rganishga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalari hozirgacha "Sahna nutqi" kafedrasini o'qituvchilari tomonidan o'qib o'rganilmoqda va o'z ijodiy-ilmiy faoliyatlarida foydalanib kelinmoqda.

Dosent Bashorat Bobonazarova 1953-yilda Samarqand shahrida tug'ilgan. O'rta maktabni tugatgach, Samarqand pedagogika bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1973-yili A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent va rassomlik san'ati institutining "Drama va kino aktyorligi" mutaxassisligi bo'yicha o'qishga qabul qilinadi. Ustoz bilan qilgan suhbatimizda, talabalik yillaridagi xotiralar haqida shunday dedi: "Professor Timofeyeva Nina Ivanova va dosent Iseyeva Iza Xanafevna kursida tahsil olar ekanman, aktyorlik sir-asrorlarini puxta o'rganishga harakat qildim. Diplom spektakli sifatida qabul qilingan Rasul Gamzatovning

"Tog' qizi" asarida bosh qahramonlardan biri Ashura obrazini, N.Rasputinning "Fabrika qizlari" pyesasida Tatyana obrazini, I.Fonvizinning "Dunbul boyvochcha" asarida Yerimeyeva obrazlarini yaratganman".

B.Bobonazarova o'zining mahorati, bilimdonligi, matnlarni tez o'zlashtira olish qobiliyati bilan institut professor-o'qituvchilarining e'tiboriga tushgan. Ustozning aytishicha, qoraqalpoq kursi talabalari tomonidan qo'yilgan diplom spektaklida bosh rol ni ijro qilayotgan talaba qiz kasal bo'lib qoladi. Aktyorlik mahorat kafedrasini mudiri Tursunboy Isroilov bosh rolga iqtidorli talaba qiz Bashoratni taklif qilib, bir oy ichida spektaklni tomoshabinlarga taqdim etadi. O'sha kundan boshlab Tursunboy aka Bashorat Bobonazarovani "bizning qahramon, Bashorato'y" deb olqishlagan ekan.

Undagi pedagogik qobiliyatni sezgan kafedra professor-o'qituvchilari uni kafedrada olib qolish taklifini rahbariyatga bildiradi. O'qituvchilikning birinchi yilidanoq bilimdon, mehribon ustozlar, professor Nazira Aliyeva, Sotimxon Inomxo'jayev, Rahim Sayfiddinov, Roziya Usmonova, Zuhra Olimjonova bilan yonma-yon turib, birgalikda talabalarga saboq bera boshladi. "Nazira Aliyeva o'ta talabchan ustoz edi. Meni og'zimdan chiqqan hamma gapni qalin daftar tutib, yozib boring", – deb aytganlarini xotirlaydi Bashorat opa. Suhbat davomida o'sha qalin daftar Bashorat opada haligacha saqlanganligiga va faoliyatida metodik

manba bo'lib xizmat qilganligiga guvoh bo'ldik. Daftardagi yozuvlarga nazar tashlar ekanmiz, unda shunday fikrlarni o'qiymiz. *“Aktyor sahnada odob-axloqda namuna bo'lishi shart. Qo'rqmas botir obrazini o'ynasa-yu, tomoshabin uni olqishlasa, ertasi kuni ko'chada o'ziga nomaqbul bo'lgan xatti-harakatlari bilan jamoatchilikning nafratiga uchrasa, aktyorlik sha'niga to'g'ri kelmaydi”*. Ushbu so'zlarni o'qir ekanmiz, bugungi kun talaba-aktyorlarga ham shu fikrlarni uqtirish ayni muddao ekanini anglaymiz.

Bashorat Bobonazarovanning dastlab pedagogika bilim yurtida o'qigani, yoshlar bilan ishlashi, ularning ichki dunyosini bilishi, bu esa talaba-aktyorlarni tarbiyalashda qo'l kelganligini his qilamiz. O'sha qalin daftarda shevalar xususida ham fikrlar bayon qilingan ekan. *“Turli viloyatlarning o'z shevalari bor. Uni har doim ham spektakllarda ishlatib bo'lmaydi. Lekin joy-joyida ishlatilsa, qolgan vaqtlarda adabiy til meyorlariga qat'iy rioya qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi”*. Bundan tashqari chet tillardan kirib kelgan so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish kerakligi, har bir talaba bu so'zlarni yoddan bilishi zarur, degan fikrlar ham keltirilgan. Ustozning *“Sahna nutqi”* deb nomlangan o'quv qo'llanmasiga nazar tashlasak, unda ko'proq nutq texnikasiga e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Bunda unli va undosh tovushlarni talaffuz qilish uchun o'zlari yaratgan va talabalar uchun foydali bo'lgan mashqlar jamlanmasi diqqatimizni tortadi. Ushbu mashqlar sahna nutqi kafedrasida professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan adabiyotlardagi mashqlardan farqli o'laroq, talabalarning nutqiy kamchiliklarini tezroq anglashi, tushinishi va uni to'g'irlash jarayonlariga aynan mos keladi. Bundan tashqari ushbu qo'llanmada aynan nutqning rivojlanishi uchun muhim aspektlardan bo'lgan maqollar, she'rlar, qichik adabiy parchalar o'rin olganki, uni o'qigan pedagog yoki talaba aynan gap nima haqida borayotganini, undan qanday foydalanish mumkin ekanligini oson anglaydi. O'quv qo'llanmani yaratish Bashorat ustoz uchun oson va jo'n bo'lmagan. Yillar davomida ustozlardan o'rgangan amaliy bilimlari nazariy-metodikaga aylangan bo'lsa ajab emas.

Bashorat Bobonazarova ustozlari Sotimxon Inomxo'jayev, Rahim Sayfiddinlarni eslar ekan, ularning har bir jumalari katta dars bo'lganligini qayd etadi. Masalan, Sotimxon Inomxo'jayev bir talabani artikulyatsiya mashqini bajarmaganligi uchun ko'pchilik o'rtasida turg'izib qo'yib izza qilar ekan. Keyingi safar o'sha talaba mashqlarni xatosiz ko'rsatib berishga harakat qilar va kelgusida bu tanqidga yo'liqmaslik uchun o'z ustida ishlar ekan.

Rahim Sayfiddinov haqida so'zlar ekan, uning she'riyatni tushuntirishga ustaligi, xoh oddiy she'r bo'lsin, yoki g'azal, qat'iy nazar, albatta, talabaga she'rning texnikasidan tortib, mazmun-mohiyatigacha tushunib olishini talab qilganligini aytib o'tadi. *“Mening talabalik davrimdagi ustozim Rahim aka edi. Har bir unli tovushni ochilib turgan turli xil gullarga o'xshatar edi. Talaffuzda ham*

bunga alohida e'tibor berishni talab qilar edi. Adabiy parchalarda so'z zamiridagi bitta emas, bir necha ma'no borligini, pauzalarda esa yashash kerakligini shoshilmasdan tushuntirar, fikrni anglab yetgandan keyin voqealarga o'tish kerakligini va buning uchun pedagogdan sabr-toqat talab qilinishini ko'p bora ta'kidlar edi”, – deb eslaydi Bashorat ustoz.

Bashorat Bobonazarova O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, dosent Zuhra Olimjonova bilan ishlagan davrlarni ham katta qiziqish va hayajon bilan eslaydi. *“Ustozim Zuhra opani qanday tilga olmay, ular bilan ko'p yillar davomida musiqali drama aktyorligi bo'limi talabalari bilan ishladi. Mutaxassislikdan kelib chiqib, aktyor so'zdan qo'shiqqa, qo'shiqdan so'zga o'tish jarayonlarini erinmay ishlar edi. Buning nozik taraflarini faqat Zuhra opamdan o'rganganman. So'z bilan musiqani uzmasdan holatda yashash kerakligi, bu esa obrazni ishonarli chiqishida muhim ahamiyat kasb etishini ham u kishidan o'rgandim. Albatta, nutq texnikasiga ega bo'lgan talaba, shuncha tajribadan so'ng sahna nutqi mahorati jarayonlarini eplay oladi”*.

Professor Maryam Ashurova bilan qo'g'irchoq kurslarida ham ishlab talay ko'zga ko'ringan shogirdlarni yetishtirgan Bashorat opa, aynan bu sohada ham o'ziga xos yutuqlarga erishganliklarini ta'kidlaydi. Chunki qo'g'irchoq guruhlarida ishlashning nozik va diqqatni jalb qiluvchi metodikasi mavjud bo'lib, uni hamma nutq pedagoglari ham o'zlashtira olmaydi. Tabiiyki, aktyorlik kurslarida turli viloyatlardan talabalar kelib o'qishadi. Ularning o'ziga xos shevalari bor. Xorazm viloyati qo'g'irchoq teatri uchun olingan maxsus kursdagi talabalarning shevalarini yo'qotish uchun ancha mehnat qilinganligini ustoz hamon eslaydi.

Aktyorlik mahorati fani bilan sahna nutqi fani chambarchas bog'liq. Qachonki aktyorning nutqiy imkoniyatlari keng bo'lsa, u yaratgan obraz ham to'laqonli va ishonarli chiqadi. Shu o'rinda Bashorat Bobonazarova pedagogik ish faoliyati davomida Nina Timofeyeva, Nazira Aliyevalar bilan bir necha kurslarda hamkorlikda ishlaganligi, professor Lola Xo'jayeva, Hamida Mahmudovalar bilan esa ko'plab spektakllarda sahna nutqi o'qituvchisi sifatida ijod qilganligini alohida ta'kidlash joiz. Ayniqsa, professor Jo'ra Mahmudov bilan birgalikda V.Shekspirning *“Qirol Lir”*, Uyg'un va Izzat Sultonning *“Alisher Navoiy”* va bir necha diplom spektakllarda qilgan ishlarini bot-bot eslaydi. Masalan, *“Qirol Lir”* asaridagi monologlar, dialoglar bilan soatlab ishlangan bunda nutq texnika bilan badiiy so'z uyg'unligi qanchalik bir-biriga yaqin ekanligi, uni ayro ishlatib bo'lmashligini bilish o'rindir. Diplom spektakllarida talabalarga berilgan har bir tanbehni Jo'ra Mahmudov jiddiy qabul qilib: *“Opangizga quloq soling, kamchiliklarni yozib oling, keyin bunday xatolarni takrorlamang”*, – deb aytar ekan.

B.Bobonazarova kafedraning eng faol pedagoglaridan bo'lib, u institut va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda o'ta faol ishtirok etgan. Ustoz o'qigan ma'ruzalar

tinglovchilar tomonidan yuqori baholanib, ko'plab diplom va sertifikatlariga ega bo'lgan. Uning teatr va kino san'ati dolzarb muammolari, yosh aktyorlarni tarbiyalash, ularni katta ijodiy hayotga yo'naltirish bo'yicha ilmiy maqolalari "Teatr" jurnali, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Gulxan" bolalar jurnallarida nashr qilingan. Jumladan, Nazira Aliyeva haqida "Ustozim o'g'itlari", Rahim Sayfuddinov haqida "Ustozimni eslab", Salima Xo'jayeva xaqida "San'atga baxshida umr", Lola Xo'jayeva haqida "Notiqai davron", Shohida Magzumovaning ijodiga bag'ishlangan "Shohida opaning allasi", Iza Iseyeva haqidagi "Mahorat ustasi" nomli maqolalari B.Bobonazarovanning ustozlar o'gitiga qanchalik amal qilgani hamda ularning haqiqiy izdoshi ekanligidan darak beradi.

B.Bobonazarova nafaqat institutda, balki respublika radio va televideniyesida nutq odobiga oid ko'rsatuv va eshittirishlarda "So'z sehri", "Til-dil ko'zgusi" mavzularida ko'plab chiqishlar qilgan. Jamoat ishlarida ham faoliyat yuritgan qahramonimiz uzoq yillar mobaynida institut Xotin-qizlar kengashi raisi vazifasida ishlab, qizlar odobi, yurish-turishi, kiyinish madaniyati, pazandachilik sirlari tanlovlarini o'tkazib, talaba qizlarning hayotlarida kerak bo'ladigan foydali ishlarni o'rgatishga hissa qo'shgan. El sevgan shoiralar Tursunoy Sodiqova, Oydin Hojiyevlar bilan bo'lgan uchrashuv kechalarida san'at, adabiyot, madaniyat, bo'lg'usi aktrisalar uchun muhim ekani ta'kidlangan va esda qolarli suhbatlarga aylangan. "Quvnoqlar va zukkolar", "Qizlar davrasi", "Balli qizlar" tanlovlarini o'tkazishda jonbozlik ko'rsatgan.

Ustozning ishini talabalar yuzaga chiqaradi, ularning ijodlarida ustozning darsi-yu o'gitlari namoyon bo'ladi. Ularni birma-bir sanasak, sanog'imizda adashamiz. Shunday bo'lsa-da, Bashorat Bobonazarovanning bugungi kunda xalq qalbidan joy olgan san'atkor shogirdlarining ba'zilarini tilga olib o'tsak o'rinli bo'ladi. Bular, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, suxandon Shuhrat Qayumov, aktyor va qiziqchi Valijon Shamsiyev, aktirsa Vazira Yunusova, rejissyorlar Sayfiddin Meliyev, Jahongir Ahmedov, Sanjar Shodiyev, qo'shiqchi Nargiza Azimova, aktyorlar Feruz Burhonov, Shukrullo So'fiyev, Mirolim

Qilichev, Laziz Orziyev, Yigitali Mamajonov, Feruza Normatova, Feruza Mustafoyevalardir. Institutda ustoz yo'lini davom ettirayotgan "Aktyorlik mahorati" kafedrasining o'qituvchisi Sevara Radjabova, "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrasining o'qituvchisi Sardor Mannonovlarni g'urur bilan tilga olish mumkin.

Bashorat Bobonazarovanning ilmiy-ijodiy hayotiga nazar tashlar ekanmiz, sahna nutqi fanida o'z metodikasiga ega bo'lgan ustoz, deb bilamiz. "Sahna nutqi" o'quv qo'llanmasidan tortib, turli yillarda chop etilgan ilmiy jurnallardagi tahliliy maqolalarda sohaning o'ziga xos qirralarini o'ta sinchkovlik bilan ochib berganiga guvoh bo'lamiz. Birgina 2006-yilda "Teatr" jurnalida chop etilgan "Shohida opaning allasi" nomli xotirada O'zbekiston SSR xalq artisti Shohida Ma'zumova ijodiga nazar tashlangan, ammo muallif ushbu maqolada Shohida opa o'ynagan rollardan tortib, uning bu sohaga qanday kirib kelgani, O'zbek Davlat drama teatrida 30 yildan ko'proq vaqt mobaynida mehnat qilgani, ustozlari Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov o'gitlarida e'tiqod bilan amal qilgani, bundan tashqari pedagogik salohiyati haqida juda chiroyli fikrlarni bayon qilgan. *"Ana shu yoqimli ovoz, ana shu munis chehra bir umr xotiramizga muhrlanib qoldi"*, – deb maqolaning so'nggida ishlatgan iborasi juda chiroyli ifodalangan.

Bashorat Bobonazarovanning ilmiy-ijodiy va pedagogik hayotiga nazar tashlash, sahna nutqi fani o'qituvchisi bo'laman, degan har bir yosh pedagogga namuna bo'la oladi. Yosh pedaoglarning o'z ilmiy va nazariy bilimlarini oshirishda ustozlar ilmiy salohiyatini o'rganishi va o'zining pedagogik faoliyati davomida qo'llashi foydadan xoli bo'lmaydi. Har bir yosh pedagog sahna nutqi kafedrasiga tamal toshini qo'ygan ustozlar ilmiy salohiyatini o'rganishi, aynan yaratilgan maktabning yo'qolmasligiga bir sabab bo'ladi. Bunday tajribalarni doimo yillar davomida avlodlar kesimida qo'llanilsa, nafaqat o'zbek teatr san'ati, balki radio va televideniye soha xodimlari yaxshi natijalarga erishadi.

O'ramizda qarilik gashtini surayotgan va hamon o'zbek adabiy tilini targ'ib qilishdan charchamayotgan ustozimiz Bashorat Bobonazarovaga uzoq umr tilaymiz va tinimsiz izlanishlar yo'lida toliqmasligini dildan istab qolamiz.

XONANDA KOMILA AMINOVA IJODI

Annotatsiya. Ushbu maqolada, maqom ijro san'atiga beqiyos hissa qo'shgan xonanda Komila (Aminova) Bo'riyevaning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: maqom, ijro, ovoz, diapazon, san'at, kuy, ashula.

ТВОРЧЕСТВО ПЕВИЦЫ КОМИЛЫ АМИНОВОЙ

Аннотация. В данной статье собрана информация о жизни и творчестве певицы Комилы (Аминовой) Бориевой, внесшей большой вклад в исполнительское искусство.

Ключевые слова: маком, исполнение, голос, диапазон, искусство, мелодия, пение.

CREATION OF SINGER KOMILA AMINOVA

Abstract. This article contains information about the life and work of the singer Komila (Aminova) Boriyeva, who made a great contribution to the art of performance.

Key words: status, performance, voice, range, art, melody, singing.

Komila Aminova 1957-yil 2-yanvarda Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumani, Begvachcha qishlog'ida ishchi oilasida tug'ilgan. Bolalik chog'ida ilk bora kuylagan "Saman toychoq" qo'shig'i uning murg'ak qalbida san'atga, musiqaga mehr uyg'otdi. U 1963-yil 2-o'rta maktabga o'qishga bordi. Unga ilk bor qo'shiq kuylash sirlarini muallima Muharramxon Mirzayeva o'rgatadi. O'rta maktabdayoq turli bayramlarda, tadbirlarda o'z ijrosi bilan konsert dasturlarida qatnasha boshlaydi. Komila Aminovadagi nodir iste'dodni sezgan maktab direktori Nuriniso opa tuman miqyosidagi maktablararo o'tkaziladigan tanlovlarda, uchrashuvlarda uni faol qatnashirdi. Yoshligidan el og'ziga tushgan Komila tuman, kolxoz, viloyat miqyosida o'tkaziladigan hosil bayramlarida ham qo'shiqlar aytib, muxlislar qalbidan joy oldi.

O'rtamaktabnitugatmasdan nodir iste'dodsohibasi tuman markazidagi "Tanovar" xalq ansmbliiga ishga qabul qilindi. 1972-1973-yillarda "Kuylang, yosh xonandalar", "Chashma" teleko'rsatuv tanlovlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib, 1-darajali diplom bilan taqdirlanadi. Ansamblda unga Rafiqjon aka, Saida Abdullayeva, Abdulatif Xoldorov, Rahimjon Kamolov, Telman Hasanov, Shokirjon Ergashev ustozlik qilib, yangi-yangi qo'shiqlar o'rgatishadi. Shu ustozlar tashabbusi va yo'llanmalari bilan 1974-yil Toshkent Davlat konservatoriyasining tayyorlov bo'limiga qabul qilindi.

Yoshlik davrlarida qo'shiq kuylagan Komila san'atkor bo'lishni istamagan edi. U ko'proq ingliz tili o'qituvchisi bo'lishni orzu qilardi. Lekin otasi Rasuljon aka: "O'zingdagi qobiliyatni ko'rsata olib, ro'yobga chiqarmasang, Yaratganga ham xush kelmaydi. Har kimga ham bunday qobiliyat berilavermaydi", – degan edi.

Komila Aminova otasining so'ziga qarshi bormadi va Toshkentga yo'l oldi. Tayyorlov bo'limida



kirish imtihonini mashhur san'atkor, xalq artisti Saodat Qobulova qabul qilgan edi. U tayyorlov bo'limining "Akademik xonandalik" kafedrasiga qabul qilindi. Ammo Komila Aminovaga bu san'at yo'nalishi yoqin qiramadi va bir oy bo'lmasdan uyiga qaytib ketish istagi tug'ildi. Shunda Saodat opa: "To'xta, qizim, o'zbekcha ashula aytasanmi?" – deb so'raydi va uning qo'lidan yetaklab ikkinchi qavatdagi "Sharq musiqasi" kafedrasiga olib chiqadi. Xuddi shu payt ustoz Faxriddin Sodiqov sozandalar ansmbli bilan "Nasrulloiy" kuyi ustida mashq olib borayotgan edi. Komila Aminova talabalar ansamblini bir soatlar davomida tinglab o'tirib, allaqanday sehrli ohanglar og'ushida o'zini sarhush sezadi. Uning yuragida ushbu kafedrada qolib o'qishni davom ettirish hissi uyg'onadi. Ha, u o'zini juda-juda ham baxtli ekanligiga, o'zining yuragiga yaqin ohangni topganiga iqrar bo'ladi. Chunki Komila Aminovaga taqdir buyuk sozanda, zabardast bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Faxriddin Sodiqovdek ustozni ro'baro' qilgan edi¹.

¹ Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. – T.: "Fan". 2007-y.

Sharq musiqasi kafedrasining 1-xonanda talabasi bo'lib qabul qilingan. Konservatoriyaning tayyorlov bo'limida o'qish bilan birga ustoz Faxriddin Sodiqov musiqa rahbari bo'lib faoliyat yuritayotgan radio qoshidagi maqomchilar ansambliga borib, u yerdagi yetuk xonanda-yu sozandalar ijrolaridan ham bahramand bo'ladi. Ustoz Faxriddin Sodiqov shogirdi Komila Aminovani haftaning to'rt kunida radio qoshidagi maqomchilar ansambliga chaqirardi. Bu haqda Komila Aminova shunday eslaydi: *“Ustozim meni haftada to'rt marta radioga chaqirardi, men u yerga borib Yunus otaning ish jarayonida qatnashardim va bu mening baxtim edi... O'sha vaqtda maqom ansmbllida buyuk ustozlar ishlashar edi. U vaqtda men ustozlarni unchalik tanimas edim. Tanaffusda Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadiya opa Yusupovalar menga maqom namunalarini o'rgatishar edi. Men maqom ansmblliga borib ansmbll ijrolarini eshitib o'tirar edim va bu menga juda katta yordam berdi va bermoqda”*².

Komila Aminova o'qish davrida maqom namunalaridan “Savti Navo” turkumini, “Shahnozi Gulyor” turkumini, “Savti Sabo” turkumini va oltita “Saraxbor” turkumining barchasini o'zlashtiradi. 1977-yil kuz oyida ustoz Faxriddin Sodiqov og'ir betoblikdan so'ng dunyodan ko'z yumadi. Komila Aminovaga keyinchalik Mahmudjon Muhammedov, O'lmas Rasulov va Shavkat Mirzayevlar saboq beradilar. 1978–1980-yillarda 4-kursda o'qib yurgan vaqtlarida O'zbekiston teleradiosi huzuridagi maqom ansmblliga yosh xonanda va sozandalar jalb etiladi. Shular safida Komila Aminova ham bor edi. 1978–1980-yillardan boshlab, Komila Aminova Toshkent davlat konservatoriyasida o'zining ustozlik faoliyatini boshlagan. Va shu bilan birgalikda radio qoshidagi maqom ansmblliga ishga qabul qilingan. Komila Aminova ansmbldagi faoliyati davomida Shashmaqomning ko'plab namunalarini o'rganadi va o'rgangan asarlarini o'quvchilariga o'rgatadi. Komila Aminovada shunday imkoniyat bo'lganki, ham o'qib, ham ishlab, ham o'qituvchilik faoliyatini birgalikda olib borgan va bu Komila Aminovaning baxti edi.

Ansanblda Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Nafisa To'xtayeva, Rahima Yo'ldosheva, Hadiya Yusupova, Orifxon Hotamov, Ochilxon Otaxonov, Eson Lutfullayev, Is'hoq Katayev, Izro Malakovlardan ko'plab xalq va bastakorlar ijodlariga mansub ashulalar, Shashmaqom ashula turkumlari, Farg'ona-Toshkent maqom ashula yo'llarini puxta o'rganish baxtiga muvassar bo'ldi. U yerda ustozlari Orif Alimaxsumov, Ochilxon Otaxonov, Orifxon Hotamov, Izro Malakov, Hasan Rajabiy, Is'hoq Katayev, aka-uka Vahobovlar, Shokirjon Ergashev, Eson Lutfullayev, Umar Otayev, Turg'un Alimatov, Temur Mahmudov, Abduhoshim Ismoilov, Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadiya Yusupova, Nafisa To'xtayeva, Malohat Dadaboyeva, Matluba Dadaboyeva, Mahbuba Hasanova, Hurriyat Isroilova, Nasiba Sattorovalar bilan birgalikda 28 yil birga ishlaydi.

Ustozlar bilan ishlash jarayonida juda ko'plab xalq ashulalarini, bastakorlik ijro namunalarini va maqom ashula yo'llarini radio fondga yozib qoldirganlar. O'zi ham yakka va ansmbll tarkibida umrboqiy mumtoz navolarni magnit tasmalariga yozdirdi. Komila Aminova radio fondga 70 dan ortiq ashulalarni yozdirgan va bu ijrolar muntazam radio televideniye orqali yangrab kelmoqda. Komila Aminova ustozlaridan maqom ashula yo'llaridan ko'plab namunalarini o'rgangan. Jumladan, Berta Davidovadan “Talqini Bayot” ashula turkumi, “Saraxbori Oromijon” ashula turkumi, “Savti Navo” turkumini, Halima Nosirovadan “Chorgoh I-V”, “Bayot II”, “Dugoh-Husayni III-VII”, Ochilxon Otaxonovdan “Talqini Ushshoq”, Hadiya Yusupovadan “Talqini Segoh” ashula turkumi, Turg'un Alimatovdan “Sarparda”, Eson Lutfullayevdan “Mo'g'ulchayi Segoh”, “Savti Chorgoh” turkumini, Saodat Qobulovadan “G'ofil o'lma” kabi bir qator ashula yo'llarini o'rganadi. Bastakorlar ijodidagi “Jonim mening”, “Kelmadi”, “Sendan ketaman”, “Kel bugunni bayram qilaylik”, “Shoira nidosi”, “Yo'l bo'lsin”, “Yor bilib”, “Bilmading”, “Ko'rmadim”, “O'zgancha” kabi ijro namunalarini radio fondga yozilgan bebaho asarlardir.

Komila Aminova, 1992-yildan konservatoriyada “An'anaviy ijrochilik” kafedrasida yosh mutaxassislariga xonandalik sinfi bo'yicha dars berib kelmoqda. Ko'p yillik san'at sohasidagi mehnatlari inobatga olinib, unga 2005-yil “O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist” faxriy unvoni bilan, 2021-yilda “Madaniyat va san'at fidoyisi” ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Komila Aminova sinfida 300 dan ortiq iqtidorli xonanda shogirdlar yetishib chiqqan. Jumladan: 10 dan ortiq Zulfiya mukofoti sovrindorlari Shahnoza Davronova, Kamola Pardayeva, Mohichehra Shomurodova, 20 dan ortiq “Nihol” mukofoti sovrindorlari Komila Aminova sinfida ta'lim olgan.

Komila Aminova ko'plab maktablarda mahorat darslarini o'tkazmoqda, shu bilan birga shogirdlari bilan sinf konsertlari tashkillashtirib kelmoqda. Komila Aminova viloyatlardagi maqom ansmbllari bilan hamkorlik qiladi va maqom markaziga ham yordam berib kelmoqda. Komila Aminova hozirda Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa institutida va Glier nomidagi ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida o'quvchilarga maqom sirlarini o'rgatib kelmoqda.

Ustoz san'atkor o'z ovozi, ijro dasturlari bilan Xalqaro musiqa festivallarida, Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalida, Mustaqillik, Navro'z bayram konsertlarida va qator xorijiy mamlakatlarning nufuzli sahnalari orqali o'zbek mumtoz musiqa san'atini faol targ'ib etayotganligi bilan hamisha faxrlanadi. U o'z davrining yetuk xonandasidir. Uning ijrosidagi ashula va maqom namunalarini xalq qalbidan chuqur joy olgan. Maqom ansambldagi faoliyati davomida juda ko'plab ashulalarni yozib olishda jonbozlik ko'rsatgan. Shu bilan birgalikda o'zi ham anchagina ijro namunalarini radio fondga yozishga erishgan. Uning ijrosida yangragan ashulalar o'z muxlislariga ega bo'lib, xonanda Komila Aminova har bir ijro etgan asariga boshqacha yondashgan.

Ayniqsa, “Nazm va navo” kechalarida xonanda

² Ustoz Komila Aminova bilan suhbatdan, 2022-yil.

ijrosida yangragan "Savti navo" ashulasi uning ijrosida o'zgacha talqin etilgan. Hazrat Alisher Navoiy g'azaliga bastalangan ushbu ashulani xonanda ijrosida konsert va tadbirlarda bir necha bor tinglaganmiz.

*Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.*

*Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen bahramand etmas.*

*Netay huru pari bazminki qatlim, yo hayotimg'a,
Ayon ul zahri chashm aylab, nihon bu no'shxand etmas.*

*Kerakmas oy ila kun shaklikim, husnu malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.*

*Kerak o'z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug' ko'nglumdin o'zga yerda javloni samand etmas.*

*Ko'ngul uz charxi zolidin firibin yemakim, oxir,
Ajal sarrishtasidin o'zga bo'ynungg'a kamand etmas.*

*Ul oy o'tlug' yuzin ochsa Navoiy tegmasun, deb ko'z,
Muhabbat tuxmidin o'zga ul o't uzra sipand etmas.*

Ushbu g'azal "**Badoye'ul-vasat**" devoniga kiritilgan bo'lib, Navoiyning falsafiy-didaktik qarashlarini ancha yorqin ifodalashi bilan ajralib turadi. Olam turfa hodisalarga boy. Shulardan biri kishi ko'nglining nozikligi bilan bog'liq. Jumladan, hammaga hamma har doim yoqavermaydi, ma'qul kelavermaydi. Navoiy nihoyatda hayotiy muammoni, yechimi og'ir, qiyin masalalarni kun tartibiga qo'yar ekan, ularning poetik ifodasini juda sodda va yengil tarzda hal qiladi. Nega kishi o'ziga ma'qul kishilar bilan hamsuhbat bo'lish uchun ham ko'p qiyinchiliklarga duch kelishi kerak? Buning sabablari ko'p. Shulardan biri, inson o'ziga ma'naviy oziq berishi mumkin bo'lganlarga intiladi. Ammo intiltiruvchining imkoniyatlari intiluvchi istagan darajada bo'lmasligi mumkin.

Ushbu g'azalni tahlil qilinganda, naqadar falsafiy qarashlar mavjudligini guvohi bo'lamiz. Ushbu g'azalning so'ziga bastalangan Navo maqomining 2-guruh sho'balaridan bo'lmish "Savti navo" ashulasi ham o'zining ijro murakkabligiga egadir. Ustoz xonanda Komila Aminova ijrosida bir necha bor konsert va tadbirlarda yangragan ushbu ashulaning ijro tahlilini ko'rib chiqamiz.

Savt so'zi (arabcha – ovoz, tovush) biror cholg'u yoki vokal musiqa asari pardalari va kuy ohangi asosida yaratilgan kuy yoki ashula. Savt usuli 5/4 doira usulida ijro etiladi.

Xonanda ushbu ashulani ovoz imkoniyatidan kelib chiqqan holda 1-oktava mi notasidan ijro etgan. Asarning 1 bandi cholg'u qismi bilan mi notasidan boshlangan va ushbu 1-band asarning daromad qismi hisoblanadi. Xonanda ushbu qismda pastki registrlarda ovozini yo'g'on va to'liq holatda boshqargan. Asarning 2-bandi uning dunasr qismi bo'lib, 1-oktava mi notasidan boshlangan va ashulaning 4-qatorida boshlang'ich pardaga qaytib

tushgan. G'azal so'zlarining tig'iz joylashgani, ashula qismlarining yuqori diapazonlarda bir necha bor takrorlanishi bois, xonandadan mukammal nafasni boshqarish texnikasini, yuqori diapazonli ovozni talab etadi. Shu sababdan "**Savti Navo**" ashulasi o'zining mukammalligi bilan ajralib turadi. Asarning 3-bandi dunasrning davomi bo'lib, 1-oktava si notasidan boshlanadi va bu qism vazmin holatda ijro etilgan. Ushbu bandda xonanda hissiyotini ovoziga bergan. Navo maqomidagi deyarli barcha ashulalar xonandadan yuqori hissiyotni, go'zal nolalarni talab etadi. Shu sababli, ushbu bandda xonanda o'rta registrlarda ovoziga hissiyot bag'ishlagan holda ijro etgan. Ashulaning 4-bandi dunasrning davomi bo'lib, 1-oktava sol diez notasi bilan boshlanadi va 2-oktava do diez notasini zabt etib o'zining boshlang'ich pardasiga qaytadi.

Ushbu band yuqori pardalarda ijro etilgan. Xonanda Komila Aminova ovozinig o'tkirligi, ovoz diapazonining yuqoriligi ushbu ashula ijrosida talab etilgan tamoyillarga to'la mos keladi. Ashulaning keyingi qismi 1-oktava mi notasidan boshlangan, ushbu qism o'rta va yuqori registrlarda ijro etilgan va uning eng yuqori pardasi si notasidir. Asarning 5-bandi 1-oktava si notasidan boshlangan va ushbu bandning eng yuqori notasi do diez notasidir. Bu bandda xonanda Komila Aminova ovozidan ustalik bilan foydalangan. Ashulani tinglaganimizda ashula anchagina murakkabligini, ijrochidan kuch, kuchli ovoz texnikasini talab etishini ko'rishimiz mumkin.

Ashula bandining davomi pastki registrlarda ijro etilib, boshlang'ich parda mi notasiga qaytib tushgan va shundan so'ng cholg'u ansambli ijrosida navo namudi yangragan. Ya'ni ansambl xonandaga ushbu bandda navo namudi ijrosidan darak bergan. 6-band 1-oktava mi notasi bilan boshlanib, yuqori parda 1-oktava si notasiga qarab pog'onama-pog'ona ko'tarilgan va ushbu qismda Navo namudi o'zini namoyon qilgan. Keyingi qismda 6-band 2-marotaba 1-oktava lya notasida yangragan va ushbu qismning eng yuqori notasi do diez notasi bo'lib, ashulaning avj qismi aynan shu bandi hisoblanadi. 7-band ashulaning furovard qismi bo'lib, ashula o'zining boshlang'ich pardasi mi notasiga qaytadi. Ashulada hanglarning ko'p kelishi, so'zlarning deyarli yuqori pardalarda takrorlanishi xonandaga katta mas'uliyat yuklaydi. Xonanda Komila Aminova esa ushbu mas'uliyatni me'yorida bajargan. Ashulani ijro etish jarayonida pastki registrlarda ovozini to'liq va yo'g'on holatda, shira va jozibasini yo'qotmagan holda ijro etishi, ashulaning yuqori registrlarini ijro etganda esa ovozini ustalik bilan boshqarib, ovozinig bor imkoniyatini ko'rsata olishi xonandaning mukammal ijro ekanligidan darak beradi.

Xonanda Komila Aminovanning ovozi tinglaganimizda ovozinig jarangdorligini, diapazon ko'lemi kengligiga guvoh bo'lamiz. Har bir ayol ovoz turlari o'zgacha xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Masalan, messo soprano ovoz turi o'zining ayollarga xos nozikligi, hissiyotlilik bilan ajralib tursa, soprano ovoz turlari esa o'zining jarangdorligi, yuqori

pardalarni qiyinchiliksiz zabt etishi bilan ajralib turadi. Komila Aminovanning ovoz turi soprano ovoz turiga kiradi. Yo'g'on, markaziy va yuqori soprano ovoz turlari ayollarning eng go'zal ovoz turlari hisoblanadi. Yo'g'on soprano ovoz turi sopranolarning eng kuchli va to'liq hajmlisidir. Markaziy soprano ovoz turi esa benihoyat go'zal ovozlardan hisoblanib, unda yo'g'on va yuqori sopranolarning ovoz xususiyatlari mujassamdir. Yuqori soprano ovoz turi esa o'z nomi bilan ham qolgan yo'g'on va markaziy sopranolardan baland eshitiladi. Komila Aminovanning ijrolarini tinglaganimizda uning ovoz turini markaziy soprano ovoz turi, deb aytishimiz mumkin. Markaziy soprano ovoz turida yo'g'on va yuqori sopranolarning xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni, yo'g'on sopranoning ssalobatligi, keng hajmliligi bo'lsa,

yuqori jarangdorligi va harakatchanligi bu ovoz sifatlariga mos keladi. Demak, sopranoning markaziy soprano ovoz turi xarakter jihatidan yo'g'on va yuqori sopranolarning ruhiyatlarini o'zida jamlashtirgan ovoz turidir³.

Xonanda Komila Aminova o'z vaqtida maqom uchun fidokorona xizmat qilgan xonandalar qatoriga kiradi. Mashhur el sevgan hofizalar Berta Davidova, Kommuna Ismoilova, Hadiya Yusupovalar bilan birga ishlash jarayonida ulardan ko'pgina mumtoz maqom namunalarini o'rganadi, ular bilan birgalikda maqom san'atining gullab-yashnashi uchun o'zining beqiyos hissasini qo'shadi. Komila Aminova o'zining ijro yo'liga ega, ustoz xonanda bo'lib, hozirgacha maqom san'atining rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov.S. Hofizlik san'ati. – Toshkent: “Musika”, 2007-y.
2. Bo'riyeva K. An'anaviy xonandalik. – T.: “Musika”, 2018-y.
3. Mamadaliyev F. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2001-y.
4. Qosimov R. An'anaviy ijrochilik. – T.: “Fan”, 2007-y.

³ Isroilova-Qosimova H. An'anaviy hofizlik san'ati. – T.: “Voriz-Nashriyot”, 2007-y.

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi

Nashrga tayyorlovchi:

Ozoda Shobilolova

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug'ani Sodiqov



Bosishga ruxsat etildi: 31.05.2024-yil

Ofset bosma usulda bosildi.

“Arial” garniturası. Bichimi 60×841/8.

Shartli bosma tabog'i 12,25.

Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal “NISO POLIGRAF” MChJ bosmaxonasida chop etiladi.

Manzil: O'rta Chirchiq tumani, “Oq ota” QFY, Mash'al mahallasi, Markaz – 1.